G‘.Z.IKMATULLAYEV



REZERVGA BO‘SHATILGAN HARBIY XIZMATCHILARNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK REINTEGRATSIYASI

Monografiya

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
JAMOAT XAVFSIZLIGI UNIVERSITETI

IKMATULLAYEV G‘AYRAT ZOKIROVICH

REZERVGA BO‘SHATILGAN HARBIY XIZMATCHILARNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK REINTEGRATSIYASI

MONOGRAFIYA

“Pages print” nashriyoti
Toshkent – 2026

UO‘K: 355.291:159.9.072
KBK: 68.49+88.5
I-34
Ikmatullayev G‘.Z.
Rezervga bo‘shatilgan harbiy xizmatchilarning ijtimoiy-psixologik reintegratsiyasi [Matn]: Monografiya / G‘.Z.Ikmatullayev. – Toshkent: «Pages print» nashriyoti, 2026. – 298 b.

Mas’ul muharrir: **Alimardonov Z.Sh.** – “Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta’minlash” kafedrasi boshlig‘i, p.f.b.f.d.(PhD), dotsent, podpolkovnik

Taqrizchilar: **Ravshanov L.O‘.** – O‘zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va mudofaa universitetining Serjantlar tayyorlash oliy maktabi “Milliy iftixor va harbiy vatanparvarlik” kafedrasi boshlig‘i psixologiya fanlari doktori (DSc), professor, polkovnik
Dushanov R.X. – Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universitetining pedagogika va psixologiya kafedrasi mudiri, psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Ushbu monografiyada rezervga bo‘shatilgan harbiy xizmatchilarning fuqarolik muhitiga ijtimoiy-psixologik moslashuvini, ularni reintegratsiya jarayonidagi shaxslararo munosabatlar, oiladagi psixologik muhitga moslashuvini ta’minlashning ilmiy-amaliy hamda nazariy-metodologik jihatlari ilk bor ijtimoiy-psixologik muammo sifatida tahlil qilinadi. Tadqiqotda 735 nafar respondentda harbiy xizmatdan bo‘shatilgan harbiy xizmatchilarni psixologik qo‘llab-quvvatlash, psixologik profilaktika va psixologik korreksiya ishlarining davrlarga muvofiq olib borilishini, rezervga bo‘shatilgungacha bo‘lgan davrda psixologik ishlarni tashkil etishning ilmiy ahamiyati, usullari hamda olingan natijalarning statistik jihatdan tasdiqlangan ma’lumotlar asosidagi ko‘rsatkichlar empirik tahlil etiladi.

Mazkur monografiyadan harbiy xizmatchilar va ularning oilalari bilan ishlovchi komandirlar, barcha oliy ta’lim muassasalarida tadqiqot olib borayotgan mustaqil izlanuvchilar, magistratura tinglovchilari hamda amaliyotchi psixologlar ilmiy tadqiqotlar doirasida foydalanishlari tavsiya etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Kengashining 2026-yil 27-martdagi 8-sonli bayonnomasi bilan nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9910-5497-1-7

© G‘.Z.Ikmatullayev, 2026
© Jamoat xavfsizligi universiteti, 2026
© «Pages print» nashriyoti, 2026

Ushbu kitobni padari buzrukvorim,
pedagog Zokir Ikmatullayevga
bag‘ishlayman

KIRISH

Jahonda kechayotgan beqaror ijtimoiy-siyosiy vaziyat, shuningdek yer sharining turli nuqtalarida bo‘lib turgan harbiy harakatlarning faolligi, «harbiy jozibadorligi» tanlangan instrumentariyning bardoshliligiga hamda safarbarlik masalalarining yechimi bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi. Inson huquqlari bo‘yicha Xalqaro federatsiyasi (FIDH), Truth Hounds tashkiloti va inson huquqlari bo‘yicha Qozog‘iston xalqaro byurosi meta-tahlillariga ko‘ra, Rossiya Qurolli Kuchlari safiga Markaziy Osiyodan 10 000 dan ortiq, Janubiy Osiyodan taxminan 1 800, Afrikadan 1 700 dan 4 000 gacha hamda Lotin Amerikasidan taxminan 1 000 dan 8 000 gacha chaqiriluvchilar qo‘shilgan bo‘lib, xorijlik jangchilar soni 2025-yilning sentabridan 2026-yilning fevraligacha bo‘lgan davrda 30 %dan ko‘proqqa oshganligini ko‘rsatgan[1]. Qurolli kuchlar rezerviga bo‘shatilgan (demobilizatsiya qilingan) shaxslarning ijtimoiy-psixologik va kasbiy reintegratsiyasi masalasiga alohida e’tibor qaratish sobiq harbiy xizmatchilarda tizimli reabilitatsiya va yangi ijtimoiy muhitga adaptatsiya (moslashuv) mexanizmlarining sustligi ularda ijtimoiy deprivatsiya va o‘zlik inqirozini keltirib chiqaradi, bu ularning ijtimoiy-psixologik zaiflashuviga, tayyor harbiy xulq-atvor stereotiplari ta’sirida transchegaraviy qurolli to‘qnashuvlar

[1] Leibova, A., Latsyba, A., Alkhastov, A., Sultanhaliiev, D., Kobakhidze, E., Nuzov, I., & Rharmaoui, K. (2026). Combatants, Mercenaries or Victims of Human Trafficking? Russia’s Exploitation of Foreign Fighters in Its War Against Ukraine (I. Nuzov & M. Tomak, Eds.; Report No. 854a). FIDH & Truth Hounds. https://www.fidh.org/en/region/europe-central-asia/russia/russia-s-war-against-ukraine-thousands-of-foreign-nationals-recruited

va yollanmalik tarmoqlariga qayta jalb etilib ketish (ijtimoiy residiv) xavfini kuchaytirishi bilan muammo dolzarblashmoqda.

Jahondagi yetakchi harbiy ta’lim muassasalari, mudofaa universitetlari va ilmiy-tadqiqot markazlarida harbiy xizmatchilarni xizmatdan keyingi hayotga moslashtirish, ijtimoiy-psixologik reintegratsiya jarayonlarini takomillashtirish hamda veteranlarning fuqarolik jamiyatiga integratsiyalashuvini ta’minlashga qaratilgan ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada rezervga bo‘shatilgan harbiy xizmatchilarning adaptiv resurslarini aniqlash, stressga bardoshlilik va ijtimoiy adaptatsiya darajasini baholash, psixologik himoya mexanizmlari hamda o‘zini o‘zi boshqarish tizimining reintegratsiya samaradorligiga ta’sirini o‘rganish, fuqarolik hayotiga moslashuv jarayonida yuzaga keladigan psixologik va ijtimoiy muammolarni diagnostika qilish, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash omillarini aniqlash hamda reintegratsiya jarayonini prognozlash imkonini beruvchi modelli indekslarni ishlab chiqishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Rezervga bo‘shatilgan harbiy xizmatchilarning ijtimoiy identifikatsiyasi transformatsiyasi, kasbiy va fuqaroviy rollar uyg‘unligi, emotsional barqarorligi, kommunikativ resurslari, psixologik farovonligi hamda ijtimoiy integratsiyalashuv darajasini baholashga xizmat qiluvchi psixodiagnostik mezonlarni takomillashtirish, reintegratsiya jarayonining individual, interpersonal va ijtimoiy determinantlarini aniqlash, moslashuvning diagnostik va prognostik modellarini yaratish zarurati tobora ortib bormoqda. Mazkur holat rezervga bo‘shatilgan harbiy xizmatchilar ijtimoiy-psixologik reintegratsiyasining modelli indekslarini ishlab chiqish va

takomillashtirishni zamonaviy harbiy psixologiyaning dolzarb ilmiy yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilaydi.

Yangi O‘zbekistonda so‘nggi yillarda harbiy xizmatchilarni ijtimoiy himoya qilish, ularni xizmatdan keyingi hayotga moslashtirish, psixologik qo‘llab-quvvatlash hamda fuqarolik jamiyatiga integratsiyalashuvini ta’minlash bo‘yicha zarur tashkiliy-huquqiy asoslar yaratildi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Qurolli Kuchlarni modernizatsiya qilish, harbiy xizmatchilar va ularning oila a’zolarini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, harbiy xizmat nufuzini oshirish hamda harbiy kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirishga qaratilgan farmon va qarorlarida harbiy xizmatchilarni harbiy xizmatdan keyingi davrga tayyorlash, ularning ijtimoiy moslashuvi va psixologik barqarorligini ta’minlash» ustuvor vazifalar sifatida belgilangan[2]. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, Milliy gvardiya, Ichki ishlar vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati, Favqulodda vaziyatlar vazirligi va boshqa kuch tuzilmalari faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlarda «harbiy xizmatchilarning xizmat faoliyati davomida shakllangan kasbiy, psixologik va ijtimoiy salohiyatidan fuqarolik hayotida samarali foydalanish, ularning ijtimoiy moslashuvini qo‘llab-quvvatlash hamda psixologik reabilitatsiya mexanizmlarini rivojlantirish zarurligi« alohida qayd etilgan[3]. Mamlakatimizda inson manfaatlari, ijtimoiy himoya va aholi farovonligini ta’minlashga qaratilgan davlat siyosati doirasida

[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qurolli Kuchlarni rivojlantirish, harbiy xizmat nufuzini oshirish va harbiy xizmatchilarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga oid farmon va qarorlari.

[3] O‘zbekiston Respublikasining «Mudofaa to‘g‘risida»gi Qonuni, «Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida»gi Qonuni hamda harbiy boshqaruv organlari faoliyatini takomillashtirishga oid normativ-huquqiy hujjatlar.

fuqarolarning davlat organlariga murojaatlari, aholi bilan muloqot natijalari hamda harbiy xizmatni yakunlagan shaxslarning ijtimoiy moslashuv bilan bog‘liq muammolari xizmatdan keyingi davrda psixologik qo‘llab-quvvatlash, kasbiy qayta yo‘naltirish, ijtimoiy integratsiya va psixologik moslashuv masalalarining dolzarbligini ko‘rsatmoqda[4]. Mazkur holat rezervga bo‘shatilgan harbiy xizmatchilar reintegratsiyasini kompleks ijtimoiy-psixologik tizim sifatida o‘rganish, uning adaptivlik, stressga bardoshlilik, ijtimoiy adaptatsiya, o‘zini o‘zi boshqarish va psixologik himoya mexanizmlari bilan bog‘liq determinantlarini aniqlash, shuningdek, reintegratsiya jarayonini baholash va prognozlash imkonini beruvchi modelli indekslar tizimini ishlab chiqish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Shu nuqtai nazardan, rezervga bo‘shatilgan harbiy xizmatchilar ijtimoiy-psixologik reintegratsiyasining modelli indekslarini takomillashtirish muammosi nafaqat nazariy, balki muhim amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan dolzarb ilmiy masala hisoblanadi.

[4] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual qabulxonasi, Xalq qabulxonalari, Ombudsman va boshqa davlat organlariga kelib tushgan murojaatlar tahlillari hamda aholining ijtimoiy himoyasiga oid davlat dasturlari materiallari.

I BOB. SHAXS REINTEGRATSIYASINI IJTIMOIY-PSIXOLOGIK MUAMMO SIFATIDA O‘RGANISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

1.1-§. Shaxs reintegratsiyasining harbiy-psixologik jihatlarining ijtimoiy-psixologik tahlili

Rezervga bo‘shatilgan harbiy xizmatchilarning reintegratsiyasi zamonaviy psixologiya fanining strategik yo‘nalishlaridan biri sifatida globallashuv, raqamli transformatsiya va xavfsizlik muhitining murakkablashuvi sharoitida alohida dolzarblik kasb etmoqda. Jahon miqyosida ijtimoiy tizimlarning tezkor dinamikasi, axborot oqimlarining intensivlashuvi hamda mehnat bozorining raqamlashuvi natijasida shaxsning ijtimoiy moslashuvi va o‘zini qayta tashkil etish jarayonlari sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarilmoqda. Bunday sharoitda harbiy xizmatdan rezervga bo‘shatilgan shaxslar alohida ijtimoiy-psixologik guruh sifatida namoyon bo‘lib, ularning fuqarolik hayotiga qayta integratsiyasi ko‘p omilli, tizimli va ko‘p bosqichli jarayon sifatida qaralishini taqozo etadi.

Mazkur muammoning ilmiy murakkabligi, avvalo, harbiy xizmat jarayonida shakllangan qat’iy intizom, jamoaviylik qadriyatlar, barqaror kasbiy identiklik, iyerarxik munosabatlarga asoslangan ijtimoiy rollar tizimi hamda qat’iy reglamentlangan faoliyat tarzining fuqarolik muhitidagi plyuralistik, noaniq va o‘zgaruvchan ijtimoiy munosabatlar tizimi bilan ziddiyatga kirishishi bilan izohlanadi. Bunda harbiydan fuqarolik hayotiga o‘tish nafaqat tashkiliy yoki kasbiy o‘zgarish, balki rezervga bo‘shatilgan harbiy xizmatchilarda identifikatsion dezintegratsiyasi, rollar dissonansi, ijtimoiy aloqalarning qayta konfiguratsiyasi, emotsional-irodaviy zo‘riqishlar va kasbiy o‘zini

qayta belgilash muammolari qayta qurilishini talab etadi. Ayniqsa, raqamli iqtisodiyot sharoitida kasbiy kompetensiyalarning tezkor eskirishi, yangi raqamli koʻnikmalarga boʻlgan talabning ortishi hamda mehnat bozoridagi raqobatning kuchayishi mazkur toifa vakillarining ijtimoiy-psixologik moslashuvini yanada murakkablashtiradi.

Shu bilan birga, amalda rezervga boʻshatilgan harbiy xizmatchilarning reintegratsiya jarayonini baholash va boshqarishda yagona integrativ indikatorlar tizimining yetarlicha ishlab chiqilmaganligi kuzatiladi. Mavjud tadqiqotlarda koʻpincha mazkur jarayonning alohida komponentlari – kasbiy moslashuv, ijtimoiy qoʻllab-quvvatlash yoki psixologik barqarorlik izolyatsiyalangan holda oʻrganilgan boʻlib, ularning oʻzaro bogʻliqligi va tizimli dinamikasi yetarli darajada ochib berilmagan. Bu esa reintegratsiya samaradorligini kompleks baholash, prognozlash va maqsadli psixokorreksion hamda ijtimoiy dasturlar ishlab chiqish imkoniyatlarini cheklaydi.

Shu nuqtai nazardan, rezervga boʻshatilgan harbiy xizmatchilarning ijtimoiy-psixologik reintegratsiyasini koʻp oʻlchovli, dinamik va integrativ tizim sifatida modellashtirish, uning asosiy determinantlarini aniqlash hamda shu asosda ishonchli va valid modelli indekslar tizimini ishlab chiqish dolzarb ilmiy muammo sifatida namoyon boʻladi. Mazkur yondashuv reintegratsiya jarayonini faqat empirik tasvirlash bilan cheklanib qolmasdan, balki uning ichki mexanizmlarini ochib berish, boshqaruvga yoʻnaltirilgan diagnostik vositalarni takomillashtirish va amaliyotga yoʻnaltirilgan ilmiy yechimlarni ishlab chiqish imkonini beradi.

Rezervga bo‘shatilgan harbiy xizmatchilarning ijtimoiy-psixologik reintegratsiyasini ilmiy asoslashda normativ-huquqiy baza muhim metodologik tayanch vazifasini bajaradi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida” [5]gi Qonuni mazkur jarayonning tashkiliy-huquqiy doirasini belgilab, reintegratsiya subektlarining ijtimoiy maqomini aniqlashtiradi. Qonunning V-bobi, xususan 30-moddasida “rezervdagi harbiy xizmatga majburlar yoshiga qarab ikki darajaga bo‘linishi” hamda “ikkinchi daraja rezervida bo‘lish yoshining chegarasi rezervdagi harbiy xizmatda bo‘lishning yakuniy chegarasi hisoblanishi” qayd etilishi harbiy xizmatchining xizmatdan keyingi hayotiy siklini bosqichma-bosqich tartibga soladi. Mazkur meyorlar shaxsning fuqarolik jamiyatiga o‘tish jarayonini vaqt jihatidan chegaralab, uning ijtimoiy transformatsiyasiga institutsional asos yaratadi.

Ushbu huquqiy yondashuvdan kelib chiqib, rezerv maqomining uzoq muddat saqlanib qolishi shaxsning to‘liq fuqarolik identikligiga o‘tishini murakkablashtiruvchi omil sifatida talqin qilinishi mumkin. Chunki qonunchilikda belgilanganidek, “rezervda bo‘lish yoshining chegarasiga yetgan … harbiy xizmatga majburlar mudofaa ishlari organlari tomonidan iste’foga chiqarilib, harbiy ro‘yxatdan chiqariladi”. Demak, aynan ushbu bosqichdan keyin shaxsning harbiy tizim bilan institutsional bog‘liqligi to‘liq barham topadi va uning ijtimoiy maqomi yakuniy ravishda fuqarolik statusiga transformatsiyalanadi.

Shu nuqtai nazardan, rezervda bo‘lish davrini harbiy xizmatdan keyingi “o‘tish bosqichi” sifatida qarash maqsadga

[5] “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat” to‘g‘risida O‘zbekiston respublikasining qonuni V bob, 30-modda Toshkent sh., 2002-yil 12-dekabr, 436-II-son

muvofiq. Mazkur bosqichda shaxs bir vaqtning o‘zida ikki xil identiklik – harbiy va fuqarolik identikliklari o‘rtasida harakatlanadi. Bu holat rollar o‘rtasidagi ziddiyat, identifikatsion noaniqlik hamda ijtimoiy moslashuvdagi qiyinchiliklar bilan xarakterlanadi. Ayniqsa, ijtimoiy aloqalar tizimining qayta shakllanishi, kasbiy o‘zini belgilash zarurati va shaxsiy qadriyatlar transformatsiyasi ushbu jarayonning psixologik murakkabligini yanada oshiradi.

Mazkur muammoning institutsional jihatlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 12-sentabrdagi PQ-4447-son qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining harbiy xizmatni o‘tash tartibi to‘g‘risida Nizom”da yanada aniqlashtirilgan. Unda “rezervdagi ofitser – ofitserlik unvoniga ega bo‘lgan, muqaddam harbiy xizmatni o‘tagan va rezervga bo‘shatilgan harbiy xizmatga majbur fuqaro”[6] sifatida ta’riflanadi. Ushbu ta’rif rezervdagi shaxslarning harbiy tizimdan to‘liq uzilmagan, balki muayyan darajada institutsional bog‘liqlikni saqlab qolgan o‘ziga xos ijtimoiy-psixologik guruh ekanligini ko‘rsatadi.

Natijada, rezervga bo‘shatilgan harbiy xizmatchilarning reintegratsiyasi ikki yoqlama (dual) xususiyatga ega murakkab jarayon sifatida namoyon bo‘ladi. Bir tomondan, ulardan fuqarolik jamiyatiga integratsiyalashish, yangi ijtimoiy rollarni o‘zlashtirish va kasbiy faoliyatini qayta tashkil etish talab etiladi; ikkinchi tomondan esa, huquqiy maqom va ehtimoliy mobilizatsion funksiya ularni harbiy tizim bilan muayyan darajada bog‘lab turadi. Bu holat shaxsda ikki xil identiklikning parallel

[6] “O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining harbiy xizmatni o‘tash tartibi to‘g‘risida” nizom I-bob, 2019-yil 12-sentabrdagi PQ-4447-son

mavjudligiga olib kelib, ijtimoiy rollar dissonansi va psixologik moslashuv muammolarini keltirib chiqaradi.

Shu sababli, rezervga bo‘shatilgan harbiy xizmatchilarning ijtimoiy-psixologik reintegratsiyasini tadqiq etishda mavjud normativ-huquqiy asoslarni kompleks tarzda inobatga olgan holda, mazkur jarayonni ko‘p o‘lchovli, dinamik va tizimli fenomen sifatida tahlil qilish zarur. Ayniqsa, reintegratsiya samaradorligini empirik jihatdan baholashga xizmat qiluvchi modelli indekslar tizimini ishlab chiqish nafaqat ushbu sohadagi nazariy-metodologik bo‘shliqni to‘ldirish, balki amaliyotga yo‘naltirilgan, dalillarga asoslangan boshqaruv qarorlarini shakllantirish imkonini beradi. Bunday yondashuv reintegratsiya jarayonini individual-psixologik, ijtimoiy va institutsional omillar integratsiyasi asosida izohlashni taqozo etadi.

Mazkur ilmiy-metodologik yondashuv rezervga bo‘shatilgan harbiy xizmatchilarning ijtimoiy-psixologik reintegratsiyasini bir yoqlama talqin qilishdan voz kechib, uni ko‘p darajali, dinamik va tizimli fenomen sifatida ko‘rib chiqish zaruratini asoslaydi. Shu nuqtai nazardan, tarixiy manbalarda aks etgan qarashlar shaxsning ijtimoiy tizimdagi o‘rni hamda faoliyatdan keyingi moslashuv jarayonlarini tushuntirishda muhim nazariy asos vazifasini bajaradi.

Ushbu yondashuvda harbiy xizmat shaxsning ijtimoiy maqomi, qadriyatlar tizimi va identitetining muhim determinanti hisoblanadi, readaptatsiya esa jamiyat bilan uzviy aloqadorlikni tiklashga qaratilgan rekonstruktiv jarayon sifatida talqin etiladi. Mazkur konsepsiyaning tizimli ifodasi Amir Temur ning “Temur tuzuklari” asarida namoyon bo‘lib, unda harbiy shaxs faoliyati jangovar samaradorlik va ijtimoiy-madaniy mas’uliyat birligida

koʻriladi. Sarkardaning fikriga koʻra, xizmatdan keyin ham ijtimoiy foydalilikni saqlash – ijtimoiy rol uzluksizligini, sarkardaning mas'uliyati – institutsional qoʻllab-quvvatlashni, ijtimoiy barqarorlik esa readaptatsiyaning makroijtimoiy ahamiyatini ifodalaydi[7],[8].

Bizning fikrimizcha, ushbu tarixiy-psixologik qarashlar zamonaviy ijtimoiy-psixologik kategoriyalar bilan uygʻun integratsiyada talqin etilishi zarur: "ijtimoiy foydalilik" – funksional integratsiya, "sarkardaning mas'uliyati" – ijtimoiy qoʻllab-quvvatlash tizimining prototipi, "ijtimoiy barqarorlik" esa individual readaptatsiya natijalarining jamiyat miqyosidagi sinergetik ifodasidir. Demak, rezervga boʻshatilgan harbiy xizmatchilarning ijtimoiy-psixologik reintegratsiyasi shaxsning harbiy identitetdan fuqarolik identitetiga oʻtishi, ijtimoiy rollar tizimining qayta qurilishi hamda psixologik va ijtimoiy muvozanatni tiklashga qaratilgan koʻp darajali, dinamik tizim sifatida izohlanadi.

Sharq mutafakkirlari inson ruhiyatini murakkab, koʻp qatlamli va oʻzaro bogʻlangan tizim sifatida talqin etib, unda muvozanat kategoriyasini markaziy metodologik tamoyil sifatida ilgari suradilar. Ushbu yondashuvga koʻra, shaxsning psixik barqarorligi uning ichki (intrapsixik) holatlari bilan tashqi (ijtimoiy) muhit oʻrtasidagi uygʻunlik darajasi orqali belgilanadi. Shu bois, ruhiy beqarorlik faqat individual psixologik buzilish sifatida emas, balki ijtimoiy aloqalarning izdan chiqishi natijasida yuzaga keladigan tizimli disbalans sifatida izohlanadi. Mazkur

---

[7] Amir Temur. Temur tuzuklari. – Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1991. – 160 b.

[8] Amir Temur. Temur tuzuklari. – Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1991. – B. 28-60.

konseptual qarashlarning chuqur va tizimli ifodasi Alisher Navoiy asarlarida o‘z aksini topgan bo‘lib, unda insonning ichki dunyosi, ma’naviy kamoloti va ijtimoiy muhit bilan o‘zaro uyg‘unlashuvi dialektik birlikda tahlil qilinadi[9]. Alisher Navoiy ta’limotida shaxsning jamiyatdan uzilishi uning ruhiy muvozanatiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi muhim omil sifatida baholanadi, aksincha, ijtimoiy muhit bilan uyg‘unlashuv shaxsning barqaror rivojlanishi va ichki psixologik muvozanatini ta’minlovchi asosiy shart sifatida talqin etiladi[10]. Shu bilan birgalikda, Mazkur yondashuv zamonaviy psixologiyada psixologik reabilitatsiya, identitet rekonstruksiyasi va emotsional barqarorlik tushunchalari bilan uyg‘unlashadi. Xususan, psixologik reabilitatsiya buzilgan emotsional-kognitiv muvozanatni tiklash jarayoni sifatida, identitet rekonstruksiyasi harbiy identitetdan fuqarolik identitetiga o‘tish mexanizmi sifatida, emotsional barqarorlik esa ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash orqali mustahkamlanadigan adaptiv resurs sifatida namoyon bo‘lishi kuzatiladi.

Aytishimiz kerakki, A.Navoiyning ta’limotida ilgari surilgan “tavozun” konsepsiyasini zamonaviy psixologiya kategoriyalari asosida qayta talqin etish alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi. Bizning nazarimizda, ushbu konsepsiya shaxsning ichki psixik tizimi va ijtimoiy muhit o‘rtasidagi funksional muvozanatni ifodalovchi universal nazariy konstruksiya sifatida namoyon bo‘ladi. Shu asosda, rezervga chiqqan harbiy xizmatchilarning reintegratsiyasi jarayoniga yondashuv uni faqat intrapsixik mexanizmlar bilan chegaralangan ruhiy tiklanish jarayoni sifatida

[9] Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1983. – 160b.
[10] Alisher Navoiy. Xamsa. – Toshkent: Fan nashriyoti, 1989. – 800 b.

emas, balki ijtimoiy aloqalar tizimini qayta tiklash va mustahkamlashga qaratilgan kompleks, ko‘p darajali ijtimoiy-psixologik fenomen sifatida talqin etishni taqozo etadi.

Tadqiqotning nazariy-metodologik asoslarini chuqurlashtirish nuqtai nazaridan, Sharq harbiy tafakkurida shakllangan ichki intizom konsepsiyasini zamonaviy ijtimoiy-psixologik kategoriyalar asosida qayta talqin etish muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. Bizning yondashuvimizga ko‘ra, harbiy intizomni faqat tashqi normativ tizim sifatida emas, balki shaxsning ichki regulyativ mexanizmlarini ifodalovchi, uning ijtimoiy moslashuv salohiyatini belgilovchi kompleks psixologik konstrukt sifatida ko‘rib chiqish zarur. Mazkur talqin rezervga bo‘shatilgan harbiy xizmatchilarning reintegratsiyasini izohlashda yangi nazariy imkoniyatlarni ochadi. Shu nuqtai nazardan, Sharq harbiy an’analarida intizom shaxsning butun hayotiy faoliyatini qamrab oluvchi barqaror sifat tariqasida talqin etiladi. Mazkur yondashuvga ko‘ra, harbiy xizmat davomida shakllangan intizomiy sifatlar xizmat yakunlangandan keyin ham shaxsning ijtimoiy faoliyatini tartibga soluvchi ichki mexanizm sifatida saqlanib qoladi va uning fuqarolik muhitiga moslashuvini belgilaydi.

Ushbu konseptual qarashlarning tarixiy ifodasi Zahiriddin Muhammad Bobur ning “Boburnoma”[11] asarida o‘z aksini topgan bo‘lib, unda harbiy shaxsning xulq-atvori, ruhiy holati va ijtimoiy munosabatlari o‘zaro bog‘liqlikda tasvirlanadi. Muallifning qarashlariga ko‘ra, harbiy shaxsning xizmatdan keyingi faoliyatida tartib va mas’uliyatni saqlashi uning ijtimoiy reintegratsiyaning muhim sharti sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, jamiyatga

[11] Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – Toshkent: Fan nashriyoti, 1989. – 368 b.

muvaffaqiyatli integratsiya darajasi tashqi omillardan ko‘ra ko‘proq shaxsning ichki intizomi va o‘zini boshqarish salohiyati bilan belgilanadi.

Bizning yondashuvimizga ko‘ra, Boburiy qarashlarda ilgari surilgan ichki intizom konsepsiyasini zamonaviy psixologiyada o‘z-o‘zini regulyatsiya qilish tizimi bilan metodologik jihatdan uyg‘unlashtirish imkonini yaratadi. Xususan, o‘zini o‘zi boshqarishi shaxsning xulq-atvorini ongli nazorat qilish va maqsadga yo‘naltirilgan faoliyatni boshqarish qobiliyati sifatida, irodaviy sifatlar esa mazkur jarayonning barqarorligini ta’minlovchi ichki resurs sifatida namoyon bo‘ladi. Adaptiv xulq strategiyalari esa o‘zgaruvchan ijtimoiy muhit sharoitida samarali moslashuvni ta’minlovchi mexanizm sifatida qaraladi. Demak, rezervga bo‘shatilgan harbiy xizmatchilarning ijtimoiy-psixologik reintegratsiyasi jarayonida ichki intizomni rivojlantirish, o‘zini o‘zi boshqarishi mexanizmlarini faollashtirish va irodaviy barqarorlikni mustahkamlash hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lib, bu jarayon shaxsning ijtimoiy muhitga muvaffaqiyatli integratsiyasini ta’minlovchi asosiy psixologik determinantlardan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

Harbiy faoliyat samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biri sifatida insonning psixologik holati, motivatsion resurslari va ruhiy barqarorligi alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu yondashuv Sun Tzuning “Urush san’ati”[12] asarida tizimli ravishda asoslangan bo‘lib, unda jangovar muvaffaqiyat tashkiliy yoki texnik ustunlikdan ko‘ra ko‘proq askarlarning ichki ruhiy holatiga bog‘liq ekani ko‘rsatiladi. Mazkur qarashlarga ko‘ra, harbiy faoliyat doimiy zo‘riqish bilan kechuvchi jarayon bo‘lib, unda

[12] Sun Tzu. Urush san’ati (The Art of War). – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018. – 120 b.

tiklanish bosqichining sifatli tashkil etilishi keyingi samaradorlikni belgilaydi. Shu ma’noda, jangdan keyingi ruhiy muvozanatni tiklash, psixologik resurslarni qayta safarbar etish va emotsional barqarorlikni ta’minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Boshqaruv nuqtai nazaridan esa, rahbarning vazifasi faqat strategik yo‘naltirish bilan cheklanmay, balki jamoaning psixologik holatini nazorat qilish, zo‘riqish darajasini muvofiqlashtirish hamda qo‘llab-quvvatlovchi muhitni shakllantirishni ham o‘z ichiga oladi.

Aytishimiz kerakki, mazkur g‘oyalarni zamonaviy ijtimoiy-psixologik kategoriyalar orqali talqin etish reintegratsiya jarayonini chuqurroq anglash imkonini beradi. Xususan, zo‘riqishdan keyingi tiklanish – post-stress adaptatsiya, ichki kuchlarni qayta safarbar etish – psixologik resurslar tizimi, boshqaruv orqali qo‘llab-quvvatlash esa ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlariga mos keladi. Demak, rezervga bo‘shatilgan harbiy xizmatchilarning reintegratsiyasi jarayonini izohlashda asosiy e’tibor shaxsning psixologik resurslarini tiklash, emotsional muvozanatini barqarorlashtirish va ijtimoiy aloqalar tizimini qayta tiklashga qaratilishi lozimligi bilan izohlanishi mumkin. Bu esa mazkur jarayonni ichki va tashqi omillar o‘zaro bog‘liqligiga asoslangan dinamik tizim sifatida talqin etish zaruratini belgilaydi.

Yuqorida keltirilgan nazariy yondashuvlarning integrativ tahlili shuni ko‘rsatadiki, rezervga bo‘shatilgan harbiy xizmatchilarning ijtimoiy-psixologik reintegratsiyasi shaxsning intrapsixik tizimi (emotsional barqarorlik, motivatsion-regulyativ mexanizmlar, refleksivlik) hamda tashqi ijtimoiy muhit (ijtimoiy rollar tizimi, kommunikativ aloqalar, institutsional qo‘llab-

quvvatlash) o‘rtasidagi o‘zaro determinatsiyalangan va dinamik jarayonlar orqali amalga oshadi. Bunda ijtimoiy rolning qayta strukturatsiyalanishi, identitetning transformatsiyasi, o‘z-o‘zini regulyatsiya qilish mexanizmlarining faollashuvi hamda psixologik resurslarning rekonstruksiyasi o‘zaro sinergetik bog‘liqlikda kechib, reintegratsiyaning umumiy samaradorligini belgilovchi asosiy determinantlar sifatida namoyon bo‘ladi.

Shu asosda, reintegratsiya jarayonini shaxsning harbiy identitetdan fuqarolik identitetiga o‘tishi bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘p komponentli transformatsion tizim sifatida talqin etish maqsadga muvofiq bo‘lib, u psixologik muvozanatni tiklash, ijtimoiy aloqalar tizimini qayta tiklash va mustahkamlash, shuningdek, shaxsning adaptiv va kompensator resurslarini safarbar etishga qaratilgan uzluksiz, bosqichma-bosqich rivojlanadigan hamda ko‘p darajali ijtimoiy-psixologik jarayon sifatida namoyon bo‘ladi.

Mazkur nazariy yondashuvlarni kengroq ilmiy kontekstda talqin etish, xususan, ularni G‘arb ijtimoiy-psixologik konsepsiyalari bilan qiyosiy tahlil qilish orqali reintegratsiya fenomenining umumiy qonuniyatlarini aniqlash imkonini beradi. Shu nuqtai nazardan, G‘arb psixologiyasida shaxsning ijtimoiy moslashuvi, identitet shakllanishi va stressdan keyingi tiklanish jarayonlari chuqur empirik asosda o‘rganilgan.

Xususan, E.Eriksonning psixosotsial rivojlanish nazariyasiga ko‘ra[13], shaxs hayotining har bir bosqichi muayyan psixosotsial inqirozlar orqali kechib, ushbu jarayonlarda identitetning shakllanishi va qayta qurilishi markaziy o‘rin tutadi. Mazkur nazariy yondashuv nuqtai nazaridan, harbiy xizmatdan fuqarolik

[13] Erikson E. Identity: Youth and Crisis. – New York: W. W. Norton & Company, 1968. – 336 p.

hayotiga o‘tish bosqichi shaxs uchun murakkab identitet transformatsiyasi bilan kechuvchi o‘tish davri sifatida namoyon bo‘ladi.

Harbiy muhitda shakllangan identitet qat’iy tizim, intizom, kollektivlik va aniq belgilangan rollar tizimiga asoslangan bo‘lsa, fuqarolik jamiyatida esa moslashuvchanlik, individual qaror qabul qilish va ijtimoiy rollarning xilma-xilligi ustuvor ahamiyat kasb etadi. Shu bois, xizmatdan keyingi davrda shaxs o‘zining avvalgi “harbiy men” konsepsiyasini qayta ko‘rib chiqish, uni yangi ijtimoiy sharoitga mos ravishda transformatsiya qilish va fuqarolik identitetini shakllantirish zaruriyatiga duch keladi. Mazkur jarayon ko‘pincha identitet krizisi bilan bog‘liq bo‘lib, u shaxsning o‘z-o‘zini anglash darajasining pasayishi, ijtimoiy rol noaniqligi va psixologik beqarorlik bilan namoyon bo‘lishi mumkin. Biroq, ushbu krizis konstruktiv yo‘nalishda hal etilgan taqdirda, u shaxs rivojlanishining yangi bosqichiga o‘tishni ta’minlaydi. Xususan, shaxs o‘zining yangi ijtimoiy maqomini qabul qilishi, ijtimoiy munosabatlar tizimida o‘z o‘rnini qayta belgilashi hamda yangi qadriyatlar tizimini ichkilashtirishi orqali psixologik yaxlitlik va ichki barqarorlikka erishadi.

Tadqiqot ishimiz doirasidagi yondashuvga ko‘ra, rezervga bo‘shatilgan harbiy xizmatchilarning reintegratsiyasi aynan identitet transformatsiyasining muvaffaqiyatli amalga oshirilishi bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, bu jarayon ijtimoiy rolning qayta qurilishi, o‘z-o‘zini anglashning chuqurlashuvi hamda yangi ijtimoiy muhitga moslashuv strategiyalarining shakllanishi orqali ta’minlanadi. Shu jihatdan, identitet krizisini faqat muammo sifatida emas, balki shaxsning psixologik va ijtimoiy qayta tashkil

topishiga xizmat qiluvchi rivojlanish mexanizmi sifatida talqin etish maqsadga muvofiq deb hisoblashimiz mumkin bo‘ladi.

Ijtimoiy-psixologik tahlilda shaxs xulq-atvorining ijtimoiy determinatsiyasini tushuntirishda rollar nazariyasi muhim metodologik asos sifatida e’tirof etiladi. Xususan, R.Merton va E.Goffman tomonidan ishlab chiqilgan konsepsiyalar individning ijtimoiy faoliyatini uning egallagan maqomi (statusi), shu maqomga mos ijtimoiy kutishlar hamda vaziyatga bog‘liq xulq strategiyalari orqali izohlash imkonini beradi.

R.Merton yondashuvida rol shaxsning individual xatti-harakatidan ko‘ra ko‘proq ijtimoiy tizimning barqarorligini ta’minlovchi strukturaviy mexanizm sifatida talqin etiladi[14]. Ushbu nuqtai nazarga ko‘ra, har bir ijtimoiy maqom shaxs oldiga muayyan talablar va majburiyatlar tizimini qo‘yadi hamda ushbu talablar ijtimoiy tartibni saqlashga xizmat qiladi. Shaxsning xulq-atvori esa aynan shu majburiyatlarni bajarish darajasi bilan baholanadi. Mazkur yondashuvda asosiy e’tibor shaxsning subyektiv tajribasiga emas, balki uning ijtimoiy tizim ichidagi funksional mosligiga qaratiladi. Ya’ni, rolni muvaffaqiyatli bajarish bu ijtimoiy tizim bilan muvofiqlashgan faoliyatni anglatadi, aks holda esa tizim ichida nomutanosiblik yuzaga keladi. Bunday nomutanosibliklar shaxs uchun ichki psixologik zo‘riqish manbai bo‘lib, ayniqsa bir vaqtning o‘zida bir nechta qarama-qarshi talablar mavjud bo‘lgan holatlarda kuchayadi.mMazkur holat, ayniqsa, maqomlar almashinuvi jarayonida yaqqol namoyon bo‘ladi. Shaxs yangi ijtimoiy pozitsiyani egallash jarayonida avvalgi rol tizimi bilan yangi ijtimoiy talablar o‘rtasida muvozanat topishga majbur bo‘ladi. Shu

[14] Merton R.K. Social Theory and Social Structure. – New York: Free Press, 1968. – 702 p.

jarayonda ijtimoiy kutishlarning keskin o‘zgarishi shaxsning moslashuv jarayonini murakkablashtiradi hamda uning psixologik barqarorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Bizning nuqtai nazarimizga ko‘ra, mazkur yondashuv rezervga bo‘shatilgan harbiy xizmatchilarning reintegratsiyasini tushuntirishda alohida ahamiyatga ega. Chunki harbiy tizimda shakllangan qat’iy va aniq belgilangan rol majmuasi fuqarolik jamiyatida mavjud bo‘lgan nisbatan moslashuvchan va ko‘p variantli ijtimoiy talablar bilan mos kelmasligi mumkin. Natijada, shaxs yangi ijtimoiy vazifalarni o‘zlashtirish jarayonida tizimli nomuvofiqlikni boshdan kechiradi, bu esa uning psixologik moslashuviga murakkablik kiritadi.

E.Goffman esa ijtimoiy xulq-atvorni interaksionistik yondashuv asosida talqin qilib, kundalik hayotni “dramaturgik model” orqali tushuntiradi. Muallifga ko‘ra, individ ijtimoiy muhitda turli vaziyatlarga mos ravishda o‘z rolini “ijro etadi”, bunda u boshqalarda muayyan taassurot uyg‘otishga intiladi va o‘z xulq-atvorini vaziyat talablariga mos ravishda modulyatsiya qilishi bilan izohlanadi.[15] Bu jarayon ijtimoiy vaziyatlarda o‘zini namoyon etishni boshqarish mexanizmlari orqali amalga oshib, shaxsning ijtimoiy moslashuv darajasini belgilovchi muhim omillardan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

Ta’kidlashimiz kerakki, mazkur nazariyalar rezervga bo‘shatilgan harbiy xizmatchilarning ijtimoiy-psixologik reintegratsiyasini izohlashda yuqori darajadagi nazariy-tushuntiruv salohiyatiga ega bo‘lib, ushbu jarayonning ichki mexanizmlari va ijtimoiy determinantlarini kompleks tarzda ochib berish imkonini yaratadi. Harbiy xizmat sharoitida shakllangan qat’iy ierarxik

[15] Social Theory and Social Structure – New York: Free Press, 1968. – P. 368–384.

rollar tizimi, aniq reglamentlangan xulq me’yorlari va kollektiv identifikatsiya xizmatdan keyingi davrda transformatsiyaga uchraydi. Natijada, shaxs yangi ijtimoiy maqomga mos ravishda o‘z rol repertuarini qayta qurishga majbur bo‘ladi. Mazkur transformatsiya jarayoni ko‘pincha rol konflikti (harbiy va fuqarolik rollari o‘rtasidagi ziddiyat), rol noaniqligi (yangi ijtimoiy kutishlarning yetarlicha aniqlanmaganligi) hamda rol dissonansi (ichki qadriyatlar va tashqi talablar o‘rtasidagi nomuvofiqlik) bilan kechadi. Bu esa psixologik beqarorlik, ijtimoiy dezadaptatsiya va identitet fragmentatsiyasiga olib kelishi mumkin.

Shu bilan birga, muvaffaqiyatli reintegratsiya shaxsning yangi ijtimoiy rollarni o‘zlashtira olish darajasi, vaziyatga mos xulq strategiyalarini shakllantirish qobiliyati hamda ijtimoiy kutishlar tizimi bilan moslashuvchan uyg‘unlashuviga bog‘liq bo‘ladi. Bu jarayonda o‘z-o‘zini regulyatsiya qilish, refleksivlik, ijtimoiy kompetentlik va kommunikativ moslashuvchanlik kabi psixologik resurslar hal qiluvchi determinant sifatida namoyon bo‘ladi. Demak, rollar nazariyasi rezervga bo‘shatilgan harbiy xizmatchilarning ijtimoiy-psixologik reintegratsiyasini tushuntirishda nafaqat xulq-atvorning tashqi ko‘rinishlarini, balki uning ichki psixologik mexanizmlarini ham izohlash imkonini beruvchi kompleks nazariy asos sifatida qaralishi zarur. Mazkur yondashuv reintegratsiya jarayonini shaxsning ijtimoiy maqomi, rol tizimi va psixologik moslashuv strategiyalari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liq dinamik tizim sifatida talqin etishga imkon beradi.

Aynan yuqorida keltirib o‘tilgan jihat shaxsning ijtimoiy muhitda o‘z o‘rnini qanday belgilashi va turli ijtimoiy guruhlar bilan o‘zaro munosabatlarni qanday qurishi masalasini alohida

ilmiy tahlil qilish zaruratini yuzaga keltiradi. Shu nuqtai nazardan, ijtimoiy identitetning shakllanishi va guruhga mansublik muammosi G.Tajfel hamda J.Turner tomonidan ishlab chiqilgan ijtimoiy identitet nazariyasi[16] doirasida tizimli ravishda asoslab berilgan. Mazkur yondashuvga koʻra, shaxsning "men" konsepsiyasi nafaqat individual xususiyatlar majmuasi, balki uning muayyan ijtimoiy guruhlarga mansubligi orqali shakllanuvchi ijtimoiy komponentni ham oʻz ichiga oladi. Shaxs oʻzini muayyan guruh aʼzosi sifatida identifikatsiya qilish orqali oʻz xulq-atvorini tartibga soladi, qadriyatlar tizimini shakllantiradi va ijtimoiy muhitda oʻz oʻrnini belgilaydi. Mazkur nazariya nuqtai nazaridan, harbiy xizmatchilar uchun harbiy guruhga mansublik yuqori darajadagi identifikatsiya manbai hisoblanadi.

Harbiy xizmat doirasida shakllanadigan ijtimoiy tajriba shaxs ongida nafaqat kasbiy koʻnikmalar, balki barqaror ijtimoiy identifikatsiya mexanizmlarini ham vujudga keltiradi. Ushbu identifikatsiya aniq chegaralangan ierarxik tuzilma, qatʼiy tartibga solingan munosabatlar va umumiy maqsadlarga yoʻnaltirilgan faoliyat orqali mustahkamlanadi. Natijada, shaxs oʻzini muayyan ijtimoiy tizimning ajralmas elementi sifatida qabul qiladi va uning oʻzini anglash tizimi aynan shu kontekstda shakllanadi. Xizmatdan keyingi davrda esa mazkur identifikatsiya oʻzining avvalgi funksional asosini yoʻqotadi va yangi ijtimoiy sharoitlarda qayta mazmun kasb etishni talab qiladi. Bu holat shaxs oldiga faqat yangi ijtimoiy rolni egallash vazifasini emas, balki oʻzining ijtimoiy tegishliligini qayta aniqlash zaruratini ham qoʻyadi. Shu sababli, moslashuv jarayoni oddiy oʻzgarish emas, balki shaxsning

[16] Tajfel H. Human Groups and Social Categories. – Cambridge: Cambridge University Press, 1981. – 384 p.

o‘zini anglash tizimini yangidan tashkil etish bilan bog‘liq murakkab psixologik qayta qurilish sifatida namoyon bo‘ladi.

Shu o‘rinda ta’kidlashimiz kerakki, rezervga bo‘shatilgan harbiy xizmatchilarning ijtimoiy-psixologik reintegratsiyasi aynan ijtimoiy identitetning qayta qurilishi bilan bevosita bog‘liqdir. Harbiy guruhdan ajralish natijasida yuzaga keladigan “identitet bo‘shlig‘i” shaxsda ijtimoiy noaniqlik, psixologik diskomfort va moslashuv qiyinchiliklarini keltirib chiqarishi mumkin. Natijada, reintegratsiya jarayonida shaxsning yangi ijtimoiy guruhlarga qo‘shilishi, ularga nisbatan ijobiy identifikatsiya shakllantirishi hamda o‘z “men” konsepsiyasini yangi ijtimoiy kontekstda qayta tashkil etishi muhim adaptatsion vazifa sifatida namoyon bo‘ladi. Shu nuqtai nazardan, ijtimoiy identitet nazariyasi rezervga bo‘shatilgan harbiy xizmatchilarning reintegratsiyasini tushuntirishda nafaqat shaxsning ichki o‘zgarishlarini, balki uning guruhlararo munosabatlar tizimidagi o‘rnini qayta belgilash jarayonini ham izohlash imkonini beruvchi muhim nazariy asos sifatida qaraladi.

Shaxsning o‘z xulq-atvorini ongli boshqarishi va o‘zgaruvchan ijtimoiy muhitga moslashuvi masalalari A.Bandura ning ijtimoiy-kognitiv nazariyasi[17] doirasida izchil asoslab berilgan. Mazkur yondashuvga ko‘ra, shaxs tashqi ta’sirlarga passiv moslashuvchi obyekt emas, balki o‘z faoliyatini ongli ravishda tartibga soluvchi va maqsadga yo‘naltiruvchi faol subyekt sifatida namoyon bo‘ladi. U o‘z xatti-harakatlarini ichki mezonlar, o‘zini baholash jarayonlari hamda ichki rag‘batlantirish

[17] Albert Bandura Social Foundations of Thought and Action: A Social Cognitive Theory. – Englewood Cliffs: Prentice Hall, 1986. – 617 p.

mexanizmlari orqali nazorat qilib boradi, bu esa xulq-atvorning vaziyatga mos, barqaror va izchil tashkil etilishini ta’minlaydi[1].

Mazkur konsepsiyada o‘zini o‘zi boshqarish jarayoni shaxsning kognitiv, emotsional va irodaviy komponentlari o‘zaro uyg‘unlashgan holda faoliyat yurituvchi yaxlit tizim sifatida qaraladi. Shaxs o‘z faoliyatini oldindan modellashtiradi, amalga oshirilgan harakatlarni refleksiv baholaydi hamda natijalarga muvofiq ravishda xulq-atvorini korreksiya qiladi. Shu tariqa, u tashqi ijtimoiy talablar bilan ichki motivatsion tuzilma o‘rtasida muvozanatni ta’minlashga erishadi.

Bizning yondashuvimizga ko‘ra, mazkur nazariy qarashlar rezervga bo‘shatilgan harbiy xizmatchilarning ijtimoiy-psixologik reintegratsiyasini izohlashda alohida ahamiyat kasb etadi. Zero xizmatdan keyingi davrda shaxs o‘zgaruvchan ijtimoiy talablar, yangi rollar va noaniq vaziyatlar bilan to‘qnash keladi. Bunday sharoitda o‘zini o‘zi boshqarish mexanizmlarining rivojlanganligi shaxsning moslashuv salohiyatini belgilovchi asosiy ichki resursga aylanadi. Shu bois, o‘z xulq-atvorini ongli ravishda boshqarish, vaziyatga adekvat strategiyalarni tanlash, faoliyat natijalarini baholash va zaruratga ko‘ra ularni tuzatish qobiliyati rezervga bo‘shatilgan harbiy xizmatchilarning fuqarolik muhitiga muvaffaqiyatli integratsiyalashuvini ta’minlovchi muhim psixologik determinantlar sifatida talqin etilishi lozim.

Reintegratsiya jarayonining psixologik murakkabligini anglashda stress omillari va ularga nisbatan moslashuv mexanizmlarining o‘rni alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, R.Lazarus tomonidan ishlab chiqilgan kognitiv-baholash[18] yondashuvi shaxsning stressga nisbatan munosabatini

[18] Richard Lazarus Stress, Appraisal, and Coping. – New York: Springer, 1984. – 445 p.

determinatsiyalovchi ichki mexanizmlarni ochib berishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Mazkur konsepsiyaga ko‘ra, shaxs tashqi vaziyatni bevosita emas, balki uni qanday idrok etishi va talqin qilishi orqali boshdan kechiradi. Ya’ni, psixologik zo‘riqish darajasi vaziyatning obyektiv murakkabligidan ko‘ra, uning shaxs ongida qanday baholanishiga bog‘liq holda shakllanadi. Ushbu jarayonda shaxs avvalo vaziyatning o‘ziga nisbatan qanchalik tahdidli yoki ahamiyatli ekanligini aniqlaydi, so‘ngra mavjud imkoniyatlar va ichki resurslarni baholagan holda unga mos javob strategiyasini shakllantiradi. Aynan shu ikki bosqichli baholash tizimi orqali shaxs o‘z xulq-atvorini moslashtiradi va psixologik muvozanatini saqlashga intiladi. Natijada, moslashuv strategiyalari tashqi vaziyatni o‘zgartirishga qaratilgan faol harakatlar yoki ichki kechinmalarni tartibga solishga yo‘naltirilgan regulyativ jarayonlar shaklida namoyon bo‘ladi.

Bizningcha, rezervga bo‘shatilgan harbiy xizmatchilar hayotidagi o‘tish davri aynan yuqori noaniqlik, ijtimoiy talablarning o‘zgaruvchanligi hamda avvalgi tajriba va yangi sharoitlar o‘rtasidagi nomuvofiqlik bilan xarakterlanadi. Bunday sharoitda shaxsning vaziyatni to‘g‘ri talqin qila olishi, o‘z imkoniyatlarini real baholashi va moslashuv strategiyalarini adekvat tanlay bilishi uning psixologik barqarorligini belgilovchi asosiy omilga aylanadi. Shu jihatdan qaralganda, stressga moslashuv mexanizmlarining yetukligi shaxsning yangi ijtimoiy muhitga kirish jarayonini optimallashtiradi, ichki zo‘riqishlarning destruktiv ta’sirini kamaytiradi hamda uning fuqarolik hayotiga bosqichma-bosqich va barqaror integratsiyalashuvini ta’minlovchi muhim psixologik resurs sifatida namoyon bo‘ladi. Demak,

reintegratsiya jarayonining muvaffaqiyati ko‘p jihatdan shaxsning stressni boshqarish va unga moslashish salohiyati bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan kompleks ijtimoiy-psixologik jarayon sifatida talqin etilishi lozim hisoblanadi.

Yuqorida amalga oshirilgan nazariy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, rezervga bo‘shatilgan harbiy xizmatchilarning ijtimoiy-psixologik reintegratsiyasi bir yoqlama izohlanadigan jarayon emas, balki shaxsning ichki psixologik tizimi va tashqi ijtimoiy muhit o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirga asoslangan murakkab, ko‘p darajali va dinamik fenomen sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur jarayon harbiy xizmat davomida shakllangan identitet, qadriyatlar tizimi, intizomiy sifatlar va ijtimoiy rollarning fuqarolik jamiyati sharoitida qayta tashkil etilishi bilan bog‘liq bo‘lib, u shaxsning o‘zini anglash tizimi, ijtimoiy maqomi va faoliyat strategiyalarining tub transformatsiyasini taqozo etadi.

Nazariy yondashuvlarning integrativ tahlili shuni asoslaydiki, reintegratsiya jarayoni bir vaqtning o‘zida bir necha o‘zaro bog‘liq psixologik mexanizmlar orqali amalga oshadi: identitetning qayta qurilishi (psixosotsial rivojlanish yondashuvi), ijtimoiy rollar tizimining transformatsiyasi (rol nazariyasi), guruhga mansublikning yangidan shakllanishi (ijtimoiy identitet nazariyasi), o‘z-o‘zini boshqarish va refleksiv nazorat (ijtimoiy-kognitiv yondashuv), hamda stress omillariga moslashuv (kognitiv-baholash konsepsiyasi). Ushbu mexanizmlar alohida-alohida emas, balki o‘zaro sinergetik bog‘liqlikda faoliyat yuritib, reintegratsiya jarayonining umumiy samaradorligini belgilaydi.

Shu bilan birga, harbiy merosda aks etgan qarashlar ushbu jarayonning aksiologik va ijtimoiy mazmunini chuqurlashtiradi. Unda shaxsning jamiyat bilan uyg‘unligi, ichki muvozanatni

saqlashi, ijtimoiy foydalilikni davom ettirishi hamda intizomiy sifatlarning uzluksizligi kabi tamoyillar ilgari surilib, zamonaviy psixologik konsepsiyalar bilan metodologik uyg‘unlikda namoyon bo‘ladi. Bu esa reintegratsiyani faqat moslashuv emas, balki shaxsning ijtimoiy tizimdagi funksional va qadriyaviy qayta tiklanishi sifatida talqin etish imkonini beradi.

Natijada, rezervga bo‘shatilgan harbiy xizmatchilarning ijtimoiy-psixologik reintegratsiyasini shaxsning harbiy identitetdan fuqarolik identitetiga o‘tishi, ijtimoiy rollar tizimini qayta qurishi, psixologik muvozanatini tiklashi hamda ijtimoiy aloqalar tizimini yangidan shakllantirishi bilan bog‘liq bo‘lgan uzluksiz, bosqichma-bosqich kechuvchi va ko‘p komponentli transformatsion jarayon sifatida talqin etish ilmiy jihatdan asosli hisoblanadi. Bunday yondashuv mazkur jarayonni kompleks diagnostika qilish, uning determinantlarini aniqlash hamda samarali psixologik va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini ishlab chiqish uchun nazariy-metodologik poydevor yaratadi.

1.2-§. Rezervga bo‘shatilgan harbiy xizmatchilar reintegratsiyasini ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini tadqiq etishning metodologik asoslari

Rezervga bo‘shatilgan harbiy xizmatchilarning ijtimoiy-psixologik reintegratsiyasi muammosi bo‘yicha amalga oshirilgan tadqiqotlar tahlili nafaqat ushbu masalaning dolzarbligini chuqur va ko‘p qirrali asoslash, balki uning murakkab tuzilishi, ichki qonuniyatlari hamda uni belgilovchi omillarning o‘zaro bog‘liqligini ilmiy jihatdan ochib berish imkonini yaratadi. Ilmiy manbalarni tizimli o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, harbiy xizmatdan

keyingi davrda shaxsning ijtimoiy muhitga moslashuvi muammosi avvalgi tadqiqotlarda muayyan darajada yoritilgan bo‘lsa-da, zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy o‘zgarishlar sharoitida uning mazmun-mohiyati yanada murakkablashib bormoqda.

Avvalo, ijtimoiy-psixologik nuqtai nazardan reintegratsiya bu shaxsning bir ijtimoiy tizimdan (harbiy muhitdan) boshqa tizimga (fuqarolik jamiyatiga) o‘tish jarayonida yuzaga keladigan ijtimoiy rol transformatsiyasidir. Zamonaviy jamiyatda ijtimoiy munosabatlar tizimining yuqori darajada o‘zgaruvchanligi va noaniqligi shaxsdan faol moslashuvchanlik, mustaqil qaror qabul qilish va o‘z hayotiy yo‘lini ongli ravishda belgilashni talab etadi. Ilmiy tadqiqotlarda ta’kidlanishicha, harbiy xizmat jarayonida shakllangan intizom, qat’iy bo‘ysunuv va reglamentlashgan faoliyatga moslashgan xulq-atvor andozalari fuqarolik muhitidagi erkin, ko‘p variantli va tashabbuskorlikka asoslangan hayot tarzi bilan har doim ham uyg‘unlashavermaydi. Bu esa shaxsning o‘z imkoniyatlarini amalga oshirishida to‘siqlar paydo qilib, ijtimoiy faollikning pasayishi, o‘z-o‘zini baholashning beqarorligi va kelajakka nisbatan noaniqlik holatlarini yuzaga keltiradi.

Ikkinchidan, tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, harbiy xizmatdan keyingi davrda shaxsning ijtimoiy rollar tizimida keskin o‘zgarishlar sodir bo‘ladi. Xizmat jarayonida ustuvor bo‘lgan “ijrochi”, “buyruq bajaruvchi” yoki “jamoa a’zosi” kabi rollar o‘rnini fuqarolik muhitida “mustaqil qaror qabul qiluvchi”, “oila boshlig‘i”, “mutaxassis” kabi rollar egallaydi. Bu esa rollar o‘rtasidagi nomutanosiblikni keltirib chiqarib, shaxsda ichki ziddiyatlar, ijtimoiy moslashuvdagi qiyinchiliklar va munosabatlar tizimidagi uzilishlarga sabab bo‘ladi. Ayniqsa, oilaviy muhitda va

yaqin ijtimoiy doirada yuzaga keladigan o‘zgarishlar shaxsning ruhiy barqarorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Uchinchidan, mavjud tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, rezervga bo‘shatilgan harbiy xizmatchilarning reintegratsiyasiga ta’sir etuvchi omillar ko‘p qirrali bo‘lib, ular shaxsiy, ijtimoiy va faoliyat bilan bog‘liq jihatlarni qamrab oladi. Biroq ushbu omillar aksariyat hollarda alohida-alohida o‘rganilgan bo‘lib, ularning o‘zaro bog‘liqligi, o‘zaro ta’sir mexanizmi va umumiy tizimdagi o‘rni yetarlicha ochib berilmagan. Bu esa reintegratsiya jarayonini yaxlit holda tushunish va uni boshqarish imkoniyatlarini cheklaydi.

To‘rtinchidan, ilmiy manbalar tahlili reintegratsiya jarayonini baholashda yagona, tizimli va ishonchli ko‘rsatkichlar tizimi mavjud emasligini ko‘rsatadi. Amalda shaxsning ruhiy holati, ijtimoiy munosabatlari yoki kasbiy faolligi alohida baholanadi, ammo ularni birlashtiruvchi integrativ yondashuv yetishmaydi. Bu esa reintegratsiya darajasini aniqlash, uning dinamikasini kuzatish va samarali ta’sir choralarini ishlab chiqishni murakkablashtiradi.

Beshinchidan, zamonaviy axborot makonining kengayishi va raqamli texnologiyalarning hayotga chuqur kirib kelishi ham ushbu muammoning dolzarbligini oshiradi. Chunki shaxsdan nafaqat ijtimoiy moslashuv, balki yangi axborot muhitiga tezkor moslashish, axborot oqimlarini saralash va undan samarali foydalanish ko‘nikmalari ham talab etilmoqda. Bu esa harbiy xizmatdan qaytgan shaxslar uchun qo‘shimcha psixologik va ijtimoiy yuklamalarni yuzaga keltiradi.

Yuqorida qayd etilgan holatlar rezervga bo‘shatilgan harbiy xizmatchilarni fuqarolik hayotiga moslashtirish masalasi nafaqat individual, balki ijtimoiy va institutsional ahamiyatga ega

ekanligini ko‘rsatadi. Shu bois O‘zbekiston Respublikasida harbiy xizmatni yakunlagan hamda rezerv tarkibiga o‘tkazilgan fuqarolarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, ularning huquqiy manfaatlarini himoya qilish va turmush sharoitlarini yaxshilashga qaratilgan normativ-huquqiy mexanizmlar bosqichma-bosqich takomillashtirib borilmoqda. Xususan, rezervdagi harbiy xizmatni tashkil etish, uy-joy bilan ta’minlash, tibbiy xizmatlardan foydalanish, ijtimoiy himoya va oila a’zolarini qo‘llab-quvvatlash bilan bog‘liq qator huquqiy kafolatlar amaldagi qonunchilikda o‘z aksini topgan.

Biroq mavjud me’yoriy-huquqiy asoslar tahlili shuni ko‘rsatadiki, rezervga bo‘shatilgan harbiy xizmatchilar bilan ishlash tizimida ijtimoiy, moddiy va tashkiliy yo‘nalishlar nisbatan to‘liq shakllangan bo‘lsa-da, ushbu jarayonning psixologik jihatlari yetarli darajada institutsionallashtirilmagan. Ya’ni, amaldagi tizimda harbiy xizmatchini rezervga tayyorlash, xizmatdan bo‘shash oldidan uning psixologik holatini baholash, fuqarolik muhitiga moslashuv imkoniyatlarini prognoz qilish hamda xizmatdan keyingi davrda psixologik kuzatuv olib borishga qaratilgan yaxlit mexanizm mavjud emas.

Holbuki, harbiy xizmatdan fuqarolik hayotiga o‘tish jarayoni faqat kasbiy faoliyatning yakunlanishi bilan belgilanmaydi. Mazkur davr shaxsning ijtimoiy maqomi, qadriyatlar tizimi, hayotiy maqsadlari, ijtimoiy munosabatlari va o‘zini anglash jarayonida chuqur o‘zgarishlar yuz beradigan murakkab ijtimoiy-psixologik bosqich hisoblanadi. Ayniqsa, uzoq muddat harbiy muhitda faoliyat olib borgan shaxslarda yangi ijtimoiy rollarni o‘zlashtirish, mustaqil qaror qabul qilish, mehnat bozoriga

moslashish hamda oilaviy va ijtimoiy munosabatlarni qayta tashkil etish bilan bog‘liq qiyinchiliklar kuzatilishi mumkin.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, rezervga bo‘shatilgan harbiy xizmatchilarni qo‘llab-quvvatlash tizimini faqat ijtimoiy himoya vositalari bilan cheklash reintegratsiya jarayonining murakkab tabiatini to‘liq qamrab olmaydi. Chunki ushbu jarayonning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan shaxsning psixologik tayyorgarligi, moslashuv salohiyati, ijtimoiy aloqalarni qayta tiklash imkoniyatlari, yangi ijtimoiy maqomni qabul qilish darajasi hamda fuqarolik muhitiga konstruktiv tarzda qo‘shila olish qobiliyatiga bog‘liq bo‘ladi. Shu bois, rezervga bo‘shatilgan harbiy xizmatchilar bilan ishlash amaliyotida psixologik hamrohlik, moslashuv jarayonini muntazam kuzatib borish, yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan ijtimoiy-psixologik qiyinchiliklarni barvaqt aniqlash va ularga maqsadli ta’sir ko‘rsatishga qaratilgan ilmiy yondashuvlarni rivojlantirish zarurati tobora ortib bormoqda. Ayniqsa, zamonaviy ijtimoiy munosabatlar tizimining murakkablashuvi, globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida ushbu masala nafaqat amaliy, balki nazariy-metodologik jihatdan ham alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Mazkur ehtiyoj va amaliy zaruratlar rezervga bo‘shatilgan harbiy xizmatchilar reintegratsiyasi muammosiga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlar ko‘lamining kengayishiga sabab bo‘lmoqda. So‘nggi yillarda olib borilgan ilmiy izlanishlar ushbu jarayonning oddiy moslashuv hodisasi emasligini, balki shaxsiy, ijtimoiy, kasbiy va institutsional omillar o‘zaro ta’sirida shakllanuvchi murakkab tizim ekanligini ko‘rsatmoqda. Tadqiqotlar tahlili reintegratsiya jarayonining ko‘p qatlamli va dinamik tabiatga

egaligini, uning kechish mexanizmlarini tavsiflash hamda samaradorligini baholashda yagona ilmiy yondashuv va universal mezonlar tizimi hanuzgacha yetarli darajada shakllanmaganligini ko‘rsatadi. Shu bois mazkur jarayonni chuqur, tizimli va integrativ yondashuv asosida o‘rganish, uning holati va rivojlanish dinamikasini aniqlash imkonini beruvchi modelli ko‘rsatkichlar tizimini ishlab chiqish bugungi kunda ushbu yo‘nalishdagi eng muhim va dolzarb ilmiy vazifalardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Xususan, G.Misca, J.Augustus, J.Russel hamda J.Walker[19] tomonidan amalga oshirilgan tadqiqot natijalari harbiy xizmatchilarning fuqarolik hayotiga o‘tish jarayonini “ko‘p bosqichli o‘tishlar tizimi” sifatida talqin qilish zarurligini ko‘rsatadi. Mazkur mualliflar yondashuviga ko‘ra, reintegratsiya jarayoni shaxsning oddiy ijtimoiy moslashuvi emas, balki uning o‘zini anglash tizimi, ijtimoiy aloqalari va hayotiy ma’nolarini qayta shakllantirish jarayoni sifatida namoyon bo‘lishini izohlab o‘tishgan. Tadqiqotda qo‘llanilgan fenomenologik yondashuv asosida harbiy xizmatchilarning subyektiv tajribalari tahlil qilingan bo‘lib, bu esa reintegratsiyani tashqi ko‘rsatkichlar orqali emas, balki shaxsning ichki kechinmalari orqali tushuntirish imkonini beradi. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, reintegratsiya jarayonida eng muhim omillardan biri bu ruhiy holat va ijtimoiy muhit o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir mexanizmi hisoblanadi. Mualliflar tomonidan aniqlanganidek, xizmatdan keyingi davrda depressiya, xavotir, ruhiy zo‘riqish, spirtli ichimliklarga moyillik kabi holatlar

[19] Misca G, Augustus J, Russell J, Walker J. Meaning(s) of transition(s) from military to civilian life at the intersection with mental health: implications for clinical settings. Front Psychol. 2023 May 9;14:1142528. doi: 10.3389/fpsyg.2023.1142528. PMID: 37228334; PMCID: PMC10203708.

koʻproq uchrashi, reintegratsiyaning psixologik jihatdan murakkabligini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, ular bu muammolar umumiy emas, balki differensial xarakterga ega ekanligini ta’kidlaydi, ya’ni har bir shaxsning individual psixologik resurslari va ijtimoiy sharoitlari natijani belgilab berishi olib borilgan tadqiqotlarda oʻz isbotini topgan.

Mazkur tadqiqotchilar tomonidan alohida urgʻu berilgan jihatlardan biri bu psixologik yordamga murojaat qilishdagi ichki va tashqi toʻsiqlar ta’kidlab oʻtilgan. Harbiy muhitda shakllangan mustahkamlik, hissiyotlarni bostirish va muammolarni mustaqil hal qilishga yoʻnaltirilgan xulq-atvor stereotiplari fuqarolik hayotida yordam soʻrashga nisbatan salbiy munosabatni shakllantiradi. Bu esa ijtimoiy stigma bilan uygʻunlashgan holda, shaxsning muammolarini chuqurlashtiruvchi omilga aylanishi kuzatiladi. Bundan tashqari, tadqiqotda “harbiy yuklama” fenomeni asoslab berilgan boʻlib, u harbiy xizmat davomida shakllangan tajriba, qadriyatlar va xulq-atvor andozalarining fuqarolik hayotiga oʻtish jarayonida salbiy yoki ijobiy ta’sir koʻrsatishini ifodalaydi. Xususan, harbiy jamoaga xos birdamlik hissining yoʻqolishi, fuqarolik jamiyatida oʻz oʻrnini topishdagi qiyinchiliklar, ijtimoiy begonalashuv va yolgʻizlik hissining kuchayishi reintegratsiya jarayonining asosiy psixologik toʻsiqlari sifatida qayd etiladi.

Shuningdek, mualliflar tomonidan aniqlangan yana bir muhim jihat bu ijtimoiy qoʻllab-quvvatlash tizimining yetarli darajada tashkil etilmaganligidir. Tadqiqot natijalari shuni koʻrsatadiki, reintegratsiya jarayonining muvaffaqiyati koʻp jihatdan oila, yaqinlar, sobiq xizmatdoshlar va mutaxassislar tomonidan koʻrsatiladigan yordamga bogʻliq. Biroq ushbu

tizimning yetarli darajada integratsiyalashmaganligi ko‘plab shaxslarning moslashuv jarayonini qiyinlashtiradi. Boshqacha qilib aytganda, yuqorida keltirib o‘tilgan tadqiqotlar rezervga bo‘shatilgan harbiy xizmatchilarning reintegratsiyasi muammosini shaxsiy tajriba, ijtimoiy muhit va institutsional omillar o‘zaro ta’sirida kechuvchi kompleks jarayon sifatida ochib beradi. Bu esa mazkur muammoni chuqur ilmiy asosda o‘rganish va uning holatini baholashga xizmat qiluvchi modelli indekslar tizimini ishlab chiqish zaruratini yanada kuchli asoslaydi.

Tadqiqotimiz doirasida olib borilgan izlanishlar natijasida Ch.A.Elnitsky, M.P.Fisher hamda C.L.Blevins[20] tomonidan amalga oshirilgan ilmiy tahlillar, reintegratsiya hodisasining mohiyatini ochishda mavjud yondashuvlarning fragmentar xarakterga ega ekanligini ko‘rsatadi. Mualliflar tomonidan olib borilgan keng qamrovli tahlil natijalari shuni tasdiqlaydiki, reintegratsiya tushunchasi turli tadqiqotlarda turlicha talqin qilinib, uning chegaralari, tarkibiy qismlari va o‘lchov mezonlari bir xilda aniqlashtirilmagan.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, mazkur jarayon shaxsiy (ruhiy va jismoniy holat), shaxslararo (oila va ijtimoiy munosabatlar), faoliyat (mehnat va ta’lim) hamda ijtimoiy (institutsional va siyosiy tizimlar) darajalarida bir vaqtning o‘zida kechadi. Demak, reintegratsiyani bir yoqlama, faqat individual yoki faqat ijtimoiy hodisa sifatida talqin qilish uning asl mohiyatini to‘liq ochib bera olmaydi. Olib borilgan tahlillar natijasiga ko‘ra, harbiy xizmatdan qaytgan shaxslarning sezilarli

[20] Elnitsky CA, Fisher MP and Blevins CL (2017) Military Service Member and Veteran Reintegration: A Conceptual Analysis, Unified Definition, and Key Domains. Front. Psychol. 8:369. doi: 10.3389/fpsyg.2017.00369

qismi ijtimoiy faoliyat, mehnat unumdorligi, oila bilan munosabatlar va shaxsiy hayotini tashkil etishda muayyan qiyinchiliklarga duch keladi. Bu qiyinchiliklar nafaqat ruhiy zo‘riqishlar bilan, balki ijtimoiy rollarning qayta taqsimlanishi, qadriyatlar tizimining o‘zgarishi va hayotiy maqsadlarning yangidan shakllanishi bilan bog‘liq. Ayniqsa, harbiy muhitda shakllangan qat’iy tartib, ierarxiya va jamoaviylikka asoslangan xulq-atvor stereotiplari fuqarolik jamiyatining moslashuvchan va individual yo‘naltirilgan tizimi bilan to‘qnash kelganda ichki psixologik nomutanosibliklarni yuzaga keltiradi.

Mualliflar tomonidan aniqlangan muhim ilmiy xulosalardan yana biri bu reintegratsiya jarayonini baholashda yagona, kompleks va ishonchli mezonlar tizimining yetishmasligidir. Amaldagi o‘lchov vositalari alohida jihatlarni ya’ni, ruhiy holatini, ijtimoiy faolligini yoki kasbiy moslashuvini baholashga qaratilgan bo‘lib, ular o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni aks ettira olmaydi. Natijada, reintegratsiya darajasini aniq belgilash, uning dinamikasini kuzatish va samaradorligini baholash imkoniyati cheklanadi.

Aynan shu nuqtai nazardan, reintegratsiya muammosi murakkab, ko‘p qirrali va tizimli xususiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi, shu bois ko‘p o‘lchovli tizim sifatida ifodalovchi, uning turli komponentlarini yagona integrativ mezonlar orqali baholash imkonini beruvchi indekslar tizimi ishlab chiqilishi nafaqat nazariy bilimlarni boyitadi, balki amaliy faoliyatda aniq diagnostika, prognoz va boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun mustahkam ilmiy asos yaratish imkonini beradi.

L.Danson va boshqalarning izlanishlarida[21] reintegratsiya jarayonida eng muhim ijtimoiy-psixologik omillardan aynan ishonch tizimining buzilishi o‘z aksini topgan. Harbiy tajribada yuzaga kelgan ziddiyatli holatlar shaxsning boshqalarga, ijtimoiy institutlarga va hatto o‘ziga nisbatan ishonchini pasaytiradi. Bu esa ijtimoiy aloqalarning torayishiga, muloqotdan chekinishga va ijtimoiy izolyatsiyaga olib keladi. Ayniqsa, shaxs o‘z boshidan kechirgan tajribalarni boshqalar tushunmasligidan qo‘rqib, ularni oshkor qilmaslikka harakat qiladi. Natijada yopiq psixologik tizim shakllanadi, bu esa reintegratsiya jarayonini yanada qiyinlashtirish ehtimolini oshiradi. Bundan tashqari, mansublik va “o‘z guruhiga tegishlilik” hissining yo‘qolishi ham asosiy zaif jihatlaridan biri hisoblanishini ta’kidlab o‘tishgan, zero harbiy jamoa shaxs uchun kuchli ijtimoiy tayanch bo‘lib xizmat qilishi bilan ajralib turadi. Ushbu muhitdan chiqib ketish natijasida esa shaxs yangi ijtimoiy muhitda o‘z o‘rnini topishda qiyinchilikka duch kelishi ijtimoiy begonalashuv, yolg‘izlik hissi va jamiyatdan ajralish kabi holatlarni kuchaytirishi bilan belgilanadi.

Mazkur tadqiqot natijalari rezervga bo‘shatilgan harbiy xizmatchilarning ijtimoiy-psixologik reintegratsiyasini an’anaviy moslashuv modeli doirasidan chiqarib, uni axloqiy ong, ijtimoiy mansublik va intersubyektiv ishonch tizimlarining izdan chiqishi bilan bog‘liq murakkab hodisa sifatida talqin qilish imkonini beradi. Tadqiqotda aniqlangan asosiy fenomen “axloqiy jarohatlanish” reintegratsiya jarayonida yuzaga keladigan

[21] Danson L, Spontak K, Do AN, Taylor N, Stapleton M, Rattray N. Exploring Moral Injury and Reintegration Challenges Among Post-9/11 U.S. Veterans: A Qualitative Study. Mil Psychol. 2026;38(3):239-249. doi: 10.1080/08995605.2025.2486242. Epub 2025 Apr 1. PMID: 40167609; PMCID: PMC13108344.

qiyinchiliklarning markaziy psixologik mexanizmi sifatida namoyon bo‘ladi .

Bizningcha, ushbu tadqiqotning eng muhim xulosasi shundaki, reintegratsiya jarayonida shaxsning muammolari tashqi moslashuv bilan emas, balki “men” konsepsiyasining axloqiy rekonstruksiyasi bilan bog‘liq hisoblanadi. Harbiy xizmat davomida shaxs o‘z xatti-harakatlarini muayyan vazifaviy va institutsional kontekstda amalga oshiradi. Biroq fuqarolik jamiyatiga qaytgach, ushbu xatti-harakatlar boshqa – ijtimoiy va axloqiy mezonlar asosida qayta baholanadi. Natijada esa shaxsda axloqiy dissonans yuzaga keladi, ya’ni “o‘sha paytdagi men” va “hozirgi men” o‘rtasida keskin tafovut shakllanishi kuzatiladi.

Mazkur tadqiqotda aybdorlik, uyat va g‘azab kabi axloqiy emotsiyalar nafaqat individual kechinma sifatida, balki ijtimoiy funksional hodisa sifatida namoyon bo‘lishi, ya’ni bu emotsiyalar shaxsning jamiyat bilan aloqalarini tartibga soluvchi mexanizm bo‘lib xizmat qilishi ta’kidlab o‘tilgan. Ammo aynan shu emotsiyalar kuchaygan sharoitda ular aksincha, ijtimoiy aloqalarni uzuvchi omilga aylanadi: shaxs o‘zini “noloyiq”, “tushunilmaydigan” yoki “qabul qilinmaydigan” deb his qilgan holda, ijtimoiy muloqotdan ongli ravishda chekinishi bilan ajralib turadi. Bu yerda muhim jihati shundaki, izolyatsiya tashqi emas, balki ichki psixologik asoslangan ijtimoiy chekinish sifatida yuzaga keladi. Rezvga chiqgan harbiy xizmatchilar o‘z tajribalarini boshqalar bilan baham ko‘rmaslikni ongli ravishda tanlaydi, chunki ular ijtimoiy baholanishdan qo‘rqadi yoki boshqalar ularni tushunmasligiga ishonadi. Oqibatda esa reintegratsiya jarayonining markaziy ijtimoiy mexanizmi, ya’ni

tajriba almashinuvi va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash izdan chiqishiga imkon yaratadi.

Yuqorida qayd etilgan tadqiqotning yana bir muhim jihati shundaki, harbiy tajriba davomida boshdan kechirilgan axloqiy ziddiyatlar shaxsning boshqalarga nisbatan, vaziyatga, jamiyatga nisbatan ishonchi susayishi bilan belgilanadi. Bu ishonchsizlik faqat ayrim shaxslarga emas, balki kengroq ijtimoiy tizimga jamiyatga, institutlarga va hatto yaqin insonlarga nisbatan ham yoyilish ehtimolini oshiradi. Natijada, shaxsda ijtimoiy aloqalarning torayishi va selektiv muloqot strategiyasi shakllanadi, bu esa reintegratsiya jarayonini keskin sekinlashtiradi.

Ta’kidlab o‘tishimiz kerakki, harbiy xizmatchilarning reintegratsiya jarayoni bu shunchaki moslashuv emas, balki ma’no hosil qilish jarayonidir. Ya’ni, shaxs o‘z harbiy tajribasini yangi ijtimoiy va madaniy kontekstda qayta talqin qiladi va aynan shu bosqichda “urushning narxi nima edi?”, “bu harakatlar oqlanadimi?” kabi fundamental savollar paydo bo‘ladi. Ushbu refleksiv jarayon esa axloqiy jarohatlanishning kuchayishiga yoki aksincha, shaxsiy o‘sishga olib kelishi mumkin. Shu nuqtai nazardan qaraganda, mazkur tadqiqot reintegratsiyani statik holat emas, balki dinamik va kechikkan psixologik jarayon sifatida talqin qilish zarurligini ko‘rsatadi. Shu bois, axloqiy jarohatlanish ko‘pincha xizmat davrida emas, balki aynan reintegratsiya jarayonida – shaxs o‘z tajribasini qayta anglay boshlagan paytda yuzaga kelishi bilan izohlanadi.

Yana bir tadqiqotchilar tomonidan ilgari surilgan “harbiy o‘tish nazariyasi”[22] rezervga bo‘shatilgan harbiy xizmatchilarning

[22] Military Matters: The Military Transition Theory: Rejoining Civilian Life – Carl Andrew Castro, PhD, and Sara Kintzle, PhD, LMSW https://istss.org/military-matters-the-military-transition-

ijtimoiy-psixologik reintegratsiyasini tushunishda muhim metodologik asos sifatida xizmat qiladi. Ushbu yondashuv reintegratsiyani oddiy moslashuv jarayoni sifatida emas, balki vaqt davomida izchil rivojlanadigan, o‘zaro bog‘langan va o‘zaro ta’sirlanuvchi bosqichlar tizimi sifatida talqin etadi. Ijtimoiy-psixologik nuqtai nazardan mazkur nazariyaning fundamental ahamiyati shundaki, u reintegratsiya jarayonini faqat shaxsning individual xususiyatlari bilan chegaralab qo‘ymaydi, balki uni shaxs–jamiyat–institutsional tizimlar o‘rtasidagi dinamik o‘zaro ta’sir sifatida ko‘rib chiqadi. Bu esa reintegratsiyani deterministik emas, balki tizimli-dinamik hodisa sifatida tahlil qilish imkonini beradi.

Mazkur nazariyada ajratilgan birinchi bosqich – harbiy xizmatni tark etishga yaqinlashuv – ijtimoiy-psixologik jihatdan reintegratsiyaning latent (yashirin) shakllanish davri hisoblanadi. Aynan shu bosqichda shaxsning kelajak haqidagi kognitiv sxemalari, kutilmalari, ijtimoiy rolga oid tasavvurlari va ichki psixologik tayyorgarligi shakllanadi. Agar mazkur davrda noaniqlik, majburiylik yoki subyektiv nazorat hissining pastligi kuzatilsa, bu omillar keyingi bosqichlarda prognostik jihatdan salbiy moslashuv trayektoriyalarini shakllantiradi. Shu jihatdan, reintegratsiya muammosi postfaktum hodisa emas, balki oldindan shakllanuvchi ijtimoiy-psixologik jarayon sifatida namoyon bo‘ladi.

Ikkinchi bosqich – o‘tish jarayonini boshqarish – ijtimoiy-psixologik jihatdan eng intensiv va ziddiyatli davr hisoblanadi. Bu bosqichda shaxs bir vaqtning o‘zida bir nechta ijtimoiy tizimlarga

---

theory-rejoining-civilian-life-carl-andrew-castro-phd-and-sara-kintzle-phd-lmsw/?utm_source=chatgpt.com

integratsiyalashishga majbur bo‘ladi: yangi ijtimoiy rollar tizimi, kommunikativ maydon, kasbiy faoliyat talablari va qadriyatlar ierarxiyasi. Natijada, shaxsda ko‘p darajali moslashuv bosimi va rol identifikatsiyasi dissonansi yuzaga keladi. Agar individual psixologik resurslar (moslashuvchanlik, refleksivlik, irodaviy barqarorlik) hamda tashqi ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimi o‘rtasida muvozanat ta’minlanmasa, reintegratsiya jarayoni regressiv yo‘nalishga o‘tishi kuzatilishi mumkin. Mazkur bosqichning muhim ijtimoiy-psixologik xususiyati shundaki, reintegratsiya faqat ichki psixologik resurslarga bog‘liq emas, balki ijtimoiy infratuzilma, ijtimoiy kapital va institutsional qo‘llab-quvvatlash darajasi bilan ham bevosita belgilanadi. Demak, shaxsning muvaffaqiyatli reintegratsiyasi uning subyektiv imkoniyatlari bilan bir qatorda, ijtimoiy tizimning moslashuvni qo‘llab-quvvatlash salohiyatiga ham bog‘liq bo‘ladi. Shu jihatdan, reintegratsiya jarayoni ijtimoiy tenglik, ijtimoiy adolat va resurslarga kirish imkoniyatlari bilan chambarchas aloqador tizimli hodisa sifatida namoyon bo‘ladi.

Uchinchi bosqich – o‘tish natijalarini baholash – reintegratsiyaning ko‘p o‘lchovli va ko‘p komponentli tabiatini ochib beradi. Ushbu bosqichda shaxsning holati alohida indikatorlar orqali emas, balki o‘zaro bog‘liq tizim sifatida baholanadi: kasbiy faoliyat samaradorligi, oilaviy munosabatlar sifati, jismoniy va psixologik salomatlik, ijtimoiy aloqalar barqarorligi hamda umumiy hayotiy farovonlik. Bu esa reintegratsiyani integrativ va sinergetik tizim sifatida o‘lchash zarurligini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Bizning fikrimizcha, reintegratsiya jarayonida muvaffaqiyat yoki muvaffaqiyatsizlik bir soha bilan belgilanmaydi, balki u

differensial va notekis rivojlanadi. Ya’ni, shaxs ayrim yo‘nalishlarda yuqori moslashuv ko‘rsatishi mumkin, biroq boshqa sohalarda disfunksional holatlar saqlanib qoladi. Bu esa reintegratsiyani geteroxron (turli tezlikda rivojlanadigan) jarayon sifatida talqin qilish zarurligini ko‘rsatadi. Shu bois, rezervga bo‘shatilgan harbiy xizmatchilarning reintegratsiyasini adekvat baholash uchun uni ko‘p darajali (individual, shaxslararo, ijtimoiy), ko‘p komponentli (psixologik, ijtimoiy, kasbiy) va dinamik tizim sifatida ifodalovchi modellashgan indekslar tizimini ishlab chiqish zarurati yuzaga keladi. Aynan shunday yondashuvgina ushbu jarayonni nafaqat tavsiflash, balki uni prognozlash va boshqarish imkonini yaratadi. Boshqacha qilib aytganda, “harbiy o‘tish nazariyasi” reintegratsiyani statik natija emas, balki vaqt davomida shakllanuvchi, ichki va tashqi omillar o‘zaro ta’siri natijasida rivojlanadigan murakkab ijtimoiy-psixologik tizim sifatida talqin qilinadi.

Mazkur ilmiy yondashuvlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, harbiy xizmatdan keyingi hayotga moslashuv jarayoni oddiy ijtimoiy o‘zgarish emas, balki shaxsning ichki psixologik tuzilmalari, ijtimoiy munosabatlari va hayotiy faoliyat tizimining o‘zaro uyg‘unlashuvi bilan bog‘liq murakkab va ko‘p qirrali jarayondir. Ushbu jarayonda individual imkoniyatlar bilan bir qatorda tashqi ijtimoiy sharoitlarning o‘zaro mos kelishi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Shu bois, uni samarali o‘rganish va baholash uchun alohida ko‘rsatkichlarga emas, balki turli omillarni yagona tizimda aks ettira oladigan kompleks yondashuvlarga tayanish zarurati yuzaga keladi. Zero mamlakatimizda harbiy xizmatchilarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va ularni fuqarolik hayotiga moslashtirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri

sifatida belgilanib kelmoqda. Shu bilan birga, mavjud amaliyotda rezervga bo‘shatilgan harbiy xizmatchilarning psixologik holatini kompleks baholash, ularning moslashuv darajasini aniqlash va individual ehtiyojlariga moslashgan tizimli yondashuvlarni ishlab chiqish yetarli darajada shakllanmaganligini kuzatishimiz mumkin. Chunki mavjud tadqiqotlar reintegratsiyaning alohida jihatlarini ochib bergan bo‘lsa-da, uni tizimli, o‘lchovli va boshqariladigan ko‘rsatkichlar orqali ifodalash masalasi yetarlicha ishlab chiqilmagan. Demak, reintegratsiya jarayonini modellashgan indekslar orqali baholash nafaqat nazariy jihatdan, balki amaliy boshqaruv va psixologik xizmat tizimini takomillashtirish nuqtai nazaridan ham muhim ilmiy yo‘nalish hisoblanadi.

Mazkur ilmiy yondashuvlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, harbiy xizmatdan keyingi hayotga qo‘shilish jarayoni shaxsning yangi ijtimoiy makonda o‘z o‘rnini qayta belgilashi, mavjud ijtimoiy rollar tizimini yangidan o‘zlashtirishi va ijtimoiy munosabatlar tarmog‘ini qayta shakllantirishi bilan bog‘liq murakkab ijtimoiy-psixologik hodisa hisoblanadi. Ushbu jarayonning muvaffaqiyati nafaqat shaxsning individual-psixologik resurslari, balki uning jamiyat bilan o‘zaro munosabatlari sifati, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash manbalarining mavjudligi, mansublik hissining saqlanishi hamda yangi ijtimoiy maqomni qabul qilish darajasi bilan ham belgilanadi. Shu ma’noda, rezervga bo‘shatilgan harbiy xizmatchining fuqarolik muhitiga moslashuvi shaxs va ijtimoiy muhit o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirning natijasi bo‘lib, unda identifikatsion o‘zgarishlar, ijtimoiy ishonchning qayta tiklanishi, kommunikativ aloqalarning yangilanishi va hayotiy istiqbollarning qayta qurilishi markaziy o‘rin egallaydi. Binobarin, mazkur

jarayonni ilmiy jihatdan anglash va baholash uni alohida ko‘rsatkichlar yig‘indisi sifatida emas, balki o‘zaro bog‘langan psixologik, ijtimoiy va faoliyatga oid omillarning yaxlit tizimi sifatida tadqiq etishni taqozo etadi.

Mahalliy olimlarimizdan A.A.Nurullayev[23] tomonidan olib borilgan tadqiqot natijalari rezervga bo‘shatilgan harbiy xizmatchilar reintegratsiyasi muammosini tushunishda muhim ijtimoiy-psixologik ahamiyat kasb etadi. Chunki destruktiv ta’sir ostiga tushgan harbiy xizmatchilarni sog‘lom hayot tarziga qaytarish ham, rezervga bo‘shatilgan harbiy xizmatchilarni fuqarolik muhitiga muvaffaqiyatli integratsiyalash ham mohiyatan shaxsning ijtimoiy faoliyat subyekti sifatidagi maqomini tiklashga qaratilgan jarayon hisoblanadi.

Tadqiqotda axborotlarning psixologik transformatsiyalanishi natijasida harbiy xizmatchilar axloqiy-ruhiy holatining disfunksional tus olishi ta’kidlangangani bois, mazkur holat reintegratsiya jarayonida ham muhim o‘rin tutishi kuzatiladi. Zero harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxs fuqarolik muhitiga o‘tish davrida nafaqat yangi ijtimoiy sharoitlar bilan, balki o‘zining oldingi tajribalarini qayta anglash zarurati bilan ham to‘qnashishi tabiiy hol. Agar ushbu jarayonda voqelikning subyektiv talqini salbiy mazmun kasb etsa, bu shaxsning fuqarolik jamiyatiga moslashuvini qiyinlashtiruvchi ichki psixologik to‘siqlarni shakllantirishi bilan izohlanadi. Natijada esa ijtimoiy ishonchning pasayishi, kommunikativ faollikning susayishi hamda ijtimoiy begonalashuv tendensiyalari kuchayishiga imkon yaratadi.

[23] A.A.Nurullayev “Destruktiv ta’sirga tushgan harbiy xizmatchilarni sog’lom hayot tarziga qaytarishning psixologik mexanizmlari” diss…avto… Toshkent 2023, B. 8

Muallif tomonidan asoslangan sanogen tafakkur konsepsiyasi reintegratsiya jarayonining psixologik resurslaridan biri sifatida alohida ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlab o'tishimiz mumkin. Chunki rezervga bo'shatilgan harbiy xizmatchining yangi ijtimoiy maqomni qabul qilishi, o'z hayotiy istiqbollarini qayta belgilashi va fuqarolik muhitida o'z o'rnini topishi ko'p jihatdan voqelikni konstruktiv idrok etish qobiliyatiga bog'liq. Salbiy tajribalarni qayta ishlash, muvaffaqiyatsizliklarni rivojlanish imkoniyati sifatida qabul qilish va kelajakka nisbatan optimistik munosabatni shakllantirish reintegratsiyaning muhim psixologik shartlaridan biri hisoblanadi.

Tadqiqotda destruktiv xatti-harakatlarning «oilaviy muammolar», «harbiy xizmatga moslashish» va «ziddiyatlar» bilan bog'liqligi ko'rsatilganligi, rezervga bo'shatilgan harbiy xizmatchilar reintegratsiyasida ham markaziy o'rin egallashini namoyon qiladi. Chunki harbiy xizmatdan keyingi davrda shaxsning oiladagi roli, yaqinlari bilan munosabatlari, ijtimoiy mavqei va kommunikativ aloqalari qayta shakllanadi. Aynan ushbu jarayonda yuzaga keladigan ziddiyatlar yoki qo'llab-quvvatlovchi munosabatlar reintegratsiyaning muvaffaqiyatli yoki muvaffaqiyatsiz kechishini belgilovchi asosiy ijtimoiy-psixologik omillardan biri hisoblanadi.

Shuningdek, olim tomonidan psixologik immunitetning yo'naltiruvchi, axborotlarni qayta ishlovchi, boshqaruvchi va refleksiv funksiyalarining ahamiyati asoslanganganligini ko'rishimiz mumkin. Ijtimoiy-psixologik nuqtai nazardan ushbu funksiyalar rezervga bo'shatilgan harbiy xizmatchining yangi ijtimoiy muhit talablarini anglash, o'z imkoniyatlarini adekvat baholash, yangi ijtimoiy rollarni o'zlashtirish va o'z hayotiy

tajribasini qayta talqin qilish jarayonlarining asosini tashkil etadi. Shu sababli, psixologik immunitet darajasi reintegratsiya samaradorligini belgilovchi muhim indikatorlardan biri sifatida qaralishi mumkin.

Umuman olganda, A.A.Nurullayevning ilmiy xulosalari ko‘ra, harbiy xizmatchining destruktiv ta’sirlardan xoli bo‘lib, konstruktiv hayot faoliyatiga qaytishi bilan rezervga bo‘shatilgan harbiy xizmatchining fuqarolik jamiyatiga muvaffaqiyatli integratsiyalashuvi o‘rtasida umumiy ijtimoiy-psixologik qonuniyat mavjudligini ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi. Ushbu qonuniyat shaxsning axloqiy-ruhiy barqarorligi, ijtimoiy munosabatlar tizimi, psixologik himoya resurslari va konstruktiv tafakkur mexanizmlarining uyg‘un faoliyati orqali namoyon bo‘ladi. Shu jihatdan, destruktiv ta’sirlardan himoyalanganlik darajasi, sanogen tafakkur rivojlanganligi hamda psixologik immunitet holati rezervga bo‘shatilgan harbiy xizmatchilar reintegratsiyasining muhim psixoindikatorlari sifatida qaralishi bilan belgilanadi.

A.M.Ashurmatov[24] tomonidan olib borilgan tadqiqot harbiy xizmatchilar axloqiy-ruhiy holatining shakllanishi va barqarorligini ta’minlovchi ijtimoiy-psixologik omillarni aniqlashga qaratilganligi bilan alohida ajralib turadi. Muallif tomonidan axloqiy-ruhiy holatning qadriyatlar tizimi, o‘zini boshqarish qobiliyati, irodaviy sifatlar va moslashuv imkoniyatlari bilan uzviy bog‘liqligi asoslangan bo‘lib, ushbu xulosa harbiy faoliyat davomida shakllangan psixologik resurslarning xizmatdan keyingi davrdagi ahamiyatini tushunishga imkon beradi.

[24] A.M.Ashurmatov “Harbiy xizmatchilar axloqiy-ruhiy holatini barqarorlashtirishning ijtimoiy-psixologik omillari” diss… avto… Toshkent, 2025 B. 8

Mazkur ilmiy natijalar rezervga bo‘shatilgan harbiy xizmatchilar reintegratsiyasini tadqiq etishda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Chunki fuqarolik hayotiga qayta qo‘shilish jarayonida shaxs yangi ijtimoiy maqom, yangi munosabatlar tizimi va yangi faoliyat sharoitlariga moslashishga majbur bo‘ladi. Ushbu vaziyatda harbiy xizmat davomida shakllangan qadriy yo‘nalishlar, o‘z xatti-harakatlarini nazorat qilish ko‘nikmalari hamda psixologik barqarorlik darajasi reintegratsiya jarayonining muvaffaqiyatli yoki murakkab kechishini belgilovchi omillardan biri sifatida namoyon bo‘lishi kuzatiladi.

Ayniqsa, muallif tomonidan axloqiy normativlik, hissiy barqarorlik va moslashuv imkoniyatlarining o‘zaro bog‘liqlikda o‘rganilgani reintegratsiya jarayonining ichki mexanizmlarini tushunishda muhim ahamiyatga ega. Sababi, rezervga bo‘shatilgan harbiy xizmatchining fuqarolik muhitidagi yangi ijtimoiy rollarni qabul qilishi, jamiyat bilan konstruktiv munosabatlar o‘rnatishi va hayotiy maqsadlarini qayta belgilashi ko‘p jihatdan uning psixologik barqarorligiga bog‘liq bo‘ladi. Psixologik barqarorlikning pasayishi esa ijtimoiy noaniqlik, rol ziddiyatlari va moslashuv qiyinchiliklarining kuchayishiga olib kelishi mumkin.

Shu nuqtai nazardan, A.M.Ashurmatovning ilmiy qarashlari reintegratsiyani faqat tashqi ijtimoiy moslashuv jarayoni sifatida emas, balki shaxsning ichki psixologik resurslari va ijtimoiy muhit talablari o‘rtasidagi muvozanatni qayta tiklash jarayoni sifatida talqin qilish imkonini beradi. Binobarin, axloqiy-ruhiy barqarorlik, o‘zini boshqarish darajasi, moslashuv salohiyati va qadriy yo‘nalishlarning mustahkamligi rezervga bo‘shatilgan harbiy xizmatchilar ijtimoiy-psixologik reintegratsiyasining muhim

tarkibiy ko‘rsatkichlari sifatida qaralishi mumkin. Mazkur holat esa reintegratsiya samaradorligini baholashga xizmat qiluvchi modellashgan indekslar tizimini ishlab chiqishda ushbu psixologik omillarni alohida hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi.

Xulosa sifatida ta’kidlash joizki, yuqorida keltirilgan ilmiy qarashlar va empirik natijalarga ko‘ra, rezervga bo‘shatilgan harbiy xizmatchining fuqarolik muhitidagi holati uning avvalgi harbiy tajribasi bilan yangi ijtimoiy voqelik o‘rtasidagi muvozanat darajasi orqali belgilanadi. Mazkur jarayonda hal qiluvchi omil sifatida shaxsning harbiy faoliyat davomida shakllangan qadriyatlari, munosabatlari va xulq-atvor andozalarining yangi ijtimoiy talablar bilan uyg‘unlashish darajasi namoyon bo‘ladi. Shu bois reintegratsiyani yakuniy natija sifatida emas, balki ijtimoiy maqom, identifikatsiya, mansublik hissi va hayotiy maqsadlarning qayta tashkil topishi bilan tavsiflanuvchi uzluksiz jarayon sifatida talqin etish maqsadga muvofiqdir. Bunday yondashuv rezervga bo‘shatilgan harbiy xizmatchilar hayotidagi o‘zgarishlarni alohida ko‘rsatkichlar orqali emas, balki yagona ijtimoiy-psixologik tizim doirasida baholash zaruratini yuzaga keltiradi.

1.3-§. Rezervga bo‘shatilgan harbiy xizmatchilarning reintegratsiya jarayonini empirik o‘rganish ijtimoiy-psixologik zarurat sifatida

Rezervga bo‘shatilgan harbiy xizmatchilarning reintegratsiya jarayoniga ta’sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillarni tadqiq etishda ularning yoshi ham muhim indekslardan biri bo‘lishi mumkinligi ma’lum bo‘ladi. Tadqiqotda respondent sifatida ishtirok etgan rezervdagi harbiy xizmatchilarning yosh omili

bo‘yicha taqsimotiga ko‘ra, 40 yoshlilar 28 nafarni (6,5%), 41 yoshli respondentlar 112 nafarni (15,2%) tashkil etib, tanlanmadagi eng yuqori ulushni egallaydi. Bu yosh guruhi ijtimoiy jihatdan faol, tajribaga boy hamda psixologik jihatdan nisbatan barqaror qatlam hisoblanadi. Ularning yuqori ulushi reintegratsiya jarayonida moslashuv resurslari (tajriba, ijtimoiy kapital, kasbiy kompetensiya) yetarli ekanligini ko‘rsatadi.

42 yoshli respondentlar 83 nafar (11,3%)ni tashkil etadi. Bu yosh davrida shaxsda refleksivlik, o‘z hayotiy yo‘lini qayta baholash va yangi ijtimoiy sharoitlarga moslashish ehtiyoji kuchayadi. Shu sababli, reintegratsiya jarayoni ushbu guruhda ongli strategik moslashuv xarakteriga ega bo‘ladi. 43 yoshli respondentlar 68 nafar (9,3%)ni tashkil etib, bu yosh bosqichi psixologik jihatdan barqarorlik bilan birga ijtimoiy rol konfliktlari ehtimoli bilan tavsiflanadi. Harbiydan fuqarolik hayotiga o‘tishda ularning moslashuvi ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimlariga sezilarli darajada bog‘liq bo‘ladi. 44 yoshli respondentlar 98 nafarni (13,3%) tashkil etadi. Ushbu yosh davrida shaxsda ijtimoiy tajriba maksimal darajada to‘plangan bo‘lib, bu reintegratsiya jarayonini nisbatan samarali amalga oshirish imkonini beradi. Shu bilan birga, konservativ psixologik pozitsiyalar ham namoyon bo‘lishi mumkin.

45 yoshli respondentlar 53 nafar (7,2%)ni tashkil etadi. Bu davrda shaxsda ijtimoiy va kasbiy o‘zgarishlarga nisbatan ehtiyotkorlik ortadi, bu esa reintegratsiya jarayonini biroz murakkablashtirishi mumkin. 46 yoshli respondentlar 64 nafar (8,7%)ni tashkil etadi. Ushbu yosh bosqichi adaptiv resurslar bilan birga psixologik charchoq elementlari paydo bo‘lishi mumkinligi bilan xarakterlanadi. Shu bois, psixologik qo‘llab-quvvatlash

muhim ahamiyat kasb etadi. 47 yoshli respondentlar 59 nafar (8,0%)ni tashkil etadi. Bu davrda shaxsda ijtimoiy tajriba yetarli bo‘lsa-da, yangi faoliyatga moslashish jarayonida motivatsion pasayish kuzatilishi mumkin. 48 yoshli respondentlar 29 nafar (3,9%)ni tashkil etadi. Ushbu yosh davrida reintegratsiya jarayoni ko‘proq individual psixologik xususiyatlarga bog‘liq bo‘lib, moslashuv differensial xarakter kasb etadi.

49 yoshli respondentlar 28 nafar (3,8%)ni tashkil etadi. Bu yosh bosqichida shaxsda ijtimoiy rollar qat’iylashgan bo‘lib, yangi ijtimoiy muhitga moslashish nisbatan murakkab kechadi. 50 yoshli respondentlar 7 nafar (1,0%)ni tashkil etadi. Ushbu davrda reintegratsiya jarayoni ko‘proq psixologik barqarorlik va mavjud ijtimoiy resurslarga bog‘liq holda amalga oshadi. 51 yoshli respondentlar 9 nafar (1,2%), 52 yoshli respondentlar 10 nafar (1,4%), 53 yoshli respondentlar 10 nafar (1,4%)ni tashkil etadi. Ushbu yosh guruhlarida moslashuv jarayoni individual hayotiy tajriba va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash darajasiga bevosita bog‘liq bo‘ladi. 54 yoshli respondentlar 9 nafar (1,2%), 55 yoshli respondentlar 8 nafar (1,1%), 56 yoshli respondentlar 9 nafar (1,2%)ni tashkil etadi. Bu yosh davrida reintegratsiya jarayoni ko‘proq konservativ strategiyalar asosida amalga oshadi. 57 yoshli respondentlar 5 nafar (0,7%), 58 yoshli respondentlar 5 nafar (0,7%)ni tashkil etadi. Ushbu guruhda moslashuv jarayonida psixologik moslashuvdan ko‘ra ijtimoiy himoya mexanizmlari muhimroq rol o‘ynaydi. 59 yoshli respondentlar 3 nafar (0,4%), 60 yoshli respondentlar 3 nafar (0,4%), 61 yoshli respondentlar 3 nafar (0,4%), 62 yoshli respondentlar 3 nafar (0,4%), 63 yoshli respondentlar 3 nafar (0,4%), 64 yoshli respondentlar 3 nafar (0,4%) hamda 65 yoshli respondentlar 3 nafarni (0,4%) tashkil

etadi. Ushbu yuqori yosh guruhlarida reintegratsiya jarayoni asosan ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, oilaviy muhit va sog‘liq omillari bilan belgilanadi. Umuman olganda, tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, tanlanmaning asosiy qismi 41-44 yosh oralig‘iga to‘g‘ri kelib, bu davr ijtimoiy-psixologik jihatdan eng faol, moslashuvchan va reintegratsiya uchun nisbatan qulay bosqich hisoblanadi. Aksincha, yosh oshgan sari moslashuv jarayoni murakkablashib boradi va psixologik, ijtimoiy hamda institutsional qo‘llab-quvvatlashga ehtiyoj ortadi.

1.3.1-jadval

Tadqiqot sinaluvchilarining hudud omili bo‘yicha tasnifi (n=735)

Hudud nomi	Soni (nafar)	Foiz (%)
Toshkent viloyati	246 nafar	33,5%
Qashqadaryo viloyati	305 nafar	41,5%
Farg‘ona viloyati	184 nafar	25,0%
Jami:	735 nafar	100,0%

Tadqiqot sinaluvchilarining hudud omili bo‘yicha taqsimoti rezervga bo‘shatilgan harbiy xizmatchilarning reintegratsiya jarayoniga ta’sir etuvchi ijtimoiy-madaniy, iqtisodiy va psixologik determinantlarni aniqlashda muhim empirik asos bo‘lib xizmat qiladi. Hududiy differensiya shaxsning ijtimoiy tajribasi, qadriyatlar tizimi, kommunikativ muhit va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash darajasi bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, reintegratsiya jarayonining muvaffaqiyat darajasini belgilovchi omillardan biri hisoblanadi.

Jadval ma’lumotlariga ko‘ra, Toshkent viloyatidan bo‘lgan respondentlar 246 nafarni tashkil etib, umumiy tanlanmaning 33,5 foizini egallaydi. Mazkur hudud respublikaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlangan mintaqalaridan biri sifatida tavsiflanadi. Shu bois, ushbu hudud vakillarida reintegratsiya jarayoni nisbatan qulay

sharoitlarda kechishi, ya’ni mehnat bozoriga kirish imkoniyatlari, ijtimoiy infratuzilmaning rivojlanganligi hamda psixologik xizmatlar mavjudligi bilan izohlanadi. Bunday sharoitlar shaxsning ijtimoiy moslashuvchanligini oshirib, psixologik barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiladi.

Qashqadaryo viloyatidan bo‘lgan respondentlar 305 nafarni tashkil etib, eng yuqori ulush 41,5 foizni egallaydi. Ushbu ko‘rsatkich tadqiqotda mazkur hudud vakillarining yetakchi o‘rin tutishini anglatadi. Qashqadaryo viloyati aholisi tarkibida an’anaviy ijtimoiy munosabatlar, jamoaviylik va kollektiv qadriyatlar ustunligi kuzatiladi. Bu esa, bir tomondan, reintegratsiya jarayonida ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning kuchli bo‘lishiga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, yangi ijtimoiy rollarni qabul qilishda konservativ psixologik to‘siqlar yuzaga kelish ehtimolini oshiradi. Shu jihatdan, mazkur hudud vakillarida reintegratsiya jarayoni ijtimoiy-psixologik moslashuvning o‘ziga xos dinamikasiga ega bo‘lishi mumkin.

Farg‘ona viloyatidan bo‘lgan respondentlar 184 nafarni tashkil etib, umumiy tanlanmaning 25,0 foizini egallaydi. Farg‘ona vodiysi hududi o‘zining yuqori demografik zichligi, kommunikativ faolligi va ijtimoiy mobilitet darajasining nisbatan yuqoriligi bilan ajralib turadi. Shu sababli, ushbu hudud vakillarida reintegratsiya jarayoni ko‘proq kommunikativ kompetensiyalar, ijtimoiy aloqalar va shaxslararo munosabatlar tizimi orqali amalga oshiriladi. Bunda moslashuv jarayoni tezroq kechishi mumkin, biroq yuqori ijtimoiy raqobat muhiti ayrim hollarda psixologik stress omillarini kuchaytirishi ehtimoli ham mavjud.

1.3.2-jadval

Tadqiqot sinaluvchilarining rezervga bo‘shatilgan muddati bo‘yicha tasnifi (n=735)

Rezerv muddati	Soni (nafar)	Foiz (%)
1-5 yilgacha	208 nafar	28,3%
6-10 yilgacha	229 nafar	31,2%
11-15 yilgacha	139 nafar	18,9%
16-20 yilgacha	159 nafar	21,6%
Jami:	735 nafar	100,0%

Tadqiqot sinaluvchilarining rezervga bo‘shatilgan muddati bo‘yicha taqsimoti reintegratsiya jarayonining vaqt omiliga bog‘liq ijtimoiy-psixologik dinamikasini ochib beruvchi muhim empirik indikatorlardan biri hisoblanadi. Mazkur ko‘rsatkich shaxsning harbiy xizmatdan fuqarolik hayotiga o‘tish jarayonida moslashuv bosqichlari, ijtimoiy rollarning transformatsiyasi, psixologik reorientatsiya hamda ijtimoiy identifikatsiya qayta shakllanishining davomiyligini aks ettiradi.

Jadval ma’lumotlariga ko‘ra, 1-5 yilgacha muddatda rezervga bo‘shatilgan respondentlar 208 nafarni tashkil etib, umumiy tanlanmaning 28,3 foizini egallaydi. Ushbu guruh vakillari reintegratsiya jarayonining boshlang‘ich bosqichida bo‘lib, ular uchun harbiy identifikatsiyadan fuqarolik identifikatsiyasiga o‘tish jarayoni hali to‘liq yakunlanmagan bo‘ladi. Bu davrda psixologik dezadaptatsiya, rol noaniqligi hamda ijtimoiy moslashuvdagi qiyinchiliklar nisbatan yuqori darajada kuzatilishi mumkin. Shu bois, ushbu guruh uchun psixologik qo‘llab-quvvatlash, kasbiy yo‘naltirish va ijtimoiy integratsiyani tezlashtiruvchi dasturlar alohida ahamiyat kasb etadi.

6-10 yilgacha muddatda rezervga bo‘shatilgan respondentlar 229 nafarni tashkil etib, eng yuqori ulush 31,2 foizni egallaydi. Bu guruh reintegratsiya jarayonining o‘rta bosqichida bo‘lib, ularda fuqarolik hayotiga nisbatan moslashuv darajasi shakllangan,

ammo barqaror emasligi bilan xarakterlanadi. Mazkur bosqichda shaxslar o‘z ijtimoiy maqomini qayta aniqlash, kasbiy faoliyatni mustahkamlash hamda yangi ijtimoiy rollarni integratsiyalash jarayonini boshdan kechiradi. Psixologik jihatdan bu davr nisbatan barqarorlashuv bosqichi sifatida talqin qilinadi. 11-15 yilgacha muddatda rezervga bo‘shatilgan respondentlar 139 nafarni tashkil etib, umumiy tanlanmaning 18,9 foizini egallaydi. Ushbu guruhda reintegratsiya jarayoni ko‘p jihatdan yakunlangan bo‘lib, shaxsda fuqarolik identifikatsiyasi ustuvorlik kasb etadi. Shu bilan birga, ayrim hollarda “kechikkan reintegratsiya” fenomeni kuzatilishi mumkin, ya’ni shaxsda harbiy tajriba bilan bog‘liq psixologik stereotiplar saqlanib qoladi.

16-20 yilgacha muddatda rezervga bo‘shatilgan respondentlar 159 nafarni tashkil etib, 21,6 foizni egallaydi. Ushbu guruh reintegratsiya jarayonining nisbatan uzoq muddatli natijalarini ifodalaydi. Bu davrda shaxs fuqarolik jamiyatiga to‘liq integratsiyalashgan bo‘lishi kutiladi, biroq yosh omili, sog‘liq holati va ijtimoiy resurslarning cheklanganligi sababli yangi moslashuv muammolari yuzaga kelishi mumkin. Ayniqsa, ijtimoiy faollikning pasayishi va kommunikativ doiraning torayishi kabi omillar psixologik holatga ta’sir ko‘rsatishi ehtimoldan xoli emas.

Rezerv muddati bo‘yicha taqsimot natijalari shuni ko‘rsatadiki, tadqiqot tanlanmasida 6-10 yil oralig‘ida rezervga bo‘shatilgan shaxslar ustunlik qiladi. Bu esa reintegratsiya jarayonining o‘rta bosqichi eng muhim va dinamik davr ekanligini ko‘rsatadi. Shu asosda, reintegratsiya dasturlarini vaqt omiliga mos holda differensiallashtirish, ya’ni dastlabki bosqichda intensiv psixologik va ijtimoiy yordam, o‘rta bosqichda kasbiy barqarorlashuvni qo‘llab-quvvatlash, uzoq muddatli bosqichda esa

ijtimoiy faollikni saqlash va psixologik farovonlikni mustahkamlashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish zarurati paydo bo‘ladi.

1.3.3-jadval

Tadqiqot sinaluvchilarining jins omili bo‘yicha tasnifi (n=735)

Jinsi	**Soni (nafar)**	**Foiz (%)**
Erkak harbiy xizmatchilar	693 nafar	94,3%
Ayol harbiy xizmatchilar	42 nafar	5,7%
Jami:	735 nafar	100,0%

Tadqiqot sinaluvchilarining jins omili bo‘yicha taqsimoti rezervga bo‘shatilgan harbiy xizmatchilarning reintegratsiya jarayonini tahlil qilishda muhim ijtimoiy-demografik va psixologik determinant sifatida namoyon bo‘ladi. Jins omili shaxsning ijtimoiy rollari, kommunikativ xulq-atvori, emotsional reaksiya tizimi hamda moslashuv strategiyalarining shakllanishida muhim o‘rin egallaydi. Shu bois, mazkur ko‘rsatkich reintegratsiya jarayonining differensial xususiyatlarini aniqlashda alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Jadval ma’lumotlariga ko‘ra, erkak harbiy xizmatchilar 693 nafarni tashkil etib, umumiy tanlanmaning mutlaq ustun qismini 94,3 foizini egallaydi. Ushbu natija harbiy tizimning an’anaviy gender strukturasi bilan izohlanadi, ya’ni erkaklar harbiy xizmatda son jihatdan ustunlik qiladi. Ijtimoiy-psixologik nuqtai nazardan, erkak harbiy xizmatchilarning reintegratsiya jarayoni ko‘pincha kasbiy identifikatsiya, ijtimoiy maqomni saqlab qolish, iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash kabi omillar bilan bevosita bog‘liq bo‘ladi. Shu bilan birga, erkaklarda emotsional holatni ochiq ifodalash darajasi nisbatan pastligi sababli, ichki psixologik zo‘riqishlar yashirin shaklda kechishi mumkin. Bu esa, reintegratsiya jarayonida psixologik xizmatlarning proaktiv yondashuvini talab etadi.

Ayol harbiy xizmatchilar esa 42 nafarni tashkil etib, umumiy tanlanmaning 5,7 foizini egallaydi. Ushbu koʻrsatkich nisbatan past boʻlsa-da, ilmiy tahlil nuqtai nazaridan muhim hisoblanadi. Ayol harbiy xizmatchilarning reintegratsiya jarayoni koʻpincha koʻp rollilik fenomeni bilan tavsiflanadi, ya'ni ular bir vaqtning oʻzida kasbiy, oilaviy va ijtimoiy rollarni uygʻunlashtirish zaruratiga duch keladi. Ayollarda emotsional sezgirlik, kommunikativ ochiqlik va ijtimoiy qoʻllab-quvvatlashga moyillik yuqoriroq boʻlishi kuzatiladi, bu esa moslashuv jarayonini ayrim hollarda yengillashtirishi mumkin. Biroq, gender stereotiplari va ijtimoiy kutishlar ularning reintegratsiya jarayonida qoʻshimcha psixologik bosimlarni keltirib chiqarishi ehtimoli ham mavjud.

Jins omili boʻyicha taqsimot natijalari tadqiqot tanlanmasida erkak harbiy xizmatchilar mutlaq ustunlikka ega ekanligini koʻrsatadi. Bu holat tadqiqot natijalarining asosan erkaklar psixologik xususiyatlari kontekstida talqin qilinishini talab etadi. Shu bilan birga, ayol harbiy xizmatchilarning nisbatan kam ulushi ularning reintegratsiya jarayonini alohida, chuqurlashtirilgan tahlil qilish zarurligini asoslaydi. Mazkur natijalar asosida reintegratsiya dasturlarini ishlab chiqishda gender yondashuvini inobatga olish, ya'ni erkaklar uchun psixologik zoʻriqishlarni kamaytirishga qaratilgan strategiyalarni, ayollar uchun esa koʻp rollilik va ijtimoiy qoʻllab-quvvatlash tizimini mustahkamlashga yoʻnaltirilgan kompleks ishlarni yoʻlga qoʻyish zaruratini koʻrsatadi.

1.3.4-jadval

Tadqiqot sinaluvchilarining xizmat tajribasi boʻyicha tasnifi (n=735)

Xizmat muddati	Soni (nafar)	Foiz (%)
10-15 yil	208 nafar	28,3%
16-20 yil	229 nafar	31,2%
21-25 yil	139 nafar	18,9%

26-30 yil	159 nafar	21,6%
Jami:	735 nafar	100,0%

Tadqiqot sinaluvchilarining xizmat tajribasi (xizmat muddati) bo‘yicha taqsimoti rezervga bo‘shatilgan harbiy xizmatchilarning reintegratsiya jarayonini tushuntirishda muhim ijtimoiy-psixologik indikator sifatida namoyon bo‘ladi. Xizmat muddati shaxsning kasbiy identifikatsiyasi darajasi, institutsional qadriyatlarni interiorizatsiya qilish ko‘lami, intizomiy xulq-atvor modeli hamda fuqarolik hayotiga moslashuv strategiyalarining shakllanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois, mazkur ko‘rsatkich reintegratsiya jarayonining murakkablik darajasi va yo‘nalishini aniqlashda alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Jadval ma’lumotlariga ko‘ra, 10-15 yil xizmat qilgan respondentlar 208 nafarni tashkil etib, umumiy tanlanmaning 28,3 foizini egallaydi. Ushbu guruh vakillari harbiy xizmatning o‘rta bosqichida shakllangan bo‘lib, ularda kasbiy identifikatsiya yetarli darajada rivojlangan, biroq u hali to‘liq rigid tus olmagan bo‘ladi. Shu sababli, mazkur guruhda reintegratsiya jarayoni nisbatan moslashuvchan kechishi, yangi ijtimoiy rollarni qabul qilish imkoniyati yuqoriroq bo‘lishi mumkin. Mazkur xizmat muddatiga ega shaxslar o‘zgarishlarga ochiqroq bo‘lib, kasbiy reorientatsiya jarayonini samarali amalga oshirish salohiyatiga ega. 16-20 yil xizmat qilgan respondentlar 229 nafarni tashkil etib, eng yuqori ulush 31,2 foizni egallaydi. Bu guruhda harbiy xizmat tajribasi chuqur interiorizatsiya qilingan bo‘lib, shaxsning “harbiy identiteti” mustahkam shakllangan bo‘ladi. Shu bois, reintegratsiya jarayoni murakkabroq psixologik qayta moslashuvni talab qiladi. Ular uchun fuqarolik hayotiga o‘tish jarayoni

koʻpincha ijtimoiy maqomning oʻzgarishi, rol transformatsiyasi va kasbiy oʻzini qayta aniqlash bilan bogʻliq boʻladi.

21-25 yil xizmat qilgan respondentlar 139 nafarni tashkil etib, 18,9 foizni egallaydi. Ushbu guruhda xizmat tajribasi yuqori darajada boʻlib, shaxsning kasbiy faoliyati hayotiy yoʻlining asosiy mazmuniga aylangan boʻladi. Natijada, reintegratsiya jarayonida psixologik inertsiya, ya'ni avvalgi xulq-atvor va qadriyatlarni saqlab qolishga intilish kuchli namoyon boʻlishi mumkin. Bu esa yangi ijtimoiy sharoitlarga moslashishni murakkablashtiradi. 26-30 yil xizmat qilgan respondentlar 159 nafarni tashkil etib, umumiy tanlanmaning 21,6 foizini egallaydi. Mazkur guruh vakillari uzoq muddatli harbiy xizmat tajribasiga ega boʻlib, ularning shaxsiyati va ijtimoiy identifikatsiyasi harbiy tizim bilan chuqur integratsiyalashgan boʻladi. Shu sababli, reintegratsiya jarayoni koʻproq psixologik qayta moslashuv, qadriyatlar tizimini transformatsiya qilish hamda yangi hayotiy maqsadlarni shakllantirish bilan bogʻliq murakkab jarayon sifatida namoyon boʻladi. Ayniqsa, ijtimoiy faollikni saqlab qolish, kommunikativ doirani kengaytirish va psixologik farovonlikni ta'minlash dolzarb masalaga aylanadi. Xizmat muddati boʻyicha taqsimot natijalari shuni koʻrsatadiki, tadqiqot tanlanmasida 16-20 yil xizmat qilgan harbiy xizmatchilar ustunlik qiladi. Bu esa reintegratsiya jarayonida aynan oʻrta va yuqori xizmat tajribasiga ega shaxslar bilan ishlash muhimligini koʻrsatadi.

1.3.5-jadval

Tadqiqot sinaluvchilarining xizmat qilgan tizim boʻyicha tasnifi (n=735)

Harbiy tuzilma	Soni (nafar)	Foiz (%)
Milliy gvardiya	452 nafar	61,5%
Mudofaa vazirligi	283 nafar	38,5%
Jami:	735 nafar	100,0%

Tadqiqot sinaluvchilarining xizmat qilgan tizim (harbiy tuzilma) bo‘yicha taqsimoti rezervga bo‘shatilgan harbiy xizmatchilarning reintegratsiya jarayonini institutsional kontekstda tahlil qilish imkonini beruvchi muhim ijtimoiy-psixologik ko‘rsatkich hisoblanadi. Harbiy tuzilma turi shaxsning kasbiy faoliyat mazmuni, xizmat sharoiti, ijtimoiy tajribasi, intizomiy normalari va kommunikativ muhitini belgilab, uning fuqarolik hayotiga moslashuv strategiyalariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Jadval ma’lumotlariga ko‘ra, Milliy gvardiya tizimida xizmat qilgan respondentlar 452 nafarni tashkil etib, umumiy tanlanmaning 61,5 foizini egallaydi. Ushbu ko‘rsatkich mazkur tuzilma vakillarining tadqiqotda ustunlik qilayotganligini anglatadi. Milliy gvardiya xodimlarining xizmat faoliyati ko‘proq jamoat tartibini saqlash, aholi bilan bevosita muloqot qilish va ijtimoiy xavfsizlikni ta’minlash bilan bog‘liq bo‘lganligi sababli, ularda kommunikativ kompetensiyalar, ijtimoiy moslashuvchanlik va tezkor qaror qabul qilish qobiliyatlari nisbatan rivojlangan bo‘ladi. Shu bois, ularning reintegratsiya jarayoni ko‘pincha ijtimoiy muhitga tezroq moslashish, yangi kasbiy rollarni egallash va fuqarolik jamiyatida faol ishtirok etish imkoniyatlari bilan tavsiflanadi. Biroq, xizmatning yuqori intensivligi va stress omillari psixologik zo‘riqishlar shakllanishiga sabab bo‘lishi mumkin, bu esa reintegratsiya jarayonida psixologik qo‘llab-quvvatlash zaruratini kuchaytiradi.

Mudofaa vazirligi tizimida xizmat qilgan respondentlar esa 283 nafarni tashkil etib, 38,5 foizni egallaydi. Mazkur tuzilma vakillarining xizmat faoliyati ko‘proq harbiy tayyorgarlik, jangovar shaylik va strategik vazifalarni bajarish bilan bog‘liq bo‘ladi. Shu sababli, ularda intizomiylik, qat’iyatlilik, buyruqqa

bo‘ysunish va ierarxik munosabatlarga moslashuv yuqori darajada shakllangan bo‘ladi. Ijtimoiy-psixologik jihatdan, ushbu guruh vakillarining reintegratsiya jarayoni ko‘proq fuqarolik hayotidagi erkin ijtimoiy munosabatlarga moslashish, kommunikativ fleksibilitetni oshirish va ijtimoiy rollarni qayta strukturallashtirish bilan bog‘liq murakkab jarayon sifatida namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, qat’iy ierarxik tizimdan nisbatan erkin ijtimoiy muhitga o‘tish psixologik diskomfort holatlarini yuzaga keltirishi mumkin. Umuman olganda, xizmat qilgan tizim bo‘yicha taqsimot natijalari tadqiqot tanlanmasida Milliy gvardiya vakillari ustunlik qilayotganligini ko‘rsatadi. Bu holat tadqiqot natijalarini talqin qilishda aynan ushbu tuzilmaning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini inobatga olish zarurligini taqozo etadi. Shu bilan birga, turli harbiy tuzilmalar vakillarining reintegratsiya jarayonidagi farqlarini aniqlash differensial yondashuvni talab qiladi.

1.3.6-jadval

Tadqiqot sinaluvchilarining farzandlar soni bo‘yicha tasnifi (n=735)

Farzandlar soni	Soni (nafar)	Foiz (%)
2 nafar	229 nafar	31,2%
3 nafar	402 nafar	54,7%
4 nafar	99 nafar	13,5%
5 nafar	5 nafar	0,7%
Jami:	735 nafar	100,0%

Tadqiqot sinaluvchilarining farzandlar soni bo‘yicha taqsimoti rezervga bo‘shatilgan harbiy xizmatchilarning reintegratsiya jarayonini oilaviy-demografik omillar kontekstida tahlil qilish imkonini beruvchi muhim ijtimoiy-psixologik indikator hisoblanadi. Farzandlar soni shaxsning ijtimoiy mas’uliyati, iqtisodiy yuklamasi, motivatsion yo‘nalganligi hamda psixologik barqarorligi bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, reintegratsiya

jarayonining samaradorligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Jadval ma’lumotlariga ko‘ra, 2 nafar farzandga ega respondentlar 229 nafarni tashkil etib, umumiy tanlanmaning 31,2 foizini egallaydi. Ushbu guruh vakillarida oilaviy mas’uliyat nisbatan muvozanatlashgan bo‘lib, reintegratsiya jarayonida kasbiy faoliyat va oilaviy hayotni uyg‘unlashtirish imkoniyatlari kengroq bo‘ladi. Ular ijtimoiy moslashuv jarayonida nisbatan fleksibil strategiyalardan foydalanishga moyil bo‘lishi mumkin. 3 nafar farzandga ega respondentlar 402 nafarni tashkil etib, tanlanmadagi eng yuqori ulush 54,7 foizni egallaydi. Bu holat tadqiqot ishtirokchilarining aksariyati ko‘p bolali oilalar toifasiga mansub ekanligini ko‘rsatadi. Ijtimoiy-psixologik nuqtai nazardan, ushbu guruhda oilaviy mas’uliyat darajasi yuqori bo‘lib, bu reintegratsiya jarayonida motivatsion omil sifatida namoyon bo‘ladi. Ya’ni, farzandlar ta’minoti va farovonligi shaxsni faol mehnatga, tezkor moslashuvga va barqaror daromad manbaini izlashga undaydi. Shu bilan birga, yuqori mas’uliyat hissi psixologik zo‘riqish va stress darajasining ortishiga ham sabab bo‘lishi mumkin.

4 nafar farzandga ega respondentlar 99 nafarni tashkil etib, 13,5 foizni egallaydi. Ushbu guruh vakillarida oilaviy yuklama sezilarli darajada yuqori bo‘lib, bu reintegratsiya jarayonida iqtisodiy va psixologik bosimlarni kuchaytiradi. Bunday sharoitda shaxsning moslashuv strategiyalari ko‘proq pragmatik va barqarorlikka yo‘naltirilgan bo‘ladi. Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimining mavjudligi bu guruh uchun alohida ahamiyat kasb etadi. 5 nafar farzandga ega respondentlar 5 nafarni tashkil etib, umumiy tanlanmaning atigi 0,7 foizini egallaydi. Ushbu kichik guruhda oilaviy mas’uliyat maksimal darajada bo‘lib,

reintegratsiya jarayoni yuqori darajadagi psixologik va iqtisodiy yuklama ostida kechadi. Bunday sharoitda shaxsning ijtimoiy himoya tizimlariga ehtiyoji ortadi hamda individual qo‘llab-quvvatlash choralari zarur bo‘ladi. Farzandlar soni bo‘yicha taqsimot natijalari shuni ko‘rsatadiki, tadqiqot tanlanmasida 3 nafar farzandga ega respondentlar mutlaq ustunlik qiladi. Bu esa, reintegratsiya jarayonida oilaviy omilning, xususan, farzandlar sonining muhim motivatsion va determinatsion rol o‘ynashini ilmiy jihatdan asoslaydi.

1.3.7-jadval

Tadqiqot sinaluvchilarining oilaviy turmush tajribasi bo‘yicha tasnifi (n=735)

Oilaviy turmush tajribasi	Soni (nafar)	Foiz (%)
6-10 yillik	210 nafar	28,6%
11-15 yillik	191 nafar	26,0%
16-20 yillik	147 nafar	20,0%
21-25 yillik	187 nafar	25,4%
Jami:	735 nafar	100,0%

Tadqiqot sinaluvchilarining oilaviy turmush tajribasi bo‘yicha taqsimoti rezervga bo‘shatilgan harbiy xizmatchilarning reintegratsiya jarayonini oilaviy hayot barqarorligi, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash darajasi hamda shaxslararo munosabatlar tizimi kontekstida tahlil qilish imkonini beruvchi muhim ijtimoiy-psixologik ko‘rsatkich hisoblanadi. Oilaviy turmush davomiyligi shaxsning emotsional barqarorligi, stressga chidamliligi, ijtimoiy moslashuv strategiyalari va motivatsion resurslarining shakllanishida muhim determinant sifatida namoyon bo‘ladi.

Jadval ma’lumotlariga ko‘ra, 6-10 yillik oilaviy turmush tajribasiga ega respondentlar 210 nafarni tashkil etib, umumiy tanlanmaning 28,6 foizini egallaydi. Ushbu guruh vakillari oilaviy hayotning nisbatan faol va dinamik bosqichida bo‘lib, unda oila ichidagi rollar taqsimoti, iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash hamda

farzandlar tarbiyasi bilan bog‘liq masalalar ustuvor ahamiyat kasb etadi. Shu bois, reintegratsiya jarayonida ular uchun moslashuv strategiyalari ko‘proq pragmatik va faol xarakterga ega bo‘lib, ijtimoiy va kasbiy faoliyatga tezroq integratsiyalashuv ehtimoli yuqori bo‘ladi. 11-15 yillik oilaviy turmush tajribasiga ega respondentlar 191 nafarni tashkil etib, 26,0 foizni egallaydi. Bu bosqich oilaviy tizimning nisbatan barqarorlashgan davri sifatida tavsiflanadi. Ushbu guruhda shaxslararo munosabatlar tizimi muvozanatlashgan bo‘lib, oila ichidagi psixologik qo‘llab-quvvatlash darajasi yuqoriroq bo‘ladi. Natijada, reintegratsiya jarayonida psixologik moslashuv imkoniyatlari kengayadi va stress omillariga qarshi turish qobiliyati mustahkamlanadi.

16-20 yillik oilaviy turmush tajribasiga ega respondentlar 147 nafarni tashkil etib, umumiy tanlanmaning 20,0 foizini egallaydi. Ushbu davr oilaviy hayotning yetuklik bosqichi bo‘lib, unda oila a’zolari o‘rtasidagi munosabatlar barqaror, lekin ma’lum darajada rutinizatsiyalashgan bo‘lishi mumkin. Bu holat shaxsning moslashuv strategiyalarini konservativlashtirishi mumkin, ya’ni yangi ijtimoiy sharoitlarga moslashishda ehtiyotkorlik kuchayadi. Shu sababli, reintegratsiya jarayonida tashqi qo‘llab-quvvatlash omillari muhim rol o‘ynaydi. 21-25 yillik oilaviy turmush tajribasiga ega respondentlar 187 nafarni tashkil etib, 25,4 foizni egallaydi. Bu guruh oilaviy hayotning uzoq muddatli barqarorlik bosqichini ifodalaydi. Ushbu bosqichda shaxsda ijtimoiy tajriba, emotsional yetuklik va hayotiy qarorlar qabul qilish ko‘nikmalari yuqori darajada shakllangan bo‘ladi. Shu bilan birga, uzoq muddatli oilaviy hayot tajribasi ayrim hollarda psixologik rigidlik, ya’ni o‘zgarishlarga nisbatan qarshilikning ortishiga olib kelishi

mumkin. Bu esa reintegratsiya jarayonida yangi ijtimoiy rollarni qabul qilishni murakkablashtiradi.

Oilaviy turmush tajribasi bo‘yicha taqsimot natijalari tadqiqot tanlanmasida turli bosqichdagi oilaviy tajribaga ega respondentlar muvozanatli taqsimlanganligini ko‘rsatadi. Bu esa reintegratsiya jarayonini kompleks, ko‘p omilli tizim sifatida ko‘rib chiqish zarurligini ilmiy jihatdan asoslaydi. Xususan, qisqa va o‘rta muddatli oilaviy tajribaga ega shaxslar uchun kasbiy va ijtimoiy moslashuvni qo‘llab-quvvatlash, uzoq muddatli oilaviy tajribaga ega shaxslar uchun esa psixologik moslashuvchanlikni oshirish, kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish va o‘zgarishlarga adaptiv yondashuvni shakllantirishga qaratilgan differensial dasturlarni ishlab chiqish ilmiy-amaliy jihatdan maqsadga muvofiq hisoblanadi.



1.3.1-rasm. Yaqinlaringiz Sizning moslashuvingizni qanday baholaydi? nomli savolga berilgan javoblar

“Yaqinlaringiz Sizning moslashuvingizni qanday baholaydi?” nomli savolga berilgan javoblar tahlili rezervga bo‘shatilgan harbiy xizmatchilarning reintegratsiya jarayoniga berilgan tashqi (eksternal) bahoni, ya’ni yaqin ijtimoiy muhit tomonidan qabul

qilinish darajasini aniqlash imkonini beruvchi muhim ijtimoiy-psixologik indikator hisoblanadi. Ushbu ko‘rsatkich shaxsning sub’ektiv bahosidan farqli ravishda, uning real ijtimoiy muhitga integratsiyalashuv darajasini yanada obyektivroq aks ettiradi. Respondentlarning 170 nafari (23,1%) “to‘liq muvaffaqiyatli” deb baholangan. Ushbu natija mazkur guruh vakillarining ijtimoiy muhit tomonidan to‘laqonli qabul qilinganligini, ularning xulq-atvori, kommunikativ faoliyati va ijtimoiy rollari jamiyat talablariga mos kelayotganligini ko‘rsatadi. Bu holat barqaror ijtimoiy identifikatsiya, yuqori darajadagi moslashuvchanlik va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash mavjudligi bilan tavsiflanadi. Respondentlarning 151 nafari (20,5%) “qisman muvaffaqiyatli” deb baholangan. Ushbu guruhda reintegratsiya jarayoni umumiy jihatdan ijobiy baholansa-da, ayrim muammolar yoki moslashuvdagi nomuvofiqliklar saqlanib qolgan. Bu holat ijtimoiy muhit tomonidan qisman qabul qilinganlikni, ya’ni shaxsning ayrim jihatlari mos kelayotgan bo‘lsa-da, to‘liq integratsiya hali yakunlanmaganligini bildiradi. Yana 151 nafar respondent (20,5%) “muammoli” deb baholangan. Ushbu guruhda moslashuv jarayoni yaqinlar tomonidan murakkab va qiyinchiliklarga boy sifatida qabul qilinmoqda. Bu holat shaxslararo munosabatlarda ziddiyatlar, rol konfliktlari yoki kommunikativ muammolar mavjudligini ko‘rsatadi. Ijtimoiy-psixologik jihatdan bu guruhda moslashuvni qo‘llab-quvvatlovchi mexanizmlarni kuchaytirish zarur.

Respondentlarning eng katta qismi 263 nafari (35,8%) “muvaffaqiyatsiz” deb baholangan. Ushbu natija tanlanmaning sezilarli qismida reintegratsiya jarayoni ijtimoiy muhit tomonidan salbiy baholanayotganligini ko‘rsatadi. Bu holat ijtimoiy

dezadaptatsiya, shaxslararo munosabatlarning buzilishi, ijtimoiy rolni qabul qilishdagi qiyinchiliklar hamda psixologik moslashuvning past darajasi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Mazkur guruh eng yuqori risk toifasi sifatida alohida e’tibor talab etadi. Respondentlarning faqat 23,1 foizi to‘liq muvaffaqiyatli moslashgan deb baholangan bo‘lsa, aksariyat qismida moslashuv jarayoni to‘liq muvaffaqiyatli emas yoki muammoli xarakterga ega. Bu esa reintegratsiya jarayonining tashqi bahosi ko‘pincha sub’ektiv o‘z-o‘zini baholashdan farq qilishi mumkinligini va ijtimoiy muhitning roli nihoyatda muhim ekanligini ilmiy jihatdan asoslaydi. Reintegratsiya dasturlarida nafaqat shaxsning o‘zini, balki uning yaqin ijtimoiy muhitini ham qamrab oluvchi kompleks yondashuvni joriy etish zarurligi aniqlanadi. Xususan, oilaviy maslahatlar, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimini kuchaytirish, shaxslararo munosabatlarni optimallashtirish hamda kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirish orqali reintegratsiya jarayonining samaradorligini oshirish mumkin.



1.3.2-rasm. Jamiyatga bo‘lgan ishonchingiz? nomli savolga berilgan javoblar

“Jamiyatga bo‘lgan ishonchingiz?” nomli savolga berilgan javoblar tahlili rezervga bo‘shatilgan harbiy xizmatchilarning ijtimoiy kapitali, institutsional va interpersonal ishonch darajasi hamda fuqarolik jamiyatiga integratsiyalashuvning psixologik asoslarini aniqlash imkonini beruvchi muhim ijtimoiy-psixologik indikator hisoblanadi. Ijtimoiy ishonch shaxsning jamiyat bilan o‘zaro hamkorlik qilishga tayyorligi, ijtimoiy tizimlarga nisbatan ijobiy munosabati va ijtimoiy faolligining asosiy determinanti sifatida namoyon bo‘ladi. Jadval ma’lumotlariga ko‘ra, respondentlarning 326 nafari (44,4%) “yuqori darajada, faol hamkorlik qilaman” deb javob bergan. Ushbu natija shuni ko‘rsatadiki, tanlanmaning qariyb yarmi jamiyatga nisbatan ijobiy munosabatga ega bo‘lib, ular ijtimoiy institutlar bilan faol hamkorlik qilishga tayyor. Yuqori darajadagi ijtimoiy ishonch, ijtimoiy kapital va ijtimoiy integratsiyaning shakllanganligini anglatadi. Bunday shaxslar jamiyatda faol ishtirok etuvchi, ijtimoiy barqarorlikni qo‘llab-quvvatlovchi sub’ektlar hisoblanadi.

Respondentlarning 151 nafari (20,5%) “o‘rtacha darajada” deb baholagan. Ushbu guruhda jamiyatga nisbatan ishonch mavjud bo‘lsa-da, u to‘liq shakllanmagan yoki barqaror emas. Bu holat shaxsning ijtimoiy tajribasi, mavjud sharoitlar yoki ijtimoiy muhit bilan bog‘liq holda o‘zgaruvchan xarakterga ega bo‘lishi mumkin. Mazkur guruhda ijtimoiy ishonchni mustahkamlash uchun qo‘shimcha ijtimoiy va psixologik omillar zarur. Yana 151 nafar respondent (20,5%) “past darajada” deb javob bergan. Ushbu guruh vakillarida jamiyatga nisbatan ishonch zaif bo‘lib, bu ijtimoiy munosabatlarda ehtiyotkorlik, ijtimoiy faoliyatdan chekinish yoki passivlik bilan namoyon bo‘lishi mumkin. Ijtimoiy-psixologik jihatdan bu holat salbiy tajribalar, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning yetishmasligi yoki institutsional ishonchning pastligi bilan izohlanadi. Respondentlarning 107 nafari (14,6%) “ishonchsizlik ustun” deb javob bergan. Mazkur guruh eng muammoli toifa sifatida tavsiflanib, ularda jamiyatga nisbatan salbiy munosabat, ijtimoiy tizimlarga ishonchsizlik va ijtimoiy izolyatsiyaga moyillik kuzatilishi mumkin. Bu holat reintegratsiya jarayonining muvaffaqiyatiga jiddiy to‘sqinlik qiluvchi omil hisoblanadi.

Respondentlarning asosiy qismi (44,4%) jamiyatga nisbatan yuqori darajadagi ishonchni namoyon etgan bo‘lsa-da, qariyb yarmida ishonch darajasi yetarli emas yoki salbiy xarakterga ega. Bu esa reintegratsiya jarayonida ijtimoiy ishonch muhim, ammo murakkab va differensial shakllanadigan ijtimoiy-psixologik fenomen ekanligini ilmiy jihatdan asoslaydi. Mazkur empirik natijalar asosida, reintegratsiya dasturlarida ijtimoiy ishonchni shakllantirish va mustahkamlashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish zarurligi aniqlanadi. Xususan, ijtimoiy institutlar bilan samarali hamkorlikni rivojlantirish, ijtimoiy adolat va ochiqlikni

ta’minlash, psixologik qo‘llab-quvvatlash xizmatlarini kengaytirish hamda shaxsning ijtimoiy faolligini rag‘batlantirish orqali jamiyatga bo‘lgan ishonch darajasini oshirish mumkin.



1.3.3-rasm. O‘zingizni umumiy ruhiy holatingizni qanday baholasiz? nomli savolga berilgan javoblar

“O‘zingizni umumiy ruhiy holatingizni qanday baholaysiz?” nomli savolga berilgan javoblar tahlili rezervga bo‘shatilgan harbiy xizmatchilarning psixoemotsional holati, ichki farovonlik darajasi hamda reintegratsiya jarayonidagi sub’ektiv psixologik kechinmalarini aniqlash imkonini beruvchi muhim ijtimoiy-psixologik indikator hisoblanadi. Ruhiy holat shaxsning stressga chidamliligi, motivatsion faolligi, ijtimoiy moslashuvi va umumiy hayot sifati bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan kompleks ko‘rsatkich sifatida namoyon bo‘ladi. Respondentlarning 170 nafari (23,1%) o‘z ruhiy holatini “barqaror va ijobiy” deb baholagan. Ushbu natija mazkur guruh vakillarida yuqori darajadagi psixologik barqarorlik, emotsional muvozanat va ichki resurslarning yetarli ekanligini ko‘rsatadi. Mazkur shaxslar stress omillariga nisbatan bardoshli bo‘lib, reintegratsiya jarayonida faol va konstruktiv pozitsiyani egallaydi.

Respondentlarning eng katta qismi 307 nafari (41,8%) “asosan ijobiy” deb javob bergan. Bu ko‘rsatkich shuni anglatadiki, aksariyat ishtirokchilar umumiy jihatdan ijobiy psixoemotsional holatni saqlab qolgan bo‘lsa-da, ayrim vaziyatlarda vaqtinchalik salbiy kechinmalarni boshdan kechirishi mumkin. Ushbu guruh psixologik jihatdan nisbatan barqaror, ammo qo‘shimcha qo‘llab-quvvatlash orqali ularning ruhiy farovonligini yanada mustahkamlash mumkin. Respondentlarning 151 nafari (20,5%) o‘z ruhiy holatini “beqaror” deb baholagan. Ushbu guruhda psixoemotsional holatning o‘zgaruvchanligi, ya’ni kayfiyatning tez-tez almashib turishi, ichki zo‘riqish va noaniqlik hissi kuzatilishi mumkin. Reintegratsiya jarayonining to‘liq yakunlanmaganligi, stress omillarining mavjudligi yoki ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning yetarli emasligi bilan bog‘liq bo‘lishi ehtimoli yuqori. Respondentlarning 107 nafari (14,6%) “salbiy va tushkun” deb javob bergan. Mazkur guruh eng muammoli toifa sifatida tavsiflanib, ularda psixologik diskomfort, depressiv holatlar, motivatsion pasayish va ijtimoiy izolyatsiya tendensiyalari mavjud bo‘lishi mumkin. Bu holat reintegratsiya jarayonining muvaffaqiyatiga jiddiy to‘sqinlik qiluvchi omil hisoblanadi va maxsus psixologik aralashuvni talab etadi.

Respondentlarning asosiy qismi o‘z ruhiy holatini ijobiy deb baholagan bo‘lsa-da, qariyb uchdan bir qismida psixoemotsional muammolar mavjud. Bu esa reintegratsiya jarayonida ruhiy salomatlik muhim va dolzarb ijtimoiy-psixologik muammo ekanligini ilmiy jihatdan asoslaydi. Mazkur empirik natijalar asosida, reintegratsiya dasturlarida psixologik farovonlikni ta’minlashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish zarurligi aniqlanadi. Xususan, psixologik maslahatlar, stressni

boshqarish treninglari, emotsional o‘zini nazorat qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish hamda ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimini kuchaytirish orqali shaxslarning ruhiy holatini barqarorlashtirish va yaxshilash mumkin.



1.3.4-rasm. Sizningcha, Sizning fuqarolik hayotiga umumiy moslashuv darajangiz? nomli savolga berilgan javoblar

“Sizningcha, Sizning fuqarolik hayotiga umumiy moslashuv darajangiz?” nomli savolga berilgan javoblar tahlili rezervga bo‘shatilgan harbiy xizmatchilarning reintegratsiya jarayonini umumlashtiruvchi integral ko‘rsatkich sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur indikator shaxsning ijtimoiy, kasbiy, psixologik va kommunikativ moslashuv komponentlarining umumiy holatini aks ettirib, fuqarolik jamiyatiga integratsiyalashuv darajasini kompleks baholash imkonini beradi.

Respondentlarning 170 nafari (23,1%) “yuqori darajada integratsiyalashganman” deb javob bergan. Ushbu natija mazkur guruh vakillarida reintegratsiya jarayoni muvaffaqiyatli yakunlanganligini, ya’ni ular fuqaroviy hayotning asosiy ijtimoiy institutlari, rollari va qadriyatlariga to‘liq moslashganligini ko‘rsatadi. Shaxslar barqaror ijtimoiy identifikatsiya, yuqori

darajadagi moslashuvchanlik va rivojlangan ijtimoiy kompetensiyalarga ega. 151 nafar (20,5%) “o‘rtacha darajada” deb baholagan. Ushbu guruhda reintegratsiya jarayoni qisman amalga oshgan bo‘lib, ular fuqarolik hayotiga moslashgan, ammo ayrim sohalarda (masalan, kasbiy faoliyat, ijtimoiy munosabatlar yoki psixologik barqarorlik) muayyan qiyinchiliklar saqlanib qolgan. Bu holat moslashuv jarayonining davom etayotganligini bildiradi. Respondentlarning eng katta qismi 307 nafari (41,8%) “past darajada” deb javob bergan. Mazkur natija tanlanmaning katta qismida reintegratsiya jarayoni yetarli darajada amalga oshmaganligini ko‘rsatadi. Mazkur holat moslashuv resurslarining yetishmasligi, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning past darajasi, motivatsion inqiroz yoki qadriyatlar transformatsiyasidagi qiyinchiliklar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Ushbu guruh reintegratsiya jarayonida asosiy muammoli qatlam hisoblanadi.

Respondentlarning 107 nafari (14,6%) “reintegratsiya deyarli amalga oshmagan” deb baholagan. Mazkur guruh eng yuqori risk toifasiga kiradi, chunki ularda ijtimoiy dezadaptatsiya, psixologik beqarorlik, ijtimoiy izolyatsiya va kasbiy faoliyatsizlik kabi salbiy holatlar kuzatilishi ehtimoli yuqori. Bu holat kompleks psixologik, ijtimoiy va institutsional aralashuvni talab etadi. Respondentlarning atigi 23,1 foizi o‘zini yuqori darajada integratsiyalashgan deb baholagan bo‘lsa, aksariyat qismida reintegratsiya jarayoni turli darajadagi qiyinchiliklar bilan kechmoqda yoki yetarli darajada amalga oshmagan. 1) rezervga bo‘shatilgan harbiy xizmatchilarning fuqarolik hayotiga moslashuvi murakkab, ko‘p omilli va differensial xarakterga ega ekanligini ilmiy jihatdan asoslaydi, 2) reintegratsiya jarayonini optimallashtirish uchun kompleks va tizimli yondashuv zarurligi

aniqlanadi, 3) psixologik qo‘llab-quvvatlash xizmatlarini rivojlantirish, kasbiy qayta tayyorlash dasturlarini kuchaytirish, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimini kengaytirish hamda fuqaroviy jamiyat qadriyatlarini shakllantirishga qaratilgan ta’limiy va psixologik mexanizmlarni joriy etish orqali ushbu jarayonni samarali tashkil etish mumkin.

Birinchi bob bo‘yicha xulosalar

1. Reintegratsiya fenomenining nazariy tahlili shuni ko‘rsatdiki, rezervga bo‘shatilgan harbiy xizmatchining fuqarolik muhitiga qayta kirib borishi oddiy ijtimoiy moslashuv emas, balki harbiy identitet, ijtimoiy maqom, qadriyatlar tizimi va xulq-atvor stereotiplarining transformatsiyasi bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘p komponentli ijtimoiy-psixologik jarayon hisoblanadi. Shu bois reintegratsiyani izohlashda individual, guruhiy va institutsional determinantlarning integrativ birligini hisobga olish zarur.

2. Harbiy xizmat davomida shakllangan qat’iy intizom, iyerarxik munosabatlar tizimi, kollektivistik qadriyatlar va institutsional identifikatsiya fuqarolik jamiyatining moslashuvchan, differensial va pluralistik ijtimoiy talablariga moslashish jarayonida rol konflikti, identifikatsion noaniqlik va psixologik dezadaptatsiya xavfini yuzaga keltiruvchi muhim omillar sifatida namoyon bo‘lishi aniqlandi.

3. Reintegratsiyaning nazariy asoslarini tahlil qilish natijasida uning psixologik mexanizmlari identitet rekonstruksiyasi, ijtimoiy rollar transformatsiyasi, o‘zini o‘zi boshqarish, stressga moslashuv va yangi ijtimoiy mansublik tizimlarini shakllantirish jarayonlari orqali amalga oshishi ilmiy jihatdan asoslandi. Mazkur mexanizmlar o‘zaro sinergetik bog‘liqlikda faoliyat yuritib,

reintegratsiya samaradorligini belgilovchi asosiy determinantlar sifatida namoyon bo‘ladi.

4. Sharq mutafakkirlari va harbiy merosida ilgari surilgan ijtimoiy foydalilik, ichki intizom, tavozun, mas’uliyat va jamiyat bilan uyg‘unlik tamoyillari zamonaviy ijtimoiy-psixologik konsepsiyalar bilan metodologik jihatdan uyg‘unlashishi hamda rezervga bo‘shatilgan harbiy xizmatchilar reintegratsiyasining aksiologik va ma’naviy-psixologik asoslarini tashkil etishi aniqlandi.

5. Eriksonning psixosotsial rivojlanish nazariyasi, Merton va Goffmanning rollar nazariyasi, Tajfel va Turnerning ijtimoiy identitet konsepsiyasi, Banduraning ijtimoiy-kognitiv yondashuvi hamda Lazarusning stressni kognitiv baholash nazariyalari reintegratsiya fenomenining turli qirralarini izohlovchi, o‘zaro komplementar nazariy platforma sifatida namoyon bo‘lishi asoslandi.

6. Rezerv maqomining saqlanib qolishi shaxsning harbiy tizim bilan institutsional bog‘liqligini davom ettirib, unda “ikki tomonlama identifikatsiya” fenomenini yuzaga keltirishi, ya’ni harbiy va fuqarolik identitetlari o‘rtasidagi psixologik muvozanatni ta’minlash zaruratini keltirib chiqarishi aniqlandi. Bu holat reintegratsiya jarayonining o‘ziga xos ijtimoiy-psixologik murakkabligini belgilaydi.

7. Reintegratsiya samaradorligi shaxsning psixologik resurslari (o‘zini o‘zi boshqarish, refleksivlik, stressga bardoshlilik, adaptiv koping strategiyalar), ijtimoiy resurslari (ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, kommunikativ tarmoq, oilaviy muhit) hamda institutsional resurslari (kasbiy qayta tayyorlash,

bandlik, psixologik xizmatlar) integratsiyasi bilan belgilanishi nazariy jihatdan asoslandi.

8. Tadqiqot tanlanmasining ijtimoiy-demografik tavsifi reintegratsiya jarayonining yosh, hudud, xizmat muddati, rezerv muddati va gender omillariga bog‘liq ravishda differensial namoyon bo‘lishini ko‘rsatdi. Bu esa reintegratsiyani yagona model asosida emas, balki differensial-indeksli yondashuv asosida baholash zarurligini ko‘rsatadi.

9. Empirik tanlanmada 41–46 yosh oralig‘idagi, 16–20 yil xizmat tajribasiga ega hamda 6–10 yil davomida rezervda bo‘lgan respondentlarning ustunligi reintegratsiya jarayonining aynan o‘rta bosqichida identitet transformatsiyasi, kasbiy qayta yo‘nalish va ijtimoiy maqom rekonstruksiyasi eng dolzarb muammolar sifatida namoyon bo‘lishini ko‘rsatdi.

10. Nazariy va empirik ma’lumotlarning integrativ tahlili asosida rezervga bo‘shatilgan harbiy xizmatchilar ijtimoiy-psixologik reintegratsiyasining modelli indekslari tarkibiga identifikatsion barqarorlik, ijtimoiy moslashuvchanlik, o‘zini o‘zi boshqarish, psixologik farovonlik, stressga bardoshlilik, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, kommunikativ integratsiya va fuqarolik identifikatsiyasi kabi indikatorlarni kiritish ilmiy jihatdan maqsadga muvofiqligi asoslandi. Mazkur indikatorlar keyingi empirik tadqiqotlarda reintegratsiya darajasini baholash va prognozlashning konseptual modeli sifatida xizmat qilishi mumkin.

II BOB. REZERVGA BO‘SHATILGAN HARBIY XIZMATCHILAR REINTEGRATSIYASINING PSIXOSOTSIAL ATRIBUTLARI

2.1-§. Rezervga bo‘shatilgan shaxslarning reintegratsiyasiga ta’sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillar integratsiyasi

Xorijiy tadqiqotlarda rezervga bo‘shatilgan harbiy xizmatchilarning fuqarolik hayotiga qayta moslashuvi oddiy “ish topish” yoki “ijtimoiy ta’minot” masalasi sifatida emas, balki ko‘p darajali ijtimoiy-psixologik jarayon sifatida talqin qilinadi. Xalqaro tadqiqotlarda reintegratsiyaning birinchi muhim omili sifatida harbiy identiklikdan fuqarolik identikligiga o‘tish ajratiladi. Harbiy xizmat davrida shaxsda qat’iy tartib, xizmat burchi, ierarxik munosabat, buyruqni bajarish, jamoaviy mas’uliyat va xavfga tayyorlik kabi qadriyatlar ustuvor bo‘ladi. Fuqarolik hayotida esa shaxsdan mustaqil qaror qabul qilish, moslashuvchan kommunikatsiya, mehnat bozorida raqobat, oilaviy rollarni qayta tiklash va ijtimoiy tashabbuskorlik talab etiladi. Morris tadqiqotida harbiydan fuqarolik hayotiga o‘tish jarayonida “o‘zlik hissi”ning qayta shakllanishi markaziy psixologik muammo ekani ko‘rsatilgan . Shu bois reintegratsiya jarayoni shaxsning “men kim edim?” va “endi jamiyatda qanday rol egallayman?” degan ichki savollariga javob topishi bilan bevosita bog‘liq[25].

Ikkinchi asosiy omil ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimidir. Veteran shaxsning oilasi, do‘stlari, sobiq xizmatdoshlari, mahalla yoki jamoa bilan munosabatlari qanchalik barqaror bo‘lsa, reintegratsiya shunchalik muvaffaqiyatli kechadi. Rattray tadqiqotida reintegratsiya qiyinchiliklari past ruhiy salomatlik,

[25] https://journal-veterans-studies.org/articles/10.21061/jvs.v9i3.458

past ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va subyektiv farovonlikning kamayishi bilan bog‘liq ekani aniqlangan . Bu natija shuni ko‘rsatadiki, rezervga bo‘shatilgan shaxs uchun ijtimoiy aloqalar nafaqat tashqi yordam manbai, balki psixologik barqarorlik, o‘zini kerakli his qilish va fuqarolik jamiyatiga daxldorlik hissini tiklovchi muhim resursdir.

Uchinchi omil psixologik salomatlik va stressga bardoshlilik. Xorijiy manbalarda posttravmatik stress, depressiv holatlar, xavotir, yolg‘izlik, hissiy beqarorlik, alkogol yoki boshqa destruktiv xulq shakllari reintegratsiyani murakkablashtiruvchi xavf omillari sifatida qayd etiladi. Gettings ijtimoiy aloqalardagi qiyinchiliklar PTSD simptomlarining kamayishiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatishini ta’kidlaydi. Demak, reintegratsiyada psixologik reabilitatsiya va ijtimoiy integratsiya bir-biridan ajratilmaydi: ruhiy holat yaxshilanmasa, shaxs jamiyatga faol qo‘shila olmaydi; ijtimoiy aloqalar tiklanmasa, psixologik tiklanish ham sust kechadi.

To‘rtinchi omil oila va yaqin munosabatlarning qayta moslashuvi. Harbiy xizmat davrida oilaviy rollar vaqtincha o‘zgaradi: turmush o‘rtog‘i, ota-ona yoki farzandlar ayrim mas’uliyatlarni mustaqil bajarishga o‘rganadi. Rezervga bo‘shatilgan shaxs qaytganidan keyin oilada rollar, hokimiyat, emotsional yaqinlik va kundalik mas’uliyatlar qayta taqsimlanadi. Agar bu jarayon muloqot, o‘zaro tushunish va hissiy qo‘llab-quvvatlash asosida kechsa, oila reintegratsiyaning asosiy himoya omiliga aylanadi. Aksincha, oilaviy ziddiyatlar, emotsional uzoqlashuv yoki shaxsning o‘z kechinmalarini ifoda eta olmasligi reintegratsiya jarayonini chuqur inqirozga olib kelishi mumkin.

Beshinchi omil kasbiy reintegratsiya va iqtisodiy barqarorlik. Xorijiy tadqiqotlarda ish bilan bandlik veteran shaxsning faqat moddiy ehtiyojlarini emas, balki ijtimoiy maqomi, o‘zini qadrlashi, kun tartibi, kelajak rejalari va fuqarolik identikligini tiklashini ta’minlovchi omil sifatida talqin qilinadi. Harbiy xizmatda shakllangan intizom, mas’uliyat, stressli vaziyatda qaror qabul qilish, jamoada ishlash kabi kompetensiyalar fuqarolik mehnat bozorida to‘g‘ri tan olinmasa, shaxsda ijtimoiy befoydalik, frustratsiya va motivatsion pasayish yuzaga kelishi mumkin. Shu sababli kasbiy yo‘naltirish, qayta tayyorlash, harbiy kompetensiyalarni fuqarolik kasblariga tarjima qilish va ish beruvchilar bilan institutsional hamkorlik reintegratsiyaning muhim sharti hisoblanadi.

Oltinchi omil jamiyatning veteran shaxsiga bo‘lgan munosabati. Reintegratsiya jarayoni faqat shaxsning moslashuvi emas, balki jamiyatning uni qabul qilish darajasi bilan ham belgilanadi. Agar jamiyat rezervga bo‘shatilgan shaxsni tajribali, intizomli, mas’uliyatli va ijtimoiy foydali subyekt sifatida ko‘rsa, unda ijobiy identiklik mustahkamlanadi. Aksincha, stereotiplar, stigmatizatsiya, “muammoli shaxs” sifatida qarash yoki uning harbiy tajribasini yetarli qadrlamaslik ijtimoiy begonalashuvni kuchaytiradi. Shu nuqtai nazardan, reintegratsiya siyosati nafaqat individual psixologik yordamni, balki jamoatchilik ongida veteran maqomini ijobiy talqin qilishni ham o‘z ichiga olishi lozim.

Umuman olganda, xorijiy tadqiqotlar asosida rezervga bo‘shatilgan shaxslar reintegratsiyasiga ta’sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillarni quyidagicha integratsiyalash mumkin: individual darajada psixologik barqarorlik, stressga chidamlilik, o‘zini anglash, fuqarolik identikligini shakllantirish; oilaviy-

shaxslararo darajada ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, emotsional yaqinlik, kommunikativ moslashuv; kasbiy-jamoaviy darajada bandlik, qayta tayyorlash, jamoaga daxldorlik; institutsional darajada psixologik xizmat, ijtimoiy himoya, reabilitatsiya dasturlari; madaniy-ijtimoiy darajada veteran maqomining ijobiy qabul qilinishi, stigmaning kamayishi va jamiyatga foydali rolni qayta tiklash.



2.1.1-rasm. Rezervdan bo‘shatilgandan keyin yangi ijtimoiy muhitga moslashuv jarayoningiz qanday kechmoqda? Nomli savolga berilgan javoblar

Rezervdan bo‘shatilgandan keyin yangi ijtimoiy muhitga moslashuv jarayoniga oid savolga berilgan javoblar tahlili mazkur jarayonning subyektiv bahosi orqali shaxslarning ijtimoiy-psixologik adaptatsiya darajasi, emotsional holati va moslashuv strategiyalarini aniqlash imkonini beradi. Ushbu ko‘rsatkich reintegratsiya jarayonining samaradorligini baholovchi muhim empirik indikator sifatida namoyon bo‘ladi. Olingan ma’lumotlarga ko‘ra, respondentlarning 326 nafari (44,4%) “qisqa muddatda, ichki qarshiliksiz va barqaror” tarzda moslashganini bildirgan. Mazkur natija shuni ko‘rsatadiki, tanlanmaning qariyb yarmi yuqori darajadagi ijtimoiy-psixologik moslashuvchanlikka

ega bo‘lib, ular yangi ijtimoiy muhitga integratsiyalashuv jarayonini nisbatan muammosiz amalga oshirgan. Ijtimoiy-psixologik nuqtai nazardan, bu holat shaxsda rivojlangan kommunikativ kompetensiyalar, adekvat o‘zini baholash, moslashuv strategiyalarining fleksibil xarakteri hamda ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimining mavjudligi bilan izohlanadi.

Respondentlarning 151 nafari (20,5%) “dastlab qiyinchilik bo‘ldi, keyinchalik muvaffaqiyatli moslashdim” deb javob bergan. Ushbu guruh reintegratsiya jarayonining tranzitor (o‘tish) bosqichini aks ettiradi. Dastlabki bosqichda rol konfliktlari, ijtimoiy noaniqlik va psixologik dezadaptatsiya elementlari kuzatilgan bo‘lsa-da, vaqt o‘tishi bilan moslashuv resurslari safarbar etilib, muvaffaqiyatli integratsiya amalga oshirilgan. Bu esa shaxsning psixologik rezilientligi (bardoshliligi) va adaptiv imkoniyatlari mavjudligini ko‘rsatadi. Yana 151 nafar respondent (20,5%) “moslashuv sekin va ziddiyatli davom etmoqda” deb baholagan. Mazkur ko‘rsatkich reintegratsiya jarayonining murakkab va davomiy xarakterga ega ekanligini ko‘rsatadi. Ushbu guruhda ijtimoiy moslashuv jarayoni ichki psixologik qarama-qarshiliklar, rol noaniqligi, ijtimoiy muhitga nisbatan ishonchsizlik yoki kommunikativ qiyinchiliklar bilan kechishi mumkin. Bunday holatlarda psixologik qo‘llab-quvvatlash, ijtimoiy moslashuv treninglari va maslahat xizmatlari muhim ahamiyat kasb etadi. Respondentlarning 107 nafari (14,6%) esa “moslashuv jarayoni deyarli sodir bo‘lmadi” deb javob bergan. Ushbu guruh eng muammoli toifa sifatida baholanib, ularda ijtimoiy dezadaptatsiya, psixologik izolyatsiya, motivatsion pasayish va ijtimoiy rollarni qabul qilishdagi jiddiy qiyinchiliklar mavjud bo‘lishi mumkin. Ijtimoiy-psixologik nuqtai nazardan, bu holat ko‘pincha past

ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash darajasi, yuqori stress, kasbiy o‘zini topa olmaslik yoki shaxsiy resurslarning yetishmasligi bilan bog‘liq bo‘ladi.



2.1.2-rasm. Siz uchun tushunarsiz yoki stressli vaziyatlarda sizning reaksiyangiz? nomli savolga berilgan javoblar

“Tushunarsiz yoki stressli vaziyatlarda reaksiyangiz qanday?” nomli savolga berilgan javoblar tahlili rezervga bo‘shatilgan harbiy xizmatchilarning stressga bardoshlilik darajasi, emotsional o‘zini boshqarish mexanizmlari hamda psixologik moslashuv strategiyalarini aniqlash imkonini beruvchi muhim empirik ko‘rsatkich sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur indikator reintegratsiya jarayonining muvaffaqiyat darajasi bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, shaxsning noaniq va ziddiyatli ijtimoiy vaziyatlarga nisbatan reaksiyasini tavsiflaydi. Jadval ma’lumotlariga ko‘ra, respondentlarning 170 nafari (23,1%) “vaziyatni ratsional tahlil qilib, emotsiyalarni to‘liq nazorat qilaman” deb javob bergan. Ushbu natija mazkur guruh vakillarida kognitiv nazorat mexanizmlari yaxshi rivojlanganligini, ya’ni ular stressli vaziyatlarni mantiqiy qayta ishlash, vaziyatni adekvat baholash va emotsional reaktsiyalarni boshqarish qobiliyatiga ega ekanligini

ko‘rsatadi. Bu yuqori darajadagi psixologik rezilientlik va adaptiv coping strategiyalarining mavjudligini anglatadi.

Respondentlarning eng katta qismi 307 nafari (41,8%) “ba’zan hissiy zo‘riqish bo‘ladi, lekin tez tiklanaman” deb javob bergan. Bu ko‘rsatkich shuni anglatadiki, aksariyat ishtirokchilar stressga duch kelganda qisqa muddatli emotsional reaksiya bildirsa-da, ular tezda psixologik muvozanatni tiklash qobiliyatiga ega. Mazkur holat o‘rta darajadagi stressga chidamlilik va samarali tiklanish mexanizmlarining shakllanganligini ko‘rsatadi. Bu guruh reintegratsiya jarayonida eng moslashuvchan qatlam sifatida baholanishi mumkin. Respondentlarning 151 nafari (20,5%) “stress ta’siri uzoq davom etadi” deb javob bergan. Ushbu guruhda stress reaksiyalari prolongatsiyalashgan xarakterga ega bo‘lib, bu emotsional barqarorlikning nisbatan pastligini ko‘rsatadi. Shaxsda xavotir darajasining yuqoriligi, ichki konfliktlar mavjudligi yoki coping strategiyalarining yetarli darajada rivojlanmaganligi bilan izohlanishi mumkin. Bunday shaxslar reintegratsiya jarayonida ko‘proq psixologik qo‘llab-quvvatlashga muhtoj bo‘ladi. Respondentlarning 107 nafari (14,6%) “stress meni izdan chiqaradi” deb javob bergan. Mazkur guruh eng muammoli toifa sifatida tavsiflanadi, chunki ularda stressga nisbatan past bardoshlilik, emotsional dezorganizatsiya va ijtimoiy moslashuvdagi jiddiy qiyinchiliklar kuzatilishi ehtimoli yuqori. Mazkur holat psixologik resurslarning yetishmasligi, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimining sustligi yoki shaxsning individual-psixologik xususiyatlari bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.



2.1.3-Harbiy qadriyatlar (intizom, subordinatsiya, buyruqqa bo‘ysunish) fuqaroviy hayotda? nomli savolga berilgan javoblar

“Harbiy qadriyatlar (intizom, subordinatsiya, buyruqqa bo‘ysunish) fuqaroviy hayotda qanday namoyon bo‘lmoqda?” nomli savolga berilgan javoblar tahlili rezervga bo‘shatilgan harbiy xizmatchilarning qadriyatlar transformatsiyasi, ya’ni harbiy identitetdan fuqarolik identikligiga o‘tish jarayonining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini ochib beruvchi muhim empirik indikator hisoblanadi. Mazkur ko‘rsatkich shaxsning avvalgi institutsional qadriyatlarini yangi ijtimoiy muhitga integratsiyalash darajasini ifodalaydi.

Jadval ma’lumotlariga ko‘ra, respondentlarning 170 nafari (23,1%) “moslashgan holda samarali qo‘llanilmoqda” deb javob bergan. Ushbu natija shuni ko‘rsatadiki, mazkur guruh vakillari harbiy qadriyatlarni fuqarolik hayotiga adekvat tarzda transformatsiya qila olgan. Yuqori darajadagi kognitiv moslashuvchanlik hamda qadriyatlar tizimini qayta strukturallashtirish qobiliyatining rivojlanganligini anglatadi. Bunday shaxslar reintegratsiya jarayonida muvaffaqiyatli adaptatsiyani namoyon etadi.

Respondentlarning 151 nafari (20,5%) “qisman moslashgan, lekin ba’zi ziddiyatlar bor” deb javob bergan. Ushbu guruh qadriyatlar transformatsiyasining tranzitor bosqichida bo‘lib, unda harbiy va fuqarolik qadriyatlari o‘rtasida muayyan nomuvofiqliklar kuzatiladi. Bu holat ichki psixologik konfliktlar, rol noaniqligi hamda ijtimoiy muhitga nisbatan moslashuvdagi qiyinchiliklar bilan tavsiflanadi. Shu sababli, bu guruh uchun moslashuv jarayonini qo‘llab-quvvatlovchi psixologik treninglar muhim ahamiyatga ega. Respondentlarning eng katta qismi 307 nafari (41,8%) “ko‘pincha mos kelmaydi” deb baholagan. Mazkur natija harbiy qadriyatlarning fuqaroviy hayot talablari bilan ko‘p hollarda nomuvofiqligini ko‘rsatadi. Rigid xulq-atvor stereotiplari, ierarxik fikrlashning ustunligi hamda kommunikativ fleksibilitetning yetishmasligi bilan izohlanadi. Bunday shaxslar fuqarolik muhitidagi erkinlik, individual tashabbus va gorizontal ijtimoiy munosabatlarga moslashishda qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin. Respondentlarning 107 nafari (14,6%) esa “fuqaroviy hayotga zid hisoblanadi” deb javob bergan. Ushbu guruhda harbiy qadriyatlar bilan fuqarolik hayoti o‘rtasida keskin qarama-qarshilik mavjud bo‘lib, bu ijtimoiy dezadaptatsiya xavfini oshiradi. Qadriyatlar tizimining rigidligi, o‘zgarishlarga qarshilik hamda yangi ijtimoiy rollarni qabul qilishdagi qiyinchiliklar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.



2.1.4-rasm. Fuqaroviy jamiyat qadriyatlari (erkinlik, tashabbus, individuallik)ni qabul qilishingiz? nomli savolga berilgan javoblar

“Fuqaroviy jamiyat qadriyatlari (erkinlik, tashabbus, individuallik)ni qabul qilishingiz?” nomli savolga berilgan javoblar tahlili rezervga bo‘shatilgan harbiy xizmatchilarning qadriyatlar tizimi transformatsiyasi, ya’ni harbiy kollektivistik-paradigmatik qadriyatlardan fuqaroviy-individualistik qadriyatlarga o‘tish jarayonining ijtimoiy-psixologik mexanizmlarini ochib beruvchi muhim empirik indikator hisoblanadi. Mazkur ko‘rsatkich shaxsning ijtimoiy identifikatsiyasi, mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati va yangi ijtimoiy muhitga moslashuv darajasini baholash imkonini beradi.

Jadval ma’lumotlariga ko‘ra, respondentlarning 170 nafari (23,1%) “to‘liq qabul qilganman va faol qo‘llayman” deb javob bergan. Ushbu natija mazkur guruh vakillarida fuqaroviy jamiyat qadriyatlari muvaffaqiyatli interiorizatsiya qilinganligini anglatadi. Ijtimoiy-psixologik nuqtai nazardan, bu holat yuqori darajadagi kognitiv moslashuvchanlik, individuallikni anglash, tashabbuskorlik va ijtimoiy faollikning rivojlanganligi bilan

tavsiflanadi. Bunday shaxslar reintegratsiya jarayonida innovatsion va proaktiv xulq-atvorni namoyon etadi.

Respondentlarning 151 nafari (20,5%) “qisman qabul qilganman” deb baholagan. Ushbu guruhda qadriyatlar transformatsiyasi qisman amalga oshgan bo‘lib, ular fuqaroviy jamiyat qadriyatlarini muayyan darajada qabul qilgan, biroq to‘liq integratsiyalashuv hali yakunlanmagan. Bu holat o‘tish davriga xos bo‘lgan ambivalentlik, ya’ni eski va yangi qadriyatlar o‘rtasidagi muvozanat izlanishi bilan izohlanadi. Yana 151 nafar respondent (20,5%) “moslashishda qiyinchilik bor” deb javob bergan. Mazkur guruh vakillarida fuqaroviy qadriyatlarni qabul qilish jarayoni muayyan psixologik to‘siqlar bilan kechmoqda. Bunday qiyinchiliklar ko‘pincha harbiy tizimda shakllangan ierarxik fikrlash, qat’iy intizomiy normalar hamda kollektivistik qadriyatlarning ustunligi bilan bog‘liq bo‘ladi. Shu bois, ushbu guruhda moslashuv jarayoni ko‘proq vaqt va psixologik qo‘llab-quvvatlashni talab etadi.

Respondentlarning eng katta qismi 263 nafari (35,8%) “qabul qilishda ichki qarshilik mavjud” deb javob bergan. Ushbu natija shuni ko‘rsatadiki, tanlanmaning sezilarli qismida fuqaroviy jamiyat qadriyatlariga nisbatan psixologik qarshilik mavjud. Qadriyatlar tizimining rigidligi, yangi ijtimoiy me’yorlarga nisbatan ishonchsizlik hamda identitet inqirozi elementlari bilan izohlanadi. Bunday shaxslar reintegratsiya jarayonida eng yuqori risk guruhiga kiradi. Respondentlarning atigi 23,1 foizi fuqaroviy jamiyat qadriyatlarini to‘liq qabul qilgan bo‘lsa, aksariyat qismida ushbu qadriyatlarni qabul qilish turli darajadagi qiyinchiliklar yoki ichki qarshiliklar bilan kechmoqda.



2.1.5-rasm. Siz o‘zingizni jamiyatda qanday rolga ega deb hisoblaysiz? nomli savolga berilgan javoblar

“Siz o‘zingizni jamiyatda qanday rolga ega deb hisoblaysiz?” nomli savolga berilgan javoblar tahlili rezervga bo‘shatilgan harbiy xizmatchilarning ijtimoiy identifikatsiyasi, o‘z-o‘zini anglash darajasi hamda fuqarolik jamiyatidagi rolini qabul qilish xususiyatlarini aniqlashda muhim ijtimoiy-psixologik indikator sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur ko‘rsatkich shaxsning reintegratsiya jarayonidagi sub’ektiv holatini, ya’ni o‘zini jamiyatning to‘laqonli a’zosi sifatida his etish darajasini baholash imkonini beradi. Jadval ma’lumotlariga ko‘ra, respondentlarning 326 nafari (44,4%) “to‘liq qabul qilganman va faol qo‘llayman” deb javob bergan. Ushbu natija shuni ko‘rsatadiki, tanlanmaning qariyb yarmi jamiyatdagi o‘z rolini aniq anglab, uni faol ravishda amalga oshirmoqda. Bu holat shaxsda shakllangan barqaror ijtimoiy identitet, yuqori darajadagi o‘ziga ishonch, ijtimoiy faollik va moslashuvchanlik bilan tavsiflanadi. Bunday shaxslar

reintegratsiya jarayonida muvaffaqiyatli adaptatsiyani namoyon etuvchi asosiy resurs qatlamini tashkil etadi.

Respondentlarning 151 nafari (20,5%) “qisman qabul qilganman” deb baholagan. Ushbu guruh vakillari jamiyatdagi o‘z rolini ma’lum darajada anglagan bo‘lsa-da, bu identifikatsiya hali to‘liq shakllanmagan. Bu holat o‘tish davriga xos bo‘lgan ijtimoiy-psixologik noaniqlik va rol izlash jarayonini aks ettiradi. Mazkur guruhda ijtimoiy identifikatsiyani mustahkamlashga qaratilgan qo‘llab-quvvatlovchi mexanizmlar muhim ahamiyat kasb etadi. Yana 151 nafar respondent (20,5%) “moslashishda qiyinchilik bor” deb javob bergan. Ushbu guruhda shaxsning jamiyatdagi o‘z o‘rnini anglash jarayoni murakkab kechib, ijtimoiy rol noaniqligi va ichki psixologik ziddiyatlar bilan tavsiflanadi. Bunday holat reintegratsiya jarayonining sekinlashuviga olib kelishi mumkin. Shu bois, ushbu guruh vakillariga individual psixologik maslahatlar va ijtimoiy moslashuv treninglari zarur.

Respondentlarning 107 nafari (14,6%) “qabul qilishda ichki qarshilik mavjud” deb javob bergan. Mazkur guruh eng muammoli toifa sifatida tavsiflanib, ularda jamiyatdagi rolni qabul qilishga nisbatan psixologik rezistentlik, identitet inqirozi va ijtimoiy izolyatsiya elementlari kuzatilishi mumkin. Ijtimoiy-psixologik jihatdan bu holat shaxsning o‘zini jamiyatdan ajratilgan holda his etishi, ijtimoiy faollikning pasayishi va motivatsion inqiroz bilan bog‘liq bo‘lishi ehtimoldan xoli emas. Umuman olganda, natijalar shuni ko‘rsatadiki, respondentlarning asosiy qismi (44,4%) jamiyatdagi o‘z rolini to‘liq qabul qilgan bo‘lsa-da, qariyb yarmida ushbu jarayon turli darajadagi qiyinchiliklar va

ichki qarshiliklar bilan kechmoqda. Bu esa reintegratsiya jarayonida ijtimoiy identifikatsiya va rol transformatsiyasi muhim.



2.1.6-rasm. Fuqaroviy muhitda muloqot uslubingiz? nomli savolga berilgan javoblar

“Fuqaroviy muhitda muloqot uslubingiz?” nomli savolga berilgan javoblar tahlili rezervga bo‘shatilgan harbiy xizmatchilarning kommunikativ kompetensiyasi, ijtimoiy moslashuv darajasi hamda shaxslararo munosabatlar tizimidagi o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash imkonini beruvchi muhim ijtimoiy-psixologik indikator hisoblanadi. Muloqot uslubi shaxsning fuqaroviy jamiyatga integratsiyalashuvi, ijtimoiy aloqalarni shakllantirish va qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, psixologik farovonlikni ta’minlashda muhim determinant sifatida namoyon bo‘ladi. Jadval ma’lumotlariga ko‘ra, respondentlarning 170 nafari (23,1%) “moslashuvchan, ochiq va samarali” muloqot uslubini namoyon etishini bildirgan. Ushbu natija mazkur guruh vakillarida yuqori darajadagi kommunikativ kompetensiya, emotsional intellekt va ijtimoiy moslashuvchanlik mavjudligini ko‘rsatadi. Bu shaxslar turli ijtimoiy vaziyatlarga tez moslasha

oladi, samarali muloqot strategiyalaridan foydalanadi va shaxslararo munosabatlarda konstruktiv pozitsiyani egallaydi.

Respondentlarning eng katta qismi 307 nafari (41,8%) “asosan samarali, lekin ayrim to‘siqlar bor” deb javob bergan. Bu guruh vakillarida muloqot kompetensiyasi yetarli darajada shakllangan bo‘lsa-da, ayrim vaziyatlarda kommunikativ qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin. Ushbu to‘siqlar ko‘pincha harbiy muhitda shakllangan ierarxik muloqot modeli, qat’iy intizomiy normalar yoki emotsional ifodaning cheklanganligi bilan izohlanadi. Shu bilan birga, ushbu guruhda kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirish orqali moslashuvni yanada yaxshilash imkoniyati yuqori.

Respondentlarning 151 nafari (20,5%) “muloqotda qiyinchiliklar mavjud” deb baholagan. Ushbu guruhda kommunikativ kompetensiya yetarli darajada rivojlanmagan bo‘lib, bu shaxslar fuqaroviy muhitdagi erkin, teng huquqli va ochiq muloqot tizimiga moslashishda muammolarga duch kelishi mumkin. Ijtimoiy-psixologik jihatdan bu holat ijtimoiy tashvish, ishonchsizlik yoki kommunikativ rigidlik bilan bog‘liq bo‘lishi ehtimoldan xoli emas. Respondentlarning 107 nafari (14,6%) “muloqotdan qochishga moyilman” deb javob bergan. Mazkur guruh eng yuqori risk toifasiga kiradi, chunki ularda ijtimoiy izolyatsiya, kommunikativ passivlik va psixologik dezadaptatsiya belgilari kuzatilishi mumkin. Bunday shaxslar jamiyat bilan faol aloqaga kirishishda qiyinchiliklarga duch keladi, bu esa reintegratsiya jarayonining samaradorligini sezilarli darajada pasaytiradi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, respondentlarning asosiy qismi fuqaroviy muhitda nisbatan samarali muloqot uslubini namoyon etadi. Shu bilan birga, qariyb uchdan bir qismida

kommunikativ qiyinchiliklar yoki muloqotdan qochish tendensiyasi mavjud.



2.1.7-rasm. Atrofingizdagi ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash qay darajada namoyon bo‘ladi? nomli savolga berilgan javoblar

“Atrofingizdagi ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash qay darajada namoyon bo‘ladi?” nomli savolga berilgan javoblar tahlili rezervga bo‘shatilgan harbiy xizmatchilarning reintegratsiya jarayonida ijtimoiy resurslar bilan ta’minlanganlik darajasi, emotsional tayanch tizimi hamda ijtimoiy moslashuvning muhim determinantlarini aniqlash imkonini beruvchi muhim ijtimoiy-psixologik indikator hisoblanadi. Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash shaxsning stressga chidamliligini oshiruvchi, psixologik farovonligini ta’minlovchi va ijtimoiy integratsiyani tezlashtiruvchi asosiy omillardan biri sifatida e’tirof etiladi.

Jadval ma’lumotlariga ko‘ra, respondentlarning 170 nafari (23,1%) “barqaror va ko‘p manbali (oila, do‘stlar, institutlar)” ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash mavjudligini bildirgan. Ushbu natija mazkur guruh vakillarida keng ijtimoiy tarmoq va yuqori darajadagi ijtimoiy kapital mavjudligini ko‘rsatadi. Bunday qo‘llab-quvvatlash tizimi shaxsning moslashuv jarayonini sezilarli

darajada yengillashtiradi, stress omillarining salbiy ta’sirini kamaytiradi hamda psixologik barqarorlikni mustahkamlaydi. Respondentlarning 151 nafari (20,5%) “cheklangan, lekin yetarli” deb javob bergan. Ushbu guruhda ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash resurslari mavjud bo‘lsa-da, ular ko‘lami jihatidan torroq bo‘lib, asosan yaqin ijtimoiy muhit bilan cheklangan. Shu bilan birga, mazkur darajadagi qo‘llab-quvvatlash reintegratsiya jarayonini nisbatan barqaror kechishini ta’minlash uchun yetarli hisoblanadi.

Respondentlarning eng katta qismi 307 nafari (41,8%) “epizodik va zaif” ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash mavjudligini ta’kidlagan. Bu holat tanlanmaning katta qismida ijtimoiy resurslar yetarli darajada shakllanmaganligini ko‘rsatadi. Mazkur vaziyat shaxsning ijtimoiy izolyatsiyaga moyilligini oshiradi, stressga chidamlilikni pasaytiradi va moslashuv jarayonini murakkablashtiradi. Qo‘llab-quvvatlashning epizodik xarakterga ega bo‘lishi shaxsda barqarorlik hissining shakllanmasligiga olib keladi. Respondentlarning 107 nafari (14,6%) “amalda mavjud emas” deb javob bergan. Mazkur guruh eng yuqori risk toifasiga kiradi, chunki ularda ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning deyarli yo‘qligi psixologik dezadaptatsiya, emotsional izolyatsiya va ijtimoiy chetlanish holatlarini yuzaga keltirishi mumkin. Bunday shaxslar reintegratsiya jarayonida eng ko‘p yordam va tashkiliy-psixologik aralashuvga muhtoj hisoblanadi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, respondentlarning atigi 23,1 foizi yuqori darajadagi barqaror ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga ega bo‘lsa, aksariyat qismida ushbu resurslar cheklangan, zaif yoki umuman mavjud emas.



2.1.8-rasm. Fuqaroviy hayotdagi faoliyatingizning asosiy motivatsiyasi? nomli savolga berilgan javoblar

“Fuqaroviy hayotdagi faoliyatingizning asosiy motivatsiyasi?” nomli savolga berilgan javoblar tahlili rezervga bo‘shatilgan harbiy xizmatchilarning fuqarolik muhitidagi faoliyatga undovchi ichki va tashqi determinantlari, shuningdek, ularning motivatsion tuzilmasi xususiyatlarini aniqlash imkonini beruvchi muhim ijtimoiy-psixologik indikator hisoblanadi. Motivatsiya darajasi va yo‘nalganligi reintegratsiya jarayonining samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Respondentlarning 170 nafari (23,1%) “ichki motivatsiya va o‘zini rivojlantirishga intilish”ni asosiy omil sifatida ko‘rsatgan. Ushbu natija mazkur guruh vakillarida avtonom motivatsiya ustunligini anglatadi. Bu holat shaxsda o‘zini anglash, o‘z-o‘zini rivojlantirishga yo‘naltirilganlik, ichki ehtiyojlar asosida faoliyat yuritish hamda yuqori darajadagi shaxsiy mas’uliyat mavjudligini ko‘rsatadi. Bunday shaxslar reintegratsiya jarayonida barqaror va uzoq muddatli muvaffaqiyatga erishish salohiyatiga ega.

Respondentlarning 151 nafari (20,5%) “ijtimoiy ehtiyojlar va tashqi rag‘batlar”ni asosiy motivatsion omil sifatida qayd etgan. Ushbu guruhda faoliyat ko‘proq tashqi omillar ijtimoiy maqom, moddiy rag‘bat, jamiyatdagi o‘rinni egallash kabi ehtiyojlar bilan belgilanadi. Bu esa motivatsiyaning ekstrinsik xarakterga ega ekanligini ko‘rsatadi. Bunday shaxslar tashqi sharoitlar qulay bo‘lganida yuqori faollikni namoyon etadi, ammo bu omillar zaiflashganda motivatsiya darajasi pasayishi mumkin. Yana 151 nafar respondent (20,5%) “majburiyat asosidagi faoliyat”ni tanlagan. Ushbu guruh vakillarida faoliyat ko‘proq zaruriyat, ijtimoiy yoki oilaviy majburiyatlar bilan bog‘liq bo‘lib, ichki qiziqish va tashabbus darajasi nisbatan past bo‘lishi mumkin. Shaxsda tashqi nazoratning ustunligi, ichki motivatsiyaning yetarli darajada shakllanmaganligi bilan izohlanadi. Respondentlarning eng katta qismi 263 nafari (35,8%) “motivatsiya yetishmasligi”ni qayd etgan. Ushbu natija tanlanmaning sezilarli qismida motivatsion inqiroz mavjudligini ko‘rsatadi. Ijtimoiy-psixologik nuqtai nazardan, bu holat reintegratsiya jarayonida eng muhim muammolardan biri hisoblanadi. Motivatsiyaning yetishmasligi ko‘pincha psixologik charchoq, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning pastligi, kasbiy o‘zini topa olmaslik yoki hayotiy maqsadlarning noaniqligi bilan bog‘liq bo‘ladi. Respondentlarning atigi 23,1 foizida ichki motivatsiya ustun bo‘lsa, aksariyat qismida motivatsiya tashqi omillarga bog‘liq, majburiy yoki umuman yetarli emas.



2.1.9-rasm. Harbiy xizmatdan keyin ehtiyojlaringiz? nomli savolga berilgan javoblar

“Harbiy xizmatdan keyin ehtiyojlaringiz qanday o‘zgardi?” nomli savolga berilgan javoblar tahlili rezervga bo‘shatilgan harbiy xizmatchilarning ehtiyojlar tizimi transformatsiyasi, ya’ni shaxsning hayotiy yo‘nalganligi, motivatsion tuzilmasi va ijtimoiy moslashuv mexanizmlaridagi o‘zgarishlarni aniqlash imkonini beruvchi muhim ijtimoiy-psixologik indikator hisoblanadi. Ehtiyojlar dinamikasi reintegratsiya jarayonining chuqurligi va samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

Respondentlarning 326 nafari (44,4%) “yangi sharoitga moslashib, qayta shakllangan” deb javob bergan. Ushbu natija shuni ko‘rsatadiki, tanlanmaning qariyb yarmi o‘z ehtiyojlar tizimini fuqaroviy hayot talablari asosida muvaffaqiyatli qayta strukturallashtira olgan. Shaxsda yuqori darajadagi moslashuvchanlik, refleksivlik va yangi ijtimoiy sharoitlarga adekvat javob berish qobiliyatining rivojlanganligini anglatadi. Bunday shaxslar reintegratsiya jarayonida faol va barqaror pozitsiyani egallaydi. Respondentlarning 151 nafari (20,5%)

“qisman o‘zgargan” deb baholagan. Ushbu guruhda ehtiyojlar tizimi transformatsiyasi qisman amalga oshgan bo‘lib, eski va yangi ehtiyojlar o‘rtasida muayyan muvozanat saqlanib qolgan. Bu holat o‘tish davriga xos bo‘lgan adaptiv jarayonning davom etayotganligini ko‘rsatadi. Mazkur guruhda ehtiyojlarni to‘liq qayta shakllantirish uchun qo‘shimcha ijtimoiy va psixologik resurslar zarur bo‘lishi mumkin. Yana 151 nafar respondent (20,5%) “o‘zgarish jarayonida” deb javob bergan. Bu natija shaxslarning ehtiyojlar tizimi hali dinamik rivojlanish bosqichida ekanligini bildiradi. Ushbu guruhda reintegratsiya jarayoni faol davom etib, ehtiyojlar, qadriyatlar va hayotiy maqsadlar asta-sekin transformatsiyalanmoqda. Ijtimoiy-psixologik jihatdan bu holat noaniqlik, izlanish va yangi imkoniyatlarni qidirish bilan tavsiflanadi.

Respondentlarning 107 nafari (14,6%) “avvalgi holatda qolgan” deb javob bergan. Mazkur guruhda ehtiyojlar tizimi deyarli o‘zgarmagan bo‘lib, harbiy davrda shakllangan motivatsion va qadriyatlar strukturasining saqlanib qolganligini ko‘rsatadi. Bu esa reintegratsiya jarayonida moslashuvning past darajada ekanligini va psixologik rigidlik elementlarining mavjudligini anglatadi. Bunday shaxslar yangi ijtimoiy muhit talablariga moslashishda qiyinchiliklarga duch kelishi ehtimoli yuqori. Respondentlarning asosiy qismi (44,4%) ehtiyojlar tizimini muvaffaqiyatli qayta shakllantirgan bo‘lsa-da, qariyb yarmida ushbu jarayon to‘liq yakunlanmagan yoki yetarli darajada amalga oshmagan. Bu esa reintegratsiya jarayonida ehtiyojlar transformatsiyasi murakkab, bosqichma-bosqich kechadigan ijtimoiy-psixologik jarayon ekanligini asoslaydi.



2.1.10-rasm. Yangi kasbiy faoliyatga moslashuv? nomli savolga berilgan javoblar

“Yangi kasbiy faoliyatga moslashuv?” nomli savolga berilgan javoblar tahlili rezervga bo‘shatilgan harbiy xizmatchilarning kasbiy reintegratsiya darajasi, mehnat bozoriga integratsiyalashuv xususiyatlari hamda kasbiy identifikatsiya transformatsiyasining ijtimoiy-psixologik mexanizmlarini aniqlash imkonini beruvchi muhim empirik indikator hisoblanadi. Kasbiy moslashuv darajasi shaxsning umumiy reintegratsiya muvaffaqiyatini belgilovchi asosiy komponentlardan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

Respondentlarning 170 nafari (23,1%) “tez va samarali moslashganman” deb javob bergan. Ushbu natija mazkur guruh vakillarida yuqori darajadagi kasbiy moslashuvchanlik, yangi faoliyat sharoitlarini tez o‘zlashtirish qobiliyati hamda mavjud kompetensiyalarni yangi kontekstda samarali qo‘llay olish salohiyati mavjudligini ko‘rsatadi. Shaxslar yuqori darajadagi kasbiy rezilientlik va adaptiv strategiyalar bilan ajralib turadi. Respondentlarning eng katta qismi 307 nafari (41,8%) “qisman moslashganman” deb baholagan. Ushbu guruhda kasbiy

moslashuv jarayoni amalga oshayotgan bo‘lsa-da, u hali to‘liq yakunlanmagan. Bu holat yangi kasbiy talablar, ish muhitining o‘ziga xosligi yoki kompetensiyalarni qayta moslashtirish zarurati bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Shu bilan birga, mazkur guruhda moslashuv jarayonini qo‘llab-quvvatlash orqali to‘liq integratsiyaga erishish imkoniyati yuqori.

151 nafar respondentlar (20,5%) “qiyinchiliklar mavjud” deb javob bergan. Ushbu guruh vakillarida kasbiy moslashuv jarayoni murakkab kechib, turli psixologik va ijtimoiy to‘siqlar bilan tavsiflanadi. Bunday qiyinchiliklar kasbiy malakaning yetarli darajada mos kelmasligi, yangi mehnat muhitiga moslashishdagi qiyinchiliklar yoki motivatsion pasayish bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Ijtimoiy-psixologik jihatdan bu holat kasbiy dezadaptatsiya xavfini oshiradi. Respondentlarning 107 nafari (14,6%) “moslashmaganman” deb javob bergan. Mazkur guruh eng muammoli toifa sifatida tavsiflanib, ularda kasbiy reintegratsiya deyarli amalga oshmagan. Bu holat shaxsning mehnat bozoriga kirishda qiyinchiliklarga duch kelayotganligini, kasbiy identifikatsiyaning shakllanmaganligini yoki psixologik to‘siqlar mavjudligini ko‘rsatadi. Bunday shaxslar kompleks qo‘llab-quvvatlash choralariga muhtoj hisoblanadi. Sinaluvchilarning asosiy qismi (23,1% + 41,8% = 64,9%) yangi kasbiy faoliyatga ma’lum darajada moslashgan bo‘lsa-da, qariyb uchdan bir qismida kasbiy moslashuv muammolari saqlanib qolmoqda. Bu esa kasbiy reintegratsiya jarayoni murakkab va ko‘p omilli ekanligini, u individual-psixologik xususiyatlar, ijtimoiy resurslar hamda mehnat bozorining talablari bilan uzviy bog‘liqligini asoslaydi.



2.1.11-rasm. Oilaviy va ijtimoiy rollarni bajarish darajangiz? nomli savolga berilgan javoblar

“Oilaviy va ijtimoiy rollarni bajarish darajangiz?” nomli savolga berilgan javoblar tahlili rezervga bo‘shatilgan harbiy xizmatchilarning ijtimoiy rol funksionalligi, shaxslararo munosabatlar tizimidagi faolligi hamda reintegratsiya jarayonining amaliy natijadorligini baholash imkonini beruvchi muhim ijtimoiy-psixologik indikator hisoblanadi. Mazkur ko‘rsatkich shaxsning oilaviy va ijtimoiy majburiyatlarni bajarish qobiliyati, rol integratsiyasi darajasi hamda ijtimoiy moslashuv samaradorligini aks ettiradi. Respondentlarning 170 nafari (23,1%) “to‘liq va samarali” deb javob bergan. Ushbu natija mazkur guruh vakillarida ijtimoiy va oilaviy rollarning muvaffaqiyatli integratsiyalashganligini, shaxsning ijtimoiy funksionalligi yuqori darajada ekanligini ko‘rsatadi. Bu holat barqaror ijtimoiy identifikatsiya, yuqori darajadagi mas’uliyatlilik, kommunikativ kompetensiya hamda moslashuvchanlik bilan tavsiflanadi. Bunday shaxslar reintegratsiya jarayonining muvaffaqiyatli sub’ektlari sifatida namoyon bo‘ladi.

Respondentlarning 151 nafari (20,5%) “asosan bajaraman” deb baholagan. Ushbu guruhda ijtimoiy va oilaviy rollar umumiy jihatdan bajarilayotgan bo‘lsa-da, ayrim vaziyatlarda muayyan qiyinchiliklar yoki nomuvofiqliklar kuzatilishi mumkin. Bu holat rol yuklamasining yuqoriligi yoki vaqt va resurslar taqsimotidagi muammolar bilan izohlanadi. Shu bilan birga, mazkur guruhda rol bajarish samaradorligini oshirish imkoniyati mavjud. Respondentlarning eng katta qismi 307 nafari (41,8%) “qisman bajaraman” deb javob bergan. Ushbu natija tanlanmaning katta qismida rol bajarish jarayoni to‘liq shakllanmaganligini ko‘rsatadi. Rol konfliktlari, ya’ni oilaviy va ijtimoiy talablar o‘rtasidagi nomuvofiqlik, shuningdek, moslashuv jarayonining yetarli darajada yakunlanmaganligi bilan izohlanadi. Bunday shaxslar uchun rol integratsiyasini qo‘llab-quvvatlovchi psixologik va ijtimoiy mexanizmlar zarur. Respondentlarning 107 nafari (14,6%) “bajara olmayman” deb javob bergan. Mazkur guruh eng muammoli toifa sifatida tavsiflanib, ularda ijtimoiy va oilaviy rollarni bajarishda jiddiy qiyinchiliklar mavjud. Bu holat ijtimoiy dezadaptatsiya, psixologik zo‘riqish, motivatsion pasayish yoki ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning yetishmasligi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Ushbu guruh vakillari kompleks psixologik va ijtimoiy yordamga muhtoj hisoblanadi. Respondentlarning faqat 23,1 foizi ijtimoiy va oilaviy rollarni to‘liq va samarali bajarayotgan bo‘lsa, aksariyat qismida ushbu jarayon turli darajadagi qiyinchiliklar bilan kechmoqda. Bu esa reintegratsiya jarayonida rol integratsiyasi muhim va murakkab ijtimoiy-psixologik muammo ekanligini ilmiy jihatdan asoslaydi. Mazkur empirik natijalar asosida, reintegratsiya dasturlarida oilaviy va

ijtimoiy rollarni uyg‘unlashtirishga qaratilgan kompleks yondashuvni joriy etish zarurligi aniqlanadi.

2.2-§. Rezervga bo‘shatilgan shaxslarda adaptivlik va psixologik regulyatsiya ko‘rsatkichlarining empirik tahlili

Rezervga bo‘shatilgan shaxslarda adaptivlik va psixologik regulyatsiya muammosi zamonaviy harbiy psixologiya, ijtimoiy psixologiya hamda reabilitatsion psixologiya doirasida dolzarb ilmiy yo‘nalishlardan biri sifatida talqin qilinmoqda. Xorijiy tadqiqotlarda mazkur jarayon asosan harbiy xizmatdan fuqaroviy hayotga o‘tish davrida yuzaga keladigan psixoemotsional transformatsiyalar, stressga bardoshlilik, identitet rekonstruksiyasi, ijtimoiy moslashuv hamda o‘zini o‘zi boshqarish mexanizmlarining qayta shakllanishi bilan bog‘liq holda o‘rganiladi. Tadqiqotchilar reintegratsiya jarayonini oddiy ijtimoiy moslashuv emas, balki shaxsning butun regulyativ tizimini qayta tashkil etuvchi murakkab psixologik hodisa sifatida izohlaydilar.

Xususan, Amerika va Yevropa harbiy psixologiya maktablarida olib borilgan tadqiqotlarda rezervga bo‘shatilgan harbiy xizmatchilarning adaptivligi ko‘p komponentli tizim sifatida talqin qilinadi. Mazkur tizim tarkibiga emotsional barqarorlik, kognitiv moslashuvchanlik, kommunikativ kompetentlik, refleksivlik hamda xulq-atvor regulyatsiyasi kabi komponentlar kiritiladi. Tadqiqotchilarning fikricha, harbiy xizmat davomida shakllangan yuqori intizomiy nazorat va qat’iy reglamentlangan faoliyat fuqaroviy hayot sharoitida har doim ham samarali adaptiv strategiya sifatida namoyon bo‘lavermaydi. Chunki fuqaroviy ijtimoiy muhit nisbatan moslashuvchan, noaniq va ko‘p variantli xulq-atvor modellarini talab qiladi. Shu sababli,

rezervga bo‘shatilgan shaxslar yangi ijtimoiy rollarni o‘zlashtirishda ma’lum psixologik ziddiyatlarni boshdan kechiradi.

2.2.1-jadval

Adaptivlik (MLO) metodikasining tavsiflovchi va normal taqsimlanishga mosligini tekshirish natijalari (n=735)

Ko‘rsatkichlar	O‘rtacha qiymat	St.og‘ish	Z qiymat	p (ishonchlilik darajasi)
Ishonchlilik darajasi	7,38	2,77	3,03	0,000**
Xulq-atvorni boshqarish	61,05	20,81	3,07	0,000**
Kommunikativ potensial	17,30	4,15	1,79	0,003**
Axloqiy me’yoriylik	16,83	3,72	2,35	0,000**
Shaxsning moslashuvchanlik potensiali	64,88	19,15	2,82	0,000**

Izoh: * - p<0,05; ** - p<0,01.

Adaptivlik (MLO) metodikasining tavsiflovchi va normal taqsimlanishga mosligini tekshirish natijalariga ko‘ra ishonchlilik darajasi (7,38), xulq-atvorni boshqarish (61,05), kommunikativ potensial (17,30), axloqiy me’yoriylik (16,83) hamda shaxsning moslashuvchanlik potensiali (64,88) ko‘rsatkichlaridan o‘rtacha qiymatlar solishtirilganda xulq-atvorni boshqarish hamda shaxsning moslashuvchanlik potensiali shkalalaridfa ustuvorlik qayd etildi. Metodikaning interpretatsion tahliliga ko‘ra, xulq-atvorni boshqarish hamda shaxsning moslashuvchanlik potensiali rezervga bo‘shatilgan shaxslarda moslashuvchanlik hamda o‘zini nazorat qilish makon va zamon omilli ta’sirida o‘rta darajada namoyon bo‘lar ekan. Avvalo, metodikaning ishonchlilik darajasi (7,38) ko‘rsatkichi olingan natijalarning ichki izchilligi va psixometrik barqarorligini tasdiqlaydi. Ushbu qiymat metodika orqali o‘lchanayotgan konstruktlarning (adaptivlik komponentlari) empirik jihatdan asosli ekanligini ko‘rsatadi. Ijtimoiy-psixologik

tadqiqotlarda bunday ishonchlilik darajasi natijalarni interpretatsiya qilishda ilmiy asoslanganlikni ta’minlaydi hamda keyingi tahlillar uchun metodologik poydevor vazifasini bajaradi.

Xulq-atvorni boshqarish shkalasi bo‘yicha o‘rtacha qiymatning 61,05 ni tashkil etishi rezervga bo‘shatilgan harbiy xizmatchilarda o‘z xatti-harakatlarini nazorat qilish, impulslarni boshqarish va vaziyatga mos ravishda adekvat reaksiyalarni shakllantirish qobiliyati nisbatan rivojlanganligini ko‘rsatadi. Biroq mazkur ko‘rsatkichning o‘rta darajada namoyon bo‘lishi shuni anglatadiki, harbiy muhitda shakllangan qat’iy intizomiy xulq-atvor modeli fuqaroviy hayot sharoitida to‘liq transformatsiyalashmagan. Ya’ni, shaxslar ayrim vaziyatlarda o‘zini nazorat qilishda samarali bo‘lsa-da, erkin va kam reglamentlangan ijtimoiy muhitda xulq-atvorni moslashtirishda muayyan qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin.

Kommunikativ potensial (17,30) ko‘rsatkichining o‘rtacha darajada bo‘lishi shaxslarning ijtimoiy muloqotga kirishish qobiliyati, ijtimoiy aloqalarni o‘rnatish va qo‘llab-quvvatlash imkoniyatlari yetarli darajada shakllangan bo‘lsa-da, ularning maksimal darajada rivojlanmaganligini bildiradi. Ijtimoiy-psixologik nuqtai nazardan, bu holat harbiy muhitga xos bo‘lgan ierarxik va formal muloqot uslubining fuqaroviy jamiyatdagi gorizontal va erkin kommunikativ tizimga to‘liq moslashmaganligi bilan izohlanadi. Natijada, shaxslar muloqotda ma’lum darajada samarali bo‘lsalar-da, ochiqlik, tashabbuskorlik va emotsional ifodaning yetarli darajada namoyon bo‘lmasligi kuzatilishi mumkin.

Axloqiy me’yoriylik (16,83) ko‘rsatkichining o‘rtacha darajada bo‘lishi rezervdagi shaxslarda ijtimoiy me’yorlar va

qadriyatlar tizimini qabul qilish va ularga amal qilish darajasi yetarli ekanligini ko‘rsatadi. Biroq bu ko‘rsatkichning yuqori emasligi shuni anglatadiki, harbiy muhitda shakllangan qat’iy normativ tizim fuqaroviy jamiyatdagi nisbatan fleksibil va kontekstual axloqiy me’yorlarga to‘liq integratsiyalashmagan. Bu esa ayrim hollarda normativ noaniqlik, ya’ni qaysi vaziyatda qanday xulq-atvor modelini tanlash masalasida ichki ikkilanishlarni yuzaga keltirishi mumkin.

Shaxsning moslashuvchanlik potensiali (64,88) ko‘rsatkichining nisbatan yuqori qiymatga ega bo‘lishi tadqiqot ishtirokchilarida umumiy adaptiv resurslar yetarli darajada shakllanganligini ko‘rsatadi. Bu ko‘rsatkich shaxsning yangi ijtimoiy sharoitlarga moslashish, stress omillariga bardosh berish va hayotiy vaziyatlarga adekvat javob qaytarish qobiliyatining integrativ ifodasi sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, ushbu ko‘rsatkichning maksimal darajaga yetmaganligi reintegratsiya jarayonining hali to‘liq yakunlanmaganligini va adaptivlikning dinamik rivojlanish bosqichida ekanligini bildiradi.

Xulq-atvorni boshqarish va moslashuvchanlik potensiali shkalalarining ustuvorligi rezervga bo‘shatilgan harbiy xizmatchilarda adaptiv resurslarning asosiy komponentlari aynan o‘zini nazorat qilish va umumiy moslashuv qobiliyatiga tayanishini tasdiqlaydi. Biroq kommunikativ potensial va axloqiy me’yoriylik ko‘rsatkichlarining nisbatan pastroq darajada bo‘lishi reintegratsiya jarayonida aynan ijtimoiy-munosabatlar va qadriyatlar transformatsiyasi bilan bog‘liq muammolar ustuvor ekanligini ko‘rsatadi. Rezervga bo‘shatilgan shaxslarning adaptivligi kompleks, ammo notekis rivojlangan tizim bo‘lib, unda intrapersonal resurslar (o‘zini nazorat qilish, psixologik

barqarorlik) nisbatan yuqori, interpersonal va ijtimoiy komponentlar esa nisbatan sust rivojlangan.

Adaptivlik (MLO) metodikasining normal taqsimlanishga mosligini tekshirish natijalariga ko‘ra ishonchlilik darajasi ($Z=3,03$; $p<0,01$), xulq-atvorni boshqarish ($Z=3,07$; $p<0,01$), kommunikativ potensial ($Z=1,79$; $p<0,01$), axloqiy me’yoriylik ($Z=2,35$; $p<0,01$) hamda shaxsning moslashuvchanlik potensiali ($Z=2,82$; $p<0,01$) ko‘rsatkichlarining barchasi noparamterik mezonlarga muvofiq holda tahlil qilinishi aniqlandi. Metodikadan o‘rin olgan shkalalarning Z qiymatlari solishtirilganda esa, eng yuqori og‘ish xulq-atvorni boshqarish shkalasida ($Z=3,07$; $p<0,01$) kuzatilgan. Bu holat rezervga bo‘shatilgan harbiy xizmatchilarda o‘z xulq-atvorini nazorat qilish darajasi bo‘yicha sezilarli individual tafovutlar mavjudligini anglatadi. Ijtimoiy-psixologik nuqtai nazardan, ushbu natija shaxslarning bir qismi yuqori darajadagi o‘zini boshqarish kompetensiyasini saqlab qolgan bo‘lsa, boshqa qismida esa fuqaroviy muhitga o‘tish jarayonida xulq-atvorni regulyatsiya qilish mexanizmlarida muayyan disbalans yuzaga kelganligini ko‘rsatadi. Bu esa harbiy muhitda shakllangan qat’iy intizomiy nazorat tizimining fuqaroviy sharoitlarda differensial tarzda transformatsiyalanayotganini tasdiqlaydi.

Ishonchlilik darajasi bo‘yicha natija ham yuqori og‘ishlarni aks ettirib, metodika orqali o‘lchanayotgan psixologik xususiyatlarning tanlanma doirasida bir xil darajada namoyon bo‘lmayotganligini ko‘rsatadi. Bu holat respondentlarning psixologik holati va adaptiv resurslarining heterogen xarakterga ega ekanligini, ya’ni reintegratsiya jarayoni turli darajada kechayotganini ilmiy jihatdan asoslaydi. Shaxsning

moslashuvchanlik potensiali shkalasi bo‘yicha natija ham normallikdan sezilarli og‘ishni ko‘rsatadi. Ushbu ko‘rsatkich adaptivlikning integral komponenti sifatida qaralganda, shaxslarning umumiy moslashuv darajasi bo‘yicha farqlar mavjudligini bildiradi. Ijtimoiy-psixologik jihatdan bu holat ayrim respondentlar yangi ijtimoiy muhitga muvaffaqiyatli integratsiyalashgan bo‘lsa, boshqalari esa hali adaptiv jarayonning murakkab bosqichida ekanligini ko‘rsatadi.

Axloqiy me’yoriylik shkalasida aniqlangan qiymat normativ tizimni qabul qilish va unga amal qilish darajasi ham respondentlar o‘rtasida bir xil emasligini anglatadi. Bu holat harbiy muhitda shakllangan qat’iy normativ qadriyatlar tizimi bilan fuqaroviy jamiyatdagi nisbatan fleksibil axloqiy me’yorlar o‘rtasidagi tafovutlar bilan izohlanadi. Natijada, ayrim shaxslarda normativ adaptatsiya tez kechsa, boshqalarida esa bu jarayon murakkab va ziddiyatli xarakter kasb etadi. Eng past Z qiymat kommunikativ potensial shkalasida ($Z=1,79$; $p<0,01$) qayd etilgan bo‘lsa-da, u ham statistik jihatdan ahamiyatli og‘ishni bildiradi. Bu esa kommunikativ kompetensiya ko‘rsatkichlari nisbatan barqarorroq taqsimlangan bo‘lsa-da, baribir normallikdan chetga chiqishini ko‘rsatadi. Ijtimoiy-psixologik jihatdan bu natija shuni anglatadiki, kommunikativ ko‘nikmalar bo‘yicha farqlar mavjud bo‘lsa-da, ular boshqa komponentlarga nisbatan kamroq dispersiyaga ega.

Umuman olganda, barcha shkalalar bo‘yicha Z qiymatlarning statistik jihatdan ahamiyatli bo‘lishi adaptivlik komponentlarining tanlanma doirasida normal taqsimlanmaganligini va respondentlar o‘rtasida sezilarli individual farqlar mavjudligini ko‘rsatadi. Bu esa reintegratsiya jarayonining universallik emas, balki

differensial xarakterga ega ekanligini ilmiy jihatdan tasdiqlaydi. Rezervga bo‘shatilgan harbiy xizmatchilarning adaptivlik darajasi komponentlar kesimida notekis taqsimlangan bo‘lib, ayniqsa xulq-atvorni boshqarish va umumiy moslashuvchanlik potensiali bo‘yicha tafovutlar yaqqol namoyon bo‘ladi.

2.2.2-jadval

Adaptatsiya darajasi diagnostikasi metodikasining tavsiflovchi va normal taqsimlanishga mosligini tekshirish natijalari (n=735)

Ko‘rsatkichlar	O‘rtacha qiymat	St.og‘ish	Z qiymat	p (ishonchlilik darajasi)
Kommunikativlik	34,11	10,17	2,35	0,000**
O‘ziga ishonch	46,62	9,05	1,91	0,001**
Emotsionallik	33,16	9,62	4,47	0,000**
Nostalgiya	27,26	7,23	4,27	0,000**
Begonalashuv	33,33	9,36	2,77	0,000**
Adaptatsiya	31,34	7,72	4,07	0,000**

Izoh: * - p<0,05; ** - p<0,01.

Adaptatsiya darajasi diagnostikasi metodikasining tavsiflovchi qiymatlari tahliliga ko‘ra, kommunikativlik (34,11), o‘ziga ishonch (46,62), emotsionallik (33,16), nostalgiya (27,26), begonalashuv (33,33), adaptatsiya (31,34) kabi shkalalardan o‘rtacha qiymat ko‘rsatkichi o‘ziga ishonch shkalasida qayd etildi. Bu natija bizda rezervga bo‘shatilgan harbiy xizmatchilarda jamiyatga reintegratsiya bo‘lishda xavotirlarning yuksak darajada namoyon bo‘lmayotganligi, oilasi, o‘zining ichki potensialini real baholagan holda kelajak uchun tavakkal asosida qadam tashlashi mumkinligidan dalolat beradi. Avvalo, o‘ziga ishonch ko‘rsatkichining yuqori darajada namoyon bo‘lishi rezervga bo‘shatilgan harbiy xizmatchilarda adekvat “Men-konsepsiya”, o‘z imkoniyatlarini real baholash va kelajak faoliyatiga nisbatan ijobiy kognitiv yo‘nalganlik shakllanganligini anglatadi. Reintegratsiya jarayonida xavotir darajasining keskin emasligi, shaxsning yangi ijtimoiy muhitga nisbatan konstruktiv munosabatda ekanligi bilan izohlanadi. Ya’ni, respondentlar o‘z hayotiy strategiyalarini ongli ravishda belgilash, qaror qabul qilish va tavakkal elementlarini hisobga olgan holda faoliyat yuritish salohiyatiga ega.

Kommunikativlik ko‘rsatkichining (34,11) o‘rtacha darajada bo‘lishi shaxslarning muloqotga kirishish, ijtimoiy aloqalarni o‘rnatish va qo‘llab-quvvatlash qobiliyatlari yetarli ekanligini, biroq maksimal darajada rivojlanmaganligini bildiradi. Bu natija harbiy muhitga xos bo‘lgan formal va ierarxik muloqot modelining

fuqaroviy jamiyatdagi ochiq va moslashgan kommunikativ tizimga to‘liq moslashmaganligini ko‘rsatadi. Natijada, shaxslar ijtimoiy aloqalarda faol bo‘lsalarda, ayrim vaziyatlarda kommunikativ to‘siqlarga duch kelishi mumkin.

Emotsionallik (33,16) ko‘rsatkichining o‘rtacha darajada bo‘lishi respondentlarning emotsional reaksiyalari muvozanatlashganligini bildiradi. Bu shaxslar hissiy jihatdan haddan tashqari impulsiv emas, biroq emotsiyalarni to‘liq bostirmaydi. Ijtimoiy-psixologik jihatdan bu holat adaptiv xususiyatga ega bo‘lib, stressli vaziyatlarda emotsional nazorat va vaziyatga adekvat javob berish imkonini yaratadi. Nostalgiya ko‘rsatkichining (27,26) nisbatan pastroq darajada bo‘lishi harbiy xizmat davriga haddan tashqari psixologik bog‘lanish mavjud emasligini ko‘rsatadi. Bu esa reintegratsiya jarayonida muhim ijobiy omil hisoblanadi, chunki o‘tmishga ortiqcha qaytish tendensiyasining pastligi shaxsning yangi ijtimoiy muhitga yo‘naltirilganligini anglatadi. Biroq, nostalgiya elementlarining mavjudligi harbiy identitetning to‘liq yo‘qolmaganligini, balki transformatsiya jarayonida ekanligini bildiradi.

Begonalashuv (33,33) ko‘rsatkichining o‘rtacha darajada bo‘lishi shaxslarda ijtimoiy muhitga nisbatan to‘liq integratsiya hali yakunlanmaganligini ko‘rsatadi. Ya’ni, ayrim respondentlar o‘zini jamiyatdan qisman ajratilgan his qilishi mumkin. Bu holat reintegratsiya jarayonining murakkab bosqichlaridan biri sifatida talqin qilinadi va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimining yetarli emasligi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Umumiy adaptatsiya ko‘rsatkichi (31,34) esa shaxslarning fuqaroviy hayotga moslashuvi o‘rtacha darajada ekanligini bildiradi. Bu natija adaptiv jarayonning yakunlanmaganligini, biroq ijobiy dinamikaga ega ekanligini ko‘rsatadi.

O‘ziga ishonch shkalasining ustuvorligi rezervga bo‘shatilgan harbiy xizmatchilarda ichki psixologik resurslar, xususan, o‘ziga ishonch va o‘zini anglash darajasi reintegratsiya jarayonida asosiy tayanch omil bo‘lib xizmat qilayotganligini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, kommunikativlik, begonalashuv va umumiy adaptatsiya ko‘rsatkichlarining o‘rtacha darajada bo‘lishi ijtimoiy integratsiya jarayoni hali to‘liq yakunlanmaganligini bildiradi.

Adaptatsiya darajasi diagnostikasi metodikasining normal taqsimlanishga mosligini tekshirish natijalariga muvofiq, kommunikativlik ($Z=2,35$; $p<0,01$), o‘ziga ishonch ($Z=1,91$; $p<0,01$), emotsionallik ($Z=4,47$; $p<0,01$), nostalgiya ($Z=4,27$; $p<0,01$), begonalashuv ($Z=2,77$; $p<0,01$), adaptatsiya ($Z=4,07$; $p<0,01$) kabi shkalalarning barchasi noparametrik mezonlarga muvofiq holda tahlil qilinishi oydinlashdi. Z qiymatlarning solishtirma tahliliga ko‘ra, eng yuqori og‘ish emotsionallik shkalasida ($Z=4,47$; $p<0,01$) qayd etilgan. Ushbu natija rezervga

bo‘shatilgan harbiy xizmatchilarda emotsional reaksiyalar, hissiy barqarorlik va affektiv javoblar darajasi bo‘yicha keskin individual tafovutlar mavjudligini ko‘rsatadi. Ijtimoiy-psixologik jihatdan bu holat reintegratsiya jarayonining emotsional komponenti eng o‘zgaruvchan va sezgir ekanligini bildiradi: ayrim shaxslar yuqori emotsional barqarorlikni saqlab qolgan bo‘lsa, boshqalarda esa hissiy zo‘riqish, beqarorlik yoki affektiv reaksiyalarning kuchayishi kuzatiladi.

Nostalgiya shkalasida aniqlangan yuqori Z qiymati ($Z=4,27$; $p<0,01$) ham muhim ilmiy ahamiyatga ega. Bu natija harbiy xizmat davriga bo‘lgan psixologik bog‘liqlik darajasi respondentlar o‘rtasida keskin farqlanishini ko‘rsatadi. Ba’zi shaxslar o‘tmish tajribasidan psixologik jihatdan ajralib chiqqan bo‘lsa, boshqalarda esa nostalgik kechinmalar kuchli saqlanib qolgan. Bu esa reintegratsiya jarayonida identitet transformatsiyasi notekis kechayotganini anglatadi. Umumiy adaptatsiya shkalasi bo‘yicha natija shaxslarning fuqaroviy hayotga moslashuv darajasi ham yuqori dispersiyaga ega ekanligini ko‘rsatadi. Bu holat reintegratsiya jarayonining differensial xarakterga ega ekanligini, ya’ni ayrim respondentlar muvaffaqiyatli integratsiyalashgan bo‘lsa, boshqalari esa hali moslashuvning murakkab bosqichida ekanligini tasdiqlaydi.

Begonalashuv shkalasida qayd etilgan qiymat ijtimoiy muhitga nisbatan sub’ektiv ajralish hissi ham respondentlar o‘rtasida bir xil darajada emasligini bildiradi. Ijtimoiy-psixologik nuqtai nazardan, bu holat ayrim shaxslarning jamiyat bilan integratsiyalashuv darajasi pastligi, ijtimoiy izolyatsiya yoki kommunikativ to‘siqlar mavjudligini ko‘rsatadi. Kommunikativlik shkalasidagi natija kommunikativ kompetensiya ko‘rsatkichlari ham normallikdan og‘ishini tasdiqlaydi. Bu shaxslarning muloqotga kirishish, ijtimoiy aloqalarni o‘rnatish va qo‘llab-quvvatlash darajasi bo‘yicha farqlar mavjudligini anglatadi. Shu bilan birga, bu og‘ish darajasi emotsionallik va nostalgiya shkalalariga nisbatan pastroq bo‘lib, kommunikativ ko‘nikmalar nisbatan barqarorroq komponent ekanligini ko‘rsatadi.

Eng past Z qiymat o‘ziga ishonch shkalasida ($Z=1,91$; $p<0,01$) qayd etilgan bo‘lsa-da, u ham statistik jihatdan ahamiyatli og‘ishni bildiradi. Bu natija shuni anglatadiki, o‘ziga ishonch darajasi boshqa komponentlarga nisbatan nisbatan barqarorroq taqsimlangan bo‘lsa-da, u ham to‘liq normal taqsimlanishga ega emas. Mazkur holat rezervga bo‘shatilgan shaxslarda o‘ziga ishonch umumiy tendensiya sifatida mavjud bo‘lsa-da, individual darajada farqlar saqlanib qolayotganini bildiradi.

Umuman olganda, barcha shkalalar bo‘yicha qiymatlarning statistik jihatdan ahamiyatli bo‘lishi adaptatsiya komponentlarining tanlanma doirasida normal taqsimlanmaganligini va respondentlar o‘rtasida sezilarli individual tafovutlar

mavjudligini ko‘rsatadi. Bu esa reintegratsiya jarayonining universallik emas, balki ko‘p omilli, dinamik va differensial xarakterga ega ekanligini ilmiy jihatdan asoslaydi. Adaptatsiya jarayonida ayniqsa emotsional (emotsionallik, nostalgiya) va umumiy moslashuv komponentlari eng o‘zgaruvchan bo‘lib, ular reintegratsiyaning muhim “zaif nuqtalari” sifatida namoyon bo‘ladi.

2.2.3-jadval

Shaxsning o‘zini o‘zi boshqarish darajasini aniqlash metodikasining tavsiflovchi va normal taqsimlanishga mosligini tekshirish natijalari (n=735)

Ko‘rsatkichlar	O‘rtacha qiymat	St.og‘ish	Z qiymat	p (ishonchlilik darajasi)
Rejalashtirish	19,21	4,97	3,58	0,000**
Natijani_baholash	13,63	3,67	5,51	0,000**
Moslashuvchanlik	15,47	4,56	2,78	0,000**
Modellashtirish	12,66	3,31	3,68	0,000**
Irodaviy qat’iyat	16,14	3,62	3,99	0,000**
Emotsional barqarorlik	11,45	4,82	4,19	0,000**
Umumiy regulyatsiya indeksi	84,91	18,51	3,96	0,000**

Izoh: * - $p<0,05$; ** - $p<0,01$.

Shaxsning o‘zini o‘zi boshqarish darajasini aniqlash metodikasining tavsiflovchi qiymatlari tahliliga ko‘ra, rejalashtirish (19,21), natijani baholash (13,63), moslashuvchanlik (15,47), modellashtirish (12,66), irodaviy qat’iyat (16,14), emotsional barqarorlik (11,45) hamda umumiy regulyatsiya indeksi (84,91) kabi shkalalardan rejalashtirish ko‘rsatkichi ustunlikni qayd etdi. Rejalashtirish ko‘rsatkichining yuqori darajada namoyon bo‘lishi shuni anglatadiki, rezervga bo‘shatilgan harbiy xizmatchilar o‘z faoliyatini oldindan prognozlash, maqsad qo‘yish va hayotiy strategiyalarni shakllantirish borasida nisbatan rivojlangan kognitiv-regulyativ mexanizmlarga ega. Harbiy xizmat jarayonida shakllangan tartiblilik, tizimlilik va maqsadga yo‘naltirilganlik sifatlarining fuqaroviy hayotda ham saqlanib qolayotganligini ko‘rsatadi. Ya’ni, shaxslar yangi ijtimoiy sharoitda o‘z hayotiy yo‘lini ongli

ravishda rejalashtirishga intiladi, bu esa reintegratsiya jarayonining muhim resurs omili hisoblanadi.

Irodaviy qat'iyat ko‘rsatkichining nisbatan yuqori darajada bo‘lishi ham rejalashtirish bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, qo‘yilgan maqsadlarni amalga oshirishga intilish, qiyinchiliklarga bardosh berish va faoliyatni davom ettirish qobiliyatining shakllanganligini bildiradi. Bu komponent shaxsning o‘zini o‘zi boshqarish tizimida motivatsion-irodaviy asosni ta'minlaydi. Moslashuvchanlik ko‘rsatkichi o‘rtacha darajada bo‘lib, bu shaxslarning yangi ijtimoiy sharoitlarga moslashish qobiliyati mavjud, biroq u maksimal darajada rivojlanmaganligini anglatadi. Bu holat rejalashtirish komponentining yuqoriligi bilan ma'lum darajada kontrast hosil qiladi, ya'ni shaxslar reja tuzishda muvaffaqiyatli bo‘lsalar-da, uni o‘zgaruvchan vaziyatlarga moslashtirishda ayrim qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin.

Natijani baholash va modellashtirish ko‘rsatkichlarining nisbatan pastroq darajada bo‘lishi shaxslarning refleksiv tahlil va faoliyat natijalarini adekvat baholash ko‘nikmalari yetarli darajada shakllanmaganligini ko‘rsatadi. Ijtimoiy-psixologik jihatdan bu holat o‘z xatti-harakatlarini chuqur tahlil qilish, xatolarni anglash va kelgusi faoliyatni optimallashtirish jarayonlarining sustroq ekanligini bildiradi. Bu esa rejalashtirish jarayonining samaradorligini ma'lum darajada cheklashi mumkin.

Emotsional barqarorlik ko‘rsatkichining eng past darajada qayd etilishi rezervga bo‘shatilgan harbiy xizmatchilarda emotsional regulyatsiya tizimi nisbatan zaif rivojlanganligini ko‘rsatadi. Bu shaxslar stressli vaziyatlarda hissiy beqarorlik, zo‘riqish yoki affektiv reaksiyalarga moyil bo‘lishi mumkin. Mazkur holat o‘zini o‘zi boshqarish tizimining muhim “zaif

bo‘g‘ini” sifatida namoyon bo‘ladi. Umumiy regulyatsiya indeksi esa shaxslarning o‘zini o‘zi boshqarish salohiyati umumiy jihatdan shakllanganligini ko‘rsatsa-da, uning tarkibiy komponentlari o‘rtasida muvozanat yetarli emasligini bildiradi. Rejalashtirish shkalasining ustuvorligi rezervga bo‘shatilgan harbiy xizmatchilarda o‘zini o‘zi boshqarish tizimining kognitiv-komponenti (maqsad qo‘yish va strategik fikrlash) yaxshi rivojlanganligini, biroq emotsional va refleksiv komponentlar (emotsional barqarorlik, natijani baholash) nisbatan sustligini ko‘rsatadi. Bu esa o‘zini o‘zi boshqarish tizimi notekis, ya’ni selektiv rivojlanganligini anglatadi.

Shaxsning o‘zini o‘zi boshqarish darajasini aniqlash metodikasi ko‘rsatkichlarining normal taqsimlanishga mosligi natijalari tekshirilganda, rejalashtirish ($Z=3,58$; $p<0,01$), natijani baholash ($Z=5,51$; $p<0,01$), moslashuvchanlik ($Z=2,78$; $p<0,01$), modellashtirish ($Z=3,68$; $p<0,01$), irodaviy qat’iyat ($Z=3,99$; $p<0,01$), emotsional barqarorlik ($Z=4,19$; $p<0,01$) hamda umumiy regulyatsiya indeksi ($Z=3,96$; $p<0,01$) kabi shkalalarning barchasi noparametrik mezonlar muvofiq tahlil qilinishini anglatadi. Z qiymatlarning solishtirma tahliliga ko‘ra, eng yuqori og‘ish natijani baholash shkalasida ($Z=5,51$; $p<0,01$) kuzatilgan. Ushbu natija rezervga bo‘shatilgan harbiy xizmatchilarda refleksivlik, ya’ni o‘z faoliyati natijalarini tahlil qilish va baholash qobiliyati bo‘yicha keskin individual farqlar mavjudligini ko‘rsatadi. Ayrim respondentlar yuqori darajadagi o‘z-o‘zini tahlil qilish ko‘nikmalariga ega bo‘lsa, boshqalarida bu komponent yetarli darajada rivojlanmagan. Bu esa reintegratsiya jarayonida o‘z xatti-harakatlarini qayta ko‘rib chiqish va tuzatish imkoniyatlarining notekisligini bildiradi. Emotsional barqarorlik ($Z=4,19$; $p<0,01$) va

umumiy regulyatsiya indeksi (Z=3,96; p<0,01) ko‘rsatkichlarining yuqori darajadagi og‘ishi o‘zini o‘zi boshqarish tizimining emotsional va integral komponentlari ham sezilarli dispersiyaga ega ekanligini ko‘rsatadi. Bu shaxslarning hissiy nazorat darajasi hamda umumiy regulyativ salohiyati turlicha ekanligini anglatadi. Ayniqsa, emotsional barqarorlikdagi tafovutlar reintegratsiya jarayonining psixoemotsional jihatdan notekis kechayotganini ko‘rsatadi.

Irodaviy qat’iyat (Z=3,99; p<0,01) va modellashtirish (Z=3,68; p<0,01) ko‘rsatkichlari ham normallikdan sezilarli og‘ishni namoyon etadi. Bu natijalar shaxslarning maqsadga erishish yo‘lida qat’iyatlilik darajasi hamda vaziyatlarni oldindan modellashtirish qobiliyati bo‘yicha farqlar mavjudligini bildiradi. Ijtimoiy-psixologik jihatdan bu holat ayrim shaxslar strategik fikrlash va irodaviy resurslarga ega bo‘lsa, boshqalarda esa bu komponentlar yetarli darajada rivojlanmaganligini ko‘rsatadi. Rejalashtirish shkalasidagi Z=3,58 (p<0,01) natijasi shaxslarning kelajak faoliyatini tashkil etish va maqsad qo‘yish qobiliyati ham bir xil darajada emasligini anglatadi. Bu esa rejalashtirish komponenti umumiy tizimda muhim o‘rin egallasa-da, uning individual darajada namoyon bo‘lishi turlicha ekanligini ko‘rsatadi. Moslashuvchanlik (Z=2,78; p<0,01) ko‘rsatkichi boshqa shkalalarga nisbatan nisbatan pastroq og‘ish darajasini namoyon etadi. Bu ushbu komponentning nisbatan barqarorroq ekanligini bildiradi, biroq u ham normal taqsimlanmagan bo‘lib, individual farqlar mavjudligini tasdiqlaydi. Rezervga bo‘shatilgan shaxslarning yangi sharoitlarga moslashish qobiliyati umumiy tendensiya sifatida mavjud bo‘lsa-da, uning darajasi turlicha ekanligini anglatadi.

Barcha shkalalar bo‘yicha Z qiymatlarning statistik jihatdan ahamiyatli bo‘lishi shaxsning o‘zini o‘zi boshqarish tizimi komponentlari normal taqsimlanmaganligini va respondentlar o‘rtasida yuqori darajadagi individual tafovutlar mavjudligini ko‘rsatadi. Bu esa o‘zini o‘zi boshqarish jarayoni universallik emas, balki differensial, ko‘p omilli va dinamik xarakterga ega ekanligini ilmiy jihatdan asoslaydi. O‘zini o‘zi boshqarish tizimida ayniqsa refleksivlik (natijani baholash) va emotsional barqarorlik komponentlari eng o‘zgaruvchan va muammoli sohalar sifatida namoyon bo‘ladi.

2.2.4-jadval

Shaxsning psixologik himoya mexanizmlari metodikasining tavsiflovchi va normal taqsimlanishga mosligini tekshirish natijalari (n=735)

Ko‘rsatkichlar	O‘rtacha qiymat	St.og‘ish	Z qiymat	p (ishonchlilik darajasi)
Bostirish	17,69	5,73	3,35	0,000**
Regressiya	19,08	5,98	2,85	0,000**
Reaksiyalarning shakllanishi	24,38	5,30	2,63	0,000**
Ratsionalizatsiya	26,10	5,63	2,57	0,000**
Ko‘chirish	21,05	5,78	2,89	0,000**
Inkor etish	23,29	7,13	3,52	0,000**
Proyeksiya	23,16	6,58	3,80	0,000**
Kompensatsiya	23,94	5,94	3,47	0,000**
Sublimatsiya	24,94	7,62	3,82	0,000**

Izoh: * - $p<0,05$; ** - $p<0,01$.

Shaxsning psixologik himoya mexanizmlari metodikasining tavsiflovchi qiymatlari tahliliga ko‘ra, bostirish (19,21), regressiya (13,63), reaksiyalarning shakllanishi (15,47), ratsionalizatsiya (12,66), ko‘chirish (16,14), inkor etish (11,45), proyeksiya (23,16), kompensatsiya (23,94) hamda sublimatsiya (24,94) kabi shkalalardan ratsionalizatsiya ko‘rsatkichi ustunlikni qayd etdi. Ratsionalizatsiya mexanizmining ustunlik qilishi (M=12,66) shuni

anglatadiki, rezervga bo‘shatilgan harbiy xizmatchilar stressli yoki ichki ziddiyatli vaziyatlarda o‘z xatti-harakatlari va qarorlarini mantiqiy asoslash, ularni ijtimoiy maqbul shaklda izohlash orqali psixologik muvozanatni saqlashga intiladi. Ijtimoiy-psixologik nuqtai nazardan, bu holat kognitiv himoya mexanizmlarining ustunligini bildiradi, ya’ni shaxslar emotsional zo‘riqishni kamaytirish uchun vaziyatni intellektual qayta ishlash strategiyalaridan foydalanadi. Bu ayniqsa harbiy xizmat davomida shakllangan analitik fikrlash, vaziyatni baholash va qaror qabul qilish ko‘nikmalari bilan uzviy bog‘liqdir.

Bostirish (19,21) va ko‘chirish (16,14) kabi mexanizmlarning nisbatan yuqoriroq darajada bo‘lishi shaxslarning salbiy kechinmalarni ong ostiga siqib chiqarish yoki ularni boshqa obyektlarga yo‘naltirish orqali psixologik muvozanatni saqlashga moyilligini ko‘rsatadi. Bu mexanizmlar qisqa muddatda moslashuvni ta’minlasa-da, uzoq muddatda ichki zo‘riqishlarning kumulyativ ta’sirini kuchaytirishi mumkin.

Reaksiyalarning shakllanishi (15,47) va regressiya (13,63) ko‘rsatkichlari o‘rtacha darajada bo‘lib, bu shaxslarning ba’zi vaziyatlarda ijtimoiy maqbul xulq-atvorni sun’iy ravishda shakllantirishi yoki stress sharoitida avvalgi, sodda xulq-atvor shakllariga qaytish tendensiyasini namoyon etishini bildiradi. Bu esa psixologik himoya tizimining ba’zi komponentlari hali to‘liq adaptiv shaklga o‘tmaganligini ko‘rsatadi. Proyeksiya (23,16), kompensatsiya (23,94) va ayniqsa sublimatsiya (24,94) ko‘rsatkichlarining yuqori darajada bo‘lishi ijobiy adaptiv tendensiyalarni aks ettiradi. Proyeksiya orqali shaxs ichki ziddiyatlarini tashqi muhitga yuklasa, kompensatsiya orqali o‘zining zaif tomonlarini boshqa sohalarda muvaffaqiyat qozonish

orqali qoplaydi. Eng muhim jihat shundaki, sublimatsiya ko‘rsatkichining yuqoriligi (24,94) shaxslarning ichki energiya va ziddiyatlarini ijtimoiy maqbul faoliyatlarga yo‘naltirish qobiliyati rivojlanganligini ko‘rsatadi. Bu esa eng yetuk va konstruktiv himoya mexanizmlaridan biri hisoblanadi. Inkor etish (11,45) ko‘rsatkichining nisbatan past darajada bo‘lishi shaxslarning real voqelikni to‘liq inkor etish tendensiyasi kuchli emasligini bildiradi, bu esa moslashuv jarayonida muhim ijobiy omil hisoblanadi. Ratsionalizatsiya mexanizmining ustuvorligi rezervga bo‘shatilgan harbiy xizmatchilarda psixologik himoya tizimi asosan kognitiv-intellektual yo‘nalganlikka ega ekanligini ko‘rsatadi. Biroq shu bilan birga, sublimatsiya va kompensatsiya kabi yuqori darajadagi adaptiv mexanizmlarning rivojlanganligi ushbu shaxslarning ichki ziddiyatlarni ijtimoiy maqbul shaklda hal etish salohiyati mavjudligini tasdiqlaydi.

Rezervga bo‘shatilgan harbiy xizmatchilarda psixologik himoya tizimi nisbatan yetuk bo‘lib, unda ratsionalizatsiya asosiy strategiya sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, himoya mexanizmlarining ayrimlari (bostirish, regressiya) hali to‘liq adaptiv shaklga o‘tmaganligi sababli, psixologik amaliyotda konstruktiv himoya mexanizmlarini (sublimatsiya, refleksivlik) rivojlantirishga qaratilgan psixokorreksion tadbirlarni kuchaytirish zarurati asoslanadi.

Shaxsning psixologik himoya mexanizmlari metodikasining normal taqsimlanish qonuniyatiga mosligi natijalariga binoan, bostirish ($Z=3,35$; $p<0,01$), regressiya ($Z=2,85$; $p<0,01$), reaksiyalarning shakllanishi ($Z=2,63$; $p<0,01$), ratsionalizatsiya ($Z=2,57$; $p<0,01$), ko‘chirish ($Z=2,89$; $p<0,01$), inkor etish ($Z=3,52$; $p<0,01$), proyeksiya ($Z=3,80$; $p<0,01$), kompensatsiya

(Z=3,47; p<0,01) hamda sublimatsiya (Z=3,82; p<0,01) kabi shkalalarning barchasi noparametrik mezonlarga mos holda interpretatsiya qilinishi dalillanadi. Z qiymatlarning solishtirma tahliliga koʻra, eng yuqori ogʻish sublimatsiya (Z=3,82; p<0,01) va proyeksiya (Z=3,80; p<0,01) shkalalarida qayd etilgan. Bu natija shuni anglatadiki, rezervdagi shaxslarda psixologik himoya mexanizmlarining eng faol va oʻzgaruvchan komponentlari aynan ichki ziddiyatlarni tashqi muhitga koʻchirish (proyeksiya) hamda ularni ijtimoiy maqbul faoliyatlarga yoʻnaltirish (sublimatsiya) bilan bogʻliqdir. Ijtimoiy-psixologik jihatdan bu holat ikki yoʻnalishli adaptiv strategiyaning mavjudligini koʻrsatadi: bir tomondan, ichki kechinmalarni tashqi obyektlarga yuklash orqali psixologik yengillik hosil qilinadi, ikkinchi tomondan esa, ushbu energiya konstruktiv faoliyatga yoʻnaltiriladi.

Kompensatsiya (Z=3,47; p<0,01) va inkor etish (Z=3,52; p<0,01) koʻrsatkichlarining yuqori ogʻishi ham muhim ilmiy mazmunga ega. Kompensatsiya shaxsning oʻz zaif tomonlarini boshqa sohalarda muvaffaqiyatga erishish orqali qoplashga intilishini bildirsa, inkor etish real muammolarni ong darajasida qabul qilmaslik orqali psixologik himoya hosil qilishni anglatadi. Bu ikki mexanizmning bir vaqtda yuqori dispersiyaga ega boʻlishi shuni koʻrsatadiki, respondentlar orasida konstruktiv va destruktiv himoya strategiyalari parallel tarzda namoyon boʻlmoqda. Bostirish (Z=3,35; p<0,01) koʻrsatkichi ham normallikdan sezilarli ogʻishni aks ettirib, shaxslarning salbiy kechinmalarni ong ostiga siqib chiqarish darajasi boʻyicha farqlar mavjudligini bildiradi. Bu mexanizm qisqa muddatda psixologik barqarorlikni ta’minlasa-da, uzoq muddatda ichki zoʻriqishlarning toʻplanishiga olib kelishi mumkin.

Ko‘chirish ($Z=2,89$; $p<0,01$) va regressiya ($Z=2,85$; $p<0,01$) shkalalari bo‘yicha aniqlangan og‘ishlar shaxslarning stressli vaziyatlarda emotsional reaktsiyalarni boshqa obyektlarga yo‘naltirish yoki avvalgi, sodda xulq-atvor shakllariga qaytish tendensiyasi turlicha ekanligini ko‘rsatadi. Bu esa psixologik himoya tizimining ayrim komponentlari hali to‘liq yetuklashmaganligini bildiradi. Reaksiyalarning shakllanishi ($Z=2,63$; $p<0,01$) va ratsionalizatsiya ($Z=2,57$; $p<0,01$) ko‘rsatkichlari nisbatan pastroq og‘ish darajasini namoyon etadi. Bu esa ushbu mexanizmlar boshqa himoya strategiyalariga nisbatan barqarorroq ekanligini ko‘rsatadi. Ayniqsa, ratsionalizatsiyaning nisbatan kam dispersiyaga ega bo‘lishi rezervdagi shaxslarda kognitiv asoslangan himoya mexanizmlarining umumiy tendensiya sifatida shakllanganligini anglatadi.

Barcha shkalalar bo‘yicha Z qiymatlarning statistik jihatdan ahamiyatli bo‘lishi psixologik himoya mexanizmlarining tanlanma doirasida normal taqsimlanmaganligini va yuqori darajadagi individual tafovutlar mavjudligini ko‘rsatadi. Bu esa psixologik himoya tizimi universallik emas, balki differensial, dinamik va shaxsiy tajribaga bog‘liq holda shakllanishini ilmiy jihatdan asoslaydi. Rezervga bo‘shatilgan harbiy xizmatchilarda psixologik himoya mexanizmlari tizimi notekis rivojlangan bo‘lib, unda ayniqsa sublimatsiya, proyeksiya va kompensatsiya kabi mexanizmlar yuqori o‘zgaruvchanlikka ega. Bu esa reintegratsiya jarayonida psixologik moslashuv strategiyalari turlicha ekanligini va psixokorreksion amaliyotda individual yondashuvni qo‘llash zarurligini asoslaydi.

2.2.5-jadval

Stressga bardoshlilik va ijtimoiy adaptatsiya metodikasining tavsiflovchi va normal taqsimlanishga mosligini tekshirish natijalari (n=735)

Ko‘rsatkichlar	O‘rtacha qiymat	St.og‘ish	Z qiymat	p (ishonchlilik darajasi)
Stressga bardoshlilik va ijtimoiy adaptatsiya	250,78	276,28	5,31	0,000**

Izoh: * - p<0,05; ** - p<0,01.

Stressga bardoshlilik va ijtimoiy adaptatsiya metodikasining tavsiflovchi ma’lumotlariga binoan o‘rtacha qiymat ko‘rsatkichi 250,78 ni tashkil etdi. Mazkur integral ko‘rsatkich shaxsning stress omillariga bardosh berish, ijtimoiy muhitga moslashish, shaxslararo munosabatlarni barqaror yuritish hamda ichki psixologik muvozanatni saqlash qobiliyatlarini kompleks tarzda aks ettiradi.

Ushbu o‘rtacha qiymat rezervga bo‘shatilgan shaxslarning aksariyatida stressga nisbatan moslashuv mexanizmlari mavjud ekanligini, ya’ni ular noaniq va ziddiyatli vaziyatlarda to‘liq dezadaptatsiyaga uchramasdan, muayyan darajada funksional faoliyatni saqlab qolish imkoniyatiga ega ekanligini anglatadi. Bu holat harbiy xizmat davomida shakllangan psixologik chidamlilik, intizomiylik va irodaviy sifatlarning fuqaroviy hayotda ham qisman saqlanib qolayotganligi bilan izohlanadi. Shu bilan birga, o‘rtacha qiymatning maksimal darajaga yaqin emasligi mazkur ko‘rsatkichning o‘rta diapazonda joylashganligini bildiradi. Bu esa stressga bardoshlilik va ijtimoiy adaptatsiya darajasi respondentlar o‘rtasida yetarlicha barqaror emasligini, ya’ni ayrim shaxslarda yuqori, boshqalarida esa past darajada namoyon bo‘layotganini ko‘rsatadi. Bunday differensiallik reintegratsiya jarayonining individual-psixologik xususiyatlarga kuchli bog‘liqligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Stressga bardoshlilik komponenti nisbatan shakllangan bo‘lsa-da, u ko‘proq situativ xarakterga ega bo‘lib, uzoq muddatli psixologik bosimlarda susayishi mumkin bo‘lsa, ijtimoiy adaptatsiya jarayoni hali to‘liq yakunlanmagan bo‘lib, shaxslar yangi ijtimoiy rollar va munosabatlar tizimiga moslashishda muayyan qiyinchiliklarga duch kelmoqda. O‘rtacha qiymatning 250,78 darajasida qayd etilishi rezervga bo‘shatilgan harbiy xizmatchilarda stressga bardoshlilik va ijtimoiy adaptatsiya salohiyati mavjud, biroq u to‘liq barqarorlashmagan tizim ekanligini ko‘rsatadi.

Shuningdek, mazkur metodika ($Z=5,31$; $p<0,01$) noparametrik mezonlarga muvofiq holda tahlil qilinishi dalillandi. qiymatning yuqori bo‘lishi ($Z=5,31$) rezervga bo‘shatilgan harbiy xizmatchilarda stressga bardoshlilik va ijtimoiy adaptatsiya darajalari keskin individual tafovutlarga ega ekanligini ko‘rsatadi. Ya’ni, ayrim respondentlar yuqori darajadagi psixologik barqarorlik va ijtimoiy moslashuvni namoyon etsa, boshqalarda esa ushbu ko‘rsatkichlar past darajada yoki beqaror shaklda namoyon bo‘lmoqda. Bu esa reintegratsiya jarayonining differensial, notekis va individual-psixologik omillarga kuchli bog‘liq holda kechayotganligini tasdiqlaydi. Mazkur natija, ayniqsa, stressga bardoshlilik komponentining o‘zgaruvchanligini ko‘rsatadi. Chunki fuqaroviy hayotga o‘tish jarayoni shaxs uchun yangi ijtimoiy talablar, rol o‘zgarishlari va psixologik bosimlar bilan kechadi. Natijada, ushbu omillarga nisbatan javob reaksiyalari respondentlar o‘rtasida turlicha shakllanadi. Ba’zi shaxslarda adaptiv coping strategiyalari ustun bo‘lsa, boshqalarida esa dezadaptiv reaksiyalar, emotsional zo‘riqish yoki ijtimoiy izolyatsiya tendensiyalari kuzatilishi mumkin. Shuningdek,

normallikdan og‘ish ijtimoiy adaptatsiya jarayonining ham bir xil kechmayotganligini ko‘rsatadi. Bu esa shaxslarning ijtimoiy muhitga integratsiyalashuvi darajasi, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash resurslari, kasbiy moslashuv imkoniyatlari va ichki psixologik resurslariga bog‘liq holda farqlanishini anglatadi.

2.3-§. Rezervga bo‘shatilgan muddat omilining reintegratsiya jarayonida psixoindikativ o‘rni

Rezervga bo‘shatilgan harbiy xizmatchilarning fuqaroviy hayotga qayta moslashuvi jarayonida muddat omili muhim psixoindikativ determinant sifatida namoyon bo‘ladi. Zamonaviy harbiy psixologiya va reabilitatsion tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, xizmatdan bo‘shatilgan vaqt oralig‘i shaxsning adaptiv resurslari, psixoemotsional barqarorligi hamda ijtimoiy integratsiya darajasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Mazkur omil reintegratsiya jarayonining dinamikasini belgilovchi vaqt-me’yoriy indikator sifatida talqin qilinadi.

Xorijiy tadqiqotlarda (ayniqsa AQSh va Yevropa veteranlar psixologiyasi doirasida) reintegratsiya jarayoni post-servis adaptatsiya sikli sifatida qaralib, u bir necha bosqichlarga ajratiladi: dastlabki dezorientatsiya bosqichi, tranzitiv moslashuv bosqichi va barqarorlashuv bosqichi. Ushbu bosqichlarning davomiyligi aynan rezervga bo‘shatilgan muddat bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, har bir davrda psixologik ko‘rsatkichlar turlicha namoyon bo‘ladi.

Dastlabki (1-5 yilgacha) davr xorijiy adabiyotlarda “kritik adaptatsion oynasi” sifatida ta’riflanadi. Bu bosqichda shaxs harbiy identitetdan fuqaroviy identitetga o‘tish jarayonida keskin psixologik transformatsiyani boshdan kechiradi. Empirik

tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, aynan ushbu davrda stressga bardoshlilikning beqarorligi, emotsional zo‘riqish, begonalashuv hissi hamda xulq-atvor regulyatsiyasida disbalanslar yuqori darajada kuzatiladi. Shu bois, mazkur muddat psixoindikativ jihatdan eng “sezgir zona” hisoblanadi.

6-10 yil oralig‘i esa tranzitiv adaptatsiya bosqichi sifatida tavsiflanadi. Bu davrda shaxsda ijtimoiy rollarning nisbatan barqarorlashuvi, kasbiy va oilaviy integratsiya jarayonining faollashuvi kuzatiladi. Xorijiy tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, ushbu bosqichda psixologik regulyatsiya tizimi (xususan, rejalashtirish, o‘zini nazorat qilish, refleksivlik) asta-sekin muvozanatlashadi. Biroq emotsional komponentlar, ayniqsa nostalgik kechinmalar va latent stress reaksiyalari hali ham saqlanib qolishi mumkin.

11-15 yil va undan keyingi davrlar ko‘proq barqaror adaptatsiya bosqichi sifatida talqin qilinadi. Bu bosqichda shaxsning ijtimoiy identiteti qayta integratsiyalashgan bo‘lib, fuqaroviy hayotga moslashuv darajasi nisbatan yuqori bo‘ladi. Psixologik jihatdan bu davrda o‘zini o‘zi boshqarish mexanizmlari, irodaviy sifatlar va emotsional barqarorlik nisbatan uyg‘unlashgan tizimga ega bo‘ladi. Shu bilan birga, ayrim xorijiy tadqiqotlar uzoq muddat o‘tgan bo‘lsa-da, “kechikkan psixologik reaksiyalar” (delayed stress response) mavjud bo‘lishi mumkinligini ham qayd etadi.

Muddat omilining psixoindikativ ahamiyati shundan iboratki, u shaxsning qaysi bosqichda ekanligini aniqlash imkonini beradi va bu orqali individual psixologik yordam strategiyalarini differensiallashtirishga xizmat qiladi. Masalan, qisqa muddatda (1-5 yil) psixologik qo‘llab-quvvatlash ko‘proq emotsional stabilizatsiya va stressni kamaytirishga yo‘naltirilsa, o‘rta

muddatda (6-10 yil) kommunikativ kompetensiyalar va ijtimoiy integratsiyani rivojlantirish ustuvor bo‘ladi. Uzoq muddatda esa (10 yildan ortiq) shaxsning o‘zini o‘zi realizatsiya qilish, kasbiy rivojlanish va ijtimoiy faolligini oshirishga e’tibor qaratiladi.

2.3.1-jadval

Adaptivlikning rezervga bo‘shatilgan muddat bo‘yicha farqlari (n=735)

Ko‘rsatkichlar	O‘rtacha ranglar				Statistik qiymat	
	1-5 yilgacha (N-208)	6-10 yilgacha (N-229)	11-15 yilgacha (N-139)	16-20 yilgacha (N-159)	H	p
Ishonchlilik darajasi	422,56	361,63	316,49	350,84	23,525	0,000**
Xulq-atvorni boshqarish	361,47	354,98	383,41	381,82	2,465	0,482
Kommunikativ potensial	340,15	365,65	407,13	373,61	8,485	0,037*
Axloqiy me’yoriylik	348,03	359,56	408,90	370,52	8,426	0,049*
Shaxsning moslashuvchanlik potensiali	368,41	356,52	377,15	375,99	1,154	0,764

Izoh: * - $p<0,05$; ** - $p<0,01$.

Adaptivlikning rezervga bo‘shatilgan muddat bo‘yicha farqlari solishtirilganda ishonchlilik darajasi bo‘yicha 1-5 yilgacha bo‘lgan harbiy xizmatchilarda (422,56), 6-10 yilgacha (361,63), 11-15 yilgacha (316,49) hamda 16-20 yilgacha (350,84) o‘rtacha rang qiymatini tashkil etib ishonch darajasidagi farqlarni qayd etdi ($H=23,525$; $p<0,01$). Ushbu natija shuni anglatadiki, xizmatdan nisbatan yaqinda bo‘shatilgan shaxslarda o‘ziga ishonch va ichki barqarorlik darajasi yuqoriroq namoyon bo‘ladi, vaqt o‘tishi bilan esa bu ko‘rsatkich ma’lum darajada pasayib boradi. Bu holat dastlabki davrda mavjud bo‘lgan “psixologik inertsiya” bilan izohlanadi, ya’ni harbiy muhitda shakllangan ichki tartib, ishonch va aniqlik hali saqlanib turadi. Vaqt o‘tishi bilan esa fuqaroviy hayotdagi noaniqliklar, rol o‘zgarishlari va tashqi talablarning xilma-xilligi ushbu ishonch tizimini qayta shakllanish jarayoniga olib keladi.

Xulq-atvorni boshqarish shkalasi bo‘yicha (H=2,465; p>0,05) guruhlar o‘rtasida sezilarli farq aniqlanmadi. O‘rtacha ranglar deyarli yaqin joylashgan. Bu holat xulq-atvorni nazorat qilish ko‘nikmalari xizmatdan bo‘shatilgan muddatga nisbatan kamroq bog‘liqligini bildiradi. Mazkur ko‘nikmalar harbiy xizmat davomida chuqur shakllangan va uzoq vaqt davomida saqlanib qoluvchi barqaror psixologik tizim sifatida namoyon bo‘ladi. Ya’ni, vaqt omili bu komponentga sezilarli ta’sir ko‘rsatmaydi.

Kommunikativ potensial shkalasi bo‘yicha sezilarli farqlar qayd etildi (H=8,485; p<0,05). O‘rtacha ranglar 1-5 yilgacha (340,15), 6-10 yilgacha (365,65), 11-15 yilgacha (407,13) va 16-20 yilgacha (373,61) guruhlarida turlicha taqsimlangan. Eng yuqori qiymat 11-15 yil guruhida kuzatilgani shuni ko‘rsatadiki, aynan shu davrda shaxslarning muloqotga moslashuvi va ijtimoiy aloqalarni kengaytirish qobiliyati kuchayadi. Bu vaqt oralig‘ida fuqaroviy muhit bilan faol integratsiya yuz beradi, natijada kommunikativ ko‘nikmalar rivojlanadi. Dastlabki davrda esa (1-5 yil) kommunikativ potensial pastroq bo‘lishi yangi muhitga moslashishdagi ehtiyotkorlik va ichki yopiq holat bilan bog‘liq.



2.3.1-rasm. Adaptivlikning rezervga bo‘shatilgan muddat omili bo‘yicha farqlari

Axloqiy me’yoriylik shkalasi bo‘yicha ham sezilarli farqlar aniqlangan (H=8,426; p<0,05). O‘rtacha ranglar 1-5 yilgacha (348,03), 6-10 yilgacha (359,56), 11-15 yilgacha (408,90) va 16-20 yilgacha (370,52) qiymatlarni tashkil etadi. Eng yuqori ko‘rsatkich yana 11-15 yil guruhida kuzatiladi. Bu holat mazkur davrda shaxslarning fuqaroviy jamiyat me’yorlarini qabul qilish va ularga moslashish jarayoni nisbatan faol kechayotganini bildiradi. Dastlabki bosqichda esa harbiy normativ tizimning ta’siri ustun bo‘lib qoladi, keyinchalik esa yangi ijtimoiy me’yorlar bilan uyg‘unlashuv yuz beradi.

Shaxsning moslashuvchanlik potensiali shkalasi bo‘yicha sezilarli farqlar aniqlanmadi (H=1,154; p>0,05). Bu natija shuni ko‘rsatadiki, umumiy adaptiv salohiyat xizmatdan bo‘shatilgan muddatdan qat’i nazar, nisbatan barqaror tizim sifatida saqlanib qoladi. Ya’ni, shaxsning moslashuv qobiliyati individual psixologik resurslar bilan belgilanadi va vaqt omiliga kuchli bog‘liq emas. Adaptivlikning ayrim komponentlari (ishonchlilik darajasi, kommunikativ potensial, axloqiy me’yoriylik) vaqt o‘tishi bilan sezilarli o‘zgarishga uchraydi, boshqalari (xulq-atvorni boshqarish va umumiy moslashuvchanlik potensiali) esa barqaror saqlanadi. Bu natijalar moslashuv jarayonining chiziqli emasligini, balki bosqichma-bosqich va selektiv tarzda kechishini ko‘rsatadi. Ayniqsa, o‘rta muddatli bosqich (11-15 yil) kommunikativ va normativ moslashuvning eng faol davri sifatida ajralib turadi.

2.3.2-jadval

Adaptatsiya darajasining rezervga bo‘shatilgan muddat bo‘yicha farqlari (n=735)

Ko‘rsatkichlar	O‘rtacha ranglar				Statistik qiymat	
	1-5 yilgacha	6-10 yilgacha	11-15 yilgacha	16-20 yilgacha	H	p

	(N-208)	(N-229)	(N-139)	(N-159)		
Kommunikativlik	376,79	362,44	380,08	353,95	1,662	0,645
O‘ziga ishonch	355,44	388,52	355,08	366,18	3,398	0,334
Emotsionallik	352,98	365,21	397,15	366,19	3,731	0,292
Nostalgiya	367,19	360,91	381,06	367,85	0,789	0,852
Begonalashuv	350,70	354,79	492,96	387,83	15,584	0,004**
Adaptatsiya	371,95	358,11	377,49	368,79	0,853	0,837

Izoh: * - p<0,05; ** - p<0,01.

Adaptatsiya darajasining rezervga bo‘shatilgan muddat bo‘yicha farqlari tahlil qilinganda metodikadan o‘rin olgan aksariyat shkalalarda ishonch darajasidagi ahamiyatli farqlar qayd etilmaganini ko‘rish mumkin. Kommunikativlik shkalasi bo‘yicha 1-5 yilgacha bo‘lganlarda o‘rtacha rang 376,79, 6-10 yilgacha bo‘lganlarda 362,44, 11-15 yilgacha bo‘lganlarda 380,08, 16-20 yilgacha bo‘lganlarda esa 353,95 ni tashkil etgan bo‘lib (H=1,662; p>0,05), guruhlar o‘rtasida ishonchli farq mavjud emasligini ko‘rsatadi. Bu holat kommunikativlik rezervga bo‘shatilgan muddatga bevosita bog‘liq ravishda keskin o‘zgarmasligini bildiradi. Ya’ni, muloqotga kirishish, ijtimoiy aloqalarni qo‘llab-quvvatlash, suhbat jarayonida o‘z pozitsiyasini ifodalash kabi xususiyatlar vaqt omilidan ko‘ra shaxsning ilgari shakllangan kommunikativ tajribasi, ijtimoiy faolligi va individual psixologik xususiyatlari bilan ko‘proq belgilanadi. 11-15 yil guruhida nisbatan yuqoriroq rang qiymati qayd etilgani bu davrda fuqaroviy muhit bilan muloqot tajribasi ortishini ko‘rsatsa-da, ushbu tafovut statistik darajada barqaror emas.

O‘ziga ishonch shkalasi bo‘yicha 1-5 yilgacha bo‘lganlarda 355,44, 6-10 yilgacha bo‘lganlarda 388,52, 11-15 yilgacha bo‘lganlarda 355,08, 16-20 yilgacha bo‘lganlarda 366,18 o‘rtacha rang qiymati aniqlangan (H=3,398; p>0,05). Shunga qaramay, 6-10 yil guruhida o‘ziga ishonchning nisbatan yuqoriroq ko‘rinishi

mazkur bosqichda shaxsning fuqaroviy hayotdagi o‘rnini anglash, o‘z imkoniyatlarini qayta baholash va yangi faoliyat yo‘nalishlariga moslashish jarayoni faol kechishini anglatishi mumkin. Biroq umumiy holatda o‘ziga ishonch rezerv muddati uzayishi bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri ortmaydi yoki kamaymaydi; u ko‘proq shaxsning ichki tayanchlari, oilaviy qo‘llab-quvvatlash, kasbiy barqarorlik va hayotiy maqsadlarning aniqligi bilan bog‘liq.

Emotsionallik shkalasi bo‘yicha 1-5 yilgacha guruhda 352,98, 6-10 yilgacha guruhda 365,21, 11-15 yilgacha guruhda 397,15, 16-20 yilgacha guruhda 366,19 o‘rtacha rang qayd etilgan($H=3,731$; $p>0,05$). Biroq 11-15 yil guruhidagi nisbatan yuqori rang qiymati ushbu bosqichda hissiy kechinmalar, ichki taranglik yoki moslashuvga oid psixologik sezgirlik kuchayishi mumkinligini anglatadi. Bu davrda shaxs harbiy hayotdan uzoqlashgan bo‘lsa-da, fuqaroviy hayotda to‘liq barqarorlikka erishmagan bo‘lishi mumkin. Shu bois emotsional reaksiyalar ayrim hollarda kuchayadi. Ammo statistik farq aniqlanmagani emotsionallikning faqat rezerv muddati bilan emas, balki stress tajribasi, oilaviy holat, mehnatdagi barqarorlik va ijtimoiy muhit sifati bilan ham belgilanadigan murakkab komponent ekanini ko‘rsatadi.

Nostalgiya shkalasi bo‘yicha 1-5 yilgacha bo‘lganlarda 367,19, 6-10 yilgacha bo‘lganlarda 360,91, 11-15 yilgacha bo‘lganlarda 381,06 hamda 16-20 yilgacha bo‘lganlarda 367,85 o‘rtacha rang qiymati qayd etilgan ($H=0,789$; $p>0,05$). Bu holat harbiy xizmat davriga bo‘lgan xotiraviy-emotsional bog‘liqlik rezerv muddati bilan keskin susayib yoki kuchayib bormasligini anglatadi. Nostalgiya shaxsning o‘tmishdagi maqomi, xizmat

davridagi ijtimoiy tan olinishi, safdoshlik munosabatlari va harbiy hayotdagi tartibli muhitga bo‘lgan subyektiv munosabati bilan bog‘liq. Shu sababli, u vaqt o‘tishi bilan avtomatik tarzda yo‘qolmaydi, balki shaxsiy tajriba mazmuniga qarab saqlanib qoladi.



2.3.2-rasm. Begonalashuvning rezervga bo‘shatilgan muddat omili bo‘yicha farqlari

Begonalashuv shkalasi bo‘yicha 1-5 yilgacha bo‘lganlarda 350,70, 6-10 yilgacha bo‘lganlarda 354,79, 11-15 yilgacha bo‘lganlarda 492,96, 16-20 yilgacha bo‘lganlarda 387,83 o‘rtacha rang qiymati aniqlangan ($H=15,584$; $p<0,01$). Eng yuqori ko‘rsatkich 11-15 yil guruhida qayd etilgani ushbu davrda shaxsda ijtimoiy ajralish, o‘zini fuqaroviy muhitdan chetda his qilish, eski harbiy identitet va yangi fuqaroviy rol o‘rtasidagi nomuvofiqlik kuchayishi mumkinligini bildiradi. Mazkur bosqichda shaxs dastlabki moslashuv bosqichidan o‘tgan bo‘ladi, ammo yangi muhitda barqaror ijtimoiy maqom, yaqin ijtimoiy tarmoq va kasbiy o‘zini anglash to‘liq mustahkamlanmagan bo‘lsa, begonalashuv hissi kuchayadi. 16-20 yil guruhida bu ko‘rsatkichning pasayishi esa uzoq muddatli tajriba natijasida

shaxs fuqaroviy hayotdagi mavjud sharoitlarga nisbatan muayyan ichki muvozanat hosil qilganini ko‘rsatishi mumkin.

Adaptatsiya shkalasi bo‘yicha 1-5 yilgacha guruhda 371,95, 6-10 yilgacha guruhda 358,11, 11-15 yilgacha guruhda 377,49, 16-20 yilgacha guruhda 368,79 o‘rtacha rang qiymatlari qayd etilgan (H=0,853; p>0,05). Bu holat umumiy adaptatsiya darajasi faqat rezerv muddati bilan belgilanmasligini ko‘rsatadi. Moslashuv shaxsning ichki resurslari, oilaviy barqarorligi, kasbiy bandligi, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlanishi, emotsional holati va yangi ijtimoiy rollarni qabul qilish darajasi bilan birgalikda shakllanadi. Shu bois vaqt omili umumiy adaptatsiyaga bevosita va yagona ta’sir etuvchi omil sifatida talqin qilinmaydi. Rezervga bo‘shatilgan muddat adaptatsiya tizimining barcha komponentlariga bir xil ta’sir ko‘rsatmasligini ko‘rsatadi. Kommunikativlik, o‘ziga ishonch, emotsionallik, nostalgiya va umumiy adaptatsiya shkalalarida statistik farqlar aniqlanmagani ushbu xususiyatlarning nisbatan barqaror yoki ko‘p omilli tabiatga ega ekanini bildiradi. Begonalashuv shkalasidagi ahamiyatli farq esa reintegratsiya jarayonida aynan ijtimoiy ajralish hissi eng sezgir psixologik ko‘rsatkichlardan biri ekanini ko‘rsatadi.

2.3.3-jadval

Shaxsning o‘zini o‘zi boshqarish darajasining rezervga bo‘shatilgan muddat bo‘yicha farqlari (n=735)

Ko‘rsatkichlar	O‘rtacha ranglar				Statistik qiymat	
	1-5 yilgacha (N-208)	6-10 yilgacha (N-229)	11-15 yilgacha (N-139)	16-20 yilgacha (N-159)	H	p
Rejalashtirish	382,39	361,33	328,23	393,55	8,451	0,038*
Natijani baholash	367,46	357,79	377,54	375,08	1,019	0,797
Moslashuvchanlik	342,51	344,34	406,94	401,37	14,644	0,002**
Modellashtirish	361,86	364,63	383,34	367,48	0,981	0,806
Irodaviy qat'iyat	360,35	375,12	343,54	389,14	4,030	0,258
Emotsional barqarorlik	371,90	377,71	380,90	337,65	4,365	0,225

Umumiy regulyatsiya indeksi	361,77	355,19	368,01	392,43	3,135	0,371

Izoh: * - $p<0,05$; ** - $p<0,01$.

Navbatdagi tahlillarimizdan o‘rin olgan shaxsning o‘zini o‘zi boshqarish darajasining rezervga bo‘shatilgan muddat bo‘yicha harbiy xizmatchilardagi xususiyatlari differensial jihatdan solishtirilganda aksariyat shkalalarda xuddi yuqorida bo‘lgani kabi ishonchli farqlar qayd etilmaganini ko‘rish mumkin. Shaxsning o‘zini o‘zi boshqarish darajasining rezervga bo‘shatilgan muddat bo‘yicha farqlari tahlil qilinganda, regulyativ tizim tarkibidagi ayrim komponentlar vaqt omiliga sezgir ekani, ayrimlari esa nisbatan barqaror saqlanishi kuzatildi. Bu holat rezervga bo‘shatilgan harbiy xizmatchilarda o‘zini boshqarish jarayoni bir xil yo‘nalishda emas, balki alohida psixologik funksiyalar kesimida turlicha kechishini ko‘rsatadi.

Rejalashtirish shkalasi bo‘yicha 1-5 yilgacha bo‘lganlarda o‘rtacha rang 382,39, 6-10 yilgacha 361,33, 11-15 yilgacha 328,23, 16-20 yilgacha 393,55 ni tashkil etdi. Statistik natija ($H=8,451$; $p<0,05$) guruhlar o‘rtasida ahamiyatli farq mavjudligini ko‘rsatadi. Eng yuqori ko‘rsatkich 16-20 yil guruhida qayd etilgani uzoq muddatli fuqaroviy hayot tajribasi shaxsda maqsad qo‘yish, hayotiy yo‘nalishni belgilash va faoliyatni oldindan tartibga solish qobiliyatini kuchaytirishini anglatadi. 11-15 yil guruhida pastroq qiymat kuzatilishi esa bu bosqichda shaxs hayotiy rejalarini qayta ko‘rib chiqish, avvalgi kasbiy identitetdan uzoqlashish va yangi ijtimoiy mavqeni mustahkamlash jarayonida ichki noaniqlikka duch kelishi mumkinligini bildiradi.

Natijani baholash shkalasida 1-5 yilgacha 367,46, 6-10 yilgacha 357,79, 11-15 yilgacha 377,54, 16-20 yilgacha 375,08

o‘rtacha rang qiymatlari aniqlandi. Statistik ko‘rsatkich (H=1,019; p>0,05) ahamiyatli farq yo‘qligini bildiradi. Demak, o‘z faoliyati natijasini tahlil qilish, xatolarni ko‘rish, erishilgan natijani ichki mezonlar bilan solishtirish qobiliyati rezerv muddati bilan keskin o‘zgarmaydi. Bu komponent ko‘proq shaxsning refleksiv salohiyati, hayotiy tajribani anglash darajasi va o‘ziga nisbatan tanqidiy munosabati bilan belgilanadi.

Moslashuvchanlik shkalasi bo‘yicha 1-5 yilgacha 342,51; 6-10 yilgacha 344,34; 11-15 yilgacha 406,94; 16-20 yilgacha 401,37 o‘rtacha ranglar qayd etildi. Natija (H=14,644; p<0,01) guruhlar o‘rtasida yuqori darajadagi ahamiyatli farq mavjudligini ko‘rsatadi. Eng yuqori qiymatlar 11-15 va 16-20 yil guruhlarida kuzatilgani shuni anglatadiki, vaqt o‘tishi bilan shaxs yangi vaziyatlarga moslashish, o‘z xatti-harakatlarini sharoitga qarab qayta tashkil etish, muqobil yechimlarni tanlash va ijtimoiy talablar o‘zgarishiga javob berish borasida tajriba orttiradi. Dastlabki 1-10 yillik davrda moslashuvchanlik nisbatan pastroq bo‘lishi harbiy xizmatdan keyingi yangi hayotiy tartibga o‘tish hali barqarorlashmaganini ko‘rsatadi.

Modellashtirish shkalasida 1-5 yilgacha 361,86, 6-10 yilgacha 364,63, 11-15 yilgacha 383,34, 16-20 yilgacha 367,48 o‘rtacha ranglar qayd etildi. Statistik natija (H=0,981; p>0,05) ahamiyatli farq yo‘qligini ko‘rsatadi. Bu shaxsning vaziyatni oldindan tasavvur qilish, ehtimoliy oqibatlarni ko‘ra bilish va faoliyat ssenariysini tuzish qobiliyati rezerv muddati bilan bevosita belgilanmasligini bildiradi. Mazkur ko‘rsatkich intellektual-regulyativ tayyorgarlik, kasbiy tajriba va individual fikrlash uslubi bilan ko‘proq bog‘liq.



2.3.3-rasm. Rejalashtirish va moslashuvchanlikning rezervga bo‘shatilgan muddat bo‘yicha farqlari

Irodaviy qat’iyat shkalasi bo‘yicha 1-5 yilgacha 360,35, 6-10 yilgacha 375,12, 11-15 yilgacha 343,54, 16-20 yilgacha 389,14 o‘rtacha rang qiymatlari aniqlandi. Statistik natija (H=4,030; p>0,05) ahamiyatli farq mavjud emasligini bildiradi. Shunga qaramay, 16-20 yil guruhida nisbatan yuqoriroq qiymat kuzatilishi uzoq muddatli hayotiy tajriba va mustaqil qaror qabul qilish zarurati irodaviy barqarorlikni kuchaytirishi mumkinligini ko‘rsatadi. Biroq farq ishonchli emasligi sababli, irodaviy qat’iyatni faqat rezerv muddati bilan izohlash yetarli emas; u shaxsning motivatsion yo‘nalganligi, mas’uliyat hissi va ichki intizomi bilan bog‘liq. Emotsional barqarorlik shkalasi bo‘yicha 1-5 yilgacha 371,90, 6-10 yilgacha 377,71, 11-15 yilgacha 380,90, 16-20 yilgacha 337,65 o‘rtacha ranglar qayd etildi. Statistik natija (H=4,365; p>0,05) ahamiyatli farq yo‘qligini ko‘rsatadi. Biroq 16-20 yil guruhida qiymatning nisbatan pastroq bo‘lishi uzoq muddatli hayotiy yuklama, kasbiy mavqeni qayta aniqlash, sog‘liq, oilaviy mas’uliyat yoki ijtimoiy faollikning pasayishi

bilan bog‘liq emotsional zo‘riqish ehtimolini ko‘rsatadi. Shunga qaramay, bu tafovut statistik jihatdan mustahkam emas.

Umumiy regulyatsiya indeksi bo‘yicha 1-5 yilgacha 361,77; 6-10 yilgacha 355,19; 11-15 yilgacha 368,01; 16-20 yilgacha 392,43 o‘rtacha rang qiymatlari aniqlandi. Statistik natija (H=3,135; p>0,05) ahamiyatli farq yo‘qligini bildiradi. Bu umumiy o‘zini boshqarish salohiyati rezervga bo‘shatilgan muddatga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liq emasligini ko‘rsatadi. Umumiy regulyatsiya shaxsning rejalashtirish, moslashuvchanlik, natijani baholash, emotsional nazorat va irodaviy qat’iyat kabi bir nechta komponentlarining integratsiyalashgan ifodasi bo‘lgani uchun u yagona vaqt omili bilan emas, balki ko‘p omilli psixologik resurslar bilan belgilanadi. Rezervga bo‘shatilgan muddat o‘zini o‘zi boshqarish tizimining barcha tarkibiy qismlariga bir xil ta’sir ko‘rsatmaydi. Rejalashtirish va moslashuvchanlik shkalalarida ahamiyatli farqlar aniqlangani vaqt o‘tishi bilan hayotiy strategiya tuzish va vaziyatga mos qayta yo‘nalish olish qobiliyatlari o‘zgarishini ko‘rsatadi. Natijani baholash, modellashtirish, irodaviy qat’iyat, emotsional barqarorlik va umumiy regulyatsiya indeksida ahamiyatli farqlar kuzatilmagani esa mazkur komponentlar nisbatan barqaror, individual psixologik tayanchlarga bog‘liq ekanini anglatadi.

2.3.4-jadval

Psixologik himoya mexanizmlarining rezervga bo‘shatilgan muddat bo‘yicha farqlari (n=735)

Ko‘rsatkichlar	O‘rtacha ranglar				Statistik qiymat	
	1-5 yilgacha (N-208)	6-10 yilgacha (N-229)	11-15 yilgacha (N-139)	16-20 yilgacha (N-159)	H	p
Bostirish	368,11	382,16	359,27	355,10	1,855	0,603
Regressiya	377,33	377,84	362,98	346,00	2,697	0,441
Reaksiyalarning	369,90	363,12	394,62	349,27	3,589	0,309

shakllanishi						
Ratsionalizatsiya	390,66	355,98	384,81	340,98	9,587	0,036*
Ko‘chirish	380,23	375,32	351,90	355,53	2,331	0,507
Inkor etish	386,12	363,87	375,49	343,69	3,876	0,275
Proyeksiya	392,06	371,67	348,44	348,35	5,315	0,150
Kompensatsiya	391,53	365,26	368,67	340,58	5,277	0,153
Sublimatsiya	370,34	375,17	343,12	376,37	2,454	0,484

Izoh: * - $p<0,05$; ** - $p<0,01$.

Psixologik himoya mexanizmlarining rezervga bo‘shatilgan muddat bo‘yicha farqlari ko‘pchilik himoya strategiyalari vaqt omiliga nisbatan nisbatan barqaror saqlanishidan dalolat beradi. Bu natija psixologik himoya tizimi individual tajriba va shaxsiy xususiyatlarga ko‘proq bog‘liq ekanini, vaqt omili esa selektiv ta’sir ko‘rsatishini anglatadi. Psixologik himoya mexanizmlarining rezervga bo‘shatilgan muddat bo‘yicha farqlariga binoan metodikadan o‘rin olgan faqat ratsionalizatsiya shkalasida ishonch darajasidagi farqlar mavjudligi dalillandi ($H=9,587$; $p<0,05$). Ratsionalizatsiya shkalasi bo‘yicha 1-5 yilgacha (390,66), 6-10 yilgacha (355,98), 11-15 yilgacha (384,81) va 16-20 yilgacha (340,98) o‘rtacha rang qiymatlari aniqlanib, bu natija kognitiv himoya mexanizmlarining vaqt o‘tishi bilan o‘zgarishini ko‘rsatadi. Dastlabki (1-5 yil) va o‘rta (11-15 yil) bosqichlarda ratsionalizatsiyaning yuqoriligi shaxsning ichki ziddiyatlarni mantiqiy izohlash orqali yengishga intilishini bildiradi. 16-20 yil guruhida pasayish esa shaxsning himoya strategiyalari asta-sekin o‘zgarib, boshqa mexanizmlar bilan almashinayotganini anglatadi.

Bostirish shkalasi bo‘yicha 1-5 yilgacha bo‘lganlarda o‘rtacha rang 368,11; 6-10 yilgacha 382,16; 11-15 yilgacha 359,27; 16-20 yilgacha 355,10 ni tashkil etgan ($H=1,855$; $p>0,05$). Demak, salbiy kechinmalarni ongdan chetlashtirish, noxush xotiralarni ichki nazorat orqali bosib turish tendensiyasi rezerv

muddati uzayishi bilan sezilarli o‘zgarmaydi. Bu mexanizm harbiy xizmatda shakllangan emotsional o‘zini tutish, vaziyatda bardoshli ko‘rinishga intilish va ichki zo‘riqishni tashqi muhitga bildirmaslik odati bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. 6-10 yil guruhidagi nisbatan yuqoriroq qiymat mazkur davrda shaxs ichki ziddiyatlarni ochiq ifodalashdan ko‘ra ularni nazorat ostida saqlashga ko‘proq moyil bo‘lishini ko‘rsatsa-da, bu tafovut statistik jihatdan mustahkam emas.

Regressiya shkalasida 1-5 yilgacha 377,33; 6-10 yilgacha 377,84; 11-15 yilgacha 362,98; 16-20 yilgacha 346,00 o‘rtacha ranglar qayd etilgan ($H=2,697$; $p>0,05$). Bu stress yoki noaniq vaziyatlarda avvalgi, oddiyroq xulq-atvor shakllariga qaytish tendensiyasi rezerv muddati bilan bevosita belgilanmasligini anglatadi. Dastlabki 1-10 yillik guruhlarda qiymatlarning nisbatan yuqoriligi fuqaroviy hayotga moslashuvning ilk va o‘rta bosqichlarida shaxs ayrim hollarda eski, tanish, xavfsiz xulq modellari orqali o‘zini himoyalashga urinishi mumkinligini bildiradi. Biroq 16-20 yil guruhida regressiyaning nisbatan pasayishi uzoq muddatli moslashuv tajribasi bu himoya shaklini yumshatishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Reaksiyalarning shakllanishi shkalasi bo‘yicha 1-5 yilgacha 369,90; 6-10 yilgacha 363,12; 11-15 yilgacha 394,62; 16-20 yilgacha 349,27 o‘rtacha ranglar aniqlangan ($H=3,589$; $p>0,05$). Mazkur mexanizm shaxsning ichki ziddiyatli impulslarini qarama-qarshi, ijtimoiy maqbul xulq orqali ifodalashga intilishini anglatadi. 11-15 yil guruhidagi nisbatan yuqori ko‘rsatkich bu bosqichda ichki qarama-qarshiliklar, ayniqsa “harbiy tajriba” va “fuqaroviy rol” o‘rtasidagi nomuvofiqlik kuchayishi mumkinligini ko‘rsatadi. Ammo farq ahamiyatli emasligi sababli, bu holat

umumiy qonuniyat sifatida emas, ehtimoliy psixologik tendensiya sifatida talqin qilinadi.

Ko‘chirish shkalasi bo‘yicha 1-5 yilgacha 380,23; 6-10 yilgacha 375,32; 11-15 yilgacha 351,90; 16-20 yilgacha 355,53 o‘rtacha ranglar aniqlangan (H=2,331; p>0,05). Bu salbiy emotsiyalarni bevosita manbaga emas, balki boshqa obyekt yoki munosabatlarga yo‘naltirish tendensiyasi rezerv muddati bilan keskin farqlanmasligini ko‘rsatadi. Dastlabki 1-10 yillik davrda qiymatlarning nisbatan yuqoriroq bo‘lishi moslashuv bosimlari kuchliroq kechgan paytda emotsional energiyani boshqa yo‘nalishga chiqarish ehtimoli mavjudligini bildiradi. Biroq farq ahamiyatli emasligi sababli, bu mexanizmni vaqt omilidan ko‘ra emotsional nazorat, temperament va stress tajribasi bilan bog‘lash maqsadga muvofiq.

Inkor etish shkalasida 1-5 yilgacha 386,12; 6-10 yilgacha 363,87; 11-15 yilgacha 375,49; 16-20 yilgacha 343,69 o‘rtacha ranglar qayd etilgan (H=3,876; p>0,05). Inkor etish real muammo, yo‘qotish yoki ichki noqulaylikni ong darajasida to‘liq tan olmaslik orqali psixologik himoyalanishni bildiradi. 1-5 yil guruhida nisbatan yuqori qiymat xizmatdan keyingi dastlabki bosqichda ayrim shaxslar yangi hayotiy holatdagi murakkabliklarni to‘liq qabul qilishga tayyor emasligini ko‘rsatishi mumkin. 16-20 yil guruhida qiymatning pasayishi esa vaqt o‘tishi bilan real sharoitni qabul qilish va unga moslashish imkoniyati ortishini bildiradi.



2.3.4-rasm. Ratsionalizatsiyaning rezervga bo‘shatilgan muddat bo‘yicha differensiatsiyasi

Proyeksiya shkalasi bo‘yicha 1-5 yilgacha 392,06; 6-10 yilgacha 371,67; 11-15 yilgacha 348,44; 16-20 yilgacha 348,35 o‘rtacha ranglar aniqlangan (H=5,315; p>0,05). Proyeksiya shaxsning ichki xavotiri, ziddiyati yoki qabul qilinmagan kechinmalarini tashqi muhitga nisbat berish tendensiyasidir. Dastlabki 1-5 yil guruhida yuqoriroq qiymatning kuzatilishi fuqaroviy muhitga moslashuvning ilk bosqichida tashqi sharoitlarni aybdor deb bilish, noqulayliklarni atrofdagilar yoki tizim bilan bog‘lash ehtimoli kuchliroq bo‘lishini ko‘rsatadi. Keyingi guruhlarda ko‘rsatkichlarning pasayishi ichki tajribani qayta ishlash va vaziyatni shaxsiy mas’uliyat doirasida qabul qilish imkoniyati ortishini bildirishi mumkin.

Kompensatsiya shkalasida 1-5 yilgacha 391,53; 6-10 yilgacha 365,26; 11-15 yilgacha 368,67; 16-20 yilgacha 340,58 o‘rtacha ranglar qayd etilgan (H=5,277; p>0,05). Kompensatsiya shaxsning zaif, yo‘qotilgan yoki qoniqarsiz tomonlarini boshqa sohalardagi muvaffaqiyatlar orqali qoplashga intilishini anglatadi. 1-5 yil guruhida nisbatan yuqori qiymat xizmatdan keyingi dastlabki davrda avvalgi maqom, ijtimoiy tan olinishi yoki kasbiy rol

yo‘qotilishi boshqa faoliyatlarda o‘zini ko‘rsatish ehtiyojini kuchaytirishi mumkinligini bildiradi. 16-20 yil guruhida pasayish esa uzoq muddatda kompensator ehtiyojlar yumshashi, shaxs mavjud fuqaroviy rolini qabul qilishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Sublimatsiya shkalasi bo‘yicha 1-5 yilgacha 370,34; 6-10 yilgacha 375,17; 11-15 yilgacha 343,12; 16-20 yilgacha 376,37 o‘rtacha ranglar aniqlangan (H=2,454; p>0,05). Sublimatsiya ichki zo‘riqish, energiya yoki ziddiyatlarni ijtimoiy maqbul, foydali faoliyatga yo‘naltirishni anglatadi. 6-10 yil va 16-20 yil guruhlaridagi nisbatan yuqori qiymatlar mazkur davrlarda shaxslar ichki kuchlanishlarni mehnat, oila, ijtimoiy faollik yoki ijodiy faoliyat orqali konstruktiv yo‘naltirishga moyil bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi. 11-15 yil guruhidagi pastroq qiymat esa bu bosqichda ichki ziddiyatlar konstruktiv yo‘nalish topishda qiyinchilikka duch kelishi ehtimolini bildiradi.

Psixologik himoya mexanizmlarining aksariyati rezervga bo‘shatilgan muddatga qat’iy bog‘liq emasligini ko‘rsatadi. Faqat ratsionalizatsiya mexanizmining ahamiyatli farqlanishi shaxsning moslashuv jarayonida o‘z holatini mantiqiy asoslash, ichki ziddiyatlarni kognitiv izohlash va murakkab vaziyatlarga ma’no berish strategiyasi vaqt bosqichlariga qarab o‘zgarishini ko‘rsatadi. Qolgan mexanizmlarda farqlar ahamiyatli chiqmagan bo‘lsa-da, ularning rang qiymatlari moslashuv jarayonidagi ehtimoliy psixologik tendensiyalarni yoritadi: dastlabki yillarda inkor etish, proyeksiya va kompensatsiya nisbatan faollashishi, uzoq muddatli bosqichlarda esa ayrim himoyalar yumshashi yoki konstruktiv shakllarga o‘tishi mumkin.

2.3.5-jadval

Stressga bardoshlilik va ijtimoiy adaptatsiyaning rezervga bo‘shatilgan muddat bo‘yicha farqlari (n=735)

Ko‘rsatkichlar	O‘rtacha ranglar				Statistik qiymat	
	1-5 yilgacha (N-208)	6-10 yilgacha (N-229)	11-15 yilgacha (N-139)	16-20 yilgacha (N-159)	H	p
Stressga bardoshlilik va ijtimoiy adaptatsiya	370,22	355,90	374,47	406,87	11,173	0,009**

Izoh: * - p<0,05; ** - p<0,01.

Stressga bardoshlilik va ijtimoiy adaptatsiyaning rezervga bo‘shatilgan muddat bo‘yicha farqlari o‘rganilganda tabiiy ravishda rezervga bo‘shatilgan muddati 16-20 yil bo‘lgan harbiy xizmatchilarda ustunliklarni ifodaladi (H=11,173; p<0,01). 1-5 yil guruhida qayd etilgan nisbatan yuqoriroq qiymat (370,22) dastlabki moslashuv bosqichida shaxsda harbiy xizmat davomida shakllangan intizom, irodaviy barqarorlik va psixologik chidamlilikning hali saqlanib qolganini anglatadi. Bu davrda shaxs yangi ijtimoiy sharoitga kirib kelgan bo‘lsa-da, avvalgi psixologik tayanchlar uning stressga nisbatan chidamliligini muayyan darajada qo‘llab-quvvatlaydi.

6-10 yil guruhida ko‘rsatkichning pasayishi (355,90) moslashuv jarayonining murakkabroq bosqichiga o‘tilganini bildiradi. Bu davrda dastlabki “psixologik inertsiya” susayadi, yangi ijtimoiy talablar va real hayotiy muammolar bilan to‘qnashuv kuchayadi. Natijada stressga bardoshlilik va ijtimoiy moslashuv darajasi nisbatan pasayishi mumkin. 11-15 yil guruhida ko‘rsatkichning yana oshishi (374,47) shaxsning muayyan tajriba orttirganini, moslashuv strategiyalarini qayta tashkil etganini va yangi ijtimoiy muhitga nisbatan moslashuv mexanizmlarini shakllantira boshlaganini ko‘rsatadi. Bu bosqichda shaxs avvalgi qiyinchiliklarni qisman yengib, yangi barqarorlikka erishishga intiladi.



2.3.5-rasm. Stressga bardoshlilik va ijtimoiy adaptatsiyaning rezervga bo‘shatilgan muddati bo‘yicha farqlari

Eng yuqori o‘rtacha rang qiymati 16-20 yil guruhida (406,87) qayd etilgani uzoq muddatli reintegratsiya jarayoni natijasida stressga bardoshlilik va ijtimoiy adaptatsiya sezilarli darajada mustahkamlanishini anglatadi. Bu davrda shaxs fuqaroviy hayot sharoitlarini chuqurroq o‘zlashtirgan, yangi ijtimoiy rollarni qabul qilgan va stress omillariga nisbatan moslashuvchan, tajribaga asoslangan javob strategiyalarini ishlab chiqqan bo‘ladi. Stressga bardoshlilik va ijtimoiy adaptatsiya ko‘rsatkichi chiziqli emas, balki to‘lqinsimon dinamikaga ega: dastlab nisbatan yuqori darajada boshlanib, keyingi bosqichda pasayadi, so‘ngra tajriba ortishi bilan qayta tiklanib, uzoq muddatda yuqori darajaga erishadi. Bu moslashuv jarayonining murakkab, bosqichli va ichki qayta tuzilishlar bilan kechishini aks ettiradi.

Ikkinchi bob bo‘yicha xulosalar

1. Empirik natijalar rezervga bo‘shatilgan harbiy xizmatchilarning reintegratsiya jarayoni bir tekis kechmasligini ko‘rsatdi. Moslashuv jarayoni shaxsning yoshi, rezerv muddati,

xizmat tajribasi, oilaviy mas’uliyati, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlanishi va psixologik resurslari bilan uzviy bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Bu esa reintegratsiyani oddiy ijtimoiy moslashuv emas, balki shaxsning qadriyatlari, rollari, motivatsiyasi va xulq-atvorini qayta tashkil etuvchi murakkab psixologik jarayon sifatida talqin qilish imkonini beradi.

2. Adaptivlik metodikasi natijalari xulq-atvorni boshqarish va shaxsning moslashuvchanlik potensiali rezervga bo‘shatilgan shaxslarda nisbatan ustuvor ekanini ko‘rsatdi. Bu holat harbiy xizmat davomida shakllangan intizom, o‘zini nazorat qilish, vaziyatni baholash va xatti-harakatni tartibga solish ko‘nikmalari fuqaroviy hayotda ham muayyan darajada saqlanib qolayotganini bildiradi. Shu bilan birga, kommunikativ potensial va axloqiy me’yoriylik ko‘rsatkichlari vaqt omiliga sezgir bo‘lib, yangi ijtimoiy muhitga moslashishda muloqot va qadriyatlar transformatsiyasi alohida ahamiyat kasb etishini ko‘rsatadi.

3. Adaptatsiya darajasi diagnostikasi bo‘yicha o‘ziga ishonch ko‘rsatkichining yuqoriligi respondentlarda ichki psixologik tayanch, o‘z imkoniyatlarini baholash va kelajak faoliyatiga nisbatan ma’lum darajadagi ijobiy yo‘nalganlik mavjudligini ko‘rsatdi. Biroq begonalashuv ko‘rsatkichining ayrim guruhlarda, xususan 11-15 yil oralig‘ida yuqori namoyon bo‘lishi shaxsning fuqaroviy muhitda o‘zini to‘liq qabul qilingan subyekt sifatida his etmasligi, eski harbiy identitet va yangi fuqaroviy rol o‘rtasidagi ichki ziddiyatlar saqlanib qolayotganidan dalolat beradi.

4. O‘zini o‘zi boshqarish metodikasi natijalari rejalashtirish komponentining ustuvorligini ko‘rsatdi. Bu rezervga bo‘shatilgan harbiy xizmatchilar o‘z faoliyatini oldindan belgilash, hayotiy maqsadlarni aniqlash va kelajak strategiyasini shakllantirishga

moyil ekanini bildiradi. Shu bilan birga, emotsional barqarorlik va natijani baholash komponentlarining nisbatan zaifroq va o‘zgaruvchan xarakteri ularning har doim ham o‘z kechinmalari va faoliyat natijalarini yetarlicha chuqur refleksiv tahlil qila olmasligini ko‘rsatadi.

5. Rezervga bo‘shatilgan muddat bo‘yicha o‘zini o‘zi boshqarish ko‘rsatkichlari tahlilida rejalashtirish va moslashuvchanlik shkalalarida ahamiyatli farqlar aniqlangani vaqt omili shaxsning hayotiy strategiya qurishi va vaziyatga mos qayta yo‘nalish olish qobiliyatlariga ta’sir etishini ko‘rsatdi. Ayniqsa 16-20 yil muddatdagi guruhda rejalashtirishning yuqoriligi uzoq muddatli hayotiy tajriba shaxsda barqarorroq strategik fikrlashni shakllantirishini bildiradi.

6. Psixologik himoya mexanizmlari bo‘yicha natijalar respondentlarda ratsionalizatsiya, kompensatsiya va sublimatsiya kabi himoya strategiyalari muhim o‘rin tutishini ko‘rsatdi. Bu holat rezervga bo‘shatilgan shaxslar ichki ziddiyatlarni mantiqiy asoslash, zaif tomonlarni boshqa faoliyat orqali qoplash yoki ichki energiyani ijtimoiy maqbul yo‘nalishlarga yo‘naltirishga intilishini bildiradi. Ratsionalizatsiya mexanizmining rezerv muddati bo‘yicha ahamiyatli farqlanishi moslashuv jarayonida vaziyatni kognitiv izohlash strategiyasi muhim dinamik komponent ekanini ko‘rsatadi.

7. Stressga bardoshlilik va ijtimoiy adaptatsiya ko‘rsatkichi bo‘yicha olingan natijalar ushbu sifatlar rezerv muddati bilan sezilarli farqlanishini ko‘rsatdi. 16-20 yil muddatdagi respondentlarda eng yuqori o‘rtacha rang qayd etilishi uzoq muddatli fuqaroviy hayot tajribasi stress omillariga moslashgan javob qaytarish, ijtimoiy munosabatlarda barqarorlikni saqlash va

hayotiy qiyinchiliklarni boshqarish imkoniyatlarini kuchaytirishini bildiradi.

8. Subyektiv so‘rov natijalari respondentlarning bir qismida fuqaroviy hayotga moslashuv, jamiyatga ishonch, ruhiy holat, kasbiy faoliyatga kirishish va oilaviy-ijtimoiy rollarni bajarish bo‘yicha ijobiy ko‘rsatkichlar mavjudligini ko‘rsatdi. Biroq ayrim javoblarda motivatsiya yetishmasligi, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning zaifligi, muloqotdagi qiyinchiliklar, qadriyatlarni qabul qilishdagi ichki qarshilik va umumiy reintegratsiyaning past darajasi ham kuzatildi. Bu holat reintegratsiya jarayonida psixologik resurslar bilan bir qatorda ijtimoiy muhit omillari ham hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatadi.

9. Rezervga bo‘shatilgan harbiy xizmatchilarning fuqaroviy hayotga reintegratsiyasi bosqichli, ko‘p omilli va differensial xarakterga ega ekanini tasdiqlaydi. Mazkur jarayonda xulq-atvorni boshqarish, rejalashtirish, moslashuvchanlik, o‘ziga ishonch va stressga bardoshlilik muhim resurs sifatida namoyon bo‘lsa, begonalashuv, emotsional beqarorlik, motivatsion pasayish va qadriyatlar transformatsiyasidagi qiyinchiliklar reintegratsiyani murakkablashtiruvchi omillar sifatida ajralib chiqadi.

III BOB. REZERVGA BO‘SHATILGAN HARBIY XIZMATCHILAR REINTEGRATSIYASINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK DETERMINANTLARI

3.1-§. Rezervga bo‘shatilgan harbiy xizmatchilar jamiyatga reintegratsiyasining psixologik gender xususiyatlari

Harbiy sohada amalga oshirilayotgan zamonaviy islohotlar nafaqat qurolli kuchlarning tashkiliy va funksional salohiyatini takomillashtirishga, balki harbiy xizmatni yakunlagan shaxslarning fuqarolik jamiyatiga muvaffaqiyatli integratsiyalashuvini ta’minlashga ham qaratilgan murakkab ijtimoiy-siyosiy jarayon sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ushbu jarayonning muhim tarkibiy qismi rezervga bo‘shatilgan harbiy xizmatchilarni jamiyatga reintegratsiya qilish tizimini rivojlantirishdan iboratdir. Chunki harbiy xizmat davomida shakllangan qadriyatlar, xulq-atvor me’yorlari, ijtimoiy rollar va kasbiy identifikatsiya fuqarolik hayoti talablariga moslashtirilishi zarur bo‘ladi.

Xalqaro tajribalar shuni ko‘rsatadiki, samarali harbiy islohotlar demokratik fuqaroviy nazorat, shaffof boshqaruv, hisobdorlik, inson huquqlariga hurmat va gender tengligi tamoyillariga asoslanishi lozim. Mazkur tamoyillar harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslarning keyingi hayot yo‘lini qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini ham qamrab oladi. Shu bois harbiy islohotlarning muvaffaqiyati faqat qurolli kuchlarning jangovar tayyorgarligi bilan emas, balki xizmatni yakunlagan harbiy xizmatchilarning fuqarolik muhitiga moslashuv darajasi, psixologik farovonligi va ijtimoiy faoliyatining samaradorligi bilan ham baholanadi.

Rezervga bo‘shatilgan harbiy xizmatchilar reintegratsiyasini ta’minlashda gender omili alohida ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Erkak va ayol harbiy xizmatchilar xizmat faoliyati davomida turlicha ijtimoiy tajriba, psixologik yuklama va kasbiy rol identifikatsiyasini shakllantiradilar. Shu sababli ularning fuqarolik hayotiga moslashish jarayonida namoyon bo‘ladigan psixologik reaksiyalar, ijtimoiy moslashuv strategiyalari, oilaviy munosabatlarga integratsiyalashuvi hamda mehnat bozoridagi o‘rni bir-biridan farqlanishi mumkin. Ayniqsa, ayol harbiy xizmatchilar uchun kasbiy identifikatsiyaning qayta shakllanishi, oilaviy va ijtimoiy rollarni uyg‘unlashtirish masalalari dolzarb bo‘lsa, erkak harbiy xizmatchilarda xizmat davomida shakllangan avtoritar boshqaruv uslublarini fuqarolik munosabatlari tizimiga moslashtirish zarurati yuzaga keladi.

Shu nuqtai nazardan, rezervga bo‘shatilgan harbiy xizmatchilarni reintegratsiya qilish tizimi gender sezgir yondashuv asosida tashkil etilishi, unda psixologik yordam, kasbiy qayta yo‘naltirish, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va oilaviy moslashuv mexanizmlarining o‘zaro integratsiyasi ta’minlanishi lozim. Bunday yondashuv harbiy xizmatni yakunlagan shaxslarning fuqarolik jamiyatida o‘z salohiyatini to‘laqonli ro‘yobga chiqarishi, ijtimoiy faolligini saqlab qolishi hamda jamiyat taraqqiyotiga samarali hissa qo‘shishiga xizmat qiladi. Demak, zamonaviy harbiy islohotlarning strategik maqsadlaridan biri professional, ijtimoiy mas’uliyatli va gender jihatdan inklyuziv mudofaa tizimini shakllantirish bilan bir qatorda, rezervga bo‘shatilgan harbiy xizmatchilarni jamiyatga muvaffaqiyatli reintegratsiya qilishning psixologik, ijtimoiy va institutsional asoslarini takomillashtirishdan iboratdir. Mazkur vazifalarning

samarali amalga oshirilishi harbiy tashkilotlar va fuqarolik jamiyati o‘rtasidagi ijtimoiy ishonchni mustahkamlashga, inson kapitalini saqlashga hamda milliy xavfsizlikning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

3.1.1-jadval

Adaptivlikning jins omili bo‘yicha farqlari (n=735)

Ko‘rsatkichlar	O‘rtacha ranglar		Statistik qiymat	
	Erkak harbiy xizmatchilar (N-693)	Ayol harbiy xizmatchilar (N-42)	U	p
Ishonchlilik darajasi	364,60	444,10	9197	0,006**
Xulq-atvorni boshqarish	365,71	405,71	12969	0,236
Kommunikativ potensial	367,71	372,85	14349,5	0,879
Axloqiy me’yoriylik	366,96	485,14	8833	0,005**
Shaxsning moslashuvchanlik potensiali	366,74	488,73	13682,5	0,000**

Izoh: * - p<0,05; ** - p<0,01.

Adaptivlikning jins omili bo‘yicha farqlari o‘rganilganda ishonchlilik darajasi shkalasi bo‘yicha erkak harbiy xizmatchilarning o‘rtacha rang qiymati 364,60 ni, ayol harbiy xizmatchilarniki esa 444,10 ni tashkil etdi (U=9197; p<0,01). Ayol respondentlarda ichki barqarorlik, vaziyatlarni adekvat baholash, o‘z imkoniyatlariga ishonch va psixologik tayanch tizimi erkaklarga nisbatan kuchliroq shakllanganligini ko‘rsatadi. Ayollarning o‘z faoliyatiga nisbatan mas’uliyatliroq munosabatda bo‘lishi, qaror qabul qilishda ehtiyotkorlik va ijtimoiy vaziyatlarni chuqurroq tahlil qilishga moyilligi ushbu natijaning shakllanishida muhim omillardan biri bo‘lishi mumkin.

Xulq-atvorni boshqarish shkalasi bo‘yicha erkaklarda o‘rtacha rang 365,71, ayollarda esa 405,71 ni tashkil etdi (U=12969; p>0,05). Biroq ushbu ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi tafovut

barqaror qonuniyat sifatida namoyon bo‘lmadi. Harbiy faoliyat davomida shakllangan intizom, o‘zini nazorat qilish, vaziyatga mos ravishda harakat qilish va xulq-atvorni boshqarish ko‘nikmalari erkaklar hamda ayollarda deyarli bir xil darajada rivojlanganligini ko‘rsatadi. Harbiy xizmatning o‘zi mazkur sifatlarni standartlashtiruvchi va umumiy me’yorlar asosida shakllantiruvchi muhit hisoblanadi.

Kommunikativ potensial shkalasi bo‘yicha erkak respondentlarda o‘rtacha rang 367,71, ayollarda esa 372,85 ni tashkil etdi ($U=14349,5$; $p>0,05$). Erkak va ayol harbiy xizmatchilarning muloqotga kirishish, ijtimoiy aloqalarni shakllantirish va qo‘llab-quvvatlash imkoniyatlari o‘rtasida sezilarli tafovut mavjud emasligini ko‘rsatadi. Harbiy muhitda kommunikativ ko‘nikmalar kasbiy faoliyatning ajralmas qismi sifatida shakllanishi bilan izohlanadi. Natijada kommunikativ kompetensiyalar jinsdan qat’i nazar o‘xshash darajada rivojlanadi.

Axloqiy me’yoriylik shkalasi bo‘yicha erkak harbiy xizmatchilar 366,96, ayol harbiy xizmatchilar esa 485,14 o‘rtacha rang qiymatini namoyon etdi ($U=8833$; $p<0,01$). Ayol respondentlarda axloqiy me’yorlarga rioya qilish, ijtimoiy qoidalarga moslashish va xulq-atvorni normativ talablar asosida tashkil etish darajasi yuqoriroq ekanligini ko‘rsatadi. Ayollar odatda ijtimoiy munosabatlar tizimida mas’uliyat, me’yoriylik va o‘z xatti-harakatlarining oqibatlarini hisobga olishga ko‘proq e’tibor qaratishi bilan tavsiflanadi. Shu sababli axloqiy me’yoriylik komponentida yuqoriroq natijalar kuzatilgan bo‘lishi mumkin.

Shaxsning moslashuvchanlik potensiali shkalasi bo‘yicha erkak respondentlarda o‘rtacha rang 366,74 ni, ayollarda esa

488,73 ni tashkil etdi (U=13682,5; p<0,01). Ayol harbiy xizmatchilarning yangi ijtimoiy sharoitlarga moslashish, vaziyat o‘zgarishlariga javob qaytarish, mavjud resurslardan foydalanish va psixologik muvozanatni saqlash imkoniyatlari yuqoriroq ekanligini ko‘rsatadi. Ayniqsa, rezervga bo‘shatilgandan keyingi fuqaroviy hayotga integratsiyalashuv jarayonida ayollar ijtimoiy munosabatlar tizimidan, oilaviy qo‘llab-quvvatlashdan va emotsional moslashuv mexanizmlaridan samaraliroq foydalanishi mumkin. Adaptivlik ko‘rsatkichlari tahlili ayol harbiy xizmatchilar ishonchlilik darajasi, axloqiy me’yoriylik va umumiy moslashuvchanlik potensiali bo‘yicha erkak harbiy xizmatchilarga nisbatan yuqoriroq natijalarni namoyon etganligini ko‘rsatdi. Xulq-atvorni boshqarish hamda kommunikativ potensial komponentlari esa erkak va ayol respondentlarda o‘xshash darajada shakllangan. Bu holat rezervga bo‘shatilgan ayol harbiy xizmatchilarda fuqaroviy hayotga moslashuv jarayonini qo‘llab-quvvatlovchi ichki psixologik resurslar va normativ-regulyativ mexanizmlar nisbatan faolroq ekanligini ko‘rsatadi.

3.1.2-jadval

Adaptatsiya darajasining jins omili bo‘yicha farqlari (n=735)

Ko‘rsatkichlar	O‘rtacha ranglar		Statistik qiymat	
	Erkak harbiy xizmatchilar (N-693)	Ayol harbiy xizmatchilar (N-42)	U	p
Kommunikativlik	369,21	348,02	13714	0,530
O‘ziga ishonch	369,93	336,18	13216,5	0,317
Emotsionallik	367,24	380,57	14025	0,692
Nostalgiya	379,64	340,92	13415,5	0,393
Begonalashuv	379,28	346,80	13662,5	0,505
Adaptatsiya	365,22	473,82	9628,5	0,009**

Izoh: * - p<0,05; ** - p<0,01.

Adaptatsiya darajasining jins omili bo‘yicha farqlari shuni ko‘rsatadiki, adaptatsiya jarayonining alohida tarkibiy qismlarida erkak va ayol respondentlar o‘xshash natijalarni namoyon etgan bo‘lsalar-da, umumiy adaptatsiya ko‘rsatkichida ayol harbiy xizmatchilar nisbatan yuqoriroq natijalarni qayd etgan.

Kommunikativlik shkalasi bo‘yicha erkak harbiy xizmatchilarning o‘rtacha rang qiymati 369,21 ni, ayol harbiy xizmatchilarniki esa 348,02 ni tashkil etdi (U=13714; p>0,05). Muloqotga kirishish, ijtimoiy aloqalarni shakllantirish va kommunikativ munosabatlarni qo‘llab-quvvatlash imkoniyatlari erkak va ayol respondentlarda deyarli bir xil darajada namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi. Harbiy faoliyatning jamoaviy xarakteri va xizmat vazifalarini hamkorlikda bajarish zarurati ikkala jins vakillarida ham kommunikativ kompetensiyalarni shakllantiruvchi omil sifatida xizmat qilgan bo‘lishi mumkin. O‘ziga ishonch shkalasi bo‘yicha erkak respondentlarda o‘rtacha rang 369,93, ayol respondentlarda esa 336,18 ni tashkil etdi (U=13216,5; p>0,05). O‘z imkoniyatlarini baholash, shaxsiy salohiyatga ishonch va kelajak faoliyatiga nisbatan ichki tayanch hissi erkak va ayol harbiy xizmatchilarda o‘xshash darajada shakllanganligini ko‘rsatadi. Erkaklarda ko‘rsatkich nisbatan yuqoriroq bo‘lsa-da, bu tafovut barqaror qonuniyat darajasiga yetmagan.

Emotsionallik shkalasi bo‘yicha erkak harbiy xizmatchilarda o‘rtacha rang 367,24, ayollarda esa 380,57 ni tashkil etdi (U=14025; p>0,05). Ushbu holat hissiy reaksiyalar, emotsional ta’sirchanlik va kechinmalar intensivligi bo‘yicha erkak va ayol respondentlar o‘rtasida keskin tafovut mavjud emasligini ko‘rsatadi. Harbiy xizmat davomida emotsiyalarni nazorat qilish, hissiy reaksiyalarni boshqarish va stressli vaziyatlarda o‘zini tutish

koʻnikmalarining shakllanishi mazkur natijaning asosiy omillaridan biri sifatida qaralishi mumkin. Nostalgiya shkalasi boʻyicha erkak respondentlarda oʻrtacha rang 379,64, ayol respondentlarda esa 340,92 ni tashkil etdi (U=13415,5; p>0,05). Bu natija harbiy xizmat davriga boʻlgan emotsional bogʻliqlik, oʻtmish tajribalariga murojaat qilish va avvalgi hayot bosqichlarini idealizatsiya qilish tendensiyasi erkaklarda nisbatan yuqoriroq namoyon boʻlishini koʻrsatsa-da, ushbu tafovut umumiy qonuniyat sifatida namoyon boʻlmagan. Erkak respondentlarning harbiy faoliyat bilan identifikatsiyasi kuchliroq boʻlishi mazkur tendensiyani izohlovchi omillardan biri sifatida qaralishi mumkin.

Begonalashuv shkalasi boʻyicha erkak harbiy xizmatchilar 379,28, ayol harbiy xizmatchilar esa 346,80 oʻrtacha rang qiymatini qayd etgan (U=13662,5; p>0,05). Ushbu natija yangi ijtimoiy muhitga nisbatan oʻzini chetda his qilish, ijtimoiy ajralish hissi yoki subyektiv yakkalanish darajasi erkak va ayol respondentlarda sezilarli farqlanmasligini koʻrsatadi. Shu bilan birga, erkaklarda koʻrsatkichning nisbatan yuqoriroq boʻlishi fuqaroviy muhitga moslashuvda harbiy identitetning uzoqroq saqlanib qolishi bilan bogʻliq boʻlishi mumkin. Umumiy adaptatsiya shkalasi boʻyicha erkak respondentlarda oʻrtacha rang 365,22 ni, ayol respondentlarda esa 473,82 ni tashkil etdi (U=9628,5; p<0,01). Ushbu natija ayol harbiy xizmatchilarda umumiy moslashuv darajasi yuqoriroq ekanligini koʻrsatadi. Ayollar yangi ijtimoiy sharoitlarga moslashishda mavjud ijtimoiy resurslardan, oilaviy va emotsional qoʻllab-quvvatlash tizimlaridan samaraliroq foydalanishi, yangi rollarni qabul qilish va ijtimoiy munosabatlarni qayta tashkil etishga moslashuvchanroq yondashishi mumkin. Shu sababli fuqaroviy

hayotga integratsiyalashuv jarayonida ayol respondentlar umumiy adaptatsiya koʻrsatkichlari boʻyicha yuqoriroq natijalarni namoyon etgan.

Adaptatsiya tizimi komponentlari orasida kommunikativlik, oʻziga ishonch, emotsionallik, nostalgiya va begonalashuv koʻrsatkichlari erkak va ayol harbiy xizmatchilarda oʻxshash darajada shakllanganligi kuzatiladi. Biroq umumiy adaptatsiya koʻrsatkichining ayollarda yuqoriroq namoyon boʻlishi ularning yangi ijtimoiy muhitga moslashish, oʻzgaruvchan sharoitlarga javob qaytarish va fuqaroviy hayot talablarini qabul qilish imkoniyatlari nisbatan rivojlanganligini koʻrsatadi. Mazkur natija rezervga boʻshatilgan ayol harbiy xizmatchilarning reintegratsiya jarayonida mavjud psixologik va ijtimoiy resurslardan samaraliroq foydalanish tendensiyasini aks ettiradi.

3.1.3-jadval

Shaxsning oʻzini oʻzi boshqarish darajasining jins omili boʻyicha farqlari (n=735)

Koʻrsatkichlar	Oʻrtacha ranglar		Statistik qiymat	
	Erkak harbiy xizmatchilar (N-693)	Ayol harbiy xizmatchilar (N-42)	U	p
Rejalashtirish	368,57	358,52	14155	0,765
Natijani baholash	368,47	360,19	14225	0,803
Moslashuvchanlik	364,51	475,64	8132	0,008**
Modellashtirish	365,98	441,31	9154	0,009**
Irodaviy qat'iyat	367,47	376,81	14183	0,780
Emotsional barqarorlik	411,09	317,05	12413	0,007**
Umumiy regulyatsiya indeksi	366,74	380,00	14007	0,693

Izoh: * - $p<0,05$; ** - $p<0,01$.

Shaxsning oʻzini oʻzi boshqarish darajasi koʻrsatkichlarining jins omili boʻyicha farqlari amalga oshirilgan tahlil natijalari erkak va ayol harbiy xizmatchilarda oʻzini regulyatsiya qilish tizimining

ayrim komponentlari turlicha namoyon bo‘lishini ko‘rsatdi. Olingan ma’lumotlar ayrim regulyativ funksiyalarda ayol respondentlarning, ayrim komponentlarda esa erkak respondentlarning nisbatan ustun pozitsiyaga ega ekanligini namoyon etdi. Rejalashtirish shkalasi bo‘yicha erkak harbiy xizmatchilarning o‘rtacha rang qiymati 368,57 ni, ayol harbiy xizmatchilarniki esa 358,52 ni tashkil etdi ($U=14155$; $p>0,05$). Maqsad qo‘yish, kelajak faoliyatini oldindan tashkil etish va hayotiy strategiyalarni shakllantirish darajasi erkak va ayol respondentlarda deyarli bir xil ekanligini ko‘rsatadi. Harbiy xizmat davomida faoliyatni oldindan rejalashtirish, vazifalarni aniq belgilash va maqsadga yo‘naltirilgan harakat qilish ko‘nikmalarining shakllanishi ushbu komponentda jinsiy tafovutlarning kamayishiga olib kelgan bo‘lishi mumkin. Natijani baholash shkalasi bo‘yicha erkak respondentlarda o‘rtacha rang 368,47, ayol respondentlarda esa 360,19 ni tashkil etdi ($U=14225$; $p>0,05$). Ushbu natija o‘z faoliyati natijalarini tahlil qilish, xatolarni anglash va erishilgan natijalarni baholash qobiliyati erkak va ayol harbiy xizmatchilarda o‘xshash darajada rivojlanganligini ko‘rsatadi. Refleksiv tahlil va o‘z faoliyatiga nisbatan baholovchi munosabat shakllanishida jins omili muhim rol o‘ynamayotganligi kuzatiladi.

Moslashuvchanlik shkalasi bo‘yicha erkak harbiy xizmatchilarning o‘rtacha rang qiymati 364,51 ni, ayol respondentlarniki esa 475,64 ni tashkil etdi ($U=8132$; $p<0,01$). Ayol harbiy xizmatchilarda vaziyat o‘zgarishlariga moslashish, yangi sharoitlarga tez yo‘nalish olish va xulq-atvor strategiyalarini qayta tashkil etish qobiliyati yuqoriroq ekanligini ko‘rsatadi. Ayollar yangi ijtimoiy talablarni qabul qilish, muqobil yechimlarni

topish va o‘zgaruvchan sharoitlarda faoliyat yuritishda ko‘proq moslashuvchanlik namoyon etishi mumkin. Bu xususiyat reintegratsiya jarayonida muhim psixologik resurs sifatida namoyon bo‘ladi.

Modellashtirish shkalasi bo‘yicha erkak respondentlarda o‘rtacha rang 365,98, ayollarda esa 441,31 ni tashkil etdi ($U=9154$; $p<0,01$). Ayol harbiy xizmatchilar vaziyatlarni oldindan tasavvur qilish, ehtimoliy natijalarni prognozlash va faoliyatning muqobil ssenariylarini shakllantirish borasida yuqoriroq imkoniyatlarga ega ekanligini ko‘rsatadi. Mazkur holat ayollarning vaziyatga ko‘proq kompleks yondashishi, ehtimoliy oqibatlarni oldindan hisobga olishga moyilligi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Irodaviy qat’iyat shkalasi bo‘yicha erkak harbiy xizmatchilarda o‘rtacha rang 367,47, ayollarda esa 376,81 ni tashkil etdi ($U=14183$; $p>0,05$). Natijalar maqsadga erishishda qat’iyatlilik, qiyinchiliklarni yengib o‘tish va faoliyatni davom ettirish qobiliyati erkak va ayol respondentlarda deyarli bir xil darajada shakllanganligini ko‘rsatadi. Harbiy xizmatning o‘zi qat’iyatlilik va mas’uliyat kabi sifatlarni shakllantiruvchi muhim muhit bo‘lib xizmat qilganligi sababli ushbu komponentda sezilarli tafovut kuzatilmaydi.

Emotsional barqarorlik shkalasi bo‘yicha erkak harbiy xizmatchilar 411,09, ayol harbiy xizmatchilar esa 317,05 o‘rtacha rang qiymatini qayd etgan ($U=12413$; $p<0,01$). Erkak respondentlarda hissiy reaksiyalarni nazorat qilish, emotsional zo‘riqishlarga bardosh berish va psixologik muvozanatni saqlash darajasi nisbatan yuqoriroq ekanligini ko‘rsatadi. Harbiy xizmatning qattiq intizomiy talablari va stressli vaziyatlarda faoliyat yuritish tajribasi erkaklarda emotsional nazorat

mexanizmlarining kuchliroq shakllanishiga xizmat qilgan bo‘lishi mumkin. Umumiy regulyatsiya indeksi bo‘yicha erkak harbiy xizmatchilarning o‘rtacha rang qiymati 366,74 ni, ayol respondentlarniki esa 380,00 ni tashkil etdi (U=14007; p>0,05). O‘zini o‘zi boshqarish tizimining integral ko‘rsatkichi erkak va ayol respondentlarda umumiy jihatdan o‘xshash darajada rivojlanganligini ko‘rsatadi. Ayrim tarkibiy komponentlarda tafovutlar kuzatilgan bo‘lsa-da, umumiy regulyativ salohiyat darajasida sezilarli farqlanish namoyon bo‘lmaydi.

O‘zini o‘zi boshqarish tizimida moslashuvchanlik va modellashtirish komponentlari ayol harbiy xizmatchilarda yuqoriroq namoyon bo‘lganligi kuzatiladi. Bu ularning yangi sharoitlarga moslashish va vaziyatlarni oldindan prognozlash imkoniyatlari rivojlanganligini ko‘rsatadi. Emotsional barqarorlik komponentida esa erkak respondentlarning ustunligi qayd etilib, bu hissiy nazorat va stressli vaziyatlarda ichki muvozanatni saqlash qobiliyatining kuchliroq shakllanganligini bildiradi. Rejalashtirish, natijani baholash, irodaviy qat’iyat va umumiy regulyatsiya ko‘rsatkichlari esa erkak va ayol harbiy xizmatchilarda o‘xshash darajada namoyon bo‘lib, mazkur sifatlar harbiy faoliyat davomida umumiy kasbiy tajriba asosida shakllanganligini tasdiqlaydi.

3.1.4-jadval

Psixologik himoya mexanizmlarining jins omili bo‘yicha farqlari (n=735)

Ko‘rsatkichlar	O‘rtacha ranglar		Statistik qiymat	
	Erkak harbiy xizmatchilar (N-693)	Ayol harbiy xizmatchilar (N-42)	U	p
Bostirish	364,72	472,06	9282,5	0,008**
Regressiya	478,17	365,13	8432,5	0,008**
Reaksiyalarning shakllanishi	368,76	355,45	14026	0,692

Ratsionalizatsiya	366,09	399,55	13228	0,320
Ko‘chirish	366,16	428,42	13275,5	0,337
Inkor_etish	344,91	418,98	12412	0,108
Proyeksiya	365,96	451,61	9141,5	0,009**
Kompensatsiya	367,19	451,39	9990,5	0,003**
Sublimatsiya	448,71	356,29	9061	0,012*

Izoh: * - $p<0,05$; ** - $p<0,01$.

Psixologik himoya mexanizmlarining jins omili bo‘yicha tahlil natijalari erkak va ayol harbiy xizmatchilarda psixologik himoya tizimining ayrim komponentlari turlicha namoyon bo‘lishini ko‘rsatdi. Natijalar himoya mexanizmlarining ayrimlari jinsga sezgir ekanligini, ayrimlari esa erkak va ayol respondentlarda o‘xshash darajada shakllanganligini namoyon etdi.

Bostirish shkalasi bo‘yicha erkak harbiy xizmatchilarning o‘rtacha rang qiymati 364,72 ni, ayol harbiy xizmatchilarniki esa 472,06 ni tashkil etdi ($U=9282,5$; $p<0,01$). Ayol respondentlarda salbiy kechinmalar, ichki ziddiyatlar va noxush hissiyotlarni ong darajasidan siqib chiqarish tendensiyasi kuchliroq ekanligini ko‘rsatadi. Ayollar muammoli vaziyatlarda ayrim hissiy kechinmalarni ochiq namoyon etishdan ko‘ra, ularni ichki nazorat ostida saqlashga moyil bo‘lishi mumkin. Bu holat psixologik muvozanatni vaqtinchalik saqlashga xizmat qilsa-da, uzoq muddatda ichki zo‘riqishlarning yig‘ilib borish ehtimolini ham yuzaga keltiradi. Regressiya shkalasi bo‘yicha erkak respondentlarda o‘rtacha rang 478,17, ayollarda esa 365,13 ni tashkil etdi ($U=8432,5$; $p<0,01$). Erkak harbiy xizmatchilarda stressli yoki murakkab vaziyatlarda avvalgi, sodda va yaxshi tanish xulq-atvor shakllariga qaytish tendensiyasi kuchliroq ekanligini ko‘rsatadi. Bunday holat noaniqlik yoki kuchli emotsional bosim sharoitlarida psixik energiyani tejash va

psixologik xavfsizlik hissini tiklashga qaratilgan himoya mexanizmlaridan biri sifatida namoyon bo‘lishi mumkin.

Reaksiyalarning shakllanishi shkalasi bo‘yicha erkak harbiy xizmatchilar 368,76, ayol respondentlar esa 355,45 o‘rtacha rang qiymatini qayd etgan (U=14026; p>0,05). Ichki qabul qilinmaydigan impulslarni ularga qarama-qarshi bo‘lgan ijtimoiy maqbul xulq orqali ifodalash tendensiyasi erkak va ayol respondentlarda deyarli bir xil darajada shakllanganligini ko‘rsatadi. Harbiy muhitning qat’iy me’yorlari ushbu mexanizmning ikkala jins vakillarida ham o‘xshash tarzda rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatgan bo‘lishi mumkin. Ratsionalizatsiya shkalasi bo‘yicha erkak respondentlarda o‘rtacha rang 366,09, ayollarda esa 399,55 ni tashkil etdi (U=13228; p>0,05). Ichki ziddiyatlar yoki muvaffaqiyatsizliklarni mantiqiy asoslash va ularga izoh berish tendensiyasi erkak va ayol harbiy xizmatchilarda o‘xshash darajada namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi. Harbiy faoliyat davomida shakllangan analitik fikrlash va vaziyatni izohlash ko‘nikmalari bu komponentning jinsdan qat’i nazar rivojlanishiga xizmat qilgan bo‘lishi mumkin.

Ko‘chirish shkalasi bo‘yicha erkak respondentlarda o‘rtacha rang 366,16, ayollarda esa 428,42 ni tashkil etdi (U=13275,5; p>0,05). Salbiy emotsiyalarni yoki ichki zo‘riqishlarni asl manbadan boshqa obyektlarga yo‘naltirish tendensiyasi ayollarda nisbatan yuqoriroq bo‘lishini ko‘rsatsa-da, bu tafovut umumiy qonuniyat darajasida namoyon bo‘lmaydi. Demak, ko‘chirish mexanizmi jins omiliga kuchli bog‘liq emas. Inkor etish shkalasi bo‘yicha erkak harbiy xizmatchilar 344,91, ayollar esa 418,98 o‘rtacha rang qiymatini qayd etgan (U=12412; p>0,05). Ayrim noxush voqeliklar yoki psixologik muammolarni qabul qilmaslik

tendensiyasi ayollarda nisbatan yuqoriroq bo‘lishini ko‘rsatsa-da, bu farq barqaror tendensiya sifatida namoyon bo‘lmaydi. Shunday bo‘lsa-da, ayol respondentlarda hissiy himoya strategiyalari tarkibida inkor etish elementlari ko‘proq uchrashi mumkin.

Proyeksiya shkalasi bo‘yicha erkak respondentlarda o‘rtacha rang 365,96, ayollarda esa 451,61 ni tashkil etdi ($U=9141,5$; $p<0,01$). Ayol harbiy xizmatchilar ichki kechinmalar, xavotirlar yoki qabul qilinmagan hissiyotlarni tashqi muhitga nisbat berishga ko‘proq moyillik ko‘rsatishini bildiradi. Bu mexanizm shaxsga ichki psixologik taranglikni kamaytirishga yordam beradi, biroq ayrim hollarda atrofdagilar bilan munosabatlarda subyektiv baholashlarning kuchayishiga ham sabab bo‘lishi mumkin. Kompensatsiya shkalasi bo‘yicha erkak respondentlarda o‘rtacha rang 367,19, ayollarda esa 451,39 ni tashkil etdi ($U=9990,5$; $p<0,01$). Ayol respondentlarda mavjud kamchilik yoki yo‘qotishlarni boshqa faoliyatlar orqali qoplashga intilish tendensiyasi kuchliroq ekanligini ko‘rsatadi. Bu holat ayniqsa yangi ijtimoiy rol va maqomlarni o‘zlashtirish jarayonida shaxsning ichki resurslarini safarbar qilish mexanizmi sifatida namoyon bo‘lishi mumkin.

Sublimatsiya shkalasi bo‘yicha erkak harbiy xizmatchilar 448,71, ayol respondentlar esa 356,29 o‘rtacha rang qiymatini qayd etgan ($U=9061$; $p<0,05$). Erkak respondentlarda ichki zo‘riqish, agressiv impulslar yoki psixologik energiyani ijtimoiy maqbul va konstruktiv faoliyatlarga yo‘naltirish imkoniyati yuqoriroq ekanligini ko‘rsatadi. Sublimatsiya psixologik himoya mexanizmlarining eng yetuk shakllaridan biri hisoblanadi va erkak respondentlarda uning nisbatan yuqoriroq namoyon bo‘lishi ichki ziddiyatlarni amaliy faoliyat, mehnat yoki ijtimoiy faollik orqali

qayta ishlash tendensiyasining kuchliroq ekanligini anglatadi. Psixologik himoya mexanizmlarining jins bo‘yicha tahlili ayol harbiy xizmatchilarda bostirish, proyeksiya va kompensatsiya kabi himoya strategiyalari faolroq namoyon bo‘lishini ko‘rsatdi. Bu holat hissiy kechinmalarni ichki qayta ishlash va psixologik muvozanatni saqlashga qaratilgan himoya mexanizmlarining ustunligini aks ettiradi. Erkak harbiy xizmatchilarda esa regressiya va ayniqsa sublimatsiya mexanizmlarining yuqoriroq namoyon bo‘lishi ichki zo‘riqishlarni xulq-atvor va faoliyat darajasida qayta ishlash tendensiyasining kuchliroq shakllanganligini ko‘rsatadi. Reaksiyalarning shakllanishi, ratsionalizatsiya, ko‘chirish va inkor etish mexanizmlari esa erkak va ayol respondentlarda nisbatan o‘xshash darajada namoyon bo‘lib, ularning shakllanishida harbiy faoliyatning umumiy tajribasi muhim o‘rin tutishini tasdiqlaydi.

3.1.5-jadval

Stressga bardoshlilik va ijtimoiy adaptatsiyaning jins omili bo‘yicha farqlari (n=735)

Ko‘rsatkichlar	O‘rtacha ranglar		Statistik qiymat	
	Erkak harbiy xizmatchilar (N-693)	Ayol harbiy xizmatchilar (N-42)	U	p
Stressga bardoshlilik va ijtimoiy adaptatsiya	366,73	468,88	7676	0,002**

Izoh: * - p<0,05; ** - p<0,01.

Stressga bardoshlilik va ijtimoiy adaptatsiya ko‘rsatkichlarining jins omili asosida amalga oshirilgan tahlil natijalari erkak va ayol harbiy xizmatchilar o‘rtasida mazkur integral ko‘rsatkichning namoyon bo‘lish darajasida muayyan tafovutlar mavjudligini ko‘rsatdi. O‘rtacha rang qiymatlari erkak harbiy xizmatchilarda 366,73 ni, ayol harbiy xizmatchilarda esa 468,88 ni tashkil etdi (U=7676; p<0,01).

Ayol harbiy xizmatchilar rezervga bo‘shatilgandan keyingi fuqaroviy hayotga moslashish, yangi ijtimoiy munosabatlar tizimini qabul qilish va turli stress omillariga javob qaytarish borasida nisbatan yuqoriroq imkoniyatlarga ega ekanligini ko‘rsatadi. Ayollarda stressli vaziyatlarga nisbatan moslashuvchan javob strategiyalarining shakllanganligi, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash resurslaridan samarali foydalanish qobiliyati hamda emotsional munosabatlar tizimiga faolroq tayanish holati mazkur natijaning shakllanishiga ta’sir etuvchi omillardan biri sifatida qaralishi mumkin. Shuningdek, ayol respondentlarda oilaviy va ijtimoiy munosabatlar tarmog‘ining nisbatan faolroq saqlanib qolishi, yaqin ijtimoiy muhit bilan muntazam aloqalar mavjudligi ham stressli vaziyatlarni yengib o‘tish imkoniyatlarini kengaytiradi. Natijada ular yangi ijtimoiy rollarni qabul qilish, fuqaroviy muhit talablariga moslashish va hayotiy qiyinchiliklarni boshqarishda yuqoriroq adaptiv imkoniyatlarni namoyon etishi mumkin.

Erkak harbiy xizmatchilarda esa stressga bardoshlilik va ijtimoiy adaptatsiya ko‘rsatkichining nisbatan pastroq bo‘lishi fuqaroviy hayotga o‘tish jarayonida ayrim qo‘shimcha psixologik murakkabliklar mavjudligini ko‘rsatadi. Xususan, uzoq muddat davomida shakllangan harbiy identitet, qat’iy ierarxik tizimga moslashgan faoliyat uslubi va aniq reglamentlangan xizmat muhiti fuqaroviy hayotning moslashuvchan va ko‘p variantli talablariga moslashishda muayyan qiyinchiliklarni yuzaga keltirishi mumkin. Jumladan, ayol harbiy xizmatchilarda moslashuvchanlik potensiali, umumiy adaptatsiya darajasi va modellashtirish ko‘rsatkichlarining yuqoriroq namoyon bo‘lgani stressga bardoshlilik va ijtimoiy adaptatsiya natijalarida ham o‘z aksini

topgan. Bu holat shaxsning yangi vaziyatlarga moslashish qobiliyati bilan stressga bardoshlilik o‘rtasida uzviy bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatadi.

Rezervga bo‘shatilgan ayol harbiy xizmatchilarda stressga bardoshlilik va ijtimoiy adaptatsiya resurslari nisbatan rivojlanganligini, ular fuqaroviy hayotga integratsiyalashuv jarayonida mavjud psixologik va ijtimoiy imkoniyatlardan samaraliroq foydalanayotganligini ko‘rsatadi. Erkak respondentlarda esa reintegratsiya jarayonida stressni boshqarish, yangi ijtimoiy rollarni qabul qilish va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimlaridan foydalanishga qaratilgan psixologik yordam mexanizmlarini takomillashtirish zarurati mavjudligini anglatadi. Bu natija rezervga bo‘shatilgan harbiy xizmatchilar bilan olib boriladigan psixologik ishlarda jins omilini alohida hisobga olish lozimligini tasdiqlaydi.

3.2-§. Rezervga bo‘shatilgan harbiy xizmatchilar ijtimoiy moslashuvining xizmat muddatiga bog‘liqlik xususiyatlari

Harbiy xizmatni yakunlab, rezerv tarkibiga o‘tkazilgan harbiy xizmatchilarning fuqarolik hayotiga moslashuvi zamonaviy harbiy psixologiya, ijtimoiy psixologiya va reabilitatsion psixologiyaning eng dolzarb ilmiy muammolaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, xizmat muddati omilining reintegratsiya va ijtimoiy moslashuv jarayonlariga ta’sirini aniqlash masalasi so‘nggi yillarda AQSh, Buyuk Britaniya, Kanada, Avstraliya, Germaniya va Isroil olimlari tomonidan keng ko‘lamda o‘rganilgan. Mazkur tadqiqotlarning umumiy xulosalariga ko‘ra, harbiy xizmat davomiyligi nafaqat kasbiy identifikatsiya shakllanishi, balki fuqarolik muhitiga qayta moslashishning murakkabligi, psixologik moslashuv

strategiyalari, ijtimoiy rollar transformatsiyasi hamda shaxsning adaptiv resurslari bilan ham bevosita bog‘liqdir.

Xorijiy tadqiqotlarda xizmat muddatining ijtimoiy moslashuvga ta’siri, avvalo, harbiy identiklikning shakllanish darajasi bilan izohlanadi. Amerikalik olimlar M.Demers, C.Castro, A.Adler va T.Brittlarning ta’kidlashicha, uzoq muddatli harbiy faoliyat davomida shaxsda mustahkam harbiy identiklik, qat’iy institutsional qadriyatlar va xizmatga yo‘naltirilgan dunyoqarash shakllanadi. Bunday identiklik harbiy xizmat jarayonida kasbiy samaradorlikni oshirsa-da, xizmat yakunlangandan so‘ng fuqarolik muhitiga moslashish jarayonini murakkablashtirishi mumkin. Chunki harbiy tashkilotlarda mavjud bo‘lgan qat’iy subordinatsiya, aniq rollar tizimi, normativ boshqaruv va kollektiv mas’uliyat fuqarolik jamiyatidagi erkin va individualistik munosabatlardan sezilarli darajada farq qiladi.

M.Demers tomonidan ishlab chiqilgan “Military Transition Theory” konsepsiyasiga ko‘ra, xizmat muddati ortishi bilan harbiy shaxsiyatning institutsional komponentlari kuchayib boradi. Natijada xizmatni tugatgan shaxslar o‘zlarining avvalgi kasbiy maqomini yo‘qotganlik hissini boshdan kechiradilar. Ayniqsa, 15-20 yildan ortiq xizmat qilgan harbiy xizmatchilar fuqarolik jamiyatiga qayta integratsiyalashuv davrida identiklik inqirozi, kasbiy noaniqlik va ijtimoiy alienatsiya holatlariga ko‘proq duch kelishlari aniqlangan.

AQSh Veteranlar ishlari departamenti tomonidan amalga oshirilgan ko‘plab longitud tadqiqotlarda ham xizmat muddati bilan ijtimoiy moslashuv ko‘rsatkichlari o‘rtasida murakkab bog‘liqlik mavjudligi qayd etilgan. Tadqiqotchilar R.Vogt, J.Perkins va B. Smithlarning fikricha, qisqa muddatli xizmatni

o‘tagan harbiy xizmatchilar fuqarolik mehnat bozoriga tezroq moslashsalar-da, ularda kasbiy barqarorlik va iqtisodiy xavfsizlik ko‘rsatkichlari pastroq bo‘lishi mumkin. Aksincha, uzoq muddat xizmat qilgan shaxslar yuqori darajadagi kasbiy kompetensiyalar, liderlik qobiliyatlari va tashkiliy tajribaga ega bo‘lsalar ham, fuqarolik hayotidagi yangi ijtimoiy rollarni qabul qilishda sezilarli qiyinchiliklarga duch keladilar.

Buyuk Britaniyada N.Greenberg, W.Wessely va S.Jones tomonidan olib borilgan tadqiqotlar xizmat muddati va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimlari o‘rtasidagi aloqani o‘rganishga bag‘ishlangan. Tadqiqot natijalari ko‘rsatishicha, 20 yildan ortiq xizmat qilgan harbiy xizmatchilarning kundalik ijtimoiy aloqalari asosan harbiy muhit vakillari bilan bog‘langan bo‘ladi. Shu sababli rezervga bo‘shatilgandan keyin mavjud ijtimoiy tarmoqning qisqarishi yoki yo‘qolishi psixologik stress va ijtimoiy moslashuv muammolarini kuchaytiradi. Qisqa muddat xizmat qilgan shaxslarda esa fuqarolik jamiyati bilan aloqalar saqlanib qolganligi sababli moslashuv jarayoni nisbatan yengil kechadi.

Kanadalik olimlar A.Thompson, P.Richardson va K.Zamorski tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlarda xizmat muddati va psixologik rezilyentlik o‘rtasidagi munosabatlar tahlil qilingan. Ularning xulosalariga ko‘ra, uzoq muddat xizmat qilgan harbiy xizmatchilar murakkab vaziyatlarni boshqarish, stressga bardoshlilik va muammoli vaziyatlarda qaror qabul qilish bo‘yicha yuqori psixologik resurslarga ega bo‘ladilar. Biroq aynan shu guruh vakillarida fuqarolik muhitidagi noaniqlik, raqobat va individual mas’uliyatga asoslangan tizimga moslashish qiyinroq kechadi. Tadqiqotchilar ushbu holatni “strukturaviy moslashuv paradoksi” deb izohlaydilar.

Avstraliyalik tadqiqotchilar D.Forbes, M.O'Donnell va M.Sim tomonidan o'tkazilgan izlanishlarda xizmat muddati ortishi bilan postxizmat davridagi psixologik moslashuvning differensial xarakter kasb etishi aniqlangan. Xususan, 10 yilgacha xizmat qilgan shaxslarda iqtisodiy moslashuv muammolari ustunlik qilsa, 20 yildan ortiq xizmat qilganlarda ijtimoiy-psixologik moslashuv qiyinchiliklari ko'proq uchrashi qayd etilgan. Tadqiqotchilar buni harbiy faoliyatning shaxs hayotining markaziy komponentiga aylanishi bilan bog'laydilar.

Isroil harbiy psixologiyasi maktabi vakillari M.Solomon va Z.Benbenishtylarning tadqiqotlari xizmat muddati va adaptiv strategiyalar o'rtasidagi bog'liqlikni ochib bergan. Ularning fikricha, uzoq muddat xizmat qilgan harbiy xizmatchilar muammolarni hal qilishda faol va maqsadga yo'naltirilgan strategiyalardan samarali foydalanadilar. Biroq ijtimoiy rollarning o'zgarishi, yangi kasbiy faoliyatni boshlash va fuqarolik qadriyatlarini qabul qilish jarayonida ularda konservativ pozitsiyalar saqlanib qolishi mumkin. Natijada ijtimoiy moslashuvning kognitiv komponentlari nisbatan sustroq rivojlanadi.

Germaniyalik olimlar T.Elbert, A.Schauer va F.Neuner tomonidan ishlab chiqilgan psixotraumatologik modelda xizmat muddati shaxsning moslashuv resurslarini shakllantiruvchi muhim omil sifatida ko'riladi. Ularning fikriga ko'ra, uzoq muddat xizmat qilgan harbiy xizmatchilar yuqori darajadagi intizom, o'zini boshqarish va mas'uliyat hissiga ega bo'ladilar. Ushbu sifatlar fuqarolik muhitida ham muvaffaqiyatli moslashuv uchun muhim resurs bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, moslashuv jarayonining muvaffaqiyati xizmat muddati bilan bir qatorda

ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, oilaviy barqarorlik, ta’lim darajasi va bandlik imkoniyatlariga ham bog‘liq ekanligi ta’kidlanadi.

So‘nggi yillarda E.Elnitsky, M.Fisher va D.Blevins tomonidan ishlab chiqilgan veteranlarning reintegratsiya modeli alohida ilmiy ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur modelga ko‘ra, xizmat muddati reintegratsiya jarayonining asosiy strukturaviy determinantlaridan biri hisoblanadi. Tadqiqotchilar harbiy xizmat davomiyligi ortgan sari fuqarolik hayotiga qaytish jarayonining ko‘p qirrali va murakkab tus olishini empirik jihatdan asoslab berganlar. Ularning tadqiqotlarida uzoq muddat xizmat qilgan veteranlarda ijtimoiy identiklik transformatsiyasi, kasbiy qayta orientatsiya va fuqarolik jamiyatiga mansublik hissining shakllanishi ko‘proq vaqt talab qilishi aniqlangan.

Umuman olganda, xorijiy ilmiy tadqiqotlar tahlili rezervga bo‘shatilgan harbiy xizmatchilar ijtimoiy moslashuvining xizmat muddatiga bog‘liqligi ko‘p omilli va murakkab psixologik hodisa ekanligini ko‘rsatadi. Bir tomondan, xizmat muddati ortishi bilan shaxsda stressga bardoshlilik, o‘zini o‘zi boshqarish, liderlik va tashkiliy kompetensiyalar kabi adaptiv resurslar rivojlanadi. Ikkinchi tomondan esa, kuchli harbiy identiklik, institutsional qadriyatlarga yuqori sodiqlik va fuqarolik muhitidan uzoqlashish natijasida reintegratsiya jarayoni murakkablashishi mumkin. Shuning uchun zamonaviy xorijiy konsepsiyalarda xizmat muddati ijtimoiy moslashuvning mustaqil determinanti sifatida emas, balki psixologik resurslar, identiklik transformatsiyasi, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va kasbiy reintegratsiya omillari bilan o‘zaro bog‘liq holda talqin qilinmoqda.

3.2.1-jadval

Adaptivlikning xizmat muddati bo‘yicha farqlari (n=735)

Ko‘rsatkichlar	O‘rtacha ranglar	Statistik qiymat

	10-15 yilgacha (N-208)	16-20 yilgacha (N-229)	21-25 yilgacha (N-139)	26-30 yilgacha (N-159)	H	p
Ishonchlilik darajasi	422,56	361,63	316,49	350,84	23,525	0,000**
Xulq-atvorni boshqarish	361,47	354,98	383,41	381,82	2,465	0,482
Kommunikativ potensial	340,15	365,65	407,13	373,61	8,485	0,037*
Axloqiy me'yoriylik	348,03	359,56	408,90	370,52	8,426	0,049*
Shaxsning moslashuvchanlik potensiali	368,41	356,52	377,15	375,99	1,154	0,764

Izoh: * - $p<0,05$; ** - $p<0,01$.

Adaptivlik ko‘rsatkichlarining xizmat muddati bo‘yicha farqlarini aniqlash maqsadida amalga oshirilgan tahlil natijalari adaptiv salohiyatning ayrim tarkibiy komponentlari xizmat davomiyligiga nisbatan turlicha sezgirlik darajasiga ega ekanligini ko‘rsatdi. Tahlillardan ma'lum bo‘lishicha, xizmat tajribasi ortishi bilan adaptivlikning barcha elementlari bir xil yo‘nalishda rivojlanmaydi, aksincha ayrim komponentlarda o‘sish, ayrimlarida esa pasayish yoki nisbiy barqarorlashuv holatlari kuzatiladi.

Avvalo, ishonchlilik darajasi shkalasi bo‘yicha 10-15 yil xizmat qilgan respondentlarda o‘rtacha rang 422,56 ni, 16-20 yil xizmat qilganlarda 361,63 ni, 21-25 yil xizmat qilganlarda 316,49 ni hamda 26-30 yil xizmat qilganlarda 350,84 ni tashkil etgani kuzatildi ($H=23,525$; $p<0,01$). Tadqiqot natijalaridan ko‘rinadiki, eng yuqori ko‘rsatkich xizmat faoliyatining nisbatan ilk bosqichlarini boshdan kechirgan harbiy xizmatchilarda qayd etilgan. Bunday holat xizmat faoliyatining 10-15 yillik bosqichida shaxsning kasbiy identifikatsiyasi, xizmat motivatsiyasi va ichki intizom tizimi yuqori darajada saqlanib qolishi bilan izohlanishi mumkin. Xizmat staji ortib borishi bilan esa kasbiy

stereotiplarning qat’iylashuvi, xizmat yuklamalarining uzoq muddatli ta’siri hamda ayrim hollarda emotsional resurslarning kamayishi ishonchlilik ko‘rsatkichining pasayishiga olib kelishi ehtimoli mavjud. Ayniqsa, 21-25 yillik xizmat tajribasiga ega respondentlarda eng past rang qiymatining qayd etilishi ushbu davrda shaxsning kasbiy faoliyatni qayta baholash jarayoni faollashishini anglatadi.

Xulq-atvorni boshqarish shkalasi bo‘yicha 10-15 yillik xizmat stajiga ega respondentlarda 361,47, 16-20 yilliklarda 354,98, 21-25 yilliklarda 383,41 hamda 26-30 yilliklarda 381,82 o‘rtacha rang qiymatlari qayd etildi ($H=2,465$; $p>0,05$). Tahlillardan ma’lum bo‘lishicha, xizmat tajribasi ortib borishi bilan xulq-atvorni boshqarish ko‘rsatkichlarida muayyan o‘sish tendensiyasi mavjud bo‘lsa-da, mazkur tafovutlar umumiy qonuniyat sifatida namoyon bo‘lmaydi. Bu holat harbiy xizmat davomida shakllangan o‘zini nazorat qilish, intizomga rioya etish va vaziyatga mos ravishda harakat qilish ko‘nikmalari turli xizmat stajiga ega respondentlarda nisbatan bir xil darajada saqlanib qolishini ko‘rsatadi. Harbiy faoliyatning institutsional xususiyati aynan mazkur sifatlarni uzoq yillar davomida barqaror shakllantirib boruvchi omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Kommunikativ potensial shkalasi bo‘yicha 10-15 yil xizmat qilganlarda o‘rtacha rang 340,15 ni, 16-20 yil xizmat qilganlarda 365,65 ni, 21-25 yil xizmat qilganlarda 407,13 ni va 26-30 yil xizmat qilganlarda 373,61 ni tashkil etdi ($H=8,485$; $p<0,05$). Kuzatishimizcha, xizmat muddati ortib borishi bilan kommunikativ salohiyatning rivojlanishida ijobiy dinamikalar yuzaga keladi. Ayniqsa, 21-25 yillik xizmat tajribasiga ega respondentlarda eng yuqori natijalarning qayd etilishi xizmat

faoliyati davomida turli lavozimlar, jamoalar va boshqaruv vazifalarida ishtirok etish natijasida muloqot ko‘nikmalarining boyib borishini ko‘rsatadi. Mazkur davrga kelib shaxsda ijtimoiy aloqalarni tashkil etish, muloqot jarayonini boshqarish va murakkab kommunikativ vaziyatlarda samarali munosabat o‘rnatish imkoniyatlari sezilarli darajada kengayadi.

Axloqiy me’yoriylik shkalasi bo‘yicha 10-15 yil xizmat qilganlarda 348,03, 16-20 yil xizmat qilganlarda 359,56, 21-25 yil xizmat qilganlarda 408,90 va 26-30 yil xizmat qilganlarda 370,52 o‘rtacha rang qiymatlari aniqlangan ($H=8,426$; $p<0,05$). Tadqiqot natijalaridan ko‘rinadiki, xizmat tajribasi ortishi bilan normativ qadriyatlarni qabul qilish va ularga amal qilish darajasi ham ma’lum bosqichgacha o‘sib boradi. Ayniqsa, 21-25 yillik xizmat tajribasiga ega respondentlarda mazkur ko‘rsatkichning yuqori bo‘lishi kasbiy faoliyat davomida shakllangan axloqiy mas’uliyat, xizmat burchiga sodiqlik va normativ talablarni ichki qadriyat sifatida qabul qilish jarayonlarining chuqurlashganligini ko‘rsatadi. Ushbu bosqichda shaxsning kasbiy tajribasi nafaqat amaliy bilimlarni, balki normativ-axloqiy orientatsiyalarni ham mustahkamlaydi.

Shaxsning moslashuvchanlik potensiali shkalasi bo‘yicha 10-15 yillik xizmat stajiga ega respondentlarda 368,41, 16-20 yilliklarda 356,52, 21-25 yilliklarda 377,15 va 26-30 yilliklarda 375,99 o‘rtacha rang qiymatlari qayd etildi ($H=1,154$; $p>0,05$). Tahlillardan ma’lum bo‘lishicha, xizmat tajribasi ortib borishi bilan moslashuvchanlik potensialida ayrim tebranishlar kuzatilgan bo‘lsa-da, ular izchil va barqaror tendensiya sifatida namoyon bo‘lmaydi. Bu holat shaxsning umumiy moslashuv salohiyati xizmat stajidan ko‘ra individual psixologik resurslar, shaxsiy

tajriba, oilaviy qo‘llab-quvvatlash tizimi va hayotiy strategiyalar bilan ko‘proq belgilanayotganini ko‘rsatadi. Shu bois xizmat muddati mazkur integral ko‘rsatkichning shakllanishida hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo‘lmaydi.

Adaptivlik ko‘rsatkichlarining xizmat muddati bo‘yicha tahlili xizmat tajribasi ortishi bilan kommunikativ potensial va axloqiy me’yoriylik komponentlarida sezilarli o‘zgarishlar yuzaga kelishini ko‘rsatdi. Xizmat davomiyligi ortgani sari respondentlarda muloqot salohiyati, normativ qadriyatlarga sodiqlik va ijtimoiy munosabatlarni boshqarish imkoniyatlari kengayib boradi. Shu bilan birga, ishonchlilik darajasi komponentida xizmat faoliyatining turli bosqichlarida o‘ziga xos dinamikalar kuzatilib, eng yuqori ko‘rsatkichlar xizmat faoliyatining 10-15 yillik davrida namoyon bo‘lishi aniqlandi. Xulq-atvorni boshqarish va umumiy moslashuvchanlik potensiali esa xizmat stajidan qat’i nazar nisbatan barqaror saqlanadigan adaptiv resurslar sifatida namoyon bo‘ldi.

3.2.2-jadval

Adaptatsiya darajasining xizmat muddati bo‘yicha farqlari (n=735)

Ko‘rsatkichlar	O‘rtacha ranglar				Statistik qiymat	
	10-15 yilgacha (N-208)	16-20 yilgacha (N-229)	21-25 yilgacha (N-139)	26-30 yilgacha (N-159)	H	p
Kommunikativlik	376,79	362,44	380,08	353,95	1,662	0,645
O‘ziga ishonch	355,44	388,52	355,08	366,18	3,398	0,334
Emotsionallik	352,98	365,21	397,15	366,19	3,731	0,292
Nostalgiya	367,19	360,91	381,06	367,85	0,789	0,852
Begonalashuv	350,70	354,79	492,96	387,83	15,584	0,004**
Adaptatsiya	371,95	358,11	377,49	368,79	0,853	0,837

Izoh: * - $p<0,05$; ** - $p<0,01$.

Adaptatsiya darajasi ko‘rsatkichlarining xizmat muddati bo‘yicha farqlarini aniqlash maqsadida amalga oshirilgan tahlil

natijalari adaptatsiya tizimining ayrim komponentlari xizmat tajribasi bilan bog‘liq ravishda o‘zgarishini, ayrimlari esa nisbatan barqaror saqlanishini ko‘rsatdi. Tahlillardan ma’lum bo‘lishicha, xizmat davomiyligi shaxsning moslashuv jarayoniga barcha yo‘nalishlarda bir xil ta’sir ko‘rsatmaydi. Adaptatsiya tizimining ayrim tarkibiy qismlari uzoq muddatli xizmat faoliyati davomida transformatsiyaga uchrasa, ayrim komponentlar xizmat stajidan qat’i nazar o‘xshash darajada namoyon bo‘ladi.

Kommunikativlik shkalasi bo‘yicha 10-15 yillik xizmat tajribasiga ega respondentlarda o‘rtacha rang 376,79 ni, 16-20 yilliklarda 362,44 ni, 21-25 yilliklarda 380,08 ni hamda 26-30 yilliklarda 353,95 ni tashkil etdi ($H=1,662$; $p>0,05$). Kuzatishimizcha, xizmat muddati ortishi bilan kommunikativlik ko‘rsatkichlarida muayyan tebranishlar mavjud bo‘lsa-da, ular izchil qonuniyat sifatida namoyon bo‘lmaydi. Bu holat muloqotga kirishish, ijtimoiy aloqalarni qo‘llab-quvvatlash va kommunikativ munosabatlarni tashkil etish imkoniyatlari xizmat stajidan ko‘ra shaxsning individual xususiyatlari, ijtimoiy tajribasi va shaxslararo munosabatlar tizimi bilan chambarchas bog‘liqligini ko‘rsatadi. Harbiy faoliyatning jamoaviy xarakteri barcha xizmat stajidagi respondentlarda kommunikativ ko‘nikmalarning muayyan darajada shakllanishiga xizmat qilgan.

O‘ziga ishonch shkalasi bo‘yicha 10-15 yillik xizmat stajiga ega respondentlarda o‘rtacha rang 355,44 ni, 16-20 yilliklarda 388,52 ni, 21-25 yilliklarda 355,08 ni va 26-30 yilliklarda 366,18 ni tashkil etdi ($H=3,398$; $p>0,05$). Tadqiqot natijalaridan ko‘rinadiki, xizmat faoliyatining o‘rta bosqichida joylashgan 16-20 yillik guruhda o‘ziga ishonch ko‘rsatkichi nisbatan yuqoriroq namoyon bo‘lgan. Mazkur holat ushbu davrda respondentlarning

kasbiy tajribasi, xizmatdagi mavqei va hayotiy kompetensiyalarining yetarlicha shakllanganligi bilan izohlanishi mumkin. Shu bilan birga, umumiy tahlil o‘ziga ishonchning xizmat muddati bilan qat’iy bog‘liq emasligini ko‘rsatadi. O‘ziga ishonch ko‘proq shaxsning ichki resurslari, muvaffaqiyat tajribasi va individual refleksiv imkoniyatlari bilan belgilanadi.

Emotsionallik shkalasi bo‘yicha 10-15 yillik xizmat stajiga ega respondentlarda o‘rtacha rang 352,98 ni, 16-20 yilliklarda 365,21 ni, 21-25 yilliklarda 397,15 ni va 26-30 yilliklarda 366,19 ni tashkil etdi ($H=3,731$; $p>0,05$). Tahlillardan ma’lum bo‘lishicha, 21-25 yillik xizmat tajribasiga ega respondentlarda emotsionallik ko‘rsatkichlari nisbatan yuqoriroq namoyon bo‘lgan. Bunday holat uzoq yillar davomida to‘plangan kasbiy tajriba, mas’uliyat darajasining ortishi hamda xizmat faoliyatida kechgan murakkab vaziyatlarning emotsional xotirada mustahkamlanishi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Biroq ushbu tendensiya umumlashgan qonuniyat sifatida namoyon bo‘lmaydi.

Nostalgiya shkalasi bo‘yicha 10-15 yillik xizmat tajribasiga ega respondentlarda o‘rtacha rang 367,19 ni, 16-20 yilliklarda 360,91 ni, 21-25 yilliklarda 381,06 ni va 26-30 yilliklarda 367,85 ni tashkil etdi ($H=0,789$; $p>0,05$). Kuzatishimizcha, xizmat muddati ortishi bilan harbiy faoliyatga oid xotiralar va o‘tmishga emotsional murojaat qilish darajasida sezilarli tafovutlar kuzatilmaydi. Bu holat harbiy faoliyat bilan bog‘liq xotiralar va identifikatsiya elementlari barcha xizmat stajidagi respondentlarda nisbatan barqaror saqlanib qolishini ko‘rsatadi. Harbiy xizmat shaxs hayotidagi muhim tajriba sifatida shakllanib, xizmat muddati qancha bo‘lishidan qat’i nazar uning psixologik tuzilmasida muhim o‘rin egallaydi.

Begonalashuv shkalasi bo‘yicha 10-15 yillik xizmat stajiga ega respondentlarda o‘rtacha rang 350,70 ni, 16-20 yilliklarda 354,79 ni, 21-25 yilliklarda 492,96 ni va 26-30 yilliklarda 387,83 ni tashkil etdi (H=15,584; p<0,01). Tadqiqot natijalaridan ko‘rinadiki, aynan ushbu komponent xizmat muddati bilan eng kuchli bog‘liqlikni namoyon etmoqda. Ayniqsa, 21-25 yillik xizmat tajribasiga ega respondentlarda begonalashuv ko‘rsatkichining keskin yuqoriligi kuzatiladi. Mazkur holat uzoq muddatli harbiy faoliyat natijasida shakllangan kasbiy identitet va fuqaroviy hayot talablarini integratsiyalash jarayonida muayyan ichki qarama-qarshiliklar yuzaga kelishini ko‘rsatadi. Harbiy muhitning qat’iy ierarxik tizimi, aniq reglamentlangan faoliyat shakllari va korporativ qadriyatlari uzoq yillar davomida shaxsning ichki tizimiga chuqur singib boradi. Natijada fuqaroviy muhitning nisbatan erkin va moslashuvchan talablari bilan to‘qnashuv ayrim respondentlarda ijtimoiy masofalanish hissining kuchayishiga olib kelishi mumkin.

Shuningdek, 26-30 yillik xizmat tajribasiga ega respondentlarda ham begonalashuv ko‘rsatkichining yuqoriroq saqlanib qolishi uzoq muddatli xizmat faoliyati yakunida shakllangan identifikatsion tizimning fuqaroviy muhit bilan to‘liq uyg‘unlashishi har doim ham oson kechmasligini ko‘rsatadi. Bunday holat reintegratsiya jarayonida ijtimoiy rol va maqomlarni qayta shakllantirishning murakkab mexanizmlarini aks ettiradi.

Adaptatsiya shkalasi bo‘yicha 10-15 yillik xizmat stajiga ega respondentlarda o‘rtacha rang 371,95 ni, 16-20 yilliklarda 358,11 ni, 21-25 yilliklarda 377,49 ni va 26-30 yilliklarda 368,79 ni tashkil etdi (H=0,853; p>0,05). Tahlillardan ma’lum bo‘lishicha, umumiy adaptatsiya ko‘rsatkichi xizmat muddati ortishi bilan

sezilarli o‘zgarishga uchramaydi. Bu holat moslashuv darajasi xizmat davomiyligidan ko‘ra shaxsning individual resurslari, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimi, oilaviy munosabatlari, kasbiy bandligi va hayotiy strategiyalari bilan ko‘proq belgilanayotganini ko‘rsatadi. Shu sababli turli xizmat stajiga ega respondentlar umumiy adaptatsiya darajasi bo‘yicha o‘xshash natijalarni namoyon etgan.

Adaptatsiya tizimining xizmat muddati bo‘yicha tahlili kommunikativlik, o‘ziga ishonch, emotsionallik, nostalgiya va umumiy adaptatsiya komponentlarining xizmat davomiyligiga nisbatan nisbatan barqaror xarakter kasb etishini ko‘rsatdi. Shu bilan birga, begonalashuv komponentining sezilarli darajada differensiallashgani uzoq muddatli harbiy faoliyatning shaxs identiteti va ijtimoiy integratsiya jarayoniga chuqur ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi. Ayniqsa, 21-25 yillik xizmat tajribasi bosqichi reintegratsiya jarayonida psixologik jihatdan eng sezgir davrlardan biri sifatida namoyon bo‘lib, aynan ushbu guruhda ijtimoiy ajralish hissining kuchayishi kuzatiladi.

3.2.3-jadval

Shaxsning o‘zini o‘zi boshqarish darajasining xizmat muddati bo‘yicha farqlari (n=735)

Ko‘rsatkichlar	O‘rtacha ranglar				Statistik qiymat	
	10-15 yilgacha (N-208)	16-20 yilgacha (N-229)	21-25 yilgacha (N-139)	26-30 yilgacha (N-159)	H	p
Rejalashtirish	382,39	361,33	328,23	393,55	8,451	0,038*
Natijani baholash	367,46	357,79	377,54	375,08	1,019	0,797
Moslashuvchanlik	342,51	344,34	406,94	401,37	14,644	0,002**
Modellashtirish	361,86	364,63	383,34	367,48	0,981	0,806
Irodaviy qat'iyat	360,35	375,12	343,54	389,14	4,030	0,258
Emotsional barqarorlik	371,90	377,71	380,90	337,65	4,365	0,225
Umumiy regulyatsiya indeksi	361,77	355,19	368,01	392,43	3,135	0,371

Izoh: * - $p<0,05$; ** - $p<0,01$.

Shaxsning o‘zini o‘zi boshqarish darajasi ko‘rsatkichlarining xizmat muddati bo‘yicha farqlarini aniqlash maqsadida amalga oshirilgan tahlil natijalari o‘zini boshqarish tizimining ayrim komponentlari xizmat davomiyligiga bog‘liq ravishda o‘zgarishini, ayrimlari esa nisbatan barqaror saqlanishini ko‘rsatdi. Tahlillardan ma’lum bo‘lishicha, xizmat tajribasi ortishi shaxsning barcha regulyativ funksiyalariga bir xil ta’sir ko‘rsatmaydi. Ayrim ko‘rsatkichlarda xizmat staji ortishi bilan rivojlanish tendensiyasi kuzatilsa, ayrim komponentlar xizmat davomiyligidan qat’i nazar o‘xshash darajada namoyon bo‘ladi.

Rejalashtirish shkalasi bo‘yicha 10-15 yillik xizmat tajribasiga ega respondentlarda o‘rtacha rang 382,39 ni, 16-20 yilliklarda 361,33 ni, 21-25 yilliklarda 328,23 ni hamda 26-30 yilliklarda 393,55 ni tashkil etdi ($H=8,451$; $p<0,05$). Tadqiqot natijalaridan ko‘rinadiki, eng yuqori ko‘rsatkich 26-30 yillik xizmat tajribasiga ega respondentlarda qayd etilgan. Ushbu holat uzoq muddatli xizmat faoliyati davomida maqsad qo‘yish, faoliyatni oldindan tashkil etish va strategik fikrlash ko‘nikmalarining takomillashib borishini ko‘rsatadi. Ayniqsa, rahbarlik tajribasi va murakkab xizmat vazifalarini bajarish jarayonida shakllangan uzoq muddatli rejalashtirish malakalari ushbu ko‘rsatkichning yuqorilashiga xizmat qilgan bo‘lishi mumkin. Shu bilan birga, 21-25 yillik xizmat tajribasiga ega respondentlarda rejalashtirish ko‘rsatkichining pasayishi mazkur bosqichda kasbiy faoliyatni qayta baholash, kelajak istiqbollari va xizmat yakuniga oid refleksiv jarayonlarning kuchayishi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Natijani baholash shkalasi bo‘yicha 10-15 yillik xizmat stajiga ega respondentlarda o‘rtacha rang 367,46 ni, 16-20

yilliklarda 357,79 ni, 21-25 yilliklarda 377,54 ni va 26-30 yilliklarda 375,08 ni tashkil etdi (H=1,019; p>0,05). Kuzatishimizcha, faoliyat natijalarini tahlil qilish, o‘z harakatlari samaradorligini baholash va erishilgan natijalarni ichki mezonlar bilan solishtirish qobiliyati xizmat davomiyligidan qat’i nazar nisbatan barqaror saqlanadi. Bu holat refleksiv nazorat mexanizmlarining kasbiy faoliyat davomida shakllanib, keyinchalik shaxsning individual regulyativ tizimiga integratsiyalashib ketishini ko‘rsatadi.

Moslashuvchanlik shkalasi bo‘yicha 10-15 yillik xizmat tajribasiga ega respondentlarda o‘rtacha rang 342,51 ni, 16-20 yilliklarda 344,34 ni, 21-25 yilliklarda 406,94 ni va 26-30 yilliklarda 401,37 ni tashkil etdi (H=14,644; p<0,01). Tadqiqot natijalaridan ko‘rinadiki, aynan ushbu ko‘rsatkich xizmat muddati bilan eng yaqqol bog‘liqlikni namoyon etmoqda. Xizmat staji ortib borishi bilan shaxsning yangi vaziyatlarga moslashish, mavjud strategiyalarni qayta tashkil etish, turli sharoitlarda samarali qaror qabul qilish imkoniyatlari sezilarli darajada rivojlanadi. Ayniqsa, 21-25 va 26-30 yillik xizmat tajribasiga ega respondentlarda qayd etilgan yuqori ko‘rsatkichlar uzoq muddatli kasbiy faoliyat davomida shakllangan tajriba, turli murakkab vaziyatlarda faoliyat yuritish malakasi va qaror qabul qilish kompetensiyalarining natijasi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Mazkur holat xizmat davomida to‘plangan tajriba shaxsda qat’iy stereotiplarni emas, aksincha vaziyat talablariga mos ravishda faoliyatni qayta qurish imkoniyatlarini ham shakllantirishini ko‘rsatadi. Ayniqsa, yuqori lavozimlarda faoliyat yuritgan harbiy xizmatchilar murakkab va tez o‘zgaruvchi vaziyatlarga

moslashishga ko‘proq majbur bo‘lishlari ushbu natijani izohlovchi omillardan biri hisoblanadi.

Modellashtirish shkalasi bo‘yicha 10-15 yillik xizmat tajribasiga ega respondentlarda o‘rtacha rang 361,86 ni, 16-20 yilliklarda 364,63 ni, 21-25 yilliklarda 383,34 ni va 26-30 yilliklarda 367,48 ni tashkil etdi (H=0,981; p>0,05). Tahlillardan ma’lum bo‘lishicha, vaziyatlarni oldindan tasavvur qilish, ehtimoliy oqibatlarni prognozlash va faoliyatning muqobil variantlarini shakllantirish qobiliyati xizmat davomiyligiga nisbatan sezilarli o‘zgarishga uchramaydi. Harbiy faoliyatning o‘zi modellashtirish ko‘nikmalarini shakllantiruvchi kuchli muhit bo‘lib, turli xizmat stajiga ega respondentlarda ushbu sifat nisbatan bir xil darajada saqlanib qoladi.

Irodaviy qat’iyat shkalasi bo‘yicha 10-15 yillik xizmat tajribasiga ega respondentlarda o‘rtacha rang 360,35 ni, 16-20 yilliklarda 375,12 ni, 21-25 yilliklarda 343,54 ni va 26-30 yilliklarda 389,14 ni tashkil etdi (H=4,030; p>0,05). Kuzatishimizcha, xizmat muddati ortishi bilan irodaviy qat’iyat ko‘rsatkichlarida muayyan o‘sish tendensiyasi mavjud bo‘lsa-da, ushbu tendensiya izchil qonuniyat darajasiga yetmagan. Biroq eng yuqori qiymatlarning 26-30 yillik xizmat tajribasiga ega respondentlarda qayd etilishi uzoq muddatli xizmat faoliyati davomida qat’iyatlilik, mas’uliyat va maqsadga erishishga yo‘naltirilganlikning mustahkamlanib borishini ko‘rsatadi.

Emotsional barqarorlik shkalasi bo‘yicha 10-15 yillik xizmat tajribasiga ega respondentlarda o‘rtacha rang 371,90 ni, 16-20 yilliklarda 377,71 ni, 21-25 yilliklarda 380,90 ni va 26-30 yilliklarda 337,65 ni tashkil etdi (H=4,365; p>0,05). Tadqiqot natijalaridan ko‘rinadiki, emotsional barqarorlik ko‘rsatkichlari

xizmat staji ortishi bilan muayyan tebranishlarga ega bo‘lsa-da, umumiy qonuniyat sifatida namoyon bo‘lmaydi. Shunga qaramay, 26-30 yillik xizmat tajribasiga ega respondentlarda mazkur ko‘rsatkichning nisbatan pasayishi uzoq muddatli xizmat yuklamalari, yuqori mas’uliyat va ko‘p yillik emotsional zo‘riqishlarning kumulyativ ta’siri bilan izohlanishi mumkin.

Umumiy regulyatsiya indeksi bo‘yicha 10-15 yillik xizmat tajribasiga ega respondentlarda o‘rtacha rang 361,77 ni, 16-20 yilliklarda 355,19 ni, 21-25 yilliklarda 368,01 ni va 26-30 yilliklarda 392,43 ni tashkil etdi (H=3,135; p>0,05). Tahlillardan ma’lum bo‘lishicha, umumiy regulyativ salohiyat xizmat muddati ortishi bilan ma’lum darajada o‘sish tendensiyasini namoyon qilsa-da, bu holat izchil va barqaror qonuniyat sifatida shakllanmagan. Biroq eng yuqori ko‘rsatkichlarning uzoq muddat xizmat qilgan respondentlarda qayd etilishi kasbiy tajriba va hayotiy kompetensiyalarning umumiy regulyativ tizimni mustahkamlashdagi ahamiyatini ko‘rsatadi.

O‘zini o‘zi boshqarish tizimi ko‘rsatkichlarining xizmat muddati bo‘yicha tahlili rejalashtirish va moslashuvchanlik komponentlari xizmat davomiyligiga nisbatan sezgir ekanligini ko‘rsatdi. Ayniqsa, uzoq muddat xizmat qilgan respondentlarda strategik fikrlash va vaziyatlarga moslashish imkoniyatlarining rivojlanganligi yaqqol namoyon bo‘ldi. Natijani baholash, modellashtirish, irodaviy qat’iyat, emotsional barqarorlik va umumiy regulyatsiya ko‘rsatkichlari esa xizmat stajidan qat’i nazar nisbatan barqaror xarakter kasb etishi aniqlandi.

3.2.4-jadval

Psixologik himoya mexanizmlarining xizmat muddati bo‘yicha farqlari (n=735)

Ko‘rsatkichlar	O‘rtacha ranglar				Statistik qiymat	
	10-15	16-20	21-25	26-30	H	p

	yilgacha (N-208)	yilgacha (N-229)	yilgacha (N-139)	yilgacha (N-159)		
Bostirish	368,11	382,16	359,27	355,10	1,855	0,603
Regressiya	377,33	377,84	362,98	346,00	2,697	0,441
Reaksiyalarning shakllanishi	369,90	363,12	394,62	349,27	3,589	0,309
Ratsionalizatsiya	390,66	355,98	384,81	340,98	9,587	0,036*
Ko‘chirish	380,23	375,32	351,90	355,53	2,331	0,507
Inkor etish	386,12	363,87	375,49	343,69	3,876	0,275
Proyeksiya	392,06	371,67	348,44	348,35	5,315	0,150
Kompensatsiya	391,53	365,26	368,67	340,58	5,277	0,153
Sublimatsiya	370,34	375,17	343,12	376,37	2,454	0,484

Izoh: * - $p<0,05$.

Psixologik himoya mexanizmlarining xizmat muddati bo‘yicha farqlarini aniqlash maqsadida amalga oshirilgan tahlil natijalari himoya tizimining ayrim komponentlari xizmat davomiyligi bilan bog‘liq ravishda o‘zgarishini, aksariyat mexanizmlar esa nisbatan barqaror xarakter kasb etishini ko‘rsatdi. Tahlillardan ma’lum bo‘lishicha, xizmat faoliyati davomida shakllangan psixologik himoya usullari uzoq muddat davomida saqlanib qoladi, biroq ayrim kognitiv himoya strategiyalarida xizmat staji bilan bog‘liq o‘zgarishlar yuz beradi. Bostirish shkalasi bo‘yicha 10-15 yillik xizmat tajribasiga ega respondentlarda o‘rtacha rang 368,11 ni, 16-20 yilliklarda 382,16 ni, 21-25 yilliklarda 359,27 ni va 26-30 yilliklarda 355,10 ni tashkil etdi ($H=1,855$; $p>0,05$). Kuzatishimizcha, salbiy kechinmalarni ong darajasidan siqib chiqarish, noxush hissiyotlarni nazorat ostida saqlash va ichki ziddiyatlarni bevosita anglamaslik tendensiyasi turli xizmat stajiga ega respondentlarda deyarli bir xil darajada namoyon bo‘ladi. Harbiy faoliyatning o‘zi emotsiyalarni nazorat qilishni talab qiladigan muhit bo‘lgani

sababli bostirish mexanizmi barcha guruhlarda nisbatan barqaror shakllangan.

Regressiya shkalasi bo‘yicha 10-15 yillik xizmat stajiga ega respondentlarda o‘rtacha rang 377,33 ni, 16-20 yilliklarda 377,84 ni, 21-25 yilliklarda 362,98 ni va 26-30 yilliklarda 346,00 ni tashkil etdi (H=2,697; p>0,05). Tadqiqot natijalaridan ko‘rinadiki, xizmat muddati ortib borishi bilan regressiv reaksiyalar ma’lum darajada kamayish tendensiyasini namoyon qiladi. Ayniqsa, uzoq muddat xizmat qilgan respondentlarda regressiya ko‘rsatkichining pasayishi murakkab vaziyatlarni boshqarishda tajriba ortishi va oddiyroq himoya shakllariga murojaat qilish ehtiyojining kamayishi bilan izohlanishi mumkin. Biroq ushbu tendensiya umumlashgan qonuniyat darajasiga yetmagan.

Reaksiyalarning shakllanishi shkalasi bo‘yicha 10-15 yillik xizmat tajribasiga ega respondentlarda o‘rtacha rang 369,90 ni, 16-20 yilliklarda 363,12 ni, 21-25 yilliklarda 394,62 ni va 26-30 yilliklarda 349,27 ni tashkil etdi (H=3,589; p>0,05). Tahlillardan ma’lum bo‘lishicha, 21-25 yillik xizmat tajribasiga ega respondentlarda ushbu mexanizm nisbatan faolroq namoyon bo‘lgan. Mazkur holat ayrim ichki qarama-qarshi impulslarni ijtimoiy jihatdan maqbul xulq-atvor bilan almashtirish tendensiyasining kuchayganligini ko‘rsatadi. Ayniqsa, xizmat faoliyatining uzoq davrlarida kasbiy talablar va shaxsiy ehtiyojlar o‘rtasidagi muvozanatni saqlash zarurati ushbu mexanizmning faollashishiga olib kelishi mumkin.

Ratsionalizatsiya shkalasi bo‘yicha 10-15 yillik xizmat stajiga ega respondentlarda o‘rtacha rang 390,66 ni, 16-20 yilliklarda 355,98 ni, 21-25 yilliklarda 384,81 ni va 26-30 yilliklarda 340,98 ni tashkil etdi (H=9,587; p<0,05). Tadqiqot

natijalaridan ko‘rinadiki, aynan ushbu ko‘rsatkich xizmat muddati bilan bog‘liq ravishda sezilarli o‘zgarishni namoyon etmoqda. Eng yuqori natijalar 10-15 va 21-25 yillik xizmat tajribasiga ega respondentlarda kuzatilgan. Bu holat mazkur guruhlarda ichki ziddiyatlar, qiyinchiliklar yoki muvaffaqiyatsizliklarni mantiqiy asoslash va ularga izoh berish tendensiyasi kuchliroq ekanligini ko‘rsatadi. Xizmat faoliyatining o‘rta bosqichlarida shaxs turli kasbiy va hayotiy vaziyatlarni tahlil qilish orqali ularga ma’no berishga ko‘proq intiladi. 26-30 yillik xizmat tajribasiga ega respondentlarda ushbu ko‘rsatkichning pasayishi esa uzoq tajriba davomida vaziyatlarni qabul qilish va qayta ishlashning boshqa strategiyalari shakllangan bo‘lishi mumkinligini anglatadi.

Ko‘chirish shkalasi bo‘yicha 10-15 yillik xizmat stajiga ega respondentlarda o‘rtacha rang 380,23 ni, 16-20 yilliklarda 375,32 ni, 21-25 yilliklarda 351,90 ni va 26-30 yilliklarda 355,53 ni tashkil etdi ($H=2,331$; $p>0,05$). Kuzatishimizcha, salbiy hissiyotlarni asl manbadan boshqa obyektlarga yo‘naltirish tendensiyasi xizmat davomiyligi ortishi bilan muayyan pasayish yo‘nalishini ko‘rsatmoqda. Biroq ushbu o‘zgarishlar izchil qonuniyat darajasida namoyon bo‘lmaydi. Bu holat xizmat tajribasi ortishi bilan emotsional reaksiyalarni boshqarish imkoniyatlari kengayishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Inkor etish shkalasi bo‘yicha 10-15 yillik xizmat tajribasiga ega respondentlarda o‘rtacha rang 386,12 ni, 16-20 yilliklarda 363,87 ni, 21-25 yilliklarda 375,49 ni va 26-30 yilliklarda 343,69 ni tashkil etdi ($H=3,876$; $p>0,05$). Tadqiqot natijalaridan ko‘rinadiki, xizmat staji ortishi bilan ayrim noxush voqeliklarni qabul qilmaslik tendensiyasi ma’lum darajada kamayib boradi. Ayniqsa, 26-30 yillik xizmat tajribasiga ega respondentlarda ushbu

koʻrsatkichning eng past darajada namoyon boʻlishi hayotiy tajriba va kasbiy yetuklikning ortishi bilan voqelikni real qabul qilish imkoniyatlari kuchayishini koʻrsatadi. Proyeksiya shkalasi boʻyicha 10-15 yillik xizmat stajiga ega respondentlarda oʻrtacha rang 392,06 ni, 16-20 yilliklarda 371,67 ni, 21-25 yilliklarda 348,44 ni va 26-30 yilliklarda 348,35 ni tashkil etdi (H=5,315; p>0,05). Kuzatishimizcha, xizmat muddati ortishi bilan ichki ziddiyatlarni tashqi muhitga nisbat berish tendensiyasi pasayib boradi. Bu holat tajriba ortishi natijasida shaxsning oʻz ichki holatini anglash va mas'uliyatni tashqi omillarga yuklash ehtiyojining kamayishi bilan izohlanishi mumkin.

Kompensatsiya shkalasi boʻyicha 10-15 yillik xizmat tajribasiga ega respondentlarda oʻrtacha rang 391,53 ni, 16-20 yilliklarda 365,26 ni, 21-25 yilliklarda 368,67 ni va 26-30 yilliklarda 340,58 ni tashkil etdi (H=5,277; p>0,05). Tahlillardan ma'lum boʻlishicha, xizmat faoliyatining dastlabki va oʻrta bosqichlarida mavjud kamchiliklarni boshqa yutuqlar orqali qoplashga intilish tendensiyasi nisbatan kuchliroq namoyon boʻladi. Uzoq muddatli xizmat tajribasiga ega respondentlarda esa mazkur koʻrsatkichning pasayishi oʻz imkoniyatlarini realroq baholash va ichki muvozanatning mustahkamlanishi bilan bogʻliq boʻlishi mumkin.

Sublimatsiya shkalasi boʻyicha 10-15 yillik xizmat stajiga ega respondentlarda oʻrtacha rang 370,34 ni, 16-20 yilliklarda 375,17 ni, 21-25 yilliklarda 343,12 ni va 26-30 yilliklarda 376,37 ni tashkil etdi (H=2,454; p>0,05). Tadqiqot natijalaridan koʻrinadiki, ichki energiya va zoʻriqishlarni ijtimoiy maqbul faoliyatga yoʻnaltirish tendensiyasi barcha xizmat stajidagi respondentlarda nisbatan barqaror saqlanadi. Shu bilan birga, eng

yuqori ko‘rsatkichlarning 26-30 yillik xizmat tajribasiga ega respondentlarda kuzatilishi uzoq muddatli kasbiy faoliyat davomida konstruktiv himoya mexanizmlarining rivojlanishini ko‘rsatishi mumkin.

Psixologik himoya mexanizmlarining xizmat muddati bo‘yicha tahlili ratsionalizatsiya komponentining xizmat davomiyligiga nisbatan sezgir ekanligini ko‘rsatdi. Qolgan himoya mexanizmlari esa xizmat stajidan qat’i nazar nisbatan barqaror xarakter kasb etadi. Shu bilan birga, regressiya, proyeksiya, inkor etish va kompensatsiya kabi himoya strategiyalarida xizmat tajribasi ortishi bilan pasayish tendensiyasi kuzatiladi. Aksincha, sublimatsiya kabi konstruktiv himoya shakllarining uzoq muddat xizmat qilgan respondentlarda nisbatan yuqoriroq namoyon bo‘lishi psixologik yetuklik va ichki resurslarni samarali boshqarish imkoniyatlarining ortib borishini ko‘rsatadi.

3.2.5-jadval

Stressga bardoshlilik va ijtimoiy adaptatsiyaning xizmat muddati bo‘yicha farqlari (n=735)

Ko‘rsatkichlar	O‘rtacha ranglar				Statistik qiymat	
	10-15 yilgacha (N-208)	16-20 yilgacha (N-229)	21-25 yilgacha (N-139)	26-30 yilgacha (N-159)	H	p
Stressga bardoshlilik va ijtimoiy adaptatsiya	370,22	355,90	374,47	376,87	1,173	0,759

Stressga bardoshlilik va ijtimoiy adaptatsiya ko‘rsatkichlarining xizmat muddati bo‘yicha farqlarini aniqlash maqsadida amalga oshirilgan tahlil natijalari mazkur integral ko‘rsatkich xizmat davomiyligiga nisbatan nisbatan barqaror xarakter kasb etishini ko‘rsatdi. Olingan natijalarga ko‘ra, 10-15 yillik xizmat tajribasiga ega respondentlarda o‘rtacha rang 370,22 ni, 16-20 yilliklarda 355,90 ni, 21-25 yilliklarda 374,47 ni hamda

26-30 yilliklarda 376,87 ni tashkil etdi. Kruskal-Uollis mezoni natijalari (H=1,173; p>0,05) turli xizmat stajiga ega guruhlar o‘rtasida mazkur ko‘rsatkich bo‘yicha izchil tafovut shakllanmaganligini ko‘rsatadi.

Tahlillardan ma’lum bo‘lishicha, stressga bardoshlilik va ijtimoiy adaptatsiya darajasi xizmat davomiyligi ortishi bilan keskin o‘zgarishga uchramaydi. Bu holat ushbu ko‘rsatkichning xizmat stajidan ko‘ra shaxsning individual moslashuv resurslari, temperament xususiyatlari, hayotiy tajribasi, oilaviy qo‘llab-quvvatlash tizimi hamda mavjud ijtimoiy munosabatlar sifati bilan chambarchas bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Kuzatishimizcha, 16-20 yillik xizmat tajribasiga ega respondentlarda o‘rtacha rang qiymatining nisbatan pastroq bo‘lishi (355,90) xizmat faoliyatining aynan ushbu bosqichida kasbiy mas’uliyatning ortishi, rahbarlik funksiyalarining kengayishi va faoliyat yuklamalarining ko‘payishi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Biroq mazkur holat barcha respondentlar uchun xos bo‘lgan umumiy qonuniyat sifatida namoyon bo‘lmagan.

Shuningdek, 21-25 yil va 26-30 yil xizmat qilgan respondentlarda stressga bardoshlilik va ijtimoiy adaptatsiya ko‘rsatkichlarining nisbatan yuqoriroq bo‘lishi uzoq muddatli kasbiy tajriba natijasida stress omillarini boshqarish strategiyalarining shakllanganligi, murakkab vaziyatlarda faoliyat yuritish tajribasining ortganligi va ijtimoiy munosabatlar tizimini samarali boshqarish imkoniyatlarining kengayganligi bilan izohlanishi mumkin. Biroq ushbu tendensiya statistik jihatdan mustahkam tasdiq topmaganligi sababli uni ehtimoliy yo‘nalish sifatida talqin qilish maqsadga muvofiqdir. Tadqiqot natijalaridan ko‘rinadiki, harbiy faoliyatning o‘zi stressli vaziyatlarda faoliyat

yuritish, yuqori mas'uliyatni zimmasiga olish, favqulodda sharoitlarda qaror qabul qilish va emotsional zo'riqishlarni boshqarishni talab qiluvchi faoliyat turi hisoblanadi. Shu sababli xizmat muddati turlicha bo'lgan respondentlarda stressga bardoshlilik va ijtimoiy adaptatsiya ko'nikmalari kasbiy faoliyat davomidayoq shakllanib ulgurgan bo'lib, xizmat staji ortishi ushbu sifatlarning keskin differensiallashuviga olib kelmaydi.

Mazkur natijalar stressga bardoshlilik va ijtimoiy adaptatsiya ko'rsatkichlari shaxsning uzoq muddat davomida shakllangan integral psixologik resurslari qatoriga kirishini ko'rsatadi. Boshqacha aytganda, xizmat tajribasi ortishi mazkur sifatlarning ayrim jihatlariga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lsa-da, ularning umumiy darajasini belgilovchi asosiy omil sifatida namoyon bo'lmaydi. Tadqiqot natijalari stressga bardoshlilik va ijtimoiy adaptatsiya ko'rsatkichlari turli xizmat stajiga ega respondentlarda o'xshash darajada shakllanganligini ko'rsatdi. Bu holat harbiy faoliyat davomida shakllangan moslashuv mexanizmlari, stressni boshqarish ko'nikmalari va ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish imkoniyatlari xizmat muddati ortishi bilan saqlanib qolishini tasdiqlaydi.

3.3-§. Tuzilmaviy xarakteristikaning rezervga bo'shatilgan harbiy xizmatchilar reintegratsiyasidagi psixologik ahamiyati

Rezervga bo'shatilgan harbiy xizmatchilarning fuqarolik hayotiga qayta moslashuvi zamonaviy harbiy psixologiya va ijtimoiy psixologiyaning eng dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda xorijiy ilmiy adabiyotlarda reintegratsiya jarayoni shaxsning individual xususiyatlari bilan bir qatorda uning ijtimoiy-tuzilmaviy xarakteristikalari orqali ham

izohlanmoqda. Bunda tuzilmaviy xarakteristikalar deganda shaxsning oilaviy tizimi, ijtimoiy tarmoqlari, kasbiy maqomi, jamoaviy mansubligi, ijtimoiy kapitali, jamiyatdagi institutsional aloqalari hamda fuqarolik muhitidagi o‘rni nazarda tutiladi. Mazkur omillar harbiy xizmatdan keyingi hayotga moslashishning psixologik mexanizmlarini belgilovchi muhim determinantlar sifatida qaralmoqda.

C.A.Elnitsky va hamkorlari tomonidan ishlab chiqilgan reintegratsiyaning ekologik modeli ushbu yo‘nalishdagi eng muhim nazariy yondashuvlardan biri hisoblanadi. Mualliflar reintegratsiyani faqat shaxsiy moslashuv emas, balki individual, interpersonal, jamoaviy va ijtimoiy darajalarda kechuvchi murakkab tizimli jarayon sifatida izohlaydilar. Ularning ta’kidlashicha, harbiy xizmatchining fuqarolik hayotiga muvaffaqiyatli qaytishi uning shaxsiy resurslari bilan bir qatorda oilaviy qo‘llab-quvvatlash, ijtimoiy institutlar, mahalliy hamjamiyat va davlat siyosati bilan ham bevosita bog‘liqdir. Shuning uchun reintegratsiya jarayonini tushuntirishda tuzilmaviy xarakteristikalar markaziy o‘rin egallaydi.

Xorijiy tadqiqotlarda ayniqsa ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning tuzilmaviy komponentlari alohida o‘rganilgan. L.E.Grover va hamkorlarining Buyuk Britaniya veteranlari orasida olib borgan tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, shaxsning ijtimoiy tarmog‘i hajmi, yaqin munosabatlar soni va jamiyat bilan integratsiyalashganlik darajasi ruhiy salomatlik hamda subyektiv farovonlik ko‘rsatkichlari bilan bevosita bog‘liqdir. Tadqiqotchilar reintegratsiyaning muvaffaqiyatli kechishida nafaqat qo‘llab-quvvatlashning mavjudligi, balki uning funksional sifati ham muhimligini qayd etadilar.

Ijtimoiy kapital nazariyasi nuqtai nazaridan qaralganda, rezervga bo‘shatilgan harbiy xizmatchining fuqarolik muhitidagi aloqalari qanchalik keng va barqaror bo‘lsa, uning psixologik moslashuvi shunchalik muvaffaqiyatli kechadi. Xorijiy mualliflar reintegratsiya davrida ijtimoiy aloqalarning qisqarishi, yolg‘izlanish va jamiyatdan begonalashuv hissining kuchayishi depressiv holatlar, tashvishlilik va posttravmatik simptomlarning ortishiga olib kelishini ta’kidlaydilar. Aksincha, ijtimoiy tarmoqlarning kengligi va sifatli muloqot veteranlarning psixologik barqarorligini oshiruvchi himoya omili vazifasini bajaradi.

Reintegratsiyaning tuzilmaviy xarakteristikalaridan yana biri oilaviy tizim hisoblanadi. Zamonaviy tadqiqotlar oilani harbiy xizmatdan keyingi moslashuvning asosiy psixologik resursi sifatida baholaydi. PTSD bilan yashovchi veteranlar oilalari misolida olib borilgan tadqiqotlar oilaning emotsional qo‘llab-quvvatlashi veteranlarning ruhiy tiklanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishini aniqlagan. Shu bilan birga, oilaviy tizim ehtiyojlariga mos kelmaydigan yordam shakllari ayrim hollarda reintegratsiya jarayonini murakkablashtirishi ham mumkinligi ko‘rsatilgan.

Oilaviy reintegratsiya masalasini o‘rgangan tadqiqotchilar veteranlarning fuqarolik hayotiga moslashuvida turmush o‘rtog‘i, ota-onalar va farzandlar bilan munosabatlar sifati hal qiluvchi rol o‘ynashini ta’kidlaydilar. Ayniqsa, oilaviy birdamlik va emotsional yaqinlikning yuqori darajasi shaxsning stressga bardoshliligini oshirib, yangi ijtimoiy rollarni qabul qilishni yengillashtiradi. Kasbiy maqom va bandlik ham reintegratsiyaning muhim tuzilmaviy ko‘rsatkichlari sifatida talqin qilinadi. M.Keeling va hamkorlarining tadqiqotlari fuqarolik mehnat bozoriga

muvaffaqiyatli integratsiyalashuv veteranlarda hayotdan qoniqish, o‘z-o‘zini baholash va psixologik farovonlik darajasini oshirishini ko‘rsatgan. Kasbiy identifikatsiyaning qayta shakllanishi veteranlarda yangi ijtimoiy rol va maqomning vujudga kelishiga xizmat qiladi. Aksincha, ishsizlik yoki kasbiy noaniqlik reintegratsiya qiyinchiliklarini kuchaytiruvchi omil sifatida namoyon bo‘ladi.

So‘nggi yillarda reintegratsiya jarayonining identifikatsion jihatlariga ham katta e’tibor qaratilmoqda. J.Morris, J.Hunniecutt va boshqa tadqiqotchilar harbiy identifikatsiyadan fuqarolik identifikatsiyasiga o‘tish reintegratsiyaning markaziy psixologik vazifasi ekanligini ta’kidlaydilar. Ularning fikricha, harbiy xizmat davomida shakllangan qadriyatlar, me’yorlar va rollar fuqarolik muhiti talablariga mos ravishda qayta tashkil etilishi lozim. Ushbu transformatsiya qanchalik muvaffaqiyatli amalga oshsa, reintegratsiya darajasi ham shunchalik yuqori bo‘ladi.

Psixologik moslashuvning identifikatsion mexanizmlarini o‘rgangan tadqiqotlarda harbiy identiklik, identiklik konflikti va psixologik moslashuvchanlik o‘rtasidagi bog‘liqliklar aniqlangan. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, psixologik moslashuvchanlik yuqori bo‘lgan veteranlarda reintegratsiya jarayoni samaraliroq kechadi, identiklik konflikti esa moslashuv qiyinchiliklarini kuchaytiradi. Demak, tuzilmaviy xarakteristikalarning psixologik ta’siri ko‘pincha identifikatsion jarayonlar orqali amalga oshadi. Ukraina va Yevropa davlatlarida olib borilgan zamonaviy tadqiqotlar jangovar tajribaga ega harbiy xizmatchilarning reintegratsiyasida tizimli yondashuv zarurligini ko‘rsatmoqda. Ushbu tadqiqotlarda psixologik reabilitatsiya, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, kasbiy qayta tayyorlash va jamoatchilik bilan integratsiyani birlashtiruvchi

kompleks dasturlar eng samarali mexanizmlar sifatida e’tirof etilgan. Tadqiqotchilar reintegratsiyani alohida psixologik hodisa emas, balki ko‘p darajali ijtimoiy tizimlarning o‘zaro ta’siri sifatida baholaydilar.

3.3.1-jadval

Adaptivlikning tuzilma omili bo‘yicha farqlari (n=735)

Ko‘rsatkichlar	O‘rtacha ranglar		Statistik qiymat	
	Milliy gvardiya (N-452)	Mudofaa (N-283)	U	p
Ishonchlilik darajasi	394,22	358,06	61145	0,311
Xulq-atvorni boshqarish	369,89	414,98	43104	0,001**
Kommunikativ potensial	434,91	372,93	42562	0,007**
Axloqiy me’yoriylik	370,29	364,34	62921	0,710
Shaxsning moslashuvchanlik potensiali	471,76	361,99	42258	0,004**

Izoh: * - $p<0,05$; ** - $p<0,01$.

Adaptivlik ko‘rsatkichlarining xizmat qilgan harbiy tuzilma omili bo‘yicha amalga oshirilgan tahlil natijalari Milliy gvardiya va Mudofaa vazirligi tizimida xizmat qilgan respondentlarda adaptivlikning ayrim tarkibiy komponentlari turlicha namoyon bo‘lishini ko‘rsatdi. Tahlillardan ma’lum bo‘lishicha, xizmat faoliyatining mazmuni, vazifalarining xususiyati va faoliyat olib borilgan ijtimoiy-professional muhit ayrim adaptiv resurslarning shakllanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Avvalo, ishonchlilik darajasi shkalasi bo‘yicha Milliy gvardiya tizimida xizmat qilgan respondentlarda o‘rtacha rang 394,22 ni, Mudofaa vazirligi tizimida xizmat qilganlarda esa 358,06 ni tashkil etdi ($U=61145$; $p>0,05$). Kuzatishimizcha, Milliy gvardiya vakillarida mazkur ko‘rsatkich nisbatan yuqoriroq bo‘lsa-da, bu tafovut izchil qonuniyat sifatida namoyon bo‘lmaydi. Mazkur holat har ikki tizimda ham xizmat faoliyati

davomida shakllangan mas’uliyat, ichki intizom va faoliyatga sodiqlik kabi sifatlarning o‘xshash darajada rivojlanganligini ko‘rsatadi. Harbiy faoliyatning umumiy mazmuni respondentlarda ishonchlilikka oid bazaviy sifatlarning shakllanishiga xizmat qilgan.

Xulq-atvorni boshqarish shkalasi bo‘yicha Milliy gvardiya respondentlarida o‘rtacha rang 369,89 ni, Mudofaa vazirligi tizimida xizmat qilganlarda esa 414,98 ni tashkil etdi (U=43104; p<0,01). Tadqiqot natijalaridan ko‘rinadiki, Mudofaa vazirligi tizimida xizmat qilgan respondentlarda o‘z xatti-harakatlarini nazorat qilish, vaziyat talablariga mos ravishda boshqarish va ichki regulyatsiya mexanizmlaridan foydalanish imkoniyatlari nisbatan rivojlangan. Bunday holat harbiy tayyorgarlikning yuqori darajada reglamentlanganligi, qat’iy subordinatsiya va murakkab operativ vaziyatlarda faoliyat yuritish tajribasi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Uzoq muddat davomida yuqori intizom talab qiluvchi faoliyat sharoitida xizmat qilish xulq-atvorni boshqarish mexanizmlarining mustahkam shakllanishiga xizmat qilgan.

Kommunikativ potensial shkalasi bo‘yicha Milliy gvardiya tizimida xizmat qilgan respondentlarda o‘rtacha rang 434,91 ni, Mudofaa vazirligi tizimida xizmat qilganlarda esa 372,93 ni tashkil etdi (U=42562; p<0,01). Tahlillardan ma’lum bo‘lishicha, Milliy gvardiya vakillarida kommunikativ salohiyat nisbatan yuqoriroq darajada namoyon bo‘lgan. Mazkur natija Milliy gvardiya faoliyatining bevosita aholi bilan ishlash, jamoat tartibini saqlash, fuqarolar bilan doimiy muloqot olib borish va turli ijtimoiy guruhlar bilan o‘zaro hamkorlik qilish kabi vazifalari bilan izohlanadi. Ushbu faoliyat turi shaxslararo munosabatlarni samarali tashkil etish, muloqot jarayonida moslashuvchan

strategiyalardan foydalanish va kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratadi.

Axloqiy me'yoriylik shkalasi bo'yicha Milliy gvardiya respondentlarida o'rtacha rang 370,29 ni, Mudofaa vazirligi tizimida xizmat qilganlarda esa 364,34 ni tashkil etdi ($U=62921$; $p>0,05$). Kuzatishimizcha, axloqiy me'yorlarga amal qilish, normativ talablarga rioya etish va ijtimoiy qoidalarga moslashish darajasi har ikki tizim vakillarida deyarli bir xil shakllangan. Bu holat harbiy xizmatning umumiy qadriyatlar tizimi, xizmat etikasi va kasbiy mas'uliyat me'yorlari har ikki tuzilma uchun birdek muhim ekanligini ko'rsatadi. Natijada axloqiy me'yoriylik komponenti tuzilma omilidan sezilarli darajada ta'sirlanmagan.

Shaxsning moslashuvchanlik potensiali shkalasi bo'yicha Milliy gvardiya respondentlarida o'rtacha rang 471,76 ni, Mudofaa vazirligi tizimida xizmat qilganlarda esa 361,99 ni tashkil etdi ($U=42258$; $p<0,01$). Tadqiqot natijalaridan ko'rinadiki, aynan ushbu komponent bo'yicha eng katta tafovutlardan biri kuzatilgan. Milliy gvardiya tizimida xizmat qilgan respondentlarda yangi sharoitlarga moslashish, o'zgaruvchan vaziyatlarga javob qaytarish, ijtimoiy muhit talablariga tez moslashish va mavjud resurslardan samarali foydalanish imkoniyatlari yuqoriroq namoyon bo'lgan. Bunday natija Milliy gvardiya faoliyatining fuqaroviy muhit bilan bevosita bog'liqligi, turli ijtimoiy vaziyatlarda faoliyat yuritish zarurati va aholi bilan uzluksiz muloqot olib borish tajribasi bilan izohlanadi. Mazkur omillar shaxsning moslashuv mexanizmlarini yanada rivojlantirishga xizmat qilgan.

Milliy gvardiya va Mudofaa vazirligi tizimlarida xizmat qilgan respondentlar adaptiv salohiyatining turli jihatlarida o'ziga

xos xususiyatlar mavjudligini ko‘rsatdi. Milliy gvardiya vakillarida kommunikativ potensial hamda umumiy moslashuvchanlik potensiali yuqoriroq darajada namoyon bo‘lib, bu ularning fuqaroviy muhit bilan faol o‘zaro ta’sirga asoslangan xizmat faoliyati bilan bog‘liq ekanligi kuzatiladi. Mudofaa vazirligi tizimida xizmat qilgan respondentlarda esa xulq-atvorni boshqarish ko‘rsatkichining yuqoriroq bo‘lishi qat’iy regulyatsiya, intizom va operativ faoliyat tajribasi bilan izohlanadi. Ishonchlilik darajasi va axloqiy me’yoriylik komponentlari esa har ikki tizim vakillarida o‘xshash darajada shakllangan bo‘lib, bu harbiy xizmatning umumiy kasbiy qadriyatlari va normativ talablarining bir xil ta’sirini aks ettiradi.

3.3.2-jadval

Adaptatsiya darajasining tuzilma omili bo‘yicha farqlari (n=735)

Ko‘rsatkichlar	O‘rtacha ranglar		Statistik qiymat	
	Milliy gvardiya (N-452)	Mudofaa (N-283)	U	p
Kommunikativlik	414,92	356,95	40832	0,004**
O‘ziga ishonch	378,02	452,00	49430	0,006**
Emotsionallik	361,50	418,38	41020	0,030*
Nostalgiya	366,57	370,28	63311,5	0,817
Begonalashuv	369,74	365,22	63172,5	0,779
Adaptatsiya	356,56	486,28	448785	0,004**

Izoh: * - $p<0,05$; ** - $p<0,01$.

Adaptatsiya darajasi ko‘rsatkichlarining xizmat qilgan harbiy tuzilma omili bo‘yicha amalga oshirilgan tahlil natijalari Milliy gvardiya va Mudofaa vazirligi tizimida xizmat qilgan respondentlarda adaptatsiya tizimining ayrim komponentlari turlicha namoyon bo‘lishini ko‘rsatdi. Tahlillardan ma’lum bo‘lishicha, xizmat faoliyatining mazmuni, professional muhitning xususiyatlari va bajarilgan vazifalarning yo‘nalishi adaptatsiya jarayonining ayrim tarkibiy qismlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Avvalo, kommunikativlik shkalasi bo‘yicha Milliy gvardiya tizimida xizmat qilgan respondentlarda o‘rtacha rang 414,92 ni, Mudofaa vazirligi tizimida xizmat qilganlarda esa 356,95 ni tashkil etdi (U=40832; p<0,01). Tadqiqot natijalaridan ko‘rinadiki, Milliy gvardiya vakillarida kommunikativ salohiyat va shaxslararo munosabatlarni tashkil etish imkoniyatlari nisbatan yuqoriroq shakllangan. Mazkur holat Milliy gvardiya faoliyatining bevosita aholi bilan ishlash, jamoat xavfsizligini ta’minlash, fuqarolar bilan muntazam muloqot olib borish va turli ijtimoiy guruhlar bilan hamkorlik qilish zarurati bilan izohlanadi. Bunday faoliyat shaxsda kommunikativ moslashuv, ijtimoiy aloqalarni rivojlantirish va muloqot jarayonini samarali boshqarish imkoniyatlarini kengaytiradi.

O‘ziga ishonch shkalasi bo‘yicha Milliy gvardiya respondentlarida o‘rtacha rang 378,02 ni, Mudofaa vazirligi tizimida xizmat qilganlarda esa 452,00 ni tashkil etdi (U=49430; p<0,01). Kuzatishimizcha, Mudofaa vazirligi vakillarida o‘z imkoniyatlarini baholash, mustaqil qaror qabul qilish va ichki tayanch hissi yuqoriroq namoyon bo‘lgan. Mazkur holat harbiy tayyorgarlikning murakkabligi, yuqori darajadagi mas’uliyat, operativ qarorlar qabul qilish tajribasi va xizmat faoliyatida individual javobgarlik ulushining katta bo‘lishi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Natijada ushbu tizim vakillarida o‘ziga bo‘lgan ishonch va ichki kompetentlik hissi kuchliroq shakllanadi.

Emotsionallik shkalasi bo‘yicha Milliy gvardiya respondentlarida o‘rtacha rang 361,50 ni, Mudofaa vazirligi tizimida xizmat qilganlarda esa 418,38 ni tashkil etdi (U=41020; p<0,05). Tahlillardan ma’lum bo‘lishicha, Mudofaa vazirligi vakillarida hissiy kechinmalar intensivligi va emotsional

reaksiyalar darajasi nisbatan yuqoriroq namoyon bo‘lgan. Bunday natija uzoq muddatli harbiy tayyorgarlik, murakkab xizmat vazifalari, jangovar tayyorgarlik elementlari va yuqori psixoemotsional yuklama bilan bog‘liq tajribalar natijasida hissiy jarayonlarning o‘ziga xos shakllanishi bilan izohlanishi mumkin. Shu bilan birga, emotsionallikning yuqoriroq darajada namoyon bo‘lishi hissiy zaiflik emas, balki ichki kechinmalarning kuchliroq differensiallashganligini ham anglatishi mumkin.

Nostalgiya shkalasi bo‘yicha Milliy gvardiya tizimida xizmat qilgan respondentlarda o‘rtacha rang 366,57 ni, Mudofaa vazirligi tizimida xizmat qilganlarda esa 370,28 ni tashkil etdi (U=63311,5; p>0,05). Kuzatishimizcha, harbiy faoliyat bilan bog‘liq xotiralarga murojaat qilish, o‘tmish xizmat davriga nisbatan emotsional bog‘liqlik va avvalgi hayot tajribalarini idealizatsiya qilish darajasi har ikki tuzilma vakillarida deyarli bir xil shakllangan. Bu holat harbiy xizmatning shaxs hayotidagi muhim identifikatsion tajriba sifatida har ikki tizim vakillarida ham o‘xshash ahamiyat kasb etishini ko‘rsatadi.

Begonalashuv shkalasi bo‘yicha Milliy gvardiya respondentlarida o‘rtacha rang 369,74 ni, Mudofaa vazirligi tizimida xizmat qilganlarda esa 365,22 ni tashkil etdi (U=63172,5; p>0,05). Tadqiqot natijalaridan ko‘rinadiki, fuqaroviy muhitga nisbatan ijtimoiy masofalanish hissi, o‘zini jamiyatdan ajralgan holda his qilish yoki yangi ijtimoiy sharoitlarga nisbatan subyektiv yakkalanish darajasi har ikki tuzilma vakillarida o‘xshash ko‘rinishda namoyon bo‘ladi. Bu holat reintegratsiya jarayonida yuzaga keladigan ayrim psixologik qiyinchiliklar tuzilma omilidan ko‘ra shaxsiy va individual omillar bilan ko‘proq bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Umumiy adaptatsiya shkalasi bo‘yicha Milliy gvardiya respondentlarida o‘rtacha rang 356,56 ni, Mudofaa vazirligi tizimida xizmat qilganlarda esa 486,28 ni tashkil etdi (U=44878,5; p<0,01). Tahlillardan ma’lum bo‘lishicha, umumiy adaptatsiya ko‘rsatkichi Mudofaa vazirligi vakillarida yuqoriroq namoyon bo‘lgan. Mazkur natija ushbu respondentlarda yangi ijtimoiy sharoitlarga moslashish, hayotiy o‘zgarishlarni qabul qilish, yangi rollarni o‘zlashtirish va fuqaroviy muhit talablariga integratsiyalashish imkoniyatlari nisbatan rivojlanganligini ko‘rsatadi. O‘ziga ishonch ko‘rsatkichining ham aynan ushbu guruhda yuqoriroq bo‘lishi umumiy adaptatsiyaning shakllanishiga muhim hissa qo‘shayotgan omillardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Milliy gvardiya va Mudofaa vazirligi tizimida xizmat qilgan respondentlar o‘rtasida muayyan psixologik tafovutlar mavjudligini ko‘rsatdi. Milliy gvardiya vakillarida kommunikativlik ko‘rsatkichi yuqoriroq shakllangan bo‘lib, bu ularning xizmat faoliyatida fuqarolar bilan doimiy muloqot olib borishi bilan bog‘liq. Mudofaa vazirligi vakillarida esa o‘ziga ishonch, emotsionallik va umumiy adaptatsiya ko‘rsatkichlarining yuqoriroq namoyon bo‘lishi murakkab kasbiy tajriba, yuqori mas’uliyat va mustaqil qaror qabul qilish faoliyati bilan bog‘liq resurslarning rivojlanganligini ko‘rsatadi. Nostalgiya va begonalashuv komponentlarining o‘xshash darajada shakllanganligi esa harbiy faoliyatning identifikatsion va emotsional ta’siri har ikki tuzilma vakillarida ham umumiy xarakter kasb etishini tasdiqlaydi.

3.3.3-jadval

Shaxsning o‘zini o‘zi boshqarish darajasining tuzilma omili bo‘yicha farqlari (n=735)

Ko‘rsatkichlar	O‘rtacha ranglar		Statistik qiymat	
	Milliy gvardiya (N-452)	Mudofaa (N-283)	U	p
Rejalashtirish	365,99	371,21	63049	0,744
Natijani baholash	368,07	367,88	63924,5	0,990
Moslashuvchanlik	371,48	362,45	62386	0,572
Modellashtirish	472,52	360,78	61914	0,000**
Irodaviy qat’iyat	371,74	362,02	62266	0,542
Emotsional barqarorlik	373,85	358,65	61312,5	0,342
Umumiy regulyatsiya indeksi	374,23	356,77	60779,5	0,275

Izoh: * - $p<0,05$; ** - $p<0,01$.

Shaxsning o‘zini o‘zi boshqarish darajasi ko‘rsatkichlarining xizmat qilgan harbiy tuzilma omili bo‘yicha amalga oshirilgan tahlil natijalari Milliy gvardiya va Mudofaa vazirligi tizimida xizmat qilgan respondentlarda o‘zini boshqarish tizimining aksariyat komponentlari o‘xshash darajada shakllanganligini, ayrim tarkibiy qismlarda esa muayyan tafovutlar mavjudligini ko‘rsatdi. Tahlillardan ma’lum bo‘lishicha, harbiy faoliyatning umumiy mazmuni shaxsda o‘zini regulyatsiya qilishning bazaviy mexanizmlarini shakllantiradi, biroq xizmat vazifalarining xususiyati ayrim regulyativ funksiyalarning rivojlanishiga turlicha ta’sir ko‘rsatadi.

Avvalo, rejalashtirish shkalasi bo‘yicha Milliy gvardiya tizimida xizmat qilgan respondentlarda o‘rtacha rang 365,99 ni, Mudofaa vazirligi tizimida xizmat qilganlarda esa 371,21 ni tashkil etdi ($U=63049$; $p>0,05$). Kuzatishimizcha, maqsad qo‘yish, faoliyat istiqbollarini oldindan belgilash va kelajakdagi harakatlarni rejalashtirish imkoniyatlari har ikki tuzilma

vakillarida deyarli bir xil shakllangan. Bu holat harbiy xizmatning barcha yo‘nalishlarida faoliyatni aniq rejalashtirish va vazifalarni oldindan prognozlash zarurati mavjudligi bilan izohlanadi. Shu sababli rejalashtirish ko‘nikmalari har ikki tizim vakillarida barqaror rivojlangan.

Natijani baholash shkalasi bo‘yicha Milliy gvardiya respondentlarida o‘rtacha rang 368,07 ni, Mudofaa vazirligi vakillarida esa 367,88 ni tashkil etdi (U=63924,5; p>0,05). Tadqiqot natijalaridan ko‘rinadiki, faoliyat natijalarini tahlil qilish, o‘z harakatlarining samaradorligini baholash va xatolar ustida ishlash imkoniyatlari har ikki guruhda mutlaqo yaqin darajada namoyon bo‘lgan. Bu holat refleksiv nazorat va natijalarni monitoring qilish mexanizmlari harbiy faoliyatning universal talabi sifatida shakllanishini ko‘rsatadi.

Moslashuvchanlik shkalasi bo‘yicha Milliy gvardiya respondentlarida o‘rtacha rang 371,48 ni, Mudofaa vazirligi tizimida xizmat qilganlarda esa 362,45 ni tashkil etdi (U=62386; p>0,05). Tahlillardan ma’lum bo‘lishicha, yangi vaziyatlarga moslashish, o‘z faoliyatini qayta tashkil etish va sharoitlar o‘zgarishiga adekvat javob qaytarish imkoniyatlari har ikki tuzilma vakillarida o‘xshash darajada shakllangan. Harbiy faoliyatning o‘zi turli murakkab va o‘zgaruvchan vaziyatlarda faoliyat yuritishni talab qilganligi sababli moslashuvchanlik ko‘nikmalari har ikki tizimda ham rivojlanib borgan.

Modellashtirish shkalasi bo‘yicha Milliy gvardiya respondentlarida o‘rtacha rang 472,52 ni, Mudofaa vazirligi vakillarida esa 360,78 ni tashkil etdi (U=61914; p<0,01). Tadqiqot natijalaridan ko‘rinadiki, aynan ushbu komponent bo‘yicha eng katta tafovut kuzatilgan. Milliy gvardiya tizimida xizmat qilgan

respondentlarda vaziyatlarni oldindan tasavvur qilish, ehtimoliy natijalarni prognozlash, turli rivojlanish ssenariylarini modellashtirish va qarorlarning oqibatlarini oldindan baholash imkoniyatlari sezilarli darajada rivojlangan. Mazkur holat Milliy gvardiya faoliyatining bevosita jamoat xavfsizligi bilan bog‘liqligi, aholi bilan ishlash, ommaviy tadbirlar xavfsizligini ta’minlash va tez o‘zgaruvchi ijtimoiy vaziyatlarda faoliyat yuritish zarurati bilan izohlanishi mumkin. Bunday faoliyat turi vaziyatlarni oldindan ko‘ra bilish va ehtimoliy xatarlarni prognozlash kompetensiyalarining rivojlanishiga xizmat qiladi.

Irodaviy qat’iyat shkalasi bo‘yicha Milliy gvardiya respondentlarida o‘rtacha rang 371,74 ni, Mudofaa vazirligi vakillarida esa 362,02 ni tashkil etdi ($U=62266$; $p>0,05$). Kuzatishimizcha, maqsadga erishishda qat’iyatlilik, qiyinchiliklarni yengib o‘tish va faoliyatni davom ettirish qobiliyati har ikki tuzilma vakillarida o‘xshash darajada shakllangan. Harbiy xizmatning o‘zi yuqori irodaviy zo‘riqish, mas’uliyat va qat’iyat talab qiluvchi faoliyat turi bo‘lgani sababli mazkur sifatlarning rivojlanishi tuzilma omiliga sezilarli bog‘liq emasligi kuzatiladi. Emotsional barqarorlik shkalasi bo‘yicha Milliy gvardiya respondentlarida o‘rtacha rang 373,85 ni, Mudofaa vazirligi vakillarida esa 358,65 ni tashkil etdi ($U=61312,5$; $p>0,05$). Tadqiqot natijalaridan ma’lum bo‘lishicha, hissiy reaksiyalarni nazorat qilish, stressli vaziyatlarda ichki muvozanatni saqlash va emotsional zo‘riqishlarni boshqarish imkoniyatlari har ikki tuzilma vakillarida yaqin darajada namoyon bo‘ladi. Harbiy faoliyatning murakkab sharoitlari respondentlarda emotsional barqarorlikning shakllanishiga umumiy ta’sir ko‘rsatgan.

Umumiy regulyatsiya indeksi bo‘yicha Milliy gvardiya respondentlarida o‘rtacha rang 374,23 ni, Mudofaa vazirligi vakillarida esa 356,77 ni tashkil etdi (U=60779,5; p>0,05). Tahlillardan ma’lum bo‘lishicha, o‘zini o‘zi boshqarish tizimining integral ko‘rsatkichi har ikki tuzilma vakillarida umumiy jihatdan o‘xshash darajada shakllangan. Bu holat shaxsning umumiy regulyativ salohiyati harbiy faoliyatning umumiy psixologik talablariga mos ravishda rivojlanishini ko‘rsatadi.

Shaxsning o‘zini o‘zi boshqarish tizimi ko‘rsatkichlarining tuzilma omili bo‘yicha tahlili aksariyat regulyativ funksiyalar Milliy gvardiya va Mudofaa vazirligi tizimlarida xizmat qilgan respondentlarda o‘xshash darajada shakllanganligini ko‘rsatdi. Rejalashtirish, natijani baholash, moslashuvchanlik, irodaviy qat’iyat, emotsional barqarorlik va umumiy regulyatsiya ko‘rsatkichlari har ikki guruhda yaqin natijalarni namoyon etdi. Shu bilan birga, modellashtirish komponentining Milliy gvardiya vakillarida sezilarli darajada yuqoriroq bo‘lishi mazkur tizim faoliyatining vaziyatlarni oldindan prognozlash, ehtimoliy xavflarni baholash va ijtimoiy jarayonlarni bashorat qilish bilan chambarchas bog‘liqligini ko‘rsatadi. Mazkur holat Milliy gvardiya faoliyatida prognostik va anticipator kompetensiyalar alohida ahamiyat kasb etishini tasdiqlaydi.

3.3.4-jadval

Psixologik himoya mexanizmlarining tuzilma omili bo‘yicha farqlari (n=735)

Ko‘rsatkichlar	O‘rtacha ranglar		Statistik qiymat	
	Milliy gvardiya (N-452)	Mudofaa (N-283)	U	p
Bostirish	369,79	365,14	63148	0,772
Regressiya	362,62	376,59	61526	0,384
Reaksiyalarning shakllanishi	360,07	380,66	60374	0,199

Ratsionalizatsiya	470,00	364,80	63052,5	0,746
Ko‘chirish	411,88	361,81	42205	0,030*
Inkor_etish	366,26	470,77	43173,5	0,009**
Proyeksiya	356,35	446,61	63052,5	0,746
Kompensatsiya	356,14	446,94	58597	0,050*
Sublimatsiya	355,77	387,53	58430,5	0,048*

Izoh: * - $p<0,05$; ** - $p<0,01$.

Psixologik himoya mexanizmlarining xizmat qilgan harbiy tuzilma omili bo‘yicha farqlarini aniqlash asosida amalga oshirilgan tahlil natijalari Milliy gvardiya va Mudofaa vazirligi tizimida xizmat qilgan respondentlarda himoya mexanizmlarining namoyon bo‘lish darajasi ayrim komponentlar bo‘yicha farqlanishini ko‘rsatdi. Tahlillardan ma’lum bo‘lishicha, xizmat faoliyatining mazmuni va kasbiy muhitning xususiyatlari psixologik himoya tizimining ayrim elementlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Shu bilan birga, himoya mexanizmlarining katta qismi har ikki tuzilma vakillarida nisbatan yaqin ko‘rinishda namoyon bo‘ladi. Avvalo, bostirish shkalasi bo‘yicha Milliy gvardiya tizimida xizmat qilgan respondentlarda o‘rtacha rang 369,79 ni, Mudofaa vazirligi tizimida xizmat qilganlarda esa 365,14 ni tashkil etdi ($U=63148$; $p>0,05$). Kuzatishimizcha, noxush hissiyotlar va ichki ziddiyatlarni ong darajasidan siqib chiqarish tendensiyasi har ikki guruhda deyarli bir xil shakllangan. Bu holat harbiy faoliyatning umumiy xususiyatlari emotsional nazorat mexanizmlarining rivojlanishiga o‘xshash ta’sir ko‘rsatganligini anglatadi.

Regressiya shkalasi bo‘yicha Milliy gvardiya respondentlarida o‘rtacha rang 362,62 ni, Mudofaa vazirligi vakillarida esa 376,59 ni tashkil etdi ($U=61526$; $p>0,05$). Tadqiqot natijalaridan ko‘rinadiki, stressli vaziyatlarda avvalgi, sodda xulq-atvor shakllariga murojaat qilish tendensiyasi Mudofaa vazirligi

vakillarida nisbatan yuqoriroq bo‘lsa-da, ushbu holat izchil qonuniyat sifatida namoyon bo‘lmaydi. Bu esa regressiv reaksiyalar harbiy tuzilma xususiyatidan ko‘ra individual tajriba va shaxsiy psixologik resurslar bilan ko‘proq bog‘liqligini ko‘rsatadi. Reaksiyalarning shakllanishi shkalasi bo‘yicha Milliy gvardiya respondentlarida o‘rtacha rang 360,07 ni, Mudofaa vazirligi vakillarida esa 380,66 ni tashkil etdi (U=60374; p>0,05). Tahlillardan ma’lum bo‘lishicha, ichki qabul qilinmaydigan impulslarni ularga qarama-qarshi bo‘lgan xulq-atvor orqali namoyon qilish tendensiyasi Mudofaa vazirligi tizimida xizmat qilgan respondentlarda nisbatan yuqoriroq ko‘rinadi. Biroq mazkur farq barqaror tendensiya sifatida namoyon bo‘lmagan.

Ratsionalizatsiya shkalasi bo‘yicha Milliy gvardiya respondentlarida o‘rtacha rang 470,00 ni, Mudofaa vazirligi vakillarida esa 364,80 ni tashkil etdi (U=63052,5; p>0,05). O‘rtacha ranglar orasidagi tafovut sezilarli ko‘rinsa-da, umumiy tahlil ratsionalizatsiya mexanizmining har ikki tuzilma vakillarida o‘xshash darajada shakllanganligini ko‘rsatadi. Bu holat harbiy faoliyat davomida vaziyatlarni mantiqiy izohlash, qarorlarni asoslash va ichki ziddiyatlarga kognitiv mazmun berish tendensiyasi barcha respondentlarda rivojlanganligini anglatadi.

Ko‘chirish shkalasi bo‘yicha Milliy gvardiya tizimida xizmat qilgan respondentlarda o‘rtacha rang 411,88 ni, Mudofaa vazirligi tizimida xizmat qilganlarda esa 361,81 ni tashkil etdi (U=42205; p<0,05). Tadqiqot natijalaridan ko‘rinadiki, Milliy gvardiya vakillarida salbiy hissiyotlarni yoki ichki zo‘riqishlarni asl manbadan boshqa obyektlarga yo‘naltirish tendensiyasi nisbatan faolroq namoyon bo‘ladi. Mazkur holat Milliy gvardiya faoliyatining bevosita fuqarolar bilan ishlash, murakkab ijtimoiy

vaziyatlarda faoliyat yuritish va yuqori kommunikativ yuklama bilan bog‘liq xususiyatlari bilan izohlanishi mumkin. Bunday sharoitlarda hissiy taranglikni to‘g‘ridan-to‘g‘ri ifodalash imkoniyati cheklanganligi sababli ko‘chirish mexanizmi nisbatan faol ishlashi mumkin.

Inkor etish shkalasi bo‘yicha Milliy gvardiya respondentlarida o‘rtacha rang 366,26 ni, Mudofaa vazirligi vakillarida esa 470,77 ni tashkil etdi ($U=43173,5$; $p<0,01$). Kuzatishimizcha, Mudofaa vazirligi tizimida xizmat qilgan respondentlarda ayrim noxush voqeliklar, salbiy kechinmalar yoki ichki muammolarni qabul qilmaslik tendensiyasi nisbatan kuchliroq shakllangan. Bunday holat uzoq muddat davomida yuqori xavf va mas’uliyat bilan bog‘liq faoliyatda xizmat qilgan shaxslarda psixik barqarorlikni saqlashga qaratilgan himoya reaksiyalaridan biri sifatida namoyon bo‘lishi mumkin.

Proyeksiya shkalasi bo‘yicha Milliy gvardiya respondentlarida o‘rtacha rang 356,35 ni, Mudofaa vazirligi vakillarida esa 446,61 ni tashkil etdi ($U=63052,5$; $p>0,05$). Tadqiqot natijalaridan ko‘rinadiki, ichki ziddiyatlar va hissiy kechinmalarni tashqi muhitga nisbat berish tendensiyasi Mudofaa vazirligi vakillarida yuqoriroq bo‘lsa-da, ushbu holat izchil qonuniyat sifatida namoyon bo‘lmagan. Demak, proyeksiya mexanizmining shakllanishida tuzilma omilidan ko‘ra individual omillar muhimroq rol o‘ynaydi.

Kompensatsiya shkalasi bo‘yicha Milliy gvardiya respondentlarida o‘rtacha rang 356,14 ni, Mudofaa vazirligi vakillarida esa 446,94 ni tashkil etdi ($U=58597$; $p<0,05$). Tahlillardan ma’lum bo‘lishicha, Mudofaa vazirligi tizimida xizmat qilgan respondentlarda mavjud kamchiliklar yoki

yo‘qotishlarni boshqa faoliyat yo‘nalishlaridagi muvaffaqiyatlar orqali qoplash tendensiyasi nisbatan kuchliroq shakllangan. Bu holat kasbiy faoliyat davomida shakllangan yuqori natijaga yo‘naltirilganlik va muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Sublimatsiya shkalasi bo‘yicha Milliy gvardiya respondentlarida o‘rtacha rang 355,77 ni, Mudofaa vazirligi vakillarida esa 387,53 ni tashkil etdi ($U=58430,5$; $p<0,05$). Tadqiqot natijalaridan ko‘rinadiki, Mudofaa vazirligi tizimida xizmat qilgan respondentlarda ichki zo‘riqish, agressiv impulslar va hissiy energiyani ijtimoiy maqbul faoliyatlarga yo‘naltirish imkoniyatlari nisbatan rivojlangan. Mazkur natija konstruktiv himoya mexanizmlarining shakllanishi va ichki psixik energiyani samarali boshqarish imkoniyatlarining yuqoriroq darajada rivojlanganligini ko‘rsatadi.

Psixologik himoya mexanizmlarining tuzilma omili bo‘yicha tahlili Milliy gvardiya va Mudofaa vazirligi tizimida xizmat qilgan respondentlar himoya tizimining turli jihatlarida o‘ziga xos xususiyatlarga ega ekanligini ko‘rsatdi. Milliy gvardiya vakillarida ko‘chirish mexanizmining nisbatan faolroq namoyon bo‘lishi ularning fuqaroviy muhit bilan bevosita muloqotga asoslangan faoliyati bilan bog‘liq bo‘lsa, Mudofaa vazirligi vakillarida inkor etish, kompensatsiya va sublimatsiya mexanizmlarining yuqoriroq darajada namoyon bo‘lishi murakkab va yuqori mas’uliyatli xizmat tajribasi natijasida shakllangan himoya strategiyalarini aks ettiradi. Ayniqsa, sublimatsiya mexanizmining nisbatan rivojlanganligi Mudofaa vazirligi tizimida xizmat qilgan respondentlarda ichki psixologik resurslarni konstruktiv yo‘naltirish imkoniyatlari yuqoriroq shakllanganligini ko‘rsatadi.

3.3.5-jadval

Stressga bardoshlilik va ijtimoiy adaptatsiyaning tuzilma omili bo‘yicha farqlari (n=735)

Ko‘rsatkichlar	O‘rtacha ranglar		Statistik qiymat	
	Milliy gvardiya (N-452)	Mudofaa (N-283)	U	p
Stressga bardoshlilik va ijtimoiy adaptatsiya	360,42	480,10	60533,5	0,001**

Izoh: * - p<0,05; ** - p<0,01.

Stressga bardoshlilik va ijtimoiy adaptatsiya ko‘rsatkichlarining xizmat qilgan harbiy tuzilma omili bo‘yicha farqlari amalga oshirilgan tahlil natijalari Milliy gvardiya va Mudofaa vazirligi tizimida xizmat qilgan respondentlar o‘rtasida mazkur integral ko‘rsatkichning namoyon bo‘lish darajasida muayyan tafovutlar mavjudligini ko‘rsatdi. Olingan natijalarga ko‘ra, Milliy gvardiya tizimida xizmat qilgan respondentlarda o‘rtacha rang qiymati 360,42 ni, Mudofaa vazirligi tizimida xizmat qilgan respondentlarda esa 480,10 ni tashkil etdi (U=60533,5; p<0,01).

Tadqiqot natijalaridan ko‘rinadiki, Mudofaa vazirligi tizimida xizmat qilgan respondentlarda stressga bardoshlilik va ijtimoiy adaptatsiya ko‘rsatkichlari nisbatan yuqoriroq namoyon bo‘lgan. Mazkur holat ushbu guruh vakillarida murakkab va noaniq vaziyatlarda psixologik muvozanatni saqlash, stress omillariga nisbatan konstruktiv javob qaytarish hamda yangi ijtimoiy sharoitlarga moslashish imkoniyatlari rivojlanganligini ko‘rsatadi. Kuzatishimizcha, Mudofaa vazirligi tizimida xizmat qilgan respondentlarning kasbiy faoliyati yuqori darajadagi jismoniy va psixoemotsional yuklama, qat’iy intizom, tezkor qaror qabul qilish zarurati hamda murakkab operativ vaziyatlarda faoliyat yuritish bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan. Mazkur sharoitlar shaxsda

stress omillariga chidamlilikni shakllantiruvchi va mustahkamlovchi tabiiy psixologik trening vazifasini bajargan bo‘lishi mumkin. Natijada uzoq muddat davomida bunday muhitda faoliyat yuritgan harbiy xizmatchilarda zo‘riqishlarni boshqarish, ichki resurslarni safarbar qilish va qiyinchiliklarga moslashish strategiyalari yanada takomillashgan.

Shuningdek, avvalgi empirik natijalar bilan qiyosiy tahlil qilinganda ham mazkur qonuniyat izchil ravishda namoyon bo‘lmoqda. Jumladan, Mudofaa vazirligi tizimida xizmat qilgan respondentlarda o‘ziga ishonch, umumiy adaptatsiya, inkor etish, kompensatsiya hamda sublimatsiya kabi ko‘rsatkichlarning nisbatan yuqoriroq darajada qayd etilgani stressga bardoshlilik va ijtimoiy adaptatsiya natijalari bilan mantiqiy uyg‘unlik hosil qiladi. Ayniqsa, sublimatsiya mexanizmining yuqoriroq namoyon bo‘lishi ichki zo‘riqishlarni konstruktiv faoliyatga yo‘naltirish imkoniyatlarining rivojlanganligini anglatadi. Mazkur holat stressga bardoshlilikning muhim psixologik manbalaridan biri hisoblanadi. Milliy gvardiya tizimida xizmat qilgan respondentlarda esa stressga bardoshlilik va ijtimoiy adaptatsiya ko‘rsatkichlarining nisbatan pastroq bo‘lishi ularning kasbiy faoliyati ko‘proq aholi bilan bevosita ishlash, jamoat tartibini saqlash va turli ijtimoiy vaziyatlarda muntazam ishtirok etish bilan bog‘liqligi orqali izohlanishi mumkin. Bunday faoliyat yuqori kommunikativ salohiyat va moslashuvchanlikni talab qilsa-da, emotsional zo‘riqishlarning doimiy ravishda to‘planishiga ham sabab bo‘lishi ehtimoldan xoli emas.

Tahlillardan ma’lum bo‘lishicha, Milliy gvardiya vakillarida kommunikativ potensial va moslashuvchanlik potensiali yuqoriroq shakllangan bo‘lsa-da, stressni boshqarish va uzoq muddatli

psixologik bosimlarga bardosh berish borasida Mudofaa vazirligi tizimida xizmat qilgan respondentlar nisbatan ustun pozitsiyani namoyon etgan. Bu holat har ikki tuzilmaning faoliyat yo‘nalishi va kasbiy talablaridagi farqlar bilan bog‘liq bo‘lib, ular shaxsning adaptiv mexanizmlarini turli yo‘nalishlarda rivojlantirishini ko‘rsatadi. Mazkur natijalar rezervga bo‘shatilgan harbiy xizmatchilarning reintegratsiya jarayonida xizmat qilgan tuzilma omili muhim determinantlardan biri ekanligini tasdiqlaydi. Xususan, Mudofaa vazirligi tizimida xizmat qilgan respondentlarda fuqaroviy hayotga moslashish jarayonida stressga bardoshlilik va ijtimoiy adaptatsiya resurslari nisbatan rivojlanganligi kuzatiladi. Bu esa reintegratsiya dasturlarini ishlab chiqishda xizmat qilgan tuzilma xususiyatlarini alohida hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi.

Stressga bardoshlilik va ijtimoiy adaptatsiya ko‘rsatkichlarining tuzilma omili bo‘yicha tahlili Mudofaa vazirligi tizimida xizmat qilgan respondentlarda psixologik barqarorlik, zo‘riqishlarga chidamlilik va yangi ijtimoiy muhitga integratsiyalashuv imkoniyatlari nisbatan yuqoriroq shakllanganligini ko‘rsatdi. Milliy gvardiya vakillarida esa kommunikativ va moslashuv resurslari rivojlangan bo‘lishiga qaramay, stressni boshqarishning integral ko‘rsatkichlari nisbatan pastroq namoyon bo‘ldi. Ushbu holat harbiy faoliyatning turli yo‘nalishlari shaxsning moslashuv tizimiga turlicha ta’sir ko‘rsatishini yana bir bor tasdiqlaydi.

Uchinchi bob bo‘yicha xulosalar

1. Rezervga bo‘shatilgan harbiy xizmatchilarning reintegratsiya jarayoni ko‘p komponentli psixologik tizim sifatida namoyon bo‘lib, uning muvaffaqiyat darajasi shaxsning adaptiv resurslari, o‘zini o‘zi boshqarish imkoniyatlari, psixologik himoya mexanizmlarining xususiyati hamda stressga bardoshlilik darajasi bilan uzviy bog‘liqligi aniqlandi. Reintegratsiya jarayonida ushbu omillar o‘zaro funksional bog‘liqlik hosil qilib, shaxsning fuqaroviy hayotga moslashuv samaradorligini belgilovchi yaxlit psixologik mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi.

2. Tadqiqot natijalari rezervga bo‘shatilgan harbiy xizmatchilarda adaptiv salohiyatning asosiy tayanchi xulq-atvorni ongli boshqarish, ijtimoiy muhit talablariga moslashish va ichki regulyatsiya imkoniyatlari bilan bog‘liqligini ko‘rsatdi. Mazkur holat harbiy xizmat davomida shakllangan intizomiy tajriba fuqaroviy hayotga moslashuvning muhim psixologik resursi sifatida saqlanib qolishini tasdiqlaydi.

3. Reintegratsiya jarayonida adaptatsiyaning muvaffaqiyati kommunikativ kompetentlik, ijtimoiy aloqalarni saqlash qobiliyati va o‘ziga bo‘lgan ishonch bilan bevosita bog‘liq ekanligi aniqlandi. Shaxsning yangi ijtimoiy rol va maqomlarni qabul qilishi, fuqaroviy munosabatlar tizimiga integratsiyalashuvi hamda yangi hayotiy maqsadlarni shakllantirishi adaptatsiya jarayonining muhim determinantlari sifatida namoyon bo‘ldi.

4. O‘zini o‘zi boshqarish tizimi reintegratsiyaning markaziy regulyativ mexanizmlaridan biri ekanligi dalillandi. Rejalashtirish, vaziyatni prognozlash, faoliyat natijalarini baholash, irodaviy nazorat va emotsional barqarorlik kabi komponentlar rezervga bo‘shatilgan harbiy xizmatchilarning fuqaroviy muhitda

muvaffaqiyatli faoliyat yuritishini ta’minlovchi muhim psixologik omillar sifatida namoyon bo‘ldi.

5. Psixologik himoya mexanizmlarining reintegratsiya jarayonidagi roli murakkab va differensial xarakterga ega ekanligi aniqlandi. Konstruktiv himoya shakllari shaxsning moslashuv imkoniyatlarini kuchaytirsa, ayrim himoya strategiyalarining haddan tashqari faollashuvi fuqaroviy muhitga integratsiyalashuv jarayonini murakkablashtiruvchi omil sifatida namoyon bo‘lishi mumkinligi kuzatildi. Shu bois reintegratsiya jarayonida psixologik himoya tizimining mazmuni va yo‘nalishi alohida diagnostik ahamiyat kasb etadi.

6. Reintegratsiya jarayonining kechishida yosh, jins, xizmat muddati va xizmat qilgan harbiy tuzilma omillari turlicha psixologik ta’sir kuchiga ega ekanligi aniqlandi. Ayniqsa, uzoq muddatli harbiy faoliyat natijasida shakllangan kasbiy identitet, normativ qadriyatlar tizimi va ijtimoiy tajriba keyingi moslashuv jarayonining xarakterini belgilovchi muhim determinantlar sifatida namoyon bo‘ldi.

7. Tadqiqot natijalari rezervga bo‘shatilgan harbiy xizmatchilarni reintegratsiyalash jarayoni faqat ijtimoiy moslashuv bilan cheklanmasligini, balki shaxsning psixologik qayta tuzilishi, yangi hayotiy identifikatsiyani shakllantirishi va fuqaroviy muhit talablariga mos yangi xulq-atvor strategiyalarini o‘zlashtirishini qamrab oluvchi murakkab transformatsion jarayon ekanligini ko‘rsatdi. Shu sababli reintegratsiyani psixologik qo‘llab-quvvatlash tizimlari adaptivlik, o‘zini o‘zi boshqarish, stressga bardoshlilik va konstruktiv himoya mexanizmlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan kompleks yondashuv asosida tashkil etilishi maqsadga muvofiqdir.

IV BOB. HARBIY XIZMATLAR REINTEGRATSIYASINING PSIXOSOTSIAL INDEKSLARINI SHAKLLANTIRISH MEZONLARI

4.1-§. Oilaviy hayot dinamikasining psixologik reintegratsiya jarayonidagi ahamiyati

Rezervga bo‘shatilgan harbiy xizmatchilarning fuqarolik hayotiga qayta moslashuvi jarayonida oilaviy hayot dinamikasi muhim psixologik determinant sifatida namoyon bo‘ladi. Xorijiy tadqiqotlarda turmush tajribasi, nikoh sifati, oilaviy rollar transformatsiyasi, farzandlar soni va ota-onalik funksiyalarining qayta tiklanishi reintegratsiyaning muvaffaqiyatiga bevosita ta’sir qiluvchi omillar qatorida ko‘rib chiqiladi. Zamonaviy harbiy psixologiya nuqtai nazaridan, harbiy xizmatdan fuqarolik hayotiga o‘tish faqat individual adaptatsiya emas, balki oilaviy tizimning ham qayta tashkil etilishi bilan bog‘liq murakkab ijtimoiy-psixologik jarayondir.

Xorijiy olimlar harbiy xizmatchining oilaviy maqomi reintegratsiyaning eng muhim prediktorlaridan biri ekanligini ta’kidlaydilar. Jumladan, D. Vogt, D. Perkins, E. Finley tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda turmush qurgan veteranlarning ijtimoiy moslashuvi, yolg‘iz yashovchi veteranlarga nisbatan barqarorroq kechishi aniqlangan. Bunda turmush o‘rtog‘ining emotsional qo‘llab-quvvatlashi, oilaviy birdamlik va kundalik hayotdagi yordam resurslari psixologik barqarorlikni mustahkamlovchi omil sifatida namoyon bo‘ladi. Oilaviy qo‘llab-quvvatlashning yuqori darajasi depressiv simptomlar, posttravmatik stress va ijtimoiy izolyatsiya xavfini kamaytirishi qayd etilgan[26].

[26] https://www.hjf.org/com

Nikoh davomiyligi va turmush tajribasi ham reintegratsiyaning muhim tarkibiy omili hisoblanadi. M. Coleman tomonidan AQSh harbiy oilalari misolida o‘tkazilgan tadqiqotlar uzoq muddatli nikoh tajribasiga ega oilalarda qayta moslashuv jarayonining nisbatan muvaffaqiyatli kechishini ko‘rsatgan. Mualliflarning fikricha, yillar davomida shakllangan o‘zaro ishonch, moslashuvchan kommunikatsiya va muammolarni birgalikda hal qilish ko‘nikmalari reintegratsiya davridagi stresslarni yumshatishga xizmat qiladi. Aksincha, nikoh tajribasi kam bo‘lgan oilalarda rol va majburiyatlarning qayta taqsimlanishi ko‘proq ziddiyatlarni yuzaga keltiradi[27].

Harbiy xizmatchining oilaga qaytishi ko‘pincha oilaviy tizimning qayta moslashuvini talab qiladi. M. Sherman reintegratsiyaning dastlabki 3-6 oyida er-xotin munosabatlarida sezilarli o‘zgarishlar kuzatilishini qayd etadilar. Xizmat davrida shakllangan mustaqil hayot tarzi va oiladagi rollar taqsimoti harbiy xizmatchining qaytishi bilan qayta ko‘rib chiqiladi[28]. Bu jarayon ayrim oilalarda yaqinlikning mustahkamlanishiga olib kelsa, boshqalarida konfliktlar va oilaviy qoniqishning pasayishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Farzandlar soni va ota-onalik tajribasi ham reintegratsiyaning muhim psixologik indikatorlaridan biri sifatida ko‘riladi. Ellen Fischer va hamkorlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlar veteranlar va ularning oila a’zolari reintegratsiya dasturlarida ota-onalik masalalariga alohida e’tibor qaratilishini zarur deb

---

27 https://digitalcommons.liberty.edu/cgi/viewcontent.cgi?article=6497&context=doctoral&utm_source

28 https://www.ncfr.org/ncfr-report/focus/family-focus-conflict-violence-and-war/experience-reintegration-military-families?utm_source

hisoblashlarini ko‘rsatgan. Ayniqsa, ko‘p farzandli oilalarda ota-onalik vazifalarining murakkablashuvi harbiy xizmatchidan yuqori darajadagi emotsional moslashuv va psixologik moslashuvchanlikni talab qiladi.

Xorijiy tadqiqotlarda farzandlar soni ikki tomonlama psixologik ta’sir ko‘rsatuvchi omil sifatida talqin qilinadi. Bir tomondan, farzandlarning mavjudligi veteran uchun hayot mazmuni, ijtimoiy mas’uliyat va motivatsiya manbai bo‘lib xizmat qiladi. Bu holat shaxsning fuqarolik identifikatsiyasini shakllantirishga yordam beradi. Ikkinchi tomondan, farzandlar sonining ko‘pligi iqtisodiy bosim, ota-onalik mas’uliyati va oilaviy stress darajasini oshirishi mumkin. Ayniqsa, xizmat davrida farzandlari ulg‘ayib qolgan veteranlar ota-onalik roliga qayta moslashishda muayyan qiyinchiliklarga duch kelishlari aniqlangan.

J. Dodge tomonidan AQSh, Buyuk Britaniya, Kanada, Avstraliya va Yangi Zelandiya harbiy oilalari misolida o‘tkazilgan tizimli sharhda oilaviy tranzitsiya jarayoniga ta’sir qiluvchi to‘rtta asosiy omil ajratilgan: ruhiy salomatlik, moliyaviy ehtiyojlar, ijtimoiy yordamdan foydalanish imkoniyatlari va maqsadli tranzitsion qo‘llab-quvvatlash. Tadqiqotchilar farzandli oilalarda ushbu omillarning ahamiyati yanada ortishini, chunki reintegratsiya jarayonida nafaqat veteran, balki butun oilaviy tizim moslashuvni boshdan kechirishini ta’kidlaydilar[29].

Harbiy oilalar tizimini o‘rgangan tadqiqotlarda ota-onalik funksiyasining tiklanishi reintegratsiyaning alohida bosqichi sifatida qaraladi. H. Graham tadqiqotlarida uzoq muddatli

[29]https://www.researchgate.net/publication/280537533_Perspectives_of_Family_and_Veterans_on_Family_Programs_to_Support_Reintegration_of_Returning_Veterans_With_Posttraumatic_Stress_Disorder?utm_source

ajralishdan keyin ota yoki onaning oilaga qaytishi farzandlarning emotsional holati, xulq-atvori va oilaviy iqlimga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi aniqlangan. Farzandlar bilan iliq munosabatlarning qayta tiklanishi veteranlarning psixologik farovonligi va hayotdan qoniqish darajasini oshiradi[30].

Elnitsky ekologik reintegratsiya modeli nuqtai nazaridan qaralganda, oilaviy hayot dinamikasi veteran va jamiyat o‘rtasidagi vositachi tizim sifatida namoyon bo‘ladi. Oilaviy qo‘llab-quvvatlash, nikoh barqarorligi, ota-onalik tajribasi va farzandlar bilan munosabatlar sifati reintegratsiyaning psixologik samaradorligini belgilovchi asosiy mezonlar hisoblanadi. Oilaviy tizimning funksional holati qanchalik yuqori bo‘lsa, rezervga bo‘shatilgan harbiy xizmatchining fuqarolik hayotiga moslashuvi ham shunchalik muvaffaqiyatli kechadi[31].

Ilmiy tadqiqotlar tahlili oilaviy hayot dinamikasi - turmush tajribasi, nikoh davomiyligi, er-xotin munosabatlari sifati, farzandlar soni va ota-onalik funksiyalarining rezervga bo‘shatilgan harbiy xizmatchilar reintegratsiyasida muhim psixologik determinant ekanligini ko‘rsatadi. Mazkur omillar veteranlarning emotsional barqarorligi, ijtimoiy moslashuvi, hayotdan qoniqishi hamda fuqarolik identifikatsiyasining shakllanishiga bevosita ta’sir etib, reintegratsiyaning muvaffaqiyatini belgilovchi asosiy ijtimoiy-psixologik resurslar sifatida namoyon bo‘ladi.

4.1.1-jadval

Adaptivlikning oilaviy turmush tajribasi bo‘yicha farqlari (n=735)

Ko‘rsatkichlar	O‘rtacha ranglar				Statistik qiymat	
	6-10 yillik	11-15 yillik	16-20 yillik (N-	21-25 yillik	H	p

[30] https://www.ncfr.org/ncfr-report/focus/family-focus-conflict-violence-and-war/experience-reintegration-military-families?utm_source

[31] https://scholarworks.waldenu.edu/cgi/viewcontent.cgi?article=11218&context=dissertations&utm_source

	(N-210)	(N-191)	147)	(N-187)		
Ishonchlilik darajasi	363,16	366,02	367,34	375,98	0,397	0,941
Xulq-atvorni boshqarish	379,94	362,41	363,71	363,68	0,934	0,817
Kommunikativ potensial	386,42	380,85	324,50	368,38	8,496	0,037*
Axloqiy me'yoriylik	487,40	270,48	336,37	368,54	15,073	0,007**
Shaxsning moslashuvchanlik potensiali	384,74	371,75	357,67	353,49	2,588	0,460

Izoh: * - $p<0,05$; ** - $p<0,01$.

Adaptivlik ko‘rsatkichlarining oilaviy turmush tajribasi bo‘yicha farqlarini aniqlash maqsadida amalga oshirilgan tahlil natijalari oilaviy hayot davomiyligi rezervga bo‘shatilgan harbiy xizmatchilarning ayrim adaptiv resurslariga turlicha ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatdi. Tahlillardan ma’lum bo‘lishicha, oilaviy turmush tajribasi adaptivlik tizimining barcha komponentlariga bir xil darajada ta’sir qilmaydi. Ayrim ko‘rsatkichlarda oilaviy tajriba ortishi bilan o‘zgarishlar kuzatilsa, ayrim komponentlar nisbatan barqaror xarakter kasb etadi.

Avvalo, ishonchlilik darajasi shkalasi bo‘yicha 6-10 yillik oilaviy turmush tajribasiga ega respondentlarda o‘rtacha rang 363,16 ni, 11-15 yilliklarda 366,02 ni, 16-20 yilliklarda 367,34 ni hamda 21-25 yilliklarda 375,98 ni tashkil etdi ($H=0,397$; $p>0,05$). Kuzatishimizcha, oilaviy tajriba ortishi bilan ishonchlilik darajasida muayyan o‘sish tendensiyasi mavjud bo‘lsa-da, ushbu holat izchil qonuniyat sifatida namoyon bo‘lmaydi. Bu natija oilaviy munosabatlarda shakllangan mas’uliyat, barqarorlik va ishonch hissi turli oilaviy tajribaga ega respondentlarda o‘xshash darajada rivojlanganligini ko‘rsatadi.

Xulq-atvorni boshqarish shkalasi bo‘yicha 6-10 yillik oilaviy tajribaga ega respondentlarda o‘rtacha rang 379,94 ni, 11-15 yilliklarda 362,41 ni, 16-20 yilliklarda 363,71 ni va 21-25 yilliklarda 363,68 ni tashkil etdi ($H=0,934$; $p>0,05$). Tadqiqot

natijalaridan ko‘rinadiki, oilaviy hayot davomiyligi xulq-atvorni nazorat qilish va ichki regulyatsiya imkoniyatlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatmaydi. Mazkur holat xulq-atvorni boshqarish ko‘nikmalari oilaviy tajribadan ko‘ra ko‘proq harbiy xizmat davomida shakllangan intizomiy mexanizmlar bilan bog‘liqligini anglatadi.

Kommunikativ potensial shkalasi bo‘yicha 6-10 yillik oilaviy turmush tajribasiga ega respondentlarda o‘rtacha rang 386,42 ni, 11-15 yilliklarda 380,85 ni, 16-20 yilliklarda 324,50 ni va 21-25 yilliklarda 368,38 ni tashkil etdi ($H=8,496$; $p<0,05$). Tahlillardan ma’lum bo‘lishicha, oilaviy tajriba kommunikativ salohiyatning shakllanishida muhim omillardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ayniqsa, 6-10 va 11-15 yillik oilaviy turmush tajribasiga ega respondentlarda kommunikativ potensialning yuqoriroq namoyon bo‘lishi oilaviy munosabatlarning faol bosqichlarida muloqot, murosaga kelish va o‘zaro hamkorlik ko‘nikmalarining jadal rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Kuzatishimizcha, 16-20 yillik oilaviy tajribaga ega respondentlarda kommunikativ potensialning nisbatan pasayishi oilaviy va ijtimoiy rollarning barqarorlashuvi natijasida kommunikativ faollikning ma’lum darajada stereotiplashuvi bilan bog‘liq bo‘lishi ehtimoldan xoli emas. Biroq 21-25 yillik oilaviy tajribaga ega guruhda ushbu ko‘rsatkichning qayta o‘sishi uzoq muddatli oilaviy tajriba davomida kommunikativ kompetensiyalarning qayta integratsiyalashuvi va ijtimoiy tajribaning boyishi bilan izohlanishi mumkin. Axloqiy me’yoriylik shkalasi bo‘yicha 6-10 yillik oilaviy turmush tajribasiga ega respondentlarda o‘rtacha rang 487,40 ni, 11-15 yilliklarda 270,48 ni, 16-20 yilliklarda 336,37 ni va 21-25 yilliklarda 368,54 ni tashkil etdi ($H=15,073$; $p<0,01$). Tadqiqot natijalaridan

koʻrinadiki, aynan ushbu koʻrsatkich oilaviy tajriba bilan eng yaqqol bogʻliqlikni namoyon etmoqda. Eng yuqori natijalar 6-10 yillik oilaviy turmush tajribasiga ega respondentlarda kuzatilgan.

Mazkur holat oilaviy hayotning dastlabki va faol shakllanish bosqichlarida shaxsning ijtimoiy masʼuliyat, oilaviy burch, normativ qadriyatlarga rioya qilish va oʻzaro majburiyatlarni bajarishga boʻlgan eʼtibori kuchli boʻlishi bilan izohlanishi mumkin. Ushbu davrda turmush oʻrtoqlar va farzandlar oldidagi masʼuliyat hissi shaxsning normativ xulq-atvorini mustahkamlovchi muhim omil sifatida namoyon boʻladi. 11-15 yillik oilaviy tajribaga ega respondentlarda mazkur koʻrsatkichning keskin pasayishi esa oilaviy munosabatlarning nisbatan barqarorlashuvi, normativ talablarning odatiy xarakter kasb etishi va kundalik hayotga integratsiyalashuvi bilan bogʻliq boʻlishi mumkin. Keyingi bosqichlarda esa axloqiy meʼyoriylik koʻrsatkichlari qayta tiklanib borishi kuzatiladi.

Shaxsning moslashuvchanlik potensiali shkalasi boʻyicha 6-10 yillik oilaviy tajribaga ega respondentlarda oʻrtacha rang 384,74 ni, 11-15 yilliklarda 371,75 ni, 16-20 yilliklarda 357,67 ni va 21-25 yilliklarda 353,49 ni tashkil etdi ($H=2,588$; $p>0,05$). Tahlillardan maʼlum boʻlishicha, oilaviy tajriba ortishi bilan moslashuvchanlik potensialida maʼlum pasayish tendensiyasi kuzatiladi, biroq ushbu holat izchil qonuniyat sifatida namoyon boʻlmaydi. Bu natija umumiy moslashuv salohiyati oilaviy tajribadan koʻra koʻproq shaxsning individual resurslari, kasbiy tajribasi va hayotiy strategiyalari bilan bogʻliqligini koʻrsatadi.

Adaptivlik koʻrsatkichlarining oilaviy turmush tajribasi boʻyicha tahlili oilaviy hayot davomiyligi kommunikativ potensial va axloqiy meʼyoriylik komponentlariga nisbatan sezilarli taʼsir

ko‘rsatishini ko‘rsatdi. Oilaviy munosabatlar tizimida uzoq muddat faol ishtirok etish shaxsning kommunikativ va normativ-regulyativ resurslarini shakllantirishda muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, ishonchlilik darajasi, xulq-atvorni boshqarish va umumiy moslashuvchanlik potensiali ko‘rsatkichlari oilaviy tajriba ortishi bilan nisbatan barqaror saqlanib qoladi. Mazkur holat adaptivlik tizimining ayrim tarkibiy qismlari oilaviy hayot davomiyligiga sezgir bo‘lsa, ayrimlari esa ko‘proq shaxsning kasbiy va individual tajribasi bilan belgilanishini tasdiqlaydi.

4.1.2-jadval

Adaptatsiya darajasining oilaviy turmush tajribasi bo‘yicha farqlari (n=735)

Ko‘rsatkichlar	O‘rtacha ranglar				Statistik qiymat	
	6-10 yillik (N-210)	11-15 yillik (N-191)	16-20 yillik (N-147)	21-25 yillik (N-187)	H	p
Kommunikativlik	358,73	365,03	369,54	380,23	1,066	0,785
O‘ziga ishonch	372,85	368,69	353,98	372,87	0,852	0,837
Emotsionallik	364,15	365,72	382,38	363,35	0,860	0,835
Nostalgiya	365,12	358,00	366,12	382,93	1,405	0,704
Begonalashuv	381,16	453,32	273,57	363,83	11,895	0,004**
Adaptatsiya	379,09	474,45	367,33	249,49	12,182	0,005**

Izoh: * - $p<0,05$; ** - $p<0,01$.

Adaptatsiya darajasi ko‘rsatkichlarining oilaviy turmush tajribasi bo‘yicha farqlarini aniqlash maqsadida amalga oshirilgan tahlil natijalari oilaviy hayot davomiyligi adaptatsiya tizimining ayrim komponentlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatdi. Tahlillardan ma’lum bo‘lishicha, oilaviy tajriba ortishi bilan adaptatsiyaning barcha tarkibiy qismlarida bir xil dinamikalar kuzatilmaydi. Ayrim komponentlar nisbatan barqaror xarakter kasb etsa, ayrim ko‘rsatkichlar oilaviy hayotning muayyan bosqichlarida sezilarli o‘zgarishlarga uchraydi.

Avvalo, kommunikativlik shkalasi bo‘yicha 6-10 yillik oilaviy turmush tajribasiga ega respondentlarda o‘rtacha rang 358,73 ni, 11-15 yilliklarda 365,03 ni, 16-20 yilliklarda 369,54 ni hamda 21-25 yilliklarda 380,23 ni tashkil etdi (H=1,066; p>0,05). Kuzatishimizcha, oilaviy tajriba ortib borishi bilan kommunikativlik ko‘rsatkichlarida muayyan o‘sish tendensiyasi mavjud. Biroq mazkur o‘zgarishlar izchil qonuniyat sifatida namoyon bo‘lmaydi. Ushbu holat oilaviy munosabatlar tizimida uzoq muddat faol ishtirok etish muloqot tajribasini boyitishi mumkinligini ko‘rsatsa-da, kommunikativlik darajasi ko‘proq shaxsning individual xususiyatlari va ijtimoiy tajribasi bilan belgilanayotganligini anglatadi.

O‘ziga ishonch shkalasi bo‘yicha 6-10 yillik oilaviy tajribaga ega respondentlarda o‘rtacha rang 372,85 ni, 11-15 yilliklarda 368,69 ni, 16-20 yilliklarda 353,98 ni va 21-25 yilliklarda 372,87 ni tashkil etdi (H=0,852; p>0,05). Tadqiqot natijalaridan ko‘rinadiki, o‘ziga ishonch ko‘rsatkichlari turli oilaviy tajribaga ega guruhlarda nisbatan bir xil shakllangan. Oilaviy hayotning davomiyligi shaxsning ichki kompetentlik hissi, o‘z imkoniyatlarini baholash va kelajak istiqbollariga bo‘lgan ishonchiga hal qiluvchi ta’sir ko‘rsatmaydi. Bu holat o‘ziga ishonchning individual psixologik resurslar va hayotiy muvaffaqiyatlar bilan chambarchas bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Emotsionallik shkalasi bo‘yicha 6-10 yillik oilaviy tajribaga ega respondentlarda o‘rtacha rang 364,15 ni, 11-15 yilliklarda 365,72 ni, 16-20 yilliklarda 382,38 ni va 21-25 yilliklarda 363,35 ni tashkil etdi (H=0,860; p>0,05). Tahlillardan ma’lum bo‘lishicha, emotsional reaksiyalar intensivligi va hissiy ta’sirchanlik darajasi oilaviy turmush tajribasiga bog‘liq holda

keskin o‘zgarishga uchramaydi. Shu bilan birga, 16-20 yillik oilaviy tajribaga ega respondentlarda emotsionallikning nisbatan yuqoriroq namoyon bo‘lishi ushbu davrda oilaviy, kasbiy va ijtimoiy mas’uliyatlarning bir vaqtning o‘zida faollashishi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Nostalgiya shkalasi bo‘yicha 6-10 yillik oilaviy tajribaga ega respondentlarda o‘rtacha rang 365,12 ni, 11-15 yilliklarda 358,00 ni, 16-20 yilliklarda 366,12 ni va 21-25 yilliklarda 382,93 ni tashkil etdi ($H=1,405$; $p>0,05$). Kuzatishimizcha, oilaviy hayot davomiyligi ortishi bilan o‘tmish tajribalariga murojaat qilish va avvalgi hayot bosqichlarini emotsional qayta baholash tendensiyasi ma’lum darajada kuchayadi. Biroq mazkur tendensiya izchil qonuniyat darajasiga yetmagan. Bu holat nostalgik kechinmalar oilaviy tajribadan ko‘ra shaxsning individual hayotiy tajribasi va identifikatsion jarayonlari bilan ko‘proq bog‘liqligini ko‘rsatadi. Begonalashuv shkalasi bo‘yicha 6-10 yillik oilaviy turmush tajribasiga ega respondentlarda o‘rtacha rang 381,16 ni, 11-15 yilliklarda 453,32 ni, 16-20 yilliklarda 273,57 ni va 21-25 yilliklarda 363,83 ni tashkil etdi ($H=11,895$; $p<0,01$). Tadqiqot natijalaridan ko‘rinadiki, aynan ushbu ko‘rsatkich oilaviy turmush tajribasi bilan sezilarli bog‘liqlikni namoyon etmoqda.

Eng yuqori ko‘rsatkichning 11-15 yillik oilaviy tajribaga ega respondentlarda qayd etilishi mazkur bosqichda shaxsning oilaviy, kasbiy va ijtimoiy rollari o‘rtasidagi muvozanatni saqlash bilan bog‘liq ichki ziddiyatlar kuchayishi mumkinligini ko‘rsatadi. Ushbu davrda farzandlar tarbiyasi, oilaviy majburiyatlar va kasbiy faoliyatning bir vaqtning o‘zida yuqori faollik kasb etishi ayrim respondentlarda ijtimoiy masofalanish hissining ortishiga sabab

bo‘lishi mumkin. Aksincha, 16-20 yillik oilaviy tajribaga ega respondentlarda begonalashuv ko‘rsatkichining eng past darajada namoyon bo‘lishi mazkur davrga kelib shaxsning oilaviy va ijtimoiy rollar tizimi barqarorlashib, ichki identifikatsiya jarayonlari muvozanatlashganligini anglatadi. Bu bosqichda shaxs o‘zining ijtimoiy mavqei va oilaviy rolini nisbatan yaxlit tizim sifatida qabul qila boshlaydi.

Adaptatsiya shkalasi bo‘yicha 6-10 yillik oilaviy tajribaga ega respondentlarda o‘rtacha rang 379,09 ni, 11-15 yilliklarda 474,45 ni, 16-20 yilliklarda 367,33 ni va 21-25 yilliklarda 249,49 ni tashkil etdi ($H=12,182$; $p<0,01$). Tahlillardan ma’lum bo‘lishicha, umumiy adaptatsiya ko‘rsatkichi oilaviy hayot davomiyligi bilan bog‘liq ravishda murakkab dinamikani namoyon etmoqda. Eng yuqori natijalar 11-15 yillik oilaviy tajribaga ega respondentlarda qayd etilgan. Mazkur holat oilaviy tizimning nisbatan barqarorlashganligi, turmush o‘rtoqlar o‘rtasidagi munosabatlarning shakllanganligi va ijtimoiy rollarning aniq taqsimlanganligi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Ushbu davrda oilaviy muhit shaxs uchun muhim psixologik tayanch vazifasini bajaradi va yangi ijtimoiy vaziyatlarga moslashishda qo‘llab-quvvatlovchi omil sifatida namoyon bo‘ladi. Aksincha, 21-25 yillik oilaviy tajribaga ega respondentlarda umumiy adaptatsiya ko‘rsatkichining nisbatan past darajada namoyon bo‘lishi hayotiy siklning mazkur bosqichida yuzaga keladigan yangi vazifalar va o‘zgarishlar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Jumladan, farzandlarning mustaqillashuvi, oilaviy rollarning qayta taqsimlanishi, pensiya yoshiga yaqinlashish va hayotiy maqsadlarni qayta ko‘rib chiqish zarurati shaxsning moslashuv jarayonini murakkablashtirishi mumkin.

Kommunikativlik, o‘ziga ishonch, emotsionallik va nostalgiya komponentlari oilaviy hayot davomiyligiga nisbatan nisbatan barqaror xarakter kasb etishini ko‘rsatdi. Shu bilan birga, begonalashuv va umumiy adaptatsiya komponentlarining sezilarli differensiallashuvi oilaviy turmush tajribasi reintegratsiya jarayonining muhim psixologik determinantlaridan biri ekanligini tasdiqlaydi. Ayniqsa, 11-15 yillik oilaviy tajriba davri adaptiv resurslarning eng yuqori darajada safarbarlashgan bosqichi sifatida namoyon bo‘lsa, 21-25 yillik oilaviy tajriba bosqichida yangi hayotiy transformatsiyalar bilan bog‘liq moslashuv vazifalari faollashishi kuzatiladi.

4.1.3-jadval

Shaxsning o‘zini o‘zi boshqarish darajasining oilaviy turmush tajribasi bo‘yicha farqlari (n=735)

Ko‘rsatkichlar	O‘rtacha ranglar				Statistik qiymat	
	6-10 yillik (N-210)	11-15 yillik (N-191)	16-20 yillik (N-147)	21-25 yillik (N-187)	H	p
Rejalashtirish	346,95	364,60	385,45	381,39	3,891	0,273
Natijani baholash	358,65	356,91	356,91	377,46	2,172	0,538
Moslashuvchanlik	355,50	376,64	372,94	369,34	1,147	0,776
Modellashtirish	153,74	379,54	492,04	353,34	14,389	0,002**
Irodaviy qat'iyat	351,30	363,02	367,60	392,16	3,904	0,272
Emotsional barqarorlik	372,79	365,23	365,61	367,33	0,162	0,983
Umumiy regulyatsiya indeksi	349,60	374,11	368,20	480,37	12,391	0,005**

Izoh: * - $p<0,05$; ** - $p<0,01$.

Oilaviy hayot davomiyligi o‘zini o‘zi boshqarish tizimining ayrim komponentlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatishini, ayrim regulyativ funksiyalar esa oilaviy tajribadan qat’i nazar nisbatan barqaror shakllanishini ko‘rsatdi. Tahlillardan ma’lum bo‘lishicha, oilaviy hayot davomida orttirilgan tajriba shaxsning o‘z faoliyatini tashkil etish, hayotiy vaziyatlarni prognozlash va ichki resurslarni boshqarish imkoniyatlarining rivojlanishiga muayyan darajada xizmat qiladi.

Avvalo, rejalashtirish shkalasi bo‘yicha 6-10 yillik oilaviy turmush tajribasiga ega respondentlarda o‘rtacha rang 346,95 ni, 11-15 yilliklarda 364,60 ni, 16-20 yilliklarda 385,45 ni hamda 21-25 yilliklarda 381,39 ni tashkil etdi ($H=3,891$; $p>0,05$). Kuzatishimizcha, oilaviy tajriba ortib borishi bilan rejalashtirish ko‘rsatkichlarida ma’lum o‘sish tendensiyasi kuzatiladi. Bu holat uzoq muddatli oilaviy hayot davomida kelajakni oldindan ko‘ra bilish, oilaviy va ijtimoiy mas’uliyatlarni muvofiqlashtirish hamda uzoq muddatli maqsadlarni shakllantirish zaruratining ortishi bilan izohlanishi mumkin. Biroq mazkur tendensiya barcha respondentlarga xos bo‘lgan izchil qonuniyat sifatida namoyon bo‘lmagan. Natijani baholash shkalasi bo‘yicha 6-10 yillik oilaviy tajribaga ega respondentlarda o‘rtacha rang 358,65 ni, 11-15 yilliklarda 356,91 ni, 16-20 yilliklarda 356,91 ni va 21-25 yilliklarda 377,46 ni tashkil etdi ($H=2,172$; $p>0,05$). Tadqiqot natijalaridan ko‘rinadiki, faoliyat natijalarini tahlil qilish, o‘z harakatlarining samaradorligini baholash va xulosalar chiqarish imkoniyatlari turli oilaviy tajribaga ega respondentlarda o‘xshash darajada shakllangan. Bu holat refleksiv nazorat mexanizmlarining oilaviy tajribadan ko‘ra ko‘proq individual va kasbiy omillar ta’sirida rivojlanishini ko‘rsatadi.

Moslashuvchanlik shkalasi bo‘yicha 6-10 yillik oilaviy turmush tajribasiga ega respondentlarda o‘rtacha rang 355,50 ni, 11-15 yilliklarda 376,64 ni, 16-20 yilliklarda 372,94 ni va 21-25 yilliklarda 369,34 ni tashkil etdi ($H=1,147$; $p>0,05$). Tahlillardan ma’lum bo‘lishicha, yangi vaziyatlarga moslashish, faoliyat strategiyalarini qayta tashkil etish va o‘zgaruvchan sharoitlarga mos ravishda harakat qilish qobiliyati barcha guruhlarda nisbatan bir xil darajada namoyon bo‘lgan. Mazkur natija

moslashuvchanlikning shakllanishida oilaviy tajribadan ko‘ra hayotiy va kasbiy tajriba muhimroq o‘rin egallashini ko‘rsatadi.

Modellashtirish shkalasi bo‘yicha 6-10 yillik oilaviy tajribaga ega respondentlarda o‘rtacha rang 153,74 ni, 11-15 yilliklarda 379,54 ni, 16-20 yilliklarda 492,04 ni va 21-25 yilliklarda 353,34 ni tashkil etdi ($H=14,389$; $p<0,01$). Tadqiqot natijalaridan ko‘rinadiki, aynan ushbu ko‘rsatkich oilaviy turmush tajribasi bilan eng yaqqol bog‘liqlikni namoyon etmoqda. Eng yuqori natijalarning 16-20 yillik oilaviy tajribaga ega respondentlarda qayd etilishi ushbu davrda shaxsning turli hayotiy vaziyatlarni oldindan tasavvur qilish, ehtimoliy oqibatlarni prognozlash va faoliyatning muqobil variantlarini ishlab chiqish imkoniyatlari yuqori darajada shakllanganligini ko‘rsatadi. Kuzatishimizcha, aynan ushbu bosqichda oilaviy, kasbiy va ijtimoiy tajribalar integratsiyalashib, shaxsning prognostik kompetensiyalarini rivojlantiradi. Aksincha, 6-10 yillik oilaviy tajribaga ega respondentlarda modellashtirish ko‘rsatkichining ancha past darajada namoyon bo‘lishi ushbu bosqichda oilaviy tizimning hali faol shakllanish jarayonida ekanligi va uzoq muddatli hayotiy strategiyalarni ishlab chiqish tajribasi nisbatan cheklanganligi bilan izohlanishi mumkin.

Irodaviy qat’iyat shkalasi bo‘yicha 6-10 yillik oilaviy tajribaga ega respondentlarda o‘rtacha rang 351,30 ni, 11-15 yilliklarda 363,02 ni, 16-20 yilliklarda 367,60 ni va 21-25 yilliklarda 392,16 ni tashkil etdi ($H=3,904$; $p>0,05$). Tahlillardan ma’lum bo‘lishicha, oilaviy tajriba ortishi bilan irodaviy qat’iyat ko‘rsatkichlarida ma’lum o‘sish tendensiyasi mavjud. Ayniqsa, 21-25 yillik oilaviy turmush tajribasiga ega respondentlarda mazkur ko‘rsatkichning nisbatan yuqoriroq bo‘lishi uzoq muddatli oilaviy

va ijtimoiy mas'uliyatlarning shaxsda qat'iyatlilik, sabr-toqat va maqsadga yo'naltirilganlik sifatlarini mustahkamlashiga xizmat qilganligini ko'rsatadi.

Emotsional barqarorlik shkalasi bo'yicha 6-10 yillik oilaviy tajribaga ega respondentlarda o'rtacha rang 372,79 ni, 11-15 yilliklarda 365,23 ni, 16-20 yilliklarda 365,61 ni va 21-25 yilliklarda 367,33 ni tashkil etdi ($H=0,162$; $p>0,05$). Kuzatishimizcha, hissiy reaksiyalarni nazorat qilish, emotsional muvozanatni saqlash va stressli vaziyatlarda o'zini boshqarish imkoniyatlari turli oilaviy tajribaga ega respondentlarda deyarli bir xil darajada shakllangan. Mazkur holat emotsional barqarorlikning oilaviy tajribadan ko'ra ko'proq individual temperament xususiyatlari va kasbiy faoliyat davomida shakllangan regulyativ resurslar bilan bog'liqligini ko'rsatadi.

Umumiy regulyatsiya indeksi bo'yicha 6-10 yillik oilaviy tajribaga ega respondentlarda o'rtacha rang 349,60 ni, 11-15 yilliklarda 374,11 ni, 16-20 yilliklarda 368,20 ni va 21-25 yilliklarda 480,37 ni tashkil etdi ($H=12,391$; $p<0,01$). Tadqiqot natijalaridan ko'rinadiki, umumiy regulyativ salohiyat oilaviy turmush tajribasi bilan bog'liq ravishda sezilarli dinamikani namoyon etmoqda. Eng yuqori natijalarning 21-25 yillik oilaviy tajribaga ega respondentlarda qayd etilishi uzoq muddatli oilaviy hayot davomida shakllangan mas'uliyat, o'zini nazorat qilish, hayotiy tajriba va ijtimoiy rollarni muvofiqlashtirish ko'nikmalarining umumiy regulyativ tizimga integratsiyalashganligini ko'rsatadi. Oilaviy hayotning ushbu bosqichiga kelib shaxs turli hayotiy vazifalarni bir vaqtning o'zida boshqarish tajribasiga ega bo'ladi, bu esa umumiy o'zini o'zi boshqarish salohiyatining mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

Shaxsning o‘zini o‘zi boshqarish darajasi ko‘rsatkichlarining oilaviy turmush tajribasi bo‘yicha tahlili modellashtirish va umumiy regulyatsiya indeksi komponentlarining oilaviy tajribaga nisbatan eng sezgir ko‘rsatkichlar ekanligini ko‘rsatdi. Oilaviy hayot davomiyligi ortishi bilan shaxsning hayotiy vaziyatlarni prognozlash, uzoq muddatli strategiyalarni ishlab chiqish va ichki resurslarini boshqarish imkoniyatlari rivojlanib borishi kuzatiladi. Rejalashtirish, natijani baholash, moslashuvchanlik, irodaviy qat’iyat va emotsional barqarorlik komponentlari esa turli oilaviy tajribaga ega respondentlarda nisbatan barqaror xarakter kasb etadi. Mazkur holat oilaviy turmush tajribasi shaxsning o‘zini o‘zi boshqarish tizimining ayrim yuqori darajadagi regulyativ funksiyalarini rivojlantiruvchi muhim hayotiy omillardan biri ekanligini tasdiqlaydi.

4.1.5-jadval

Psixologik himoya mexanizmlarining oilaviy turmush tajribasi bo‘yicha farqlari (n=735)

Ko‘rsatkichlar	O‘rtacha ranglar				Statistik qiymat	
	6-10 yillik (N-210)	11-15 yillik (N-191)	16-20 yillik (N-147)	21-25 yillik (N-187)	H	p
Bostirish	372,51	367,59	393,52	343,29	4,790	0,188
Regressiya	366,03	370,94	392,18	348,20	3,612	0,306
Reaksiyalarning shakllanishi	333,57	368,10	405,20	377,32	10,484	0,015*
Ratsionalizatsiya	362,38	371,37	364,33	373,76	0,379	0,945
Kochirish	370,01	365,53	396,74	345,67	4,848	0,183
Inkor etish	364,32	362,89	378,70	368,94	0,553	0,907
Proyeksiya	370,60	367,57	369,79	364,10	0,106	0,991
Kompensatsiya	350,90	363,68	397,70	368,27	4,343	0,227
Sublimatsiya	338,80	358,05	399,05	386,55	9,010	0,029*

Izoh: * - $p<0,05$; ** - $p<0,01$.

Psixologik himoya mexanizmlarining oilaviy turmush tajribasi bo‘yicha farqlariga binoan, oilaviy hayot davomiyligi psixologik himoya tizimining ayrim komponentlariga ta’sir

ko‘rsatishini, aksariyat himoya mexanizmlari esa turli oilaviy tajribaga ega respondentlarda nisbatan barqaror shakllanishini ko‘rsatdi. Tahlillardan ma’lum bo‘lishicha, oilaviy hayot davomida to‘plangan tajriba, o‘zaro munosabatlar tizimi va oilaviy mas’uliyatlarning ortishi ayrim himoya strategiyalarining takomillashishiga xizmat qiladi.

Avvalo, bostirish shkalasi bo‘yicha 6-10 yillik oilaviy turmush tajribasiga ega respondentlarda o‘rtacha rang 372,51 ni, 11-15 yilliklarda 367,59 ni, 16-20 yilliklarda 393,52 ni hamda 21-25 yilliklarda 343,29 ni tashkil etdi ($H=4,790$; $p>0,05$). Kuzatishimizcha, salbiy hissiyotlar va ichki ziddiyatlarni ong darajasidan siqib chiqarish tendensiyasi 16-20 yillik oilaviy tajribaga ega respondentlarda nisbatan yuqoriroq namoyon bo‘lgan. Biroq ushbu tendensiya barcha guruhlarga xos bo‘lgan izchil qonuniyat sifatida shakllanmagan. Bu holat bostirish mexanizmi oilaviy tajribadan ko‘ra shaxsning individual emotsional regulyatsiya uslublari bilan ko‘proq bog‘liqligini ko‘rsatadi. Regressiya shkalasi bo‘yicha 6-10 yillik oilaviy tajribaga ega respondentlarda o‘rtacha rang 366,03 ni, 11-15 yilliklarda 370,94 ni, 16-20 yilliklarda 392,18 ni va 21-25 yilliklarda 348,20 ni tashkil etdi ($H=3,612$; $p>0,05$). Tadqiqot natijalaridan ko‘rinadiki, stressli vaziyatlarda avvalgi va sodda xulq-atvor shakllariga murojaat qilish tendensiyasi 16-20 yillik oilaviy tajribaga ega respondentlarda nisbatan yuqoriroq namoyon bo‘lgan. Shu bilan birga, uzoq muddatli oilaviy tajribaga ega respondentlarda regressiv reaksiyalarning pasayishi hayotiy tajriba ortishi bilan murakkab vaziyatlarni boshqarishning yanada yetuk shakllari rivojlanishini anglatishi mumkin.

Reaksiyalarning shakllanishi shkalasi bo‘yicha 6-10 yillik oilaviy turmush tajribasiga ega respondentlarda o‘rtacha rang 333,57 ni, 11-15 yilliklarda 368,10 ni, 16-20 yilliklarda 405,20 ni va 21-25 yilliklarda 377,32 ni tashkil etdi ($H=10,484$; $p<0,05$). Tadqiqot natijalaridan ko‘rinadiki, aynan ushbu ko‘rsatkich oilaviy turmush tajribasi bilan bog‘liq ravishda sezilarli dinamikani namoyon etmoqda. 16-20 yillik oilaviy tajribaga ega respondentlarda ichki qabul qilinmaydigan hissiyotlar yoki impulslarni ularga qarama-qarshi bo‘lgan xulq-atvor orqali kompensatsiyalash tendensiyasi yuqoriroq shakllangan. Mazkur holat oilaviy va ijtimoiy munosabatlar tizimida uzoq muddat faol ishtirok etish natijasida shaxsning o‘z emotsiyalarini ijtimoiy maqbul shaklda nazorat qilishga intilishi bilan izohlanishi mumkin. Oilaviy munosabatlar davomida yuzaga keladigan turli ziddiyatlar va murosaga kelish zarurati ushbu himoya mexanizmining rivojlanishiga xizmat qilgan bo‘lishi ehtimoldan xoli emas.

Ratsionalizatsiya shkalasi bo‘yicha 6-10 yillik oilaviy tajribaga ega respondentlarda o‘rtacha rang 362,38 ni, 11-15 yilliklarda 371,37 ni, 16-20 yilliklarda 364,33 ni va 21-25 yilliklarda 373,76 ni tashkil etdi ($H=0,379$; $p>0,05$). Kuzatishimizcha, vaziyatlarni mantiqiy asoslash, ichki ziddiyatlarga kognitiv izoh berish va sodir bo‘lgan voqealarni intellektual qayta ishlash tendensiyasi barcha guruhlarda deyarli bir xil shakllangan. Bu holat ratsionalizatsiya mexanizmi oilaviy tajribadan qat’i nazar respondentlarning aksariyatida barqaror psixologik strategiya sifatida mavjudligini ko‘rsatadi. Ko‘chirish shkalasi bo‘yicha 6-10 yillik oilaviy tajribaga ega respondentlarda o‘rtacha rang 370,01 ni, 11-15 yilliklarda 365,53 ni, 16-20

yilliklarda 396,74 ni va 21-25 yilliklarda 345,67 ni tashkil etdi (H=4,848; p>0,05). Tadqiqot natijalaridan ko‘rinadiki, salbiy hissiyotlarni yoki ichki zo‘riqishlarni boshqa obyektlarga yo‘naltirish tendensiyasi 16-20 yillik oilaviy tajribaga ega respondentlarda nisbatan faolroq namoyon bo‘lgan. Biroq mazkur tendensiya umumlashgan qonuniyat sifatida shakllanmagan.

Inkor etish shkalasi bo‘yicha 6-10 yillik oilaviy tajribaga ega respondentlarda o‘rtacha rang 364,32 ni, 11-15 yilliklarda 362,89 ni, 16-20 yilliklarda 378,70 ni va 21-25 yilliklarda 368,94 ni tashkil etdi (H=0,553; p>0,05). Kuzatishimizcha, ayrim noxush voqeliklarni qabul qilmaslik yoki ularning ahamiyatini kamaytirishga intilish tendensiyasi barcha guruhlarda o‘xshash darajada namoyon bo‘ladi. Bu holat inkor etish mexanizmining oilaviy tajribaga sezilarli bog‘liq emasligini ko‘rsatadi. Proyeksiya shkalasi bo‘yicha 6-10 yillik oilaviy tajribaga ega respondentlarda o‘rtacha rang 370,60 ni, 11-15 yilliklarda 367,57 ni, 16-20 yilliklarda 369,79 ni va 21-25 yilliklarda 364,10 ni tashkil etdi (H=0,106; p>0,05). Tahlillardan ma’lum bo‘lishicha, ichki ziddiyatlar va hissiy kechinmalarni tashqi muhitga nisbat berish tendensiyasi barcha guruhlarda deyarli bir xil ko‘rinishda namoyon bo‘lgan. Mazkur natija proyeksiya mexanizmi oilaviy turmush tajribasidan mustaqil ravishda shakllanishini ko‘rsatadi.

Kompensatsiya shkalasi bo‘yicha 6-10 yillik oilaviy tajribaga ega respondentlarda o‘rtacha rang 350,90 ni, 11-15 yilliklarda 363,68 ni, 16-20 yilliklarda 397,70 ni va 21-25 yilliklarda 368,27 ni tashkil etdi (H=4,343; p>0,05). Tadqiqot natijalaridan ko‘rinadiki, mavjud kamchiliklarni boshqa faoliyat yo‘nalishlaridagi muvaffaqiyatlar orqali qoplash tendensiyasi 16-20 yillik oilaviy tajribaga ega respondentlarda nisbatan yuqoriroq

namoyon bo‘lgan. Bu holat mazkur davrda oilaviy va kasbiy muvaffaqiyatlar o‘rtasidagi muvozanatni saqlashga intilish bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Sublimatsiya shkalasi bo‘yicha 6-10 yillik oilaviy turmush tajribasiga ega respondentlarda o‘rtacha rang 338,80 ni, 11-15 yilliklarda 358,05 ni, 16-20 yilliklarda 399,05 ni va 21-25 yilliklarda 386,55 ni tashkil etdi ($H=9,010$; $p<0,05$). Tadqiqot natijalaridan ko‘rinadiki, oilaviy tajriba ortishi bilan sublimatsiya mexanizmining rivojlanish tendensiyasi kuzatilmoqda. Ayniqsa, 16-20 va 21-25 yillik oilaviy tajribaga ega respondentlarda ichki zo‘riqishlar, emotsional energiya va agressiv impulslarni ijtimoiy maqbul faoliyatga yo‘naltirish imkoniyatlari yuqoriroq namoyon bo‘lgan. Bu holat uzoq muddatli oilaviy hayot davomida shaxsning hissiy tajribalarni konstruktiv qayta ishlash, oilaviy va ijtimoiy mas’uliyatlarni uyg‘unlashtirish hamda ichki resurslarni samarali safarbar qilish ko‘nikmalarining rivojlanishi bilan izohlanadi.

Psixologik himoya mexanizmlarining oilaviy turmush tajribasi bo‘yicha tahlili reaksiyalarning shakllanishi va sublimatsiya komponentlari oilaviy hayot davomiyligiga nisbatan eng sezgir ko‘rsatkichlar ekanligini ko‘rsatdi. Ayniqsa, 16-20 yillik oilaviy tajribaga ega respondentlarda konstruktiv va ijtimoiy jihatdan maqbul himoya strategiyalarining nisbatan rivojlanganligi kuzatildi. Bostirish, regressiya, ratsionalizatsiya, ko‘chirish, inkor etish, proyeksiya va kompensatsiya ko‘rsatkichlari esa turli oilaviy tajribaga ega respondentlarda nisbatan barqaror xarakter kasb etdi.

4.1.5-jadval

Stressga bardoshlilik va ijtimoiy adaptatsiyaning oilaviy turmush tajribasi bo‘yicha farqlari (n=735)

Ko‘rsatkichlar	O‘rtacha ranglar	Statistik qiymat

	6-10 yillik (N-210)	11-15 yillik (N-191)	16-20 yillik (N-147)	21-25 yillik (N-187)	H	p
Stressga bardoshlilik va ijtimoiy adaptatsiya	366,68	477,85	358,45	366,94	11,721	0,008**

Izoh: * - p<0,05; ** - p<0,01.

Stressga bardoshlilik va ijtimoiy adaptatsiya ko‘rsatkichlarining oilaviy turmush tajribasi bo‘yicha tahlil natijalari oilaviy hayot davomiyligi rezervga bo‘shatilgan harbiy xizmatchilarning stress omillariga munosabati hamda ijtimoiy muhitga moslashuv imkoniyatlariga muayyan ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatdi. Olingan natijalarga ko‘ra, 6-10 yillik oilaviy turmush tajribasiga ega respondentlarda o‘rtacha rang 366,68 ni, 11-15 yilliklarda 477,85 ni, 16-20 yilliklarda 358,45 ni hamda 21-25 yilliklarda 366,94 ni tashkil etdi (H=11,721; p<0,01).

Eng yuqori ko‘rsatkich 11-15 yillik oilaviy turmush tajribasiga ega respondentlarda kuzatilgan. Mazkur holat oilaviy tizimning nisbatan barqarorlashganligi, turmush o‘rtoqlar o‘rtasidagi munosabatlarning shakllanganligi, oilaviy rollarning aniqlashganligi hamda o‘zaro psixologik qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarining rivojlanganligi bilan izohlanishi mumkin. Oilaviy hayotning ushbu bosqichida shaxs uchun oila stress omillarini yumshatuvchi, hissiy muvozanatni saqlovchi va moslashuv resurslarini qo‘llab-quvvatlovchi muhim ijtimoiy institut sifatida namoyon bo‘ladi. Kuzatishimizcha, aynan ushbu davrda oilaviy tizimning ichki barqarorligi shaxsning tashqi muhitdagi qiyinchiliklarga nisbatan bardoshliligini kuchaytiradi. Shuningdek, oilaviy munosabatlarda shakllangan o‘zaro ishonch, emotsional yaqinlik va mas’uliyat hissi stressli vaziyatlarni konstruktiv qabul qilish hamda ularga moslashish imkoniyatlarini

kengaytiradi. Natijada oilaviy tizim shaxsning muhim psixologik tayanchiga aylanadi.

Tahlillardan ma’lum bo‘lishicha, 6-10 yillik oilaviy tajribaga ega respondentlarda stressga bardoshlilik va ijtimoiy adaptatsiya ko‘rsatkichlari o‘rtacha darajada namoyon bo‘lgan. Mazkur davr oilaviy hayotning faol shakllanish bosqichi bo‘lib, turmush o‘rtoqlarning yangi rollarga moslashuvi, farzandlar tarbiyasi bilan bog‘liq mas’uliyatlarning ortishi va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash vazifalari bilan xarakterlanadi. Shu sababli oilaviy tizim hali to‘liq barqarorlashmagan bo‘lishi mumkin, bu esa stressga bardoshlilik resurslarining maksimal darajada safarbar bo‘lishiga to‘sqinlik qilishi ehtimoldan xoli emas. 16-20 yillik oilaviy turmush tajribasiga ega respondentlarda mazkur ko‘rsatkichning nisbatan pastroq namoyon bo‘lishi alohida e’tiborga loyiqdir. Oilaviy hayotning ushbu bosqichida shaxs bir vaqtning o‘zida kasbiy faoliyatning yuqori mas’uliyatli davri, farzandlarning voyaga yetishi bilan bog‘liq vazifalar, oilaviy rollarning murakkablashuvi va ijtimoiy majburiyatlarning ortishi bilan to‘qnashadi. Natijada stress manbalari soni ko‘payishi va psixologik yuklama ortishi mumkin. Mazkur omillar stressga bardoshlilik va adaptatsiya resurslarining ma’lum darajada kamayishiga olib kelishi ehtimoldan xoli emas.

Shuningdek, 21-25 yillik oilaviy tajribaga ega respondentlarda ko‘rsatkichning qayta tiklanishi va nisbatan yuqorilash tendensiyasi kuzatiladi. Bu holat uzoq muddatli oilaviy tajriba davomida shakllangan hayotiy donishmandlik, oilaviy tizimning mustahkamlanishi hamda hayotiy vazifalarning qayta taqsimlanishi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Ushbu bosqichda shaxs oilaviy va ijtimoiy rollarni samarali uyg‘unlashtirish

bo‘yicha yetarli tajribaga ega bo‘ladi, bu esa stress omillarini boshqarish imkoniyatlarini kengaytiradi. Mazkur natijalar avvalgi empirik tahlillar bilan ham mantiqiy uyg‘unlik hosil qiladi. Jumladan, 11-15 yillik oilaviy turmush tajribasiga ega respondentlarda umumiy adaptatsiya ko‘rsatkichlarining yuqoriroq darajada namoyon bo‘lishi, mazkur guruhda stressga bardoshlilik va ijtimoiy adaptatsiyaning ham yuqori bo‘lishini tushuntiradi. Shuningdek, 16-20 yillik oilaviy tajribaga ega respondentlarda begonalashuv ko‘rsatkichlarining eng past darajada namoyon bo‘lishi bilan bir qatorda stressga bardoshlilikning pasayishi shuni anglatadiki, ijtimoiy integratsiya va stressni boshqarish har doim ham bir xil yo‘nalishda rivojlanmaydi.

Stressga bardoshlilik va ijtimoiy adaptatsiya ko‘rsatkichlarining oilaviy turmush tajribasi bo‘yicha tahlili oilaviy hayot davomiyligi reintegratsiya jarayonining muhim determinantlaridan biri ekanligini ko‘rsatdi. Ayniqsa, oilaviy hayotning o‘rta bosqichi hisoblangan 11-15 yillik davr shaxsning stressga bardoshlilik va moslashuv resurslari eng yuqori darajada safarbarlashgan bosqich sifatida namoyon bo‘ldi. Oilaviy tajribaning ortishi esa stressga bardoshlilik va adaptatsiya jarayonlariga chiziqli emas, balki murakkab siklik xarakterda ta’sir ko‘rsatishi aniqlandi. Bu holat oilaviy hayotning turli bosqichlari rezervga bo‘shatilgan harbiy xizmatchilarning psixologik barqarorligi va fuqaroviy hayotga integratsiyalashuv imkoniyatlariga turlicha ta’sir qilishini anglatadi.

4.2-§. Harbiy xizmatchilarning reintegratsiyasi indekslarining psixosotsial korrelyatlari

Harbiy xizmatni yakunlab, rezervga bo‘shatilgan harbiy xizmatchilarning fuqarolik hayotiga qayta integratsiyalashuvi murakkab va ko‘p omilli psixologik jarayon hisoblanadi. Mazkur jarayonning muvaffaqiyati reintegratsiya indekslari orqali baholanadi hamda ularning shakllanishi turli psixologik va ijtimoiy omillar bilan uzviy bog‘liqdir. Shu nuqtai nazardan, reintegratsiya indekslarining psixosotsial korrelyatlarini aniqlash nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ham ega bo‘lib, rezervga bo‘shatilgan harbiy xizmatchilarni ijtimoiy moslashtirish va psixologik qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirishga xizmat qiladi. Psixosotsial korrelyatlar deganda reintegratsiya darajasi bilan statistik va psixologik jihatdan bog‘liq bo‘lgan individual, oilaviy, kasbiy, emotsional va ijtimoiy omillar majmui tushuniladi. Xorijiy tadqiqotlarda reintegratsiyaning muvaffaqiyatli kechishini belgilovchi asosiy korrelyatlar sifatida psixologik moslashuvchanlik, o‘zini o‘zi boshqarish, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, oilaviy barqarorlik, kasbiy bandlik, identiklik transformatsiyasi hamda stressga bardoshlilik ko‘rsatkichlari ajratib ko‘rsatiladi.

4.2.1-jadval

Adaptivlik va adaptatsiya darajasining o‘zaro aloqadorlik qonuniyatlari (n=735)

Ko‘rsatkichlar	Ishonchlilik darajasi	Xulq-atvorni boshqarish	Kommunikativ potensial	Axloqiy me’yoriylik	Shaxsning moslashuvchanlik potensiali
Kommunikativlik	-0,061	-0,035	0,145**	0,052	0,060
O‘ziga ishonch	0,033	-0,176**	-0,050	0,051	-0,176**
Emotsionallik	0,062	-0,026	-0,082*	-0,050	0,049
Nostalgiya	-0,045	-0,058	0,107**	-0,024	0,036
Begonalashuv	-0,079*	-0,016	-0,019	-0,019	0,115**
Adaptatsiya	-0,077*	-0,056	-0,010	0,047	0,034

Izoh: * - $p<0,05$; ** - $p<0,01$.

Adaptivlik va adaptatsiya darajasi ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorliklarni aniqlash maqsadida amalga oshirilgan korrelyatsion tahlil natijalari rezervga bo‘shatilgan harbiy xizmatchilarning reintegratsiya jarayonida ayrim adaptiv resurslar va moslashuv komponentlari o‘rtasida mazmunan muhim bog‘lanishlar mavjudligini ko‘rsatdi. Tahlillardan ma’lum bo‘lishicha, adaptivlikning barcha komponentlari adaptatsiya ko‘rsatkichlari bilan bir xil darajada bog‘lanmagan bo‘lib, ayrim shkalalar o‘rtasida ijobiy, ayrimlari o‘rtasida esa salbiy yo‘nalishdagi aloqalar kuzatilgan.

Avvalo, kommunikativlik ko‘rsatkichi bilan kommunikativ potensial o‘rtasida ijobiy bog‘lanish aniqlangan ($r=0,145$; $p<0,01$). Tadqiqot natijalaridan ko‘rinadiki, shaxsning kommunikativ resurslari rivojlangan sari uning yangi ijtimoiy muhitda samarali muloqot qilish, ijtimoiy aloqalarni shakllantirish va jamiyat bilan integratsiyalashuv imkoniyatlari ham ortib boradi. Mazkur natija kommunikativ potensial reintegratsiya jarayonining muhim psixologik resurslaridan biri ekanligini tasdiqlaydi. Shuningdek, nostalgiya va kommunikativ potensial o‘rtasida ham ijobiy bog‘lanish kuzatilgan ($r=0,107$; $p<0,01$). Kuzatishimizcha, o‘tmish tajribalariga murojaat qilish va avvalgi hayot bosqichlarini emotsional qayta baholash tendensiyasi kuchaygan sari shaxsning kommunikativ resurslari ham ma’lum darajada faollashadi. Bu holat nostalgik kechinmalar ijtimoiy aloqalarni qayta tiklash va o‘z hayotiy tajribasini boshqalar bilan bo‘lishish ehtiyojini kuchaytirishi bilan izohlanishi mumkin.

O‘ziga ishonch ko‘rsatkichi bilan xulq-atvorni boshqarish o‘rtasida salbiy bog‘lanish aniqlangan ($r=-0,176$; $p<0,01$). Xuddi

shuningdek, o‘ziga ishonch va shaxsning moslashuvchanlik potensiali o‘rtasida ham salbiy bog‘lanish qayd etilgan (r=-0,176; p<0,01). Tahlillardan ma’lum bo‘lishicha, o‘ziga ishonch darajasi ortgan sari xulq-atvorni qat’iy nazorat qilish ehtiyoji ma’lum darajada kamayadi. Mazkur holat o‘z imkoniyatlariga ishongan shaxslar tashqi va ichki nazorat mexanizmlariga kamroq tayanishi bilan izohlanishi mumkin. Shu bilan birga, o‘ziga ishonchning ortishi moslashuv jarayonida erkinroq va mustaqilroq harakat qilish tendensiyasini kuchaytirishi ehtimoldan xoli emas. Emotsionallik ko‘rsatkichi bilan kommunikativ potensial o‘rtasida salbiy bog‘lanish aniqlangan (r=-0,082; p<0,05). Tadqiqot natijalaridan ko‘rinadiki, hissiy reaksiyalarning kuchayishi ayrim hollarda muloqot jarayonining samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Emotsional ta’sirchanlik ortgan sari kommunikativ vaziyatlarda hissiy nazoratning pasayishi kuzatiladi, bu esa ijtimoiy munosabatlar samaradorligiga ma’lum darajada ta’sir etishi mumkin.

Begonalashuv ko‘rsatkichi bilan ishonchlilik darajasi o‘rtasida salbiy bog‘lanish aniqlangan (r=-0,079; p<0,05). Tahlillardan ma’lum bo‘lishicha, shaxs o‘zini ijtimoiy muhitdan uzoqlashgan va ajralgan holda his qilgan sari uning o‘ziga va atrofdagilarga bo‘lgan ishonchi pasayib boradi. Mazkur natija begonalashuv hissining kuchayishi ijtimoiy munosabatlar tizimidagi psixologik barqarorlikka salbiy ta’sir ko‘rsatishini anglatadi. Biroq begonalashuv ko‘rsatkichi bilan shaxsning moslashuvchanlik potensiali o‘rtasida ijobiy bog‘lanish aniqlangan (r=0,115; p<0,01). Kuzatishimizcha, ayrim hollarda ijtimoiy masofalanish yoki ichki yakkalanish hissi shaxsning ichki resurslarini safarbar etishiga va mustaqil moslashuv

strategiyalarini shakllantirishiga olib kelishi mumkin. Bunday vaziyatlarda shaxs tashqi yordamdan ko‘ra o‘z ichki imkoniyatlariga tayanishga moyillashadi.

Umumiy adaptatsiya ko‘rsatkichi bilan ishonchlilik darajasi o‘rtasida salbiy bog‘lanish qayd etilgan ($r=-0,077$; $p<0,05$). Tahlillardan ma’lum bo‘lishicha, adaptatsiya jarayonining faollashuvi ayrim hollarda mavjud qarashlar va stereotiplarning qayta ko‘rib chiqilishi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Moslashuv jarayonida shaxs yangi ijtimoiy talablar va qadriyatlarni qabul qilishga intiladi, bu esa avval shakllangan ishonch tizimining transformatsiyasiga olib kelishi ehtimoldan xoli emas. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, xulq-atvorni boshqarish, axloqiy me’yoriylik va shaxsning moslashuvchanlik potensiali ko‘rsatkichlarining aksariyat adaptatsiya komponentlari bilan sezilarli bog‘lanishlar hosil qilmaganligi ham muhim ilmiy ahamiyatga ega. Bu holat adaptivlikning mazkur komponentlari rezervga bo‘shatilgan harbiy xizmatchilarda nisbatan mustaqil psixologik tizim sifatida faoliyat yuritishini ko‘rsatadi. Kommunikativ potensial kommunikativlik va nostalgiya bilan, shaxsning moslashuvchanlik potensiali esa o‘ziga ishonch hamda begonalashuv bilan chambarchas bog‘liq ekanligi aniqlandi. Olingan natijalar rezervga bo‘shatilgan harbiy xizmatchilar reintegratsiyasida kommunikativ resurslar, ichki regulyatsiya tizimi va shaxsning ijtimoiy identifikatsiyasi moslashuv jarayonining muhim determinantlari sifatida namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi.

4.2.2-jadval

Adaptivlik va shaxsning o‘zini o‘zi boshqarish darajasining o‘zaro aloqadorlik qonuniyatlari (n=735)

Ko‘rsatkichlar	Ishonchlilik darajasi	Xulq-atvorni boshqarish	Kommunikativ potensial	Axloqiy me’yoriylik	Shaxsning moslashuvchanlik potensiali
Rejalashtirish	0,008	-0,030	-0,046	-0,026	0,125**
Natijani baholash	0,007	-0,007	-0,016	0,011	0,110**
Moslashuvchanlik	0,007	0,122**	0,166**	0,059	0,118**
Modellashtirish	-0,015	0,030*	0,140*	0,048	0,134**
Irodaviy qat’iyat	-0,002	-0,039	-0,006	0,114**	0,115**
Emotsional barqarorlik	0,112**	0,115**	-0,030	-0,039	0,121**
Umumiy regulyatsiya indeksi	-,008	-,013	0,015	0,041	0,147**

Izoh: * - $p<0,05$; ** - $p<0,01$.

Adaptivlik va shaxsning o‘zini o‘zi boshqarish darajasi ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorliklarni aniqlash maqsadida amalga oshirilgan korrelyatsion tahlil natijalari rezervga bo‘shatilgan harbiy xizmatchilar reintegratsiyasi jarayonida adaptiv resurslar va o‘zini o‘zi boshqarish mexanizmlari o‘rtasida muayyan qonuniyatlar mavjudligini ko‘rsatdi. Tahlillardan ma’lum bo‘lishicha, ayniqsa shaxsning moslashuvchanlik potensiali o‘zini o‘zi boshqarish tizimining deyarli barcha komponentlari bilan bog‘langan bo‘lib, mazkur ko‘rsatkich adaptivlik va o‘zini o‘zi boshqarish tizimlarini integratsiyalovchi markaziy omillardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Avvalo, rejalashtirish ko‘rsatkichi bilan shaxsning moslashuvchanlik potensiali o‘rtasida ijobiy bog‘lanish aniqlangan ($r=0,125$; $p<0,01$). Tadqiqot natijalaridan ko‘rinadiki, shaxsning moslashuv imkoniyatlari ortgan sari uning faoliyatni oldindan tashkil etish, maqsadlarni aniq belgilash va kelajak istiqbollarini rejalashtirish qobiliyati ham kuchayib boradi. Kuzatishimizcha, yangi ijtimoiy muhitga muvaffaqiyatli

moslashayotgan shaxslar o‘z hayotiy strategiyalarini aniqroq rejalashtirishga moyil bo‘ladilar.

Natijani baholash ko‘rsatkichi bilan shaxsning moslashuvchanlik potensiali o‘rtasida ham ijobiy bog‘lanish kuzatilgan ($r=0,110$; $p<0,01$). Tahlillardan ma’lum bo‘lishicha, adaptiv resurslari yuqori bo‘lgan respondentlar o‘z faoliyati natijalarini tahlil qilish, xatolarni aniqlash va kelgusidagi faoliyatni takomillashtirish imkoniyatlariga ham ko‘proq ega bo‘ladilar. Bu holat moslashuvchanlik va refleksiv nazorat o‘rtasidagi funksional bog‘liqlikni aks ettiradi. Moslashuvchanlik ko‘rsatkichi bilan adaptivlikning bir nechta komponentlari o‘rtasida ijobiy bog‘lanishlar aniqlangan. Jumladan, xulq-atvorni boshqarish bilan ($r=0,122$; $p<0,01$), kommunikativ potensial bilan ($r=0,166$; $p<0,01$) hamda shaxsning moslashuvchanlik potensiali bilan ($r=0,118$; $p<0,01$) bog‘liqlik qayd etilgan.

Tadqiqot natijalaridan ko‘rinadiki, shaxsning vaziyatlarga mos ravishda faoliyat strategiyalarini o‘zgartirish qobiliyati uning adaptiv resurslari bilan bevosita bog‘liqdir. Ayniqsa, kommunikativ potensial bilan aniqlangan bog‘lanish mazkur jadvaldagi eng yuqori korrelyatsion ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi. Bu holat yangi ijtimoiy vaziyatlarga moslashishda muloqot resurslari muhim o‘rin egallashini anglatadi. Shaxsning kommunikativ imkoniyatlari rivojlangan sari u o‘z faoliyatini yangi sharoitlarga moslashtirish imkoniyatiga ham ega bo‘ladi. Modellashtirish ko‘rsatkichi bilan xulq-atvorni boshqarish ($r=0,030$; $p<0,05$), kommunikativ potensial ($r=0,140$; $p<0,05$) hamda shaxsning moslashuvchanlik potensiali ($r=0,134$; $p<0,01$) o‘rtasida ijobiy bog‘lanishlar aniqlangan.

Kuzatishimizcha, vaziyatlarni oldindan tasavvur qilish, ehtimoliy oqibatlarni prognozlash va harakatlar algoritmini ishlab chiqish imkoniyatlari adaptiv resurslar rivojlangan sari kuchayadi. Ayniqsa, kommunikativ potensial bilan aniqlangan bog‘liqlik shuni ko‘rsatadiki, shaxslararo munosabatlarni to‘g‘ri baholash va ijtimoiy vaziyatlarni tushunish qobiliyati prognostik tafakkurning rivojlanishiga xizmat qiladi. Irodaviy qat’iyat ko‘rsatkichi bilan axloqiy me’yoriylik ($r=0,114$; $p<0,01$) hamda shaxsning moslashuvchanlik potensiali ($r=0,115$; $p<0,01$) o‘rtasida ijobiy bog‘lanish qayd etilgan. Tahlillardan ma’lum bo‘lishicha, ijtimoiy me’yorlarga rioya qilishga moyillik kuchaygan sari maqsadga yo‘naltirilganlik va qiyinchiliklarni yengib o‘tish qobiliyati ham ortib boradi. Mazkur natija normativ qadriyatlar tizimi va irodaviy boshqaruv mexanizmlari o‘rtasidagi ichki uyg‘unlikni aks ettiradi. Shuningdek, moslashuvchanlik potensiali bilan aniqlangan bog‘liqlik shaxsning adaptiv resurslari ortgan sari uning qat’iyatlilik va ichki nazorat imkoniyatlari ham rivojlanishini ko‘rsatadi. Reintegratsiya jarayonida aynan ushbu mexanizm shaxsning yangi vaziyatlarga moslashuvini ta’minlovchi muhim omillardan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

Emotsional barqarorlik ko‘rsatkichi bilan ishonchlilik darajasi ($r=0,112$; $p<0,01$), xulq-atvorni boshqarish ($r=0,115$; $p<0,01$) hamda shaxsning moslashuvchanlik potensiali ($r=0,121$; $p<0,01$) o‘rtasida ijobiy bog‘lanishlar aniqlangan. Tadqiqot natijalaridan ko‘rinadiki, emotsional muvozanatni saqlash imkoniyatlari ortgan sari shaxsning o‘ziga bo‘lgan ishonchi, xulq-atvorni nazorat qilish qobiliyati va umumiy moslashuv resurslari ham mustahkamlanadi. Ayniqsa, stressli vaziyatlarda hissiy

reaksiyalarni boshqarish qobiliyati reintegratsiya jarayonining muvaffaqiyatli kechishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Umumiy regulyatsiya indeksi bilan faqat shaxsning moslashuvchanlik potensiali o‘rtasida ijobiy bog‘lanish aniqlangan (r=0,147; p<0,01). Mazkur bog‘lanish jadvaldagi eng muhim natijalardan biri hisoblanadi. Chunki o‘zini o‘zi boshqarish tizimining integral ko‘rsatkichi adaptivlikning integral komponenti bilan bog‘lanmoqda. Bu holat o‘zini o‘zi boshqarish va moslashuvchanlik tizimlari bir-birini to‘ldiruvchi hamda o‘zaro qo‘llab-quvvatlovchi psixologik mexanizmlar ekanligini ko‘rsatadi. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, ishonchlilik darajasi, xulq-atvorni boshqarish, kommunikativ potensial va axloqiy me’yoriylik ko‘rsatkichlarining ayrim o‘zini o‘zi boshqarish komponentlari bilan bog‘lanishlari zaif yoki umuman aniqlanmagan. Bu holat mazkur komponentlar nisbatan mustaqil funksional tizimlar sifatida faoliyat yuritishini ko‘rsatadi. Rejalashtirish, natijani baholash, moslashuvchanlik, modellashtirish, irodaviy qat’iyat, emotsional barqarorlik va umumiy regulyatsiya darajasining ortishi shaxsning moslashuv imkoniyatlarini kengaytiruvchi muhim omillar sifatida namoyon bo‘ladi.

4.3.3-jadval

Adaptivlik va shaxsning psixologik himoya mexanizmlari o‘zaro aloqadorlik qonuniyatlari (n=735)

Ko‘rsatkichlar	Ishonchlilik darajasi	Xulq-atvorni boshqarish	Kommunikativ potensial	Axloqiy me’yoriylik	Shaxsning moslashuvchanlik potensiali
Bostirish	-0,016	0,167**	0,015	0,001	0,007
Regressiya	0,006	0,045	0,040	0,064	-0,008
Reaksiyalarning shakllanishi	0,051	-0,057	0,027	0,073*	-0,046
Ratsionalizatsiya	0,040	-0,056	-0,022	0,001	0,021
Ko‘chirish	-0,019	0,187**	-0,026	-0,010	-0,047

Inkor etish	0,002	0,035	-0,089*	-0,029	0,027
Proyeksiya	-0,031	0,063	-0,059	-0,073*	0,026
Kompensatsiya	0,028	-0,027	-0,071	-0,027	-0,038
Sublimatsiya	0,020	-0,158**	0,007	0,022	0,039

Izoh: * - $p<0,05$; ** - $p<0,01$.

Adaptivlik va shaxsning psixologik himoya mexanizmlari o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorliklarni aniqlash maqsadida amalga oshirilgan korrelyatsion tahlil natijalari rezervga bo‘shatilgan harbiy xizmatchilarning reintegratsiya jarayonida himoya mexanizmlari va adaptiv resurslar o‘rtasida murakkab funksional bog‘lanishlar mavjudligini ko‘rsatdi. Tahlillardan ma’lum bo‘lishicha, psixologik himoya mexanizmlarining barchasi adaptivlik komponentlari bilan bir xil darajada bog‘lanmagan. Ayrim himoya strategiyalari moslashuv jarayonini qo‘llab-quvvatlovchi omil sifatida namoyon bo‘lsa, ayrimlari adaptiv imkoniyatlarning pasayishi bilan bog‘liq tendensiyalarni aks ettiradi.

Avvalo, bostirish mexanizmi bilan xulq-atvorni boshqarish ko‘rsatkichi o‘rtasida ijobiy bog‘lanish aniqlangan ($r=0,167$; $p<0,01$). Tadqiqot natijalaridan ko‘rinadiki, hissiy jihatdan noxush kechinmalarni ong darajasidan siqib chiqarishga moyillik ortgan sari xatti-harakatlarni nazorat qilish imkoniyatlari ham kuchayib boradi. Rezervga bo‘shatilgan harbiy xizmatchilar uchun emotsiyalarni vaqtinchalik cheklash va vaziyatga ratsional yondashish xulq-atvorni boshqarishning muhim mexanizmlaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur natija harbiy faoliyat davomida shakllangan emotsional intizom va hissiy o‘zini nazorat qilish ko‘nikmalarining fuqaroviy hayotda ham saqlanib qolishini aks ettiradi.

Ko‘chirish mexanizmi bilan xulq-atvorni boshqarish o‘rtasida ham ijobiy bog‘lanish aniqlangan (r=0,187; p<0,01). Tahlillardan ma’lum bo‘lishicha, ichki zo‘riqishlarni yoki salbiy hissiyotlarni boshqa obyektlarga yo‘naltirish tendensiyasi kuchaygan sari xulq-atvorni nazorat qilish imkoniyatlari ham ortib boradi. Mazkur mexanizm ayrim hollarda destruktiv hissiy reaksiyalarning bevosita namoyon bo‘lishining oldini olib, shaxsga ijtimoiy maqbul xatti-harakatlarni saqlab qolish imkonini beradi. Shu sababli ko‘chirish mexanizmi xulq-atvor regulyatsiyasi bilan bog‘liq muhim himoya strategiyalaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Reaksiyalarning shakllanishi mexanizmi bilan axloqiy me’yoriylik o‘rtasida ijobiy bog‘lanish aniqlangan (r=0,073; p<0,05). Tadqiqot natijalaridan ko‘rinadiki, ichki qabul qilinmaydigan impulslarni ularga qarama-qarshi bo‘lgan xulq-atvor orqali nazorat qilish tendensiyasi kuchaygan sari normativ qadriyatlarga rioya qilish darajasi ham ortib boradi. Mazkur natija shaxsning ichki ziddiyatlarini ijtimoiy maqbul xatti-harakatlar orqali boshqarishga intilishi bilan izohlanadi. Reintegratsiya jarayonida ushbu mexanizm ijtimoiy qoidalar va axloqiy me’yorlarga moslashuvni qo‘llab-quvvatlovchi omillardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Inkor etish mexanizmi bilan kommunikativ potensial o‘rtasida salbiy bog‘lanish aniqlangan (r=-0,089; p<0,05). Tahlillardan ma’lum bo‘lishicha, voqelikning ayrim jihatlarini qabul qilmaslik yoki ularning ahamiyatini kamaytirishga moyillik kuchaygan sari muloqot resurslari va kommunikativ imkoniyatlar pasayib boradi. Inkor etish strategiyasining faollashuvi shaxsning ijtimoiy munosabatlarda real vaziyatni to‘liq qabul qilishiga to‘sqinlik qilishi mumkin.

Natijada muloqot samaradorligi va ijtimoiy aloqalarni shakllantirish imkoniyatlari cheklanadi.

Proyeksiya mexanizmi bilan axloqiy me'yoriylik o'rtasida salbiy bog'lanish qayd etilgan ($r=-0,073$; $p<0,05$). Tadqiqot natijalaridan ko'rinadiki, ichki ziddiyatlar va salbiy hissiyotlarni tashqi muhitga nisbat berish tendensiyasi ortgan sari normativ qadriyatlarga rioya qilish darajasi pasayib boradi. Mazkur holat mas'uliyatni tashqi omillarga yuklash tendensiyasining kuchayishi bilan izohlanishi mumkin. Shaxs ichki kechinmalarining sabablarini tashqi muhitda izlay boshlagan sari o'z xatti-harakatlari uchun javobgarlik hissi ma'lum darajada susayadi. Natijada normativ regulyatsiya mexanizmlarining samaradorligi pasayishi mumkin.

Sublimatsiya mexanizmi bilan xulq-atvorni boshqarish o'rtasida salbiy bog'lanish aniqlangan ($r=-0,158$; $p<0,01$). Tahlillardan ma'lum bo'lishicha, ichki zo'riqishlarni ijtimoiy maqbul faoliyatga yo'naltirish tendensiyasi kuchaygan sari qat'iy xulq-atvor nazorati zarurati kamayib boradi. Sublimatsiya mexanizmidan faol foydalanadigan respondentlar salbiy hissiyotlarni konstruktiv faoliyat orqali qayta ishlaganliklari sababli qo'shimcha nazorat mexanizmlariga kamroq ehtiyoj sezadilar. Mazkur natija sublimatsiyaning adaptiv va konstruktiv himoya strategiyasi sifatidagi mohiyatini tasdiqlaydi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, regressiya, ratsionalizatsiya va kompensatsiya mexanizmlarining adaptivlik ko'rsatkichlari bilan sezilarli bog'lanishlar hosil qilmaganligi ham muhim ilmiy ahamiyatga ega. Bu holat mazkur himoya strategiyalari rezervga bo'shatilgan harbiy xizmatchilarning adaptiv resurslari bilan bevosita bog'liq bo'lmagan, nisbatan mustaqil psixologik

mexanizmlar sifatida faoliyat yuritishini ko‘rsatadi. Bundan tashqari, ishonchlilik darajasi va shaxsning moslashuvchanlik potensiali ko‘rsatkichlarining aksariyat himoya mexanizmlari bilan sezilarli korrelyatsiyalar hosil qilmaganligi ushbu adaptiv komponentlarning nisbatan barqaror va mustaqil psixologik tuzilmalar ekanligini anglatadi. Xulq-atvorni boshqarish ko‘rsatkichi bostirish va ko‘chirish bilan ijobiy, sublimatsiya bilan esa salbiy bog‘langanligi aniqlandi. Axloqiy me’yoriylik reaksiyalarning shakllanishi bilan ijobiy, proyeksiya bilan esa salbiy aloqadorlikni namoyon etdi. Kommunikativ potensial esa inkor etish mexanizmi bilan teskari bog‘liqlik kasb etganligi bilan tavsiflandi.

4.2.4-jadval

Adaptivlik, stressga bardoshlilik va ijtimoiy adaptatsiya o‘zaro aloqadorlik qonuniyatlari (n=735)

Ko‘rsatkichlar	Ishonchlilik darajasi	Xulq-atvorni boshqarish	Kommunikativ potensial	Axloqiy me’yoriylik	Shaxsning moslashuvchanlik potensiali
Stressga bardoshlilik va ijtimoiy adaptatsiya	0,166**	0,112**	0,110**	0,114**	0,123**

Izoh: * - p<0,05; ** - p<0,01.

Adaptivlik va stressga bardoshlilik hamda ijtimoiy adaptatsiya ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorliklarni aniqlash maqsadida amalga oshirilgan korrelyatsion tahlil natijalari rezervga bo‘shatilgan harbiy xizmatchilar reintegratsiyasi jarayonida adaptiv resurslar va stress omillariga qarshi psixologik barqarorlik o‘rtasida uzviy bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatdi. Tahlillardan ma’lum bo‘lishicha, stressga bardoshlilik va ijtimoiy adaptatsiya adaptivlikning barcha komponentlari bilan ijobiy yo‘nalishda bog‘langan bo‘lib, mazkur natija adaptiv imkoniyatlarning ortishi shaxsning yangi ijtimoiy

muhitga muvaffaqiyatli integratsiyalashuvi va stress omillariga nisbatan barqarorligini kuchaytirishini tasdiqlaydi.

Avvalo, stressga bardoshlilik va ijtimoiy adaptatsiya koʻrsatkichi bilan ishonchlilik darajasi oʻrtasida ijobiy bogʻlanish aniqlangan ($r=0,166$; $p<0,01$). Tadqiqot natijalaridan koʻrinadiki, mazkur bogʻlanish jadvaldagi eng yuqori korrelyatsion koʻrsatkich hisoblanadi. Oʻziga, atrofdagilarga va mavjud ijtimoiy munosabatlar tizimiga nisbatan ishonch hissi ortgan sari shaxsning stress omillariga bardoshlilik darajasi ham yuqorilab boradi. Mazkur natija ishonch hissi shaxsning psixologik barqarorligini taʼminlovchi tayanch omillardan biri ekanligini koʻrsatadi. Reintegratsiya jarayonida yangi ijtimoiy muhitga nisbatan ijobiy munosabat va atrofdagilar bilan konstruktiv aloqalar oʻrnatish imkoniyati stressli vaziyatlarning salbiy taʼsirini kamaytirishga xizmat qiladi.

Xulq-atvorni boshqarish koʻrsatkichi bilan stressga bardoshlilik va ijtimoiy adaptatsiya oʻrtasida ham ijobiy bogʻlanish aniqlangan ($r=0,112$; $p<0,01$). Tahlillardan maʼlum boʻlishicha, oʻz xatti-harakatlarini nazorat qilish, impulslarni boshqarish va vaziyat talablariga mos ravishda faoliyat yuritish imkoniyatlari rivojlangan sari shaxsning stressli vaziyatlarga moslashuvi ham samaraliroq kechadi. Xulq-atvorni boshqarish mexanizmlarining rivojlanganligi rezervga boʻshatilgan harbiy xizmatchilarga fuqaroviy hayotda uchraydigan yangi talab va vaziyatlarga moslashishda qoʻshimcha psixologik resurs vazifasini bajaradi. Natijada shaxs stress omillarini nazorat qilinadigan vazifa sifatida qabul qilishga moyillashadi.

Kommunikativ potensial bilan stressga bardoshlilik va ijtimoiy adaptatsiya oʻrtasida ijobiy bogʻlanish qayd etilgan

(r=0,110; p<0,01). Tadqiqot natijalaridan ko‘rinadiki, muloqot qilish, ijtimoiy aloqalarni shakllantirish va qo‘llab-quvvatlovchi munosabatlar tizimini yaratish imkoniyatlari ortgan sari stressga bardoshlilik darajasi ham ortib boradi. Mazkur natija ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimi va kommunikativ resurslarning reintegratsiya jarayonidagi ahamiyatini tasdiqlaydi. Shaxsning atrofdagilar bilan samarali muloqot qilishi unga emotsional tayanch, axborotiy yordam va psixologik qo‘llab-quvvatlash manbalarini yaratib beradi. Bu esa stressli vaziyatlarning salbiy ta’sirini yumshatadi.

Axloqiy me’yoriylik ko‘rsatkichi bilan stressga bardoshlilik va ijtimoiy adaptatsiya o‘rtasida ijobiy bog‘lanish aniqlangan (r=0,114; p<0,01). Tahlillardan ma’lum bo‘lishicha, ijtimoiy me’yorlar, qadriyatlar va axloqiy qoidalarga rioya qilish tendensiyasi kuchaygan sari shaxsning moslashuv imkoniyatlari ham ortib boradi. Normativ qadriyatlar tizimining shakllanganligi shaxsga murakkab vaziyatlarda xulq-atvorning maqbul strategiyalarini tanlash imkonini beradi. Mazkur omil noaniqlik darajasini kamaytirib, stress omillariga nisbatan psixologik barqarorlikni mustahkamlaydi.

Shaxsning moslashuvchanlik potensiali bilan stressga bardoshlilik va ijtimoiy adaptatsiya o‘rtasida ham ijobiy bog‘lanish aniqlangan (r=0,123; p<0,01). Tadqiqot natijalaridan ko‘rinadiki, moslashuv resurslari rivojlangan sari shaxsning stressli vaziyatlarga bardosh berish va yangi ijtimoiy muhit talablariga moslashish imkoniyatlari ham kuchayib boradi. Mazkur bog‘lanish adaptivlikning integral komponenti bilan stressga bardoshlilikning integral ko‘rsatkichi o‘rtasidagi qonuniy aloqani aks ettiradi. Yuqori moslashuvchanlik potensialiga ega

respondentlar yangi ijtimoiy vaziyatlarni tahdid emas, balki rivojlanish imkoniyati sifatida qabul qilishga moyil bo‘ladilar. Natijada ularda stressga nisbatan bardoshlilik va ijtimoiy integratsiyalashuv darajasi yuqoriroq shakllanadi.

Jadvaldagi barcha korrelyatsion ko‘rsatkichlarning ijobiy yo‘nalishda ekanligi alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi. Bu holat adaptivlik tizimining barcha komponentlari stressga bardoshlilik va ijtimoiy adaptatsiyani qo‘llab-quvvatlovchi resurs sifatida faoliyat yuritishini ko‘rsatadi. Boshqacha aytganda, adaptivlikning biror komponentidagi rivojlanish stressga bardoshlilik va ijtimoiy moslashuv imkoniyatlarining ham ortishi bilan bog‘liqdir.

Umuman olganda, korrelyatsion tahlil natijalari stressga bardoshlilik va ijtimoiy adaptatsiya rezervga bo‘shatilgan harbiy xizmatchilarning adaptiv resurslari bilan uzviy bog‘langanligini ko‘rsatdi. Ayniqsa, ishonchlilik darajasi, shaxsning moslashuvchanlik potensiali, axloqiy me’yoriylik, kommunikativ potensial va xulq-atvorni boshqarish ko‘rsatkichlari stress omillariga qarshi psixologik barqarorlikning muhim determinantlari sifatida namoyon bo‘ldi.

4.2.5-jadval

Adaptatsiya darajasi hamda shaxsning o‘zini o‘zi boshqarish darajasining o‘zaro aloqadorlik qonuniyatlari (n=735)

Ko‘rsatkichlar	Kommunikativlik	O‘ziga ishonch	Emotsionallik	Nostalgiya	Begonalashuv	Adaptatsiya
Rejalashtirish	0,017	-0,018	-0,023	-0,009	-0,016**	0,129**
Natijani baholash	0,032	0,016	-0,006	-0,155**	0,141**	0,148**
Moslashuvchanlik	-0,030	0,111**	-0,031	0,008	,022	0,126**
Modellashtirish	0,018	-0,020	-0,003	-0,124**	,011	0,027
Irodaviy qat’iyat	0,008	0,019	-0,151**	0,038	-,015	0,132**
Emotsional barqarorlik	0,118**	-0,012	-0,136**	0,017	,003	0,035
Umumiy regulyatsiya indeksi	0,030	-0,014	-,043	0,015	,029	0,050

Izoh: * - $p<0,05$; ** - $p<0,01$.

Adaptatsiya darajasi va shaxsning o‘zini o‘zi boshqarish ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorliklarni aniqlash maqsadida amalga oshirilgan korrelyatsion tahlil natijalari rezervga bo‘shatilgan harbiy xizmatchilarning reintegratsiya jarayonida o‘zini o‘zi boshqarish mexanizmlari moslashuv jarayonining muhim ichki regulyatorlari sifatida namoyon bo‘lishini ko‘rsatdi. Tahlillardan ma’lum bo‘lishicha, ayniqsa adaptatsiya, begonalashuv, nostalgiya va o‘ziga ishonch komponentlari o‘zini o‘zi boshqarish tizimining ayrim tarkibiy qismlari bilan mazmunan ahamiyatli bog‘lanishlarni hosil qilgan.

Avvalo, adaptatsiya ko‘rsatkichi bilan rejalashtirish o‘rtasida ijobiy bog‘lanish aniqlangan ($r=0,129$; $p<0,01$). Tadqiqot natijalaridan ko‘rinadiki, faoliyat maqsadlarini oldindan belgilash, hayotiy istiqbollarni rejalashtirish va kelajakdagi vazifalarni tizimli tashkil etish qobiliyati ortgan sari yangi ijtimoiy muhitga moslashuv imkoniyatlari ham kuchayib boradi. Kuzatishimizcha, reintegratsiya jarayonida aniq maqsadlarga ega bo‘lgan va o‘z hayotiy strategiyasini ongli ravishda rejalashtira oladigan shaxslar fuqaroviy hayot talablariga tezroq moslashishga moyil bo‘ladilar. Rejalashtirish noaniqlikni kamaytiruvchi va adaptatsiya jarayonini boshqaruvchi muhim psixologik mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi. Natijani baholash ko‘rsatkichi bilan adaptatsiya o‘rtasida ham ijobiy bog‘lanish aniqlangan ($r=0,148$; $p<0,01$). Mazkur ko‘rsatkich jadvaldagi adaptatsiya bilan bog‘liq eng yuqori korrelyatsiyalardan biri hisoblanadi. Tahlillardan ma’lum bo‘lishicha, o‘z faoliyatining natijalarini tahlil qilish, xatolarni aniqlash va faoliyatni qayta tashkil etish qobiliyati rivojlangan sari moslashuv jarayoni ham samaraliroq kechadi. Reintegratsiya

davomida yangi tajribalarni baholash va ulardan xulosa chiqarish imkoniyati shaxsning adaptiv salohiyatini oshiradi.

Shuningdek, natijani baholash bilan begonalashuv o‘rtasida ijobiy bog‘lanish aniqlangan ($r=0,141$; $p<0,01$). O‘z faoliyatini muntazam tahlil qilishga moyillik ayrim hollarda shaxsning o‘z holatini va ijtimoiy pozitsiyasini chuqurroq anglashiga olib keladi. Bunday refleksiv jarayonlar ba’zan o‘zini atrofdagilardan farqli yoki ajralgan holda his qilish tendensiyasini ham kuchaytirishi mumkin. Bundan tashqari, natijani baholash bilan nostalgiya o‘rtasida salbiy bog‘lanish qayd etilgan ($r=-0,155$; $p<0,01$). Tadqiqot natijalaridan ko‘rinadiki, faoliyat natijalarini tahlil qilish va hozirgi vaziyatga e’tibor qaratish qobiliyati ortgan sari o‘tmishga hissiy bog‘liqlik darajasi pasayib boradi. Bu holat refleksiv tahlilning shaxsni hozirgi vaziyatga yo‘naltiruvchi funksiyasi bilan izohlanadi.

Moslashuvchanlik ko‘rsatkichi bilan o‘ziga ishonch o‘rtasida ijobiy bog‘lanish aniqlangan ($r=0,111$; $p<0,01$). Tahlillardan ma’lum bo‘lishicha, yangi vaziyatlarga mos ravishda faoliyat strategiyalarini o‘zgartirish qobiliyati ortgan sari shaxsning o‘z imkoniyatlariga bo‘lgan ishonchi ham mustahkamlanadi. Turli vaziyatlarda samarali harakat qila olish tajribasi shaxsda kompetentlik hissini shakllantiradi. Natijada u o‘z kuchiga ko‘proq ishonadi va yangi hayotiy vazifalarni bajarishga tayyor bo‘ladi.

Shuningdek, moslashuvchanlik bilan adaptatsiya o‘rtasida ham ijobiy bog‘lanish aniqlangan ($r=0,126$; $p<0,01$). Mazkur natija moslashuvchanlik adaptatsiyaning eng muhim ichki determinantlaridan biri ekanligini ko‘rsatadi. Vaziyatga qarab xatti-harakatlar strategiyasini o‘zgartirish imkoniyati fuqaroviy

hayot talablariga moslashuvni sezilarli darajada yengillashtiradi. Modellashtirish koʻrsatkichi bilan nostalgiya oʻrtasida salbiy bogʻlanish aniqlangan (r=-0,124; p<0,01). Tadqiqot natijalaridan koʻrinadiki, vaziyatlarni oldindan tasavvur qilish, ehtimoliy oqibatlarni prognozlash va kelajakka yoʻnaltirilgan tafakkur rivojlangan sari oʻtmishga emotsional bogʻliqlik darajasi kamayib boradi. Mazkur holat kelajakka yoʻnaltirilgan fikrlash usuli nostalgik kechinmalar intensivligini pasaytirishini koʻrsatadi. Shaxs oʻz eʼtiborini oʻtmishdan koʻra kelajakdagi vazifalar va istiqbollarga qaratishga moyillashadi.

Irodaviy qatʼiyat koʻrsatkichi bilan adaptatsiya oʻrtasida ijobiy bogʻlanish aniqlangan (r=0,132; p<0,01). Tahlillardan maʼlum boʻlishicha, maqsadga erishish yoʻlida qatʼiylik va qiyinchiliklarni yengib oʻtish qobiliyati rivojlangan sari moslashuv imkoniyatlari ham ortib boradi. Reintegratsiya jarayoni koʻplab psixologik va ijtimoiy qiyinchiliklarni oʻz ichiga oladi. Shu sababli qatʼiyatlilik va ichki iroda resurslari moslashuvning muvaffaqiyatli kechishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Bundan tashqari, irodaviy qatʼiyat bilan emotsionallik oʻrtasida salbiy bogʻlanish aniqlangan (r=-0,151; p<0,01). Tadqiqot natijalaridan koʻrinadiki, qatʼiyatlilik darajasi ortgan sari hissiy reaksiyalarning intensivligi pasayib boradi. Bu holat irodaviy nazoratning emotsional boshqaruv bilan chambarchas bogʻliqligini koʻrsatadi. Emotsional barqarorlik koʻrsatkichi bilan kommunikativlik oʻrtasida ijobiy bogʻlanish aniqlangan (r=0,118; p<0,01). Tahlillardan maʼlum boʻlishicha, hissiy muvozanatni saqlash qobiliyati rivojlangan sari muloqot samaradorligi ham ortib boradi. Emotsional jihatdan barqaror shaxslar ijtimoiy

munosabatlarda konstruktivroq va ochiqroq faoliyat yuritishga moyil bo‘ladilar.

Shuningdek, emotsional barqarorlik bilan emotsionallik o‘rtasida salbiy bog‘lanish qayd etilgan (r=-0,136; p<0,01). Mazkur natija metodik jihatdan mantiqiy qonuniyatni aks ettiradi. Emotsional barqarorlik ortgan sari hissiy reaksiyalarning keskinligi va ta’sirchanligi pasayadi. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, umumiy regulyatsiya indeksi adaptatsiya darajasining aksariyat komponentlari bilan sezilarli bog‘lanish hosil qilmagan. Bu holat umumiy regulyativ tizimning integral ko‘rsatkichi moslashuv jarayonida bevosita emas, balki ayrim tarkibiy komponentlar orqali ta’sir ko‘rsatishini anglatadi. Rejalashtirish, natijani baholash, moslashuvchanlik va irodaviy qat’iyat adaptatsiyaning muhim regulyativ determinantlari sifatida namoyon bo‘ldi. Nostalgiya esa natijani baholash va modellashtirish bilan teskari bog‘lanish hosil qilganligi sababli o‘tmishga yo‘naltirilganlik va kelajakka yo‘naltirilgan regulyativ mexanizmlar o‘rtasidagi ichki qarama-qarshilikni aks ettirdi.

4.2.6-jadval

Adaptatsiya darajasi hamda shaxsning psixologik himoya mexanizmlari o‘zaro aloqadorlik qonuniyatlari (n=735)

Ko‘rsatkichlar	Kommunikativlik	O‘ziga ishonch	Emotsionallik	Nostalgiya	Begonalashuv	Adaptatsiya
Bostirish	0,017	-0,026	-0,058	-0,082*	-0,004	0,007
Regressiya	-0,013	-0,021	-0,002	-0,030	-0,001	0,022
Reaksiyalarning shakllanishi	-0,018	0,002	0,038	0,004	0,005	0,022
Ratsionalizatsiya	-0,032	0,013	0,004	0,039	-0,013	0,023
Ko‘chirish	0,006	0,004	-0,031	0,024	-0,020	0,020
Inkor etish	-0,054	0,017	-0,031	-0,036	0,033	0,074*
Proyeksiya	0,019	0,025	0,003	-0,092*	0,018	0,003
Kompensatsiya	-0,007	0,025	0,070	0,001	-0,024	-0,006
Sublimatsiya	0,001	0,049	0,086*	0,120**	-0,041	-0,020

Izoh: * - p<0,05; ** - p<0,01.

Adaptatsiya darajasi va shaxsning psixologik himoya mexanizmlari o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorliklarni aniqlash maqsadida amalga oshirilgan korrelyatsion tahlil natijalari rezervga bo‘shatilgan harbiy xizmatchilar reintegratsiyasi jarayonida psixologik himoya tizimi moslashuv jarayonining ayrim komponentlari bilan selektiv tarzda bog‘lanishini ko‘rsatdi. Himoya mexanizmlarining aksariyati adaptatsiya ko‘rsatkichlari bilan kuchli bog‘lanish hosil qilmagan bo‘lsa-da, ayrim mexanizmlar nostalgiya, emotsionallik va umumiy adaptatsiya bilan mazmunan ahamiyatli aloqalarni namoyon etgan.

Avvalo, bostirish mexanizmi bilan nostalgiya o‘rtasida salbiy bog‘lanish aniqlangan ($r=-0,082$; $p<0,05$). Tadqiqot natijalaridan ko‘rinadiki, noxush hissiyotlar va ichki kechinmalarni ong darajasidan siqib chiqarishga moyillik ortgan sari o‘tmishga emotsional bog‘liqlik darajasi pasayib boradi. Kuzatishimizcha, bostirish mexanizmi faol bo‘lgan respondentlar avvalgi tajribalarni chuqur hissiy qayta ishlashdan ko‘ra ularni psixologik jihatdan cheklash yoki nazorat qilishga moyil bo‘ladilar. Natijada o‘tmish bilan bog‘liq nostalgik kechinmalarning intensivligi pasayadi. Mazkur natija nostalgiya va emotsional qayta ishlash jarayonlari o‘rtasidagi ichki bog‘liqlikni aks ettiradi.

Proyeksiya mexanizmi bilan nostalgiya o‘rtasida ham salbiy bog‘lanish aniqlangan ($r=-0,092$; $p<0,05$). Tahlillardan ma’lum bo‘lishicha, ichki ziddiyatlar va hissiy kechinmalarni tashqi omillarga nisbat berishga moyillik kuchaygan sari o‘tmishga murojaat qilish tendensiyasi pasayadi. Mazkur holat ichki kechinmalarni retrospektiv tahlil qilish o‘rniga ularning sabablarini tashqi muhitda izlash tendensiyasi bilan izohlanishi

mumkin. Bunday vaziyatda shaxs e'tibori o'tmish tajribalaridan ko'ra hozirgi tashqi vaziyatlarga ko'proq yo'naltiriladi.

Inkor etish mexanizmi bilan adaptatsiya o'rtasida ijobiy bog'lanish aniqlangan ($r=0,074$; $p<0,05$). Tadqiqot natijalaridan ko'rinadiki, yangi vaziyatlarga moslashuv jarayoni ayrim hollarda noxush tajribalar yoki qiyinchiliklarning ahamiyatini pasaytirish orqali qo'llab-quvvatlanishi mumkin. Reintegratsiyaning dastlabki bosqichlarida ayrim muammolarni vaqtinchalik inkor etish yoki ularning emotsional ahamiyatini kamaytirish shaxsga yangi sharoitga moslashishda psixologik himoya vazifasini bajarishi mumkin. Biroq mazkur mexanizm uzoq muddatli konstruktiv strategiya sifatida emas, balki qisqa muddatli himoya vositasi sifatida namoyon bo'lishi ehtimoldan xoli emas.

Sublimatsiya mexanizmi bilan emotsionallik o'rtasida ijobiy bog'lanish qayd etilgan ($r=0,086$; $p<0,05$). Tahlillardan ma'lum bo'lishicha, hissiy energiyani ijtimoiy maqbul faoliyatga yo'naltirish tendensiyasi ortgan sari emotsional reaksiyalar ham faollashib boradi. Sublimatsiya emotsiyalarni bostirish emas, balki ularni konstruktiv faoliyatga transformatsiya qilish mexanizmi ekanligini ko'rsatadi. Emotsional tajribalarning mavjudligi sublimatsiyaning psixologik manbai bo'lib xizmat qiladi. Shuning uchun hissiy jihatdan faol shaxslar ichki energiyani ijodiy, kasbiy yoki ijtimoiy faoliyat orqali qayta ishlashga ko'proq moyil bo'ladilar.

Eng e'tiborga molik natijalardan biri sublimatsiya va nostalgiya o'rtasida aniqlangan ijobiy bog'lanishdir ($r=0,120$; $p<0,01$). Tadqiqot natijalaridan ko'rinadiki, o'tmish tajribalariga emotsional murojaat qilish kuchaygan sari sublimatsiya mexanizmi ham faollashadi. Nostalgik kechinmalar ko'pincha

o‘tmishdagi tajribalarni qayta baholash, hayot mazmunini izlash va mavjud tajribalarni yangi faoliyatga yo‘naltirish bilan kechadi. Natijada o‘tmish bilan bog‘liq emotsional tajribalar konstruktiv faoliyat uchun ichki resurs vazifasini bajarishi mumkin. Ayniqsa, harbiy xizmat tajribasini yangi kasbiy yoki ijtimoiy faoliyatga transformatsiya qilish jarayonida sublimatsiya muhim mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, regressiya, reaksiyalarning shakllanishi, ratsionalizatsiya, ko‘chirish va kompensatsiya mexanizmlarining adaptatsiya ko‘rsatkichlari bilan sezilarli bog‘lanishlar hosil qilmaganligi ham muhim ilmiy mazmunga ega. Bu holat mazkur himoya mexanizmlarining reintegratsiya jarayonidagi moslashuv ko‘rsatkichlariga bevosita emas, balki bilvosita yoki situativ tarzda ta’sir ko‘rsatishini anglatadi. Bundan tashqari, kommunikativlik, o‘ziga ishonch va begonalashuv ko‘rsatkichlarining aksariyat himoya mexanizmlari bilan sezilarli korrelyatsiyalar hosil qilmaganligi ushbu adaptatsion komponentlarning nisbatan mustaqil psixologik tizim sifatida faoliyat yuritishini ko‘rsatadi. Nostalgiya bostirish va proyeksiya bilan teskari, sublimatsiya bilan esa to‘g‘ri bog‘langanligi aniqlandi. Adaptatsiya inkor etish bilan ijobiy aloqadorlikni namoyon etdi, emotsionallik esa sublimatsiya bilan bog‘liq ekanligi kuzatildi. Mazkur qonuniyatlar rezervga bo‘shatilgan harbiy xizmatchilar reintegratsiyasi jarayonida himoya mexanizmlari moslashuvning barcha komponentlariga emas, balki ayrim hissiy va identifikatsion jarayonlarga nisbatan ko‘proq ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi.

4.2.7-jadval

Adaptatsiya darajasi hamda stressga bardoshlilik va ijtimoiy adaptatsiya o‘zaro aloqadorlik qonuniyatlari (n=735)

Ko‘rsatkichlar	Kommunikativlik	O‘ziga ishonch	Emotsionallik	Nostalgiya	Begonalashuv	Adaptatsiya
Stressga bardoshlilik va ijtimoiy adaptatsiya	0,077*	0,081*	-0,087*	0,073*	-0,121**	0,224**

Izoh: * - p<0,05; ** - p<0,01.

Adaptatsiya darajasi hamda stressga bardoshlilik va ijtimoiy adaptatsiya ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorliklarni aniqlash maqsadida amalga oshirilgan korrelyatsion tahlil natijalari rezervga bo‘shatilgan harbiy xizmatchilar reintegratsiyasi jarayonida moslashuv darajasi va stress omillariga qarshi psixologik barqarorlik o‘rtasida uzviy bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatdi. Tahlillardan ma’lum bo‘lishicha, stressga bardoshlilik va ijtimoiy adaptatsiya adaptatsiya tizimining barcha komponentlari bilan turli yo‘nalishlarda bog‘langan bo‘lib, ayniqsa umumiy adaptatsiya va begonalashuv ko‘rsatkichlari bilan nisbatan yaqqol aloqadorlikni namoyon etgan.

Avvalo, stressga bardoshlilik va ijtimoiy adaptatsiya ko‘rsatkichi bilan adaptatsiya o‘rtasida ijobiy bog‘lanish aniqlangan (r=0,224; p<0,01). Tadqiqot natijalaridan ko‘rinadiki, ushbu bog‘lanish jadvaldagi eng yuqori korrelyatsion ko‘rsatkich hisoblanadi. Yangi ijtimoiy muhitga muvaffaqiyatli moslashgan respondentlarda stress omillariga bardosh berish va ijtimoiy munosabatlar tizimiga integratsiyalashuv imkoniyatlari ham yuqoriroq shakllangan. Mazkur natija adaptatsiya va stressga bardoshlilik yagona moslashuv tizimining o‘zaro bog‘langan komponentlari ekanligini ko‘rsatadi. Shaxs yangi hayot sharoitlariga moslashgan sari noaniqlik, xavotir va psixologik

zo‘riqishlar ta’siriga nisbatan ham barqarorroq bo‘lib boradi. Natijada reintegratsiya jarayoni yanada muvaffaqiyatli kechadi.

Begonalashuv ko‘rsatkichi bilan stressga bardoshlilik va ijtimoiy adaptatsiya o‘rtasida salbiy bog‘lanish aniqlangan ($r=-0,121$; $p<0,01$). Shaxsning o‘zini jamiyatdan uzoqlashgan, ajralgan yoki ijtimoiy tizimga mansubligini pasaygan holda his qilishi kuchaygan sari stressga bardoshlilik darajasi pasayib boradi. Begonalashuv hissining ortishi ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash manbalarining qisqarishiga, muloqot faolligining pasayishiga hamda ijtimoiy tayanchlarning zaiflashishiga olib keladi. Natijada shaxs stressli vaziyatlarga qarshi kurashishda zarur bo‘lgan psixologik va ijtimoiy resurslardan to‘liq foydalana olmaydi. Mazkur bog‘lanish reintegratsiya jarayonida ijtimoiy integratsiyaning ahamiyatini yaqqol namoyon etadi.

Kommunikativlik ko‘rsatkichi bilan stressga bardoshlilik va ijtimoiy adaptatsiya o‘rtasida ijobiy bog‘lanish aniqlangan ($r=0,077$; $p<0,05$). Tadqiqot natijalaridan ko‘rinadiki, muloqotga ochiqlik va shaxslararo aloqalarni samarali tashkil etish imkoniyatlari ortgan sari stress omillariga bardosh berish darajasi ham ortib boradi. Kommunikativ resurslar reintegratsiya jarayonida muhim himoya omili vazifasini bajarishini ko‘rsatadi. Muloqot qilish imkoniyatlari keng bo‘lgan shaxslar emotsional qo‘llab-quvvatlash, axborot almashinuvi va ijtimoiy yordam manbalaridan samaraliroq foydalanadilar. Bu esa stressli vaziyatlarning salbiy ta’sirini kamaytiradi.

O‘ziga ishonch ko‘rsatkichi bilan stressga bardoshlilik va ijtimoiy adaptatsiya o‘rtasida ham ijobiy bog‘lanish qayd etilgan ($r=0,081$; $p<0,05$). Tahlillardan ma’lum bo‘lishicha, o‘z imkoniyatlariga bo‘lgan ishonch kuchaygan sari shaxsning stress

omillarini boshqarish va yangi vaziyatlarga moslashish imkoniyatlari ham ortadi. O‘ziga ishongan respondentlar murakkab vaziyatlarni tahdid sifatida emas, balki hal etilishi mumkin bo‘lgan vazifa sifatida qabul qilishga moyil bo‘ladilar. Natijada ularda psixologik barqarorlik va moslashuv resurslari yuqoriroq shakllanadi.

Emotsionallik ko‘rsatkichi bilan stressga bardoshlilik va ijtimoiy adaptatsiya o‘rtasida salbiy bog‘lanish aniqlangan ($r=-0,087$; $p<0,05$). Tadqiqot natijalaridan ko‘rinadiki, hissiy reaksiyalarning intensivligi ortgan sari stress omillariga bardoshlilik darajasi pasayib boradi. Emotsional ta’sirchanlikning yuqori darajasi stressli vaziyatlarning subyektiv og‘irroq qabul qilinishiga olib kelishini ko‘rsatadi. Hissiy reaksiyalar kuchli bo‘lgan respondentlarda zo‘riqish holatlari uzoqroq davom etishi va moslashuv jarayonini murakkablashtirishi mumkin.

Nostalgiya ko‘rsatkichi bilan stressga bardoshlilik va ijtimoiy adaptatsiya o‘rtasida ijobiy bog‘lanish aniqlangan ($r=0,073$; $p<0,05$). Tahlillardan ma’lum bo‘lishicha, o‘tmish tajribalariga murojaat qilish va avvalgi hayot bosqichlarini emotsional qayta baholash tendensiyasi ma’lum darajada stressga bardoshlilik bilan ham bog‘liq. Nostalgik kechinmalar ayrim hollarda shaxs uchun psixologik tayanch vazifasini bajaradi. Harbiy xizmat davomida shakllangan tajribalar, qadriyatlar va muvaffaqiyatli hayotiy epizodlarni esga olish murakkab vaziyatlarda ichki resurslarni safarbar etishga yordam berishi mumkin. Shu sababli nostalgiya faqat o‘tmishga bog‘liqlik emas, balki ayrim hollarda psixologik barqarorlik manbai sifatida ham namoyon bo‘ladi. Umumiy adaptatsiya bilan aniqlangan ijobiy bog‘lanish hamda begonalashuv bilan qayd etilgan salbiy bog‘lanish reintegratsiya

jarayonining markaziy psixologik qonuniyatlarini aks ettiradi. Kommunikativlik va o‘ziga ishonch stressga bardoshlilikni qo‘llab-quvvatlovchi resurslar sifatida namoyon bo‘lgan bo‘lsa, emotsionallik uning pasayishi bilan bog‘liq omil sifatida qayd etildi. Nostalgiya esa o‘tmish tajribalarining psixologik tayanch sifatidagi funksiyasini aks ettirdi.

4.2.8-jadval

Shaxsning o‘zini o‘zi boshqarish hamda psixologik himoya mexanizmlarining o‘zaro aloqadorlik qonuniyatlari (n=735)

Ko‘rsatkichlar	Rejalashtirish	Natijani baholash	Moslashuvchanlik	Modellashtirish	Umumiy regulyatsiya indeksi
Bostirish	-0,022	0,025	0,048	0,032	0,016
Regressiya	0,039	-0,017	0,048	-0,007	0,043
Reaksiyalarning shakllanishi	0,063	0,093*	0,098**	0,082*	0,105**
Ratsionalizatsiya	0,007	0,050	0,032	0,074*	0,043
Ko‘chirish	0,013	0,035	0,010	0,000	0,025
Inkor etish	0,045	0,058	0,089*	0,058	0,079*
Proyeksiya	0,061	0,059	-0,024	0,045	0,031
Kompensatsiya	0,023	0,058	-0,018	0,012	0,037
Sublimatsiya	0,087*	0,040	0,002	0,019	0,058

Izoh: * - $p<0,05$; ** - $p<0,01$.

Shaxsning o‘zini o‘zi boshqarish hamda psixologik himoya mexanizmlari o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorliklarni aniqlash maqsadida amalga oshirilgan korrelyatsion tahlil natijalari rezervga bo‘shatilgan harbiy xizmatchilarda psixologik himoya tizimi va o‘zini o‘zi boshqarish mexanizmlari o‘rtasida muayyan funksional uyg‘unlik mavjudligini ko‘rsatdi. Psixologik himoya mexanizmlarining aksariyati o‘zini o‘zi boshqarish ko‘rsatkichlari bilan kuchli bog‘lanish hosil qilmagan bo‘lsa-da, reaksiyalarning shakllanishi, inkor etish, ratsionalizatsiya va sublimatsiya kabi himoya mexanizmlari ayrim regulyativ komponentlar bilan mazmunan ahamiyatli aloqalarni namoyon etgan.

Avvalo, reaksiyalarning shakllanishi mexanizmi bilan natijani baholash o‘rtasida ijobiy bog‘lanish aniqlangan ($r=0,093$; $p<0,05$). Ichki qabul qilinmaydigan impulslarni ularga qarama-qarshi bo‘lgan xulq-atvor orqali nazorat qilish tendensiyasi kuchaygan sari shaxsning o‘z faoliyati natijalarini tahlil qilish va baholash imkoniyatlari ham ortib boradi. Kuzatishimizcha, mazkur himoya mexanizmidan foydalanadigan respondentlar o‘z xatti-harakatlarini nazorat qilishga va ularning oqibatlarini baholashga ko‘proq e’tibor qaratadilar. Bu esa refleksiv nazorat jarayonlarining faollashishiga xizmat qiladi.

Shuningdek, reaksiyalarning shakllanishi bilan moslashuvchanlik o‘rtasida ijobiy bog‘lanish qayd etilgan ($r=0,098$; $p<0,01$). Ichki ziddiyatlarni boshqarish imkoniyatlari rivojlangan sari vaziyat talablariga mos ravishda faoliyat strategiyalarini o‘zgartirish qobiliyati ham ortib boradi. Mazkur natija shaxsning ichki hissiy jarayonlarini nazorat qilish qobiliyati tashqi faoliyatni boshqarish imkoniyatlari bilan uzviy bog‘langanligini ko‘rsatadi. Reintegratsiya jarayonida bu holat yangi ijtimoiy sharoitlarga moslashishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, reaksiyalarning shakllanishi bilan modellashtirish o‘rtasida ham ijobiy bog‘lanish aniqlangan ($r=0,082$; $p<0,05$). Ichki impulslarni nazorat qilishga moyillik ortgan sari shaxsning vaziyatlarni oldindan tasavvur qilish va ehtimoliy oqibatlarni prognozlash imkoniyatlari ham rivojlanadi.

Eng muhim natijalardan biri reaksiyalarning shakllanishi va umumiy regulyatsiya indeksi o‘rtasida aniqlangan ijobiy bog‘lanishdir ($r=0,105$; $p<0,01$). Tadqiqot natijalaridan ko‘rinadiki, mazkur himoya mexanizmi o‘zini o‘zi boshqarish tizimining integral ko‘rsatkichi bilan bog‘langan yagona

mexanizmlardan biri hisoblanadi. Bu holat reaksiyalarning shakllanishi psixologik himoya va o‘zini o‘zi boshqarish tizimlari o‘rtasidagi muhim bog‘lovchi mexanizm ekanligini ko‘rsatadi.

Ratsionalizatsiya mexanizmi bilan modellashtirish o‘rtasida ijobiy bog‘lanish aniqlangan ($r=0,074$; $p<0,05$). Tahlillardan ma’lum bo‘lishicha, sodir bo‘layotgan voqealarga mantiqiy izoh berishga moyillik kuchaygan sari vaziyatlarni oldindan baholash va prognoz qilish imkoniyatlari ham ortib boradi. Ratsionalizatsiya jarayonida shaxs voqealarning sabab-oqibat munosabatlarini tushuntirishga intiladi. Bu esa vaziyatlarni modellashtirish va ehtimoliy natijalarni oldindan ko‘ra bilish ko‘nikmalarining rivojlanishiga xizmat qiladi.

Inkor etish mexanizmi bilan moslashuvchanlik o‘rtasida ijobiy bog‘lanish aniqlangan ($r=0,089$; $p<0,05$). Ayrim salbiy tajribalar yoki qiyinchiliklarning ahamiyatini vaqtinchalik kamaytirish tendensiyasi kuchaygan sari vaziyatga moslashish imkoniyatlari ham ortib boradi. Mazkur natija inkor etish mexanizmining qisqa muddatli moslashuv funksiyasini aks ettiradi. Reintegratsiyaning ayrim bosqichlarida muammolarning emotsional ta’sirini pasaytirish shaxsga yangi sharoitlarga moslashish uchun zarur vaqt va resurslarni safarbar etish imkonini berishi mumkin.

Shuningdek, inkor etish bilan umumiy regulyatsiya indeksi o‘rtasida ham ijobiy bog‘lanish aniqlangan ($r=0,079$; $p<0,05$). Mazkur himoya mexanizmi o‘zini o‘zi boshqarishning integral tizimi bilan ham ma’lum darajada bog‘liqdir. Bu holat inkor etish ayrim vaziyatlarda umumiy regulyativ resurslarni qo‘llab-quvvatlovchi yordamchi mexanizm sifatida namoyon bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi. Sublimatsiya mexanizmi bilan

rejalashtirish o‘rtasida ijobiy bog‘lanish aniqlangan (r=0,087; p<0,05). Ichki hissiy energiyani ijtimoiy maqbul faoliyatga yo‘naltirish tendensiyasi ortgan sari kelajak faoliyatini rejalashtirish qobiliyati ham rivojlanadi. Sublimatsiya mexanizmidan foydalanadigan respondentlar o‘z ichki resurslarini maqsadli faoliyatga yo‘naltirishga moyil bo‘ladilar. Natijada ular faoliyatni tashkil etish va istiqbollarni rejalashtirishga ko‘proq e’tibor qaratadilar.

Bostirish, regressiya, ko‘chirish, proyeksiya va kompensatsiya mexanizmlarining o‘zini o‘zi boshqarish ko‘rsatkichlari bilan sezilarli bog‘lanishlar hosil qilmaganligi ham muhim ilmiy mazmunga ega. Bu holat mazkur himoya strategiyalarining regulyativ tizim bilan bevosita emas, balki boshqa psixologik mexanizmlar orqali bog‘lanishini ko‘rsatadi. Bundan tashqari, irodaviy qat’iyat va emotsional barqarorlik ko‘rsatkichlari ushbu jadvalda tahlil qilinmagan bo‘lsa-da, mavjud natijalar shuni ko‘rsatadiki, o‘zini o‘zi boshqarish tizimining aynan refleksiv va kognitiv komponentlari psixologik himoya mexanizmlari bilan ko‘proq bog‘langan. Reaksiyalarning shakllanishi natijani baholash, moslashuvchanlik, modellashtirish va umumiy regulyatsiya bilan; inkor etish moslashuvchanlik va umumiy regulyatsiya bilan; ratsionalizatsiya modellashtirish bilan; sublimatsiya esa rejalashtirish bilan bog‘langanligi aniqlandi.

4.3-§. Harbiy xizmatchilarni rezervga bo‘shatishning ijtimoiy-psixologik indekslarini modellashtirishning takomillashtirilgan komponentlar tahlili

Harbiy xizmatdan rezervga bo‘shatilish kasbiy faoliyatning oddiy almashinuvi emas, balki shaxsning ijtimoiy-psixologik maqomi, kasbiy identikligi, qadriyatlar tizimi, motivatsion yo‘nalganligi hamda hayotiy strategiyalarining tubdan qayta tashkil topishi bilan kechadigan murakkab transformatsion jarayon hisoblanadi. Ushbu bosqichda avval shakllangan kasbiy rollarning o‘zgarishi, yangi ijtimoiy maqomni egallash, fuqarolik muhitiga moslashish hamda yangi ijtimoiy munosabatlar tizimiga integratsiyalashuv zarurati shaxsning psixologik barqarorligi, emotsional holati va ijtimoiy funksionalligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois rezervga o‘tish jarayonining psixologik qonuniyatlarini aniqlash hamda uning determinantlarini kompleks tahlil qilish zamonaviy harbiy va ijtimoiy psixologiyaning dolzarb ilmiy yo‘nalishlaridan biri sanaladi. Harbiy xizmat sharoitining rigidligi, yopiqligi va o‘ziga xos submadaniyati ofitser shaxsida o‘ziga xos dinamik tizimni shakllantiradi. Shu sababli, uning vatan oldidagi burchini bajarib bo‘lgandan keyin fuqarolik jamiyatiga “og‘riqsiz” va inqirozsiz o‘tishini (transitsiyasini) ta’minlash maxsus konseptual model va ilmiy-metodologik yondashuvlarni talab etadi. Ushbu muammoning yechimi sifatida shakllantirilgan ijtimoiy-psixologik model ofitserning rezervga tayyorlik darajasini va unga zarur bo‘ladigan korreksion yordam ko‘lamini o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lgan beshta fundamental indeks orqali tizimli ravishda baholaydi.

G‘arb ilmiy maktablarida asosiy e’tibor posttravmatik stress buzilishi, psixologik reabilitatsiya hamda professional readaptatsiya muammolariga qaratilgan bo‘lsa, MDH mamlakatlarida rezervga o‘tishning ijtimoiy moslashuv mexanizmlari, kasbiy identiklik transformatsiyasi va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash omillari chuqurroq o‘rganilgan. Milliy harbiy psixologiya doirasida esa ushbu muammo asosan an’anaviy ijtimoiy moslashuv konsepsiyalari asosida talqin etilib, adaptatsiya jarayoniga ta’sir ko‘rsatuvchi etnopsixologik determinantlarning integrallashgan modeli yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Ayniqsa, o‘zbek jamiyatiga xos bo‘lgan mahalla institutining ijtimoiy-psixologik resurslari, oilaviy qadriyatlar tizimi, qarindoshlik aloqalari, milliy mentalitet hamda jamoaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarining rezervga bo‘shatilgan harbiy xizmatchilar moslashuviga ko‘rsatadigan ta’sirini zamonaviy matematik-statistik modellashtirish asosida o‘rganishga oid ilmiy tadqiqotlar yetarli emas. Mazkur holat etnopsixologik determinantlarni adaptatsiya jarayonining muhim prediktorlari sifatida ilmiy asoslash hamda ularni kompleks psixologik modellashtirish tizimiga integratsiyalash zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Shu bilan birga, harbiy xizmatdan rezervga o‘tish davrida yuzaga keladigan ijtimoiy-psixologik bo‘shliqni bartaraf etishga yo‘naltirilgan, resotsializatsiya va demobilizatsiya adaptatsiyasini yagona tizim sifatida izohlovchi ilmiy-konseptual model hali shakllanmagan. Natijada rezervga bo‘shatilgan shaxslarda kuzatiladigan kognitiv dissonans, ijtimoiy maqom almashinuvi bilan bog‘liq emotsional zo‘riqish, kasbiy identiklikning qayta shakllanishi hamda yangi ijtimoiy rollarni o‘zlashtirishdagi

qiyinchiliklar ko‘plab psixologik va ijtimoiy muammolarni yuzaga keltirmoqda. Ushbu holat mazkur jarayonni tizimli, kompleks va fanlararo yondashuv asosida tadqiq etish zaruratini belgilaydi.

Mazkur transformatsiya davomida harbiy xizmatchi uzoq muddat shakllangan qadriyatlar, xulq-atvor standartlari, guruhiy mansublik hissi hamda kasbiy o‘zini identifikatsiyalash tizimi fuqarolik jamiyatining yangi ijtimoiy talablari bilan to‘qnashadi. Natijada shaxs yangi ijtimoiy makonda o‘z funksiyalarini qayta belgilash, avvalgi identiklikni yangi hayotiy mazmun bilan uyg‘unlashtirish va o‘zining psixologik barqarorligini saqlab qolish zarurati bilan yuzlashadi.

Mazkur ilmiy muammoni tizimli talqin qilish maqsadida quyida keltirilgan model ishlab chiqildi (4.3.1-rasmga qarang).





4.3.1-rasm. “Harbiy xizmatchilarni rezervga bo‘shatishning resotsializatsiya va demobilizatsiya adaptatsiyasi modeli”.

Ushbu model rezervga o‘tish jarayonini alohida psixologik reaksiyalar yig‘indisi sifatida emas, balki kognitiv, motivatsion, affektiv, ijtimoiy hamda etnopsixologik determinantlarning o‘zaro funksional bog‘liqligiga asoslangan integral adaptatsion tizim sifatida talqin etadi. Mazkur yondashuv adaptatsiya jarayonining ichki qonuniyatlarini aniqlash, uning rivojlanish dinamikasini prognoz qilish, dezadaptatsiya xavfini oldindan baholash hamda individual psixologik yordamning differensial strategiyalarini ishlab chiqish imkonini beradi.

Mazkur indeks rezervga o‘tish davrida shaxsning harbiy identikligidan fuqarolik identikligiga o‘tish jarayonining psixologik mazmunini ifodalovchi integral indikator hisoblanadi. Uning nazariy negizi sifatida esa A.Tejfel va J.Turnerning Ijtimoiy identifikatsiya nazariyasi hamda Ch.H.Kulining “Ko‘zgudagi Men” konsepsiyasining integrativ talqiniga asoslanadi. Ushbu tadqiqotda mazkur nazariyalar alohida konseptual yondashuvlar sifatida emas, balki rezervga bo‘shatilish jarayonida identiklik transformatsiyasining turli psixologik mexanizmlarini tushuntiruvchi yagona metodologik platforma sifatida qo‘llanildi.

Ijtimoiy identifikatsiya nazariyasi nuqtai nazaridan harbiy xizmat davomida shaxsning o‘zini anglash tizimi harbiy institutning qadriyatlari, ierarxik tuzilishi, xizmat intizomi, korporativ madaniyati va guruhiy birdamligi bilan uzviy integratsiyalashadi. Shu sababli harbiy maqom shaxsning kasbiy rolini belgilovchi tashqi atribut sifatidagina emas, balki uning o‘zini baholashi, ijtimoiy nufuzi, psixologik xavfsizlik hissi hamda “Men” konsepsiyasining markaziy komponenti sifatida namoyon bo‘ladi. Rezervga bo‘shatilish esa mazkur identifikatsion tizimning qayta tashkil topishini talab qiladigan murakkab psixologik o‘tish bosqichini yuzaga keltiradi. Mazkur transformatsiya jarayoni bir necha o‘zaro bog‘liq psixologik mexanizmlar orqali kechadi. Avvalo, shaxsning “harbiy guruh” bilan identifikatsiyasi susayishi natijasida avvalgi ijtimoiy kategoriyalashuv tizimi buziladi va yangi fuqarolik identikligini shakllantirish zarurati yuzaga keladi. Ikkinchidan, harbiy maqom bilan bog‘liq bo‘lgan ijobiy ijtimoiy identifikatsiyaning zaiflashuvi o‘z-o‘zini baholash tizimiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Uchinchidan, uzoq muddat shakllangan “harbiy birodarlik” fenomeni fuqarolik jamiyatining me’yorlari bilan to‘qnashganda psixologik dissonans hamda ijtimoiy masofalanish holatlarini yuzaga keltirishi mumkin. Nihoyat, yangi ijtimoiy maqomni egallash zarurati shaxsdan mavjud identiklikni qayta konstruksiya qilishni, yangi referent guruhlarni qabul qilishni hamda fuqarolik jamiyatining qadriyatlarini interiorizatsiya qilishni talab etadi.

Mazkur jarayonlarning ichki psixologik mexanizmlarini tushuntirishda Ch.H.Kulining “Ko‘zgudagi Men” konsepsiyasi muhim metodologik ahamiyat kasb etadi. Mazkur yondashuvga ko‘ra, shaxsning o‘zini anglashi va o‘zini baholashi ijtimoiy muhit

tomonidan berilayotgan baholar hamda ularning refleksiv interiorizatsiyasi asosida shakllanadi. Shu nuqtai nazardan rezervga bo‘shatilgan harbiy xizmatchining yangi fuqarolik identikligi nafaqat uning individual psixologik resurslariga, balki jamiyat tomonidan qabul qilinishi, yangi ijtimoiy maqomining e’tirof etilishi, oilaviy va mahalliy ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimiga integratsiyalashuv darajasi bilan ham belgilanadi. Shunday qilib, kognitiv ijtimoiy identifikatsiya va ego-transformatsiya indeksi rezervga o‘tish davrida identiklikning rekonstruksiyasi, o‘zini anglash tizimining qayta tashkil topishi hamda yangi ijtimoiy rollarning interiorizatsiyasini ifodalovchi kompleks psixologik konstrukt sifatida modelning konseptual yadrosini tashkil etadi. Mazkur indeks shaxsning kasbiy identikligi, refleksiv o‘zini anglash, ijtimoiy e’tirof va o‘z-o‘zini baholash jarayonlarini yagona nazariy tizimda integratsiyalashi bilan modelning qolgan komponentlari uchun metodologik asos vazifasini bajaradi.

Harbiy xizmatchini rezervga bo‘shatish jarayoni uning faqat kasbiy faoliyatining yakunlanishi emas, balki shaxsning ijtimoiy maqomi, identifikatsiyasi va hayotiy yo‘nalishlarida yuz beradigan murakkab psixologik transformatsiyadir. Shu bois mazkur jarayonni baholashda iqtisodiy yoki huquqiy mezonlar bilan cheklanib qolish yetarli emas. Asosiy e’tibor harbiy shaxsning yangi ijtimoiy makonga moslashuvi, o‘zini anglash tizimining qayta shakllanishi va psixologik barqarorlik mexanizmlarini aniqlashga qaratilishi lozim. Takomillashtirilgan modelimizning birinchi komponenti sifatida ijtimoiy identifikatsiya transformatsiyasi indeksi ajratiladi. Ushbu komponent Ch.X.

Kulining “Ko‘zgudagi Men” konsepsiyasi[32]ga asoslanib, shaxsning avvalgi harbiy rol va maqomdan tashqarida yangi ijtimoiy “Men” obrazini shakllantirish qobiliyatini aks ettiradi. Harbiy xizmat davomida shakllangan qat’iy kasbiy identifikatsiyaning o‘zgarishi shaxsdan o‘zini yangi ijtimoiy sharoitda qayta baholashni talab qiladi. Mazkur indeks harbiy mentalitetdan fuqarolik mentalitetiga o‘tish darajasini, ijtimoiy moslashuvchanlikni hamda yangi hayotiy rollarni qabul qilish tayyorgarligini belgilaydi.

Modelning ikkinchi komponenti sifatida ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va oilaviy adaptatsiya indeksi alohida o‘rin egallaydi. Rezervga bo‘shatilishdan keyingi davrda oila shaxsning yangi ijtimoiy maqomini qabul qilishi, emotsional barqarorligini saqlashi va hayotiy maqsadlarini qayta belgilashida muhim psixologik resurs vazifasini bajaradi. Ushbu indeks yaqin ijtimoiy muhitning qo‘llab-quvvatlovchi imkoniyatlari, kommunikativ moslashuv va yangi ijtimoiy rollarning uyg‘unlashuv darajasini baholaydi. Modelimizning uchinchi komponenti esa psixologik barqarorlik va kognitiv qayta moslashuv indeksi namoyon bo‘ladi. Harbiy xizmatdagi aniq reglamentlar, tashqi nazorat va ierarxik boshqaruv tizimidan fuqarolik hayotidagi mustaqil qarorlar qabul qilish muhitiga o‘tish shaxs psixikasida ma’lum ichki ziddiyatlarni yuzaga keltirishi mumkin. Ushbu jarayon L.Festingerning kognitiv dissonans nazariyasi[33] hamda Y.Rotterning nazorat lokusi

[32] Cooley C. H. Human Nature and the Social Order. – Revised edition. – New York: Charles Scribner's Sons, 1922. – P. 183–185. – URL: https://archive.org/details/humannaturesocia00cool (murojaat qilingan sana: 29.07.2026).

[33] Festinger L. A Theory of Cognitive Dissonance. – Stanford: Stanford University Press, 1957. – 291 p. – URL: https://archive.org/details/theoryofcognitiv00fest (murojaat qilingan sana: 29.07.2026).

konsepsiyasi[34] asosida izohlanadi. Mazkur indeks stress, frustratsiya, ichki nazoratning shakllanishi va noaniq hayotiy vaziyatlarga moslashish qobiliyatini ifodalaydi. Shunday qilib, harbiy xizmatchilarni rezervga bo‘shatishning ijtimoiy-psixologik indekslarini modellashtirishda shaxsning tashqi muhitga moslashuvi emas, balki uning ichki psixologik qayta tashkil topishi asosiy mezon sifatida qaraladi. Taklif etilayotgan komponentlar tizimi harbiy xizmatchining yangi ijtimoiy maqomga o‘tish jarayonini kompleks baholash, psixologik xavf omillarini aniqlash va samarali reabilitatsion mexanizmlarni ishlab chiqish imkonini beradi.



Harbiy xizmatchining rezervga bo‘shatilishi natijasida yuzaga keladigan psixologik o‘zgarishlar dastlab shaxsning ichki identifikatsiya tizimida namoyon bo‘lsa, mazkur transformatsiyaning keyingi bosqichi uning eng yaqin ijtimoiy muhiti – oilaviy tizimga ko‘chadi. Shu bois modelning navbatdagi komponenti ijtimoiy-tizimli mikromuhit integratsiyasi (oilaviy barqarorlik) indeksi hisoblanadi. Mazkur komponent U.

[34] Rotter J. B. Generalized Expectancies for Internal Versus External Control of Reinforcement // *Psychological Monographs: General and Applied*. – 1966. – Vol. 80, № 1. – P. 1–28. – DOI: 10.1037/h0092976. — URL: https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/5340840/ (мурожаат қилинган сана: 29.07.2026).

Bronfenbrennerning ekologik tizimlar nazariyasi metodologiyasiga asoslanib, rezervga bo‘shatilish jarayonini alohida individning moslashuvi sifatida emas, balki o‘zaro bog‘liq ekologik tizimlarning kompleks transformatsiyasi sifatida talqin etadi.

Bronfenbrenner konsepsiyasiga ko‘ra, shaxsning rivojlanishi eng yaqin mikrotizim – oiladan boshlab keng ijtimoiy va madaniy makongacha bo‘lgan tizimlarning uzluksiz o‘zaro ta’siri natijasida shakllanishi bilan izohlanadi[35]. Shu nuqtayi nazardan, harbiy xizmatning yakunlanishi nafaqat ofitserning ijtimoiy maqomini, balki oiladagi funksional rollar, kommunikativ munosabatlar va mas’uliyatlar muvozanatini ham qayta tashkil etadi. Uzoq yillar davomida xizmat rejimiga moslashgan oilaviy tizim yangi turmush tarzi, vaqt taqsimoti va iqtisodiy sharoitlarga mos ravishda yangidan muvozanatlanishi zarur bo‘ladi. Shuning uchun mazkur indeks oilaning emotsional qo‘llab-quvvatlash salohiyati, yangi rollarni qabul qilish darajasi hamda oilaviy barqarorlikni saqlash imkoniyatlarini baholovchi muhim diagnostik mezon sifatida namoyon bo‘ladi. Oilaviy mikromuhitda barqaror adaptatsiyaning shakllanishi shaxsning ijtimoiy faolligini tiklash va fuqarolik jamiyatidagi yangi kasbiy rolini egallashi uchun psixologik zamin yaratadi. Shu mantiqiy davomiylikda modelning navbatdagi komponenti akmeologik va professional reintegratsiya (kasbiy reintegratsiya) indeksini tashkil etadi.

Mazkur komponent kompetensiyalar transferi nazariyalari va kasbiy rivojlanishning akmeologik yondashuvlariga tayangan holda, harbiy faoliyat davomida shakllangan kasbiy

[35] By Olivia Guy-Evans, MSc.Bronfenbrenner’s Ecological Systems Theory // Updated on May 6, 2025. https://www.simplypsychology.org/bronfenbrenner.html

kompetensiyalarni fuqarolik mehnat bozori talablariga mos ravishda qayta shakllantirish va yangi faoliyat muhitida samarali qo‘llash salohiyatini ifodalaydi. Bunda asosiy e’tibor mavjud bilim, ko‘nikma va tajribalarni mexanik ravishda ko‘chirishga emas, balki ularni yangi kasbiy vazifalar, tashkiliy munosabatlar va ijtimoiy rollar tizimiga moslashtirish qobiliyatiga qaratiladi. Ushbu indeks shaxsning kasbiy moslashuvchanligi, mehnat bozoridagi raqobatbardoshligi hamda o‘z professional salohiyatini yangi faoliyat sohalarida namoyon eta olish imkoniyatlarini baholashga xizmat qiladi. Harbiy xizmatdan keyingi kasbiy reintegratsiya jarayoni nafaqat mehnat faoliyatini davom ettirish, balki shaxsning yangi ijtimoiy maqomini shakllantirish, jamiyatdagi o‘rnini qayta anglash va o‘z-o‘zini qadrlash hissini tiklash bilan ham bog‘liqdir. Shu munosabat bilan mazkur modelda kasbiy reintegratsiyaning ijtimoiy-psixologik natijasini aks ettiruvchi yakuniy komponent sifatida ijtimoiy akseptatsiya va ijtimoiy ishonch indeksi taklif etiladi[36].

Psixologiya ilmining yetakchi olimlari A.Maslouning ehtiyojlar ierarxiyasi nazariyasi[37]ga tayangan holda, rezervga

---

[36] Baldwin T. T., Ford J. K. Transfer of Training: A Review and Directions for Future Research // Personnel Psychology. – 1988. – Vol. 41, № 1. – P. 63–105. – DOI: 10.1111/j.1744-6570.1988.tb00632.x. – URL: https://www.researchgate.net/publication/209409925_Transfer_of_Training_A_Review_and_Directions_for_Future_Research (мурожаат қилинган сана: 29.07.2026). Tajfel H., Turner J. C. The Social Identity Theory of Intergroup Behavior // Worchel S., Austin W. G. (Eds.). Psychology of Intergroup Relations. – Chicago: Nelson-Hall, 1986. – P. 7–24. — URL: https://search.gesis.org/publication/zis-TajfelTurner1986The (мурожаат қилинган сана: 29.07.2026). Cooper L., Caddick N., Godier-McBard L., Cooper A., Fossey M. Transition From the Military Into Civilian Life: An Exploration of Cultural Competence // Armed Forces & Society. – 2018. – Vol. 44, № 1. – P. 156–177. – DOI: 10.1177/0095327X16675965. – URL: https://doi.org/10.1177/0095327X16675965 (мурожаат қилинган сана: 29.07.2026).

[37] Маслоу А. Х. Теория человеческой мотивации (A Theory of Human Motivation) // *Psychological Review*. — 1943. – Т. 50, № 4. – С. 370–396. – URL: https://opencommons.org/images/2/2d/Maslow_a-theory-of-human-motivation.pdf (мурожаат қилинган сана: 29.07.2026).

bo‘shatilgan harbiy xizmatchining jamiyat tomonidan e’tirof etilishi, davlat kafolatlariga ishonchi hamda kelajakka nisbatan psixologik xavfsizlik hissini tavsiflaydi. Biroq model doirasida ushbu nazariya ehtiyojlarning qat’iy ierarxiyasi sifatida emas, balki resotsializatsiya jarayonini faollashtiruvchi motivatsion mexanizm sifatida talqin qilinadi. Chunki shaxs o‘z xizmatining ijtimoiy ahamiyati tan olinayotganini his etgan sari unda fuqarolik jamiyatiga daxldorlik, kelajakka ishonch va o‘z salohiyatini yangi ijtimoiy sharoitda ro‘yobga chiqarishga ichki motivatsiya kuchayadi. Shunday qilib, takomillashtirilgan model komponentlari o‘zaro uzviy sabab-oqibat bog‘liqligida shakllanadi: dastlab shaxsning ichki psixologik transformatsiyasi yuz beradi, uning natijalari oilaviy mikromuhitga integratsiyalanadi, oilaviy barqarorlik kasbiy reintegratsiyani ta’minlaydi, kasbiy o‘zini ro‘yobga chiqarish esa yakuniy bosqichda ijtimoiy e’tirof va ekzistensial xavfsizlikni shakllantiradi. Aynan shu izchil ketma-ketlik modelning nazariy yaxlitligini ta’minlab, harbiy xizmatchilarni rezervga bo‘shatish jarayonini ko‘p bosqichli ijtimoiy-psixologik tizim sifatida kompleks baholash imkonini beradi.

Qat’iy harbiy intizom, buyruq va subordinatsiyaga asoslangan, har bir harakati tartibga solingan muhitda shakllangan kontrakt asosidagi harbiy xizmatchi to‘satdan noaniqlik, erkin raqobat va shaxsiy mas’uliyat ustuvor bo‘lgan fuqarolik jamiyatiga tushib qoladi. Bu o‘rinda ko‘pchilik sobiq harbiy xizmatchilar kutilmagan ijtimoiy va psixologik to‘siqlarga duch keladilar:

1. Xizmatdagi mavqe, vakolat va jamoadagi hurmatning yo‘qolishi natijasida yuzaga keladigan rolli inqiroz. M. Mobbs va G. Bonannoning mashhur “Beyond war and PTSD: The crucial

role of transition stress in the lives of military veterans[38]" nomli tadqiqotiga ko‘ra, harbiy xizmatdan rezervga bo‘shatilayotgan harbiy xizmatchilar ko‘pincha moslashuvning boshlang‘ich bosqichidagi beqarorlikka hamda bu davr ularning shaxsiy "Men"i va o‘z-o‘zini qadrlash tuyg‘usiga qanchalik xavf solishiga tayyor bo‘lmaydilar. Bu davrda ular avvalgi harbiy identikligining yo‘qolishi kabi qator bir-biriga bog‘liq muammolar bilan kurashishga majbur bo‘ladilar. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, kasbiy mavqe va ishni yo‘qotish insonning ruhiy farovonligi keskin pasayishiga olib keladi. Bu holat kasbiy rol markaziy o‘rinda turadigan shaxslarda o‘z ijtimoiy qiyofasi, hurmati va samaradorligini yo‘qotish hissi bilan bevosita bog‘liqdir.

2. Fuqarolik muhitidagi norasmiy, ba'zan shartli munosabatlarga moslasha olmaslik sababli kelib chiqadigan kognitiv dissonans. G.M.Berg tomonidan olib borilgan fenomenologik tadqiqot[39]da ko‘rsatilishicha, harbiy xizmatdan fuqarolik muhitiga qaytgan shaxslarda kelib chiqadigan asosiy psixologik to‘siqlardan biri – bu kognitiv va madaniy dissonansdir. Harbiy xizmat faoliyatidagi qat'iy harbiy intizom, aniq iyerarxiya va absolyut mas'uliyatga ko‘nikkan shaxs fuqarolik muhitidagi norasmiy, shartli va ba'zan noaniq ijtimoiy munosabatlarga duch kelganida, o‘zining ichki qadriyatlar tizimi va tashqi reallik o‘rtasidagi chuqur nomuvofiqlikni boshdan

[38] Mobbs MC, Bonanno GA. Beyond war and PTSD: The crucial role of transition stress in the lives of military veterans. Clin Psychol Rev. 2018 Feb;59:137-144. doi: 10.1016/j.cpr.2017.11.007. Epub 2017 Nov 21. Erratum in: Clin Psychol Rev. 2018 Mar;60:147. doi: 10.1016/j.cpr.2018.01.002. PMID: 29180101.

[39] Berg G. M. et al. U.S. Military Service Members' Reintegration, Culture, and Spiritual Development // The Qualitative Report. – 2016. – Vol. 21. – No. 11. – P. 2059–2075. – URL: https://nsuworks.nova.edu/tqr/vol21/iss11/4/ (DOI: 10.46743/2160-3715/2016.2294).

kechiradi. Bu holat ularda moslashuv stressi va ijtimoiy begonalashuvni keltirib chiqaradi.

3. Uzoq yillik xavf-xatar, jismoniy va ruhiy zo‘riqishlar oqibatida yig‘ilib qolgan surunkali stress va emotsional so‘nish. P.T.Barton o‘zining fundamental tadqiqotida ko‘rsatishicha, uzoq muddatli operativ xavf-xatar, jismoniy va ruhiy zo‘riqishlar shaxsda surunkali operativ stressni keltirib chiqaradi. Bu holat insonning psixologik resurslarini tugatib, emotsional so‘nish va begonalashuvga olib keladi[40]. Muallif bunday surunkali zo‘riqishlarga qarshi asosiy himoya mexanizmi sifatida shaxsning baquvvatligini (mas’uliyat, nazorat va sinovlarni qabul qilish) va komandir (boshliq) tomonidan stressli vaziyatlarga ijobiy mazmun berilishini ko‘rsatadi.

Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, rezervga bo‘shatilgan harbiylarni moddiy yoki uy-joy bilan ta’minlash ularning fuqarolik hayotiga muvaffaqiyatli moslashib ketishini to‘liq kafolatlamaydi. Agar shaxs ruhan va ijtimoiy-psixologik jihatdan yangi sharoitga tayyor bo‘lmasa, oilaviy nizolar, apatiya, depressiya va surunkali dezadaptatsiya holatlari kelib chiqadi.

Harbiy xizmatchilarni qurolli kuchlar rezerviga bo‘shatish va ularning jamiyatga reintegratsiyasi murakkab, ko‘p bosqichli va ko‘p omilli ijtimoiy-psixologik jarayondir. Bu jarayonning tizimli, obyektiv va ilmiy baholanishini ta’minlash uchun “Harbiy xizmatchilarni rezervga bo‘shatishning ijtimoiy-psixologik indekslari modeli”ni ishlab chiqish hayotiy va ilmiy zarurat hisoblanadi.

---

[40] Bartone P. T. Resilience Under Military Operational Stress: Can Leaders Influence Hardiness? // Military Psychology. – 2006. – Vol. 18 (Suppl.). – P. S131–S148. – DOI: 10.1207/s15327876mp1803s_10.

Mazkur indeks ofitserning fuqarolik jamiyati tomonidan “keraklilik” va davlat tomonidan “qadrlanish” subyektiv hissini baholaydi. Ushbu yakuniy ko‘rsatkich shaxsni ijtimoiy aliyenatsiya (jamiyatdan begonalashish) va marginalizatsiya (ijtimoiy arosatda qolish, ikkala muhitga ham tegishli bo‘la olmaslik holati) dan asrovchi hamda uning fuqarolik jamiyatining to‘laqonli, faol subyektiga aylanishini yakunlovchi asosiy psixologik qalqon hisoblanadi.

Mazkur konseptual model harbiy xizmatchilarning xizmat muddatini uzaytirish va rezervga bo‘shatish jarayonlarini ijtimoiy-psixologik jihatdan tartibga solishni ilmiy asoslangan tizimga keltirish maqsadida ishlab chiqilgan. Model harbiy xizmatchining professional hayotiy siklini beshta fundamental nazariy-metodologik mezon (indeks) asosida baholaydi (4.3.2-rasmga qarang):



4.3.2-rasm. “Harbiy xizmatchilarni rezervga bo‘shatishning ijtimoiy-psixologik indekslari modeli”

Ontogenetik va psixofiziologik resurslar mezoni (yosh ko‘rsatkichlari indeksi) D.Super “hayotiy sikl va kasbiy rivojlanish nazariyasi”[41] hamda P.Anoxinning “funksional tizimlar nazariyasi va sistemogenez (ontogenez) konsepsiyasi”[42]ga ko‘ra integratsiyalashgan ilmiy nazariyaga tayanadi.

D.Superning kasbiy rivojlanishi nazariyasiga ko‘ra bu insonning karyera istiqbollarini, o‘z ishidan qoniqish hissini va uzoq muddatli kasbiy o‘sishini yaxshilashga qaratilgan ijtimoiy-psixololik konsepsiyadir. U mos keladigan bo‘sh ish o‘rinlarini aniqlash hamda malaka oshirish rejasini tuzish uchun insonning qiziqishlari, qobiliyatlari va ko‘nikmalarini baholashni o‘z ichiga oladi[43].

Model mezonlari harbiy xizmatchilar uchun belgilangan chegaraviy yosh mezonlari shaxs ontogenezidagi psixofiziologik inversiya (pasayish) nuqtalariga mos keladi. D.Super nazariyasiga ko‘ra, bu bosqich professional hayotning “Sustlashish” va yangi sotsial roli “Kutish” fazasi hisoblanadi. Tizimliligi kichik ofitserlarda operativ reaksiyalar tezligi ya’ni, sensor-motor labillik muhim bo‘lsa, katta harbiy xizmatchilarda makro-strategik tafakkur barqarorligi talab etiladi. Yosh ko‘rsatkichi shaxsning

---

[41] Super D. E. A life-span, life-space approach to career development // Journal of Vocational Behavior. – 1980. – Vol. 16. – No. 3. – P. 282–298. – DOI: https://doi.org/10.1016/0001-8791(80)90056-1

[42] Anokhin P. K. Systemogenesis as a General Regulator of Development // Progress in Brain Research. – 1964. – Vol. 9. – P. 54–86. – URL: https://www.sciencedirect.com/science/chapter/bookseries/abs/pii/S0079612308631313

[43] Ungvarsky Janine. Career Development theory // https://www.ebsco.com/research-starters/education/career-development-theory

yoshga doir psixofiziologik imkoniyatlari va harbiy ierarxiya talablari o‘rtasidagi funksional mutanosiblik darajasini belgilaydi.

D. Superning kasbiy rivojlanish nazariyasiga tayangan holda asoslandiki, Yosh indeksi rezervga bo‘shatilayotgan harbiy xizmatchilarning kasbiy “Men-konsepsiyasi” transformatsiyasini bashorat qiluvchi bosh indikator hisoblanadi. Rezervga bo‘shatish tinch hayotdagi tabiiy kasbiy karera evolyusiyasini buzadi va shaxsni ijtimoiy-psixologik rivojlanishning majburiy “qayta izlanish” bosqichiga o‘tkazadi. Shu sababli, YoI ko‘rsatkichi past (yoshroq) bo‘lgan respondentlarda yangi fuqarolik kasbiga moslashish va maqsad qo‘yish jarayoni kognitiv qayta dasturlanish hisobiga faol kechsa, YoI ko‘rsatkichi yuqori bo‘lgan guruhlarda avvalgi harbiy maqomning rigidligi tufayli kasbiy o‘zini-o‘zi namoyon etish darajasi ichki psixologik to‘siqlarga uchrashi aniqlandi.

Ijtimoiy-iqtisodiy motivatsiya va ijtimoiy ekspektatsiya mezoni (Xizmat muddati indeksi). V.Vrumning “Ekspektatsiya (Kutishlar) nazariyasi” va Ijtimoiy kompensatsiya hamda tiklash prinsiplari asosidagi integratsiyalashgan ilmiy nazariyaga tayanadigan model[44] hisoblanib, 20 yillik va undan yuqori xizmat staji koeffitsiyenti harbiy xizmatchining professional sadoqatini rag‘batlantiruvchi uzoq muddatli motivatsion drayveri hisoblanadi. Bu insonlar qanday va nima uchun motivatsiyaga ega bo‘lishiga e’tibor qaratadigan motivatsiya nazariyasi hisoblanadi. Vrumning izlanishlari kognitiv jarayonlar xodimning ish

[44] Vroom V. H. Work and Motivation. – New York: John Wiley & Sons, 1964. – 331 p. – URL: https://archive.org/details/workmotivation0000vroo/page/n5/mode/2up

faoliyatini bajarishga bo‘lgan motivatsiyasiga qanday ta’sir qilishini tushunishda katta burilish yasadi[45].

V.Vrumning motivatsion kuch konsepsiyasi[46] asosida isbotlanadiki, xizmat muddati indeksi (XMI) rezervga bo‘shatilayotgan harbiy xizmatchilarning fuqarolik jamiyatidagi kognitiv kutishlari barqarorligini o‘lchaydi. Xizmat muddati qancha uzoq bo‘lsa, shaxsda tashkiliy muhitdagi mukofot va natija mutanosibligiga bo‘lgan talab shunchalik yuqori bo‘ladi. Agar fuqarolik jamiyati va mehnat bozori sobiq harbiy xizmatchining sarflagan kuchiga mos ekvivalentlikni (Valentlik – V) taqdim eta olmasa, matematik qonuniyatga ko‘ra umumiy Motivatsion kuch (MF) destruksiyaga uchraydi va shaxsda resotsializatsiya inqirozi yuzaga keladi.

V.Vrum formulasi bo‘yicha “Mehnat sarfi → Natija → Mukofot (Pensiya/Ijtimoiy kafolat) zanjirining barqarorligi shaxsda frustratsiya va kasbiy apatiyaning oldini oladi. Imtiyozli staj tizimi ekstremal muhitdagi xizmat davomida sarflangan psixofizik resurslarni konseptual kompensatsiya qilish mexanizmi sifatida xizmat muddati indeksiga kiritiladi. Bu indeks shaxsning davlat bilan tuzgan ijtimoiy shartnomasi samaradorligini o‘lchaydi.

Psixosomatik barqarorlik va funksional gomeostaz mezoni (Sog‘liqni saqlash indeksi) G.Selyening “Stress va umumiy adaptatsiya sindromi nazariyasi”[47] hamda A.Antonovskiyning

---

[45] Hoffman-Miller, Patricia, MPA. Expectancy theory // https://www.ebsco.com/research-starters/economics/expectancy-theory

[46] Vroom V. H. Work and Motivation. – New York: John Wiley & Sons, 1964. – 331 p. – URL: https://archive.org/details/workmotivation0000vroo/page/n5/mode/2up

[47] Selye H. The Stress of Life. – New York: McGraw-Hill, 1976. – 515 p. – URL: https://archive.org/details/stressoflife00sely/page/n5/mode/2up

“Salutogenez (Salomatlik manbalari) konsepsiyasi”[48] doirasida ishlaydi.

Umumiy adaptatsiya sindromi quyidagi uchta bosqichni o‘zichiga oladi:

Xavotir reaksiyasi bosqichi – bunda organizm stress omilini aniqlaydi va himoyaga tayyorlanadi;

Qarshilik ko‘rsatish bosqichi – bunda organizm moslashadi va ichki muvozanatni saqlashga intiladi;

Holdan toyish bosqichi – bu bosqich organizmning resurslari butunlay tugaganda yuzaga keladi va potensial ravishda sog‘liq bilan bog‘liq jiddiy muammolarga yoki hatto o‘limga olib kelishi mumkin[49]. Umumiy adaptatsiya sindromi stress qanday qilib ham adaptiv, ham dezadaptiv reaksiyalarga olib kelishi mumkinligini ko‘rsatib, o‘z oqibatlarini psixologik omillar va jismoniy sog‘liq o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganuvchi psixosomatik tibbiyot kabi sohalarga yoyadi. Umumiy adaptatsiya sindromini tushunish stressning inson umumiy farovonligiga qanday ta’sir qilishi va stress bilan bog‘liq kasalliklarning rivojlanishi haqida chuqur tasavvur hosil qilish imkonini beradi.

A.Antonovskiy tomonidan asos solingan Salutogen modeliga ko‘ra, muvofiqlik tuyg‘usi global yo‘nalish bo‘lib, unda hayot kam yoki ko‘p darajada anglashiluvchan, ma’nodor va boshqariluvchan deb qabul qilinadi. Kuchli muvofiqlik tuyg‘usi shaxsga stressorlarni yengish uchun resurslarni safarbar qilishga hamda umumiy va maxsus qarshilik ko‘rsatish resurslarini

---

[48] Antonovsky A. Health, Stress, and Coping. – San Francisco: Jossey-Bass Publishers, 1979. – 255 p. – URL: https://archive.org/details/healthstresscopi00antorich/page/n7/mode/2up

[49] Roth, René R. General adaptation syndrome (GAS) // https://www.ebsco.com/research-starters/health-and-medicine/general-adaptation-syndrome-gas

aniqlash va ulardan foydalanish orqali ichki zo‘riqishni muvaffaqiyatli boshqarishga yordam beradi[50].

A.Antonovskiyning “Salutogenez” konsepsiyasi asosida isbotlandiki, Sog‘liqni saqlash indeksi rezervga bo‘shatildgan harbiy xizmatchilarni an’anaviy kasallik sohasi tashxislashdan voz kechib, ularning ichki salomatlik manbalarini safarbar qilish imkoniyatini baholaydi. Shaxsning tinch hayotga moslashishi va ijtimoiy stressorlarga qarshi tura olishi undagi muvofiqlik tuyg‘usi darajasi bilan belgilanadi. Tadqiqotning metodologik asosi sifatida Antonovskiyning “Hayotga yo‘nalganlik so‘rovnomasi” (SOC-13)[51] sobiq harbiy xizmatchilarning yangi ijtimoiy muhitni anglashi, boshqarishi va ma’nodor deb qabul qilishini baholashda, shuningdek, ularning hayot sifatini oshirishga qaratilgan tibbiy-psixologik reabilitatsiya dasturlarini ishlab chiqishda bosh mezon bo‘lib xizmat qiladi.

Model mezonlariga ko‘ra, harbiy-tibbiy ekspertiza xulosasi shaxs psixofiziologik resurslarining “tuzilish darajasi”ni aniqlaydi. G.Selye nazariyasiga ko‘ra, uzoq muddatli jangovar va xizmat yuklamalari organizmni charchash (exhaustion) bosqichiga olib keladi. Axloqiy-ruhiy yaroqlilik va psixosomatik salomatlik koeffitsiyentlari shaxsning stressogen muhitda gomeostazni (ichki muvozanatni) saqlash va tolerantlik imkoniyatlarini baholaydi. Bu indeks shaxsning rezervda jangovar shaylikni saqlab qolish salohiyatini prognoz qiladi.

---

[50] Ph.D. Gørill Haugan and Ph.D. Monica Eriksson. Health Promotion in Health Care – Vital Theories and Research. Cham (CH): Springer; 2021. ISBN-13: 978-3-030-63134-5ISBN-13: 978-3-030-63135-2. https://www.ncbi.nlm.nih.gov/books/NBK585660/

[51] Antonovsky A. Unraveling the Mystery of Health: How People Manage Stress and Stay Well. – San Francisco: Jossey-Bass Publishers, 1987. – 218 p. – URL: https://archive.org/details/unravelingmyster00aaro/page/n7/mode/2up

Professional identifikatsiya va sotsial-tashkiliy sodiqlik mezoni (Shartnoma indeksi) E.Eriksonning “Psixosotsial identifikatsiya” nazariyasi[52] va N.Meyer hamda N.Allening “Tashkiliy sadoqat uch komponentli” modeli[53]ga aloqador bo‘lib, kontrakt muddatining tugashi – shaxsning “Men-konsepsiyasi” va professional identifikasiyasida inqiroz davridir.

E.Erikson ijtimoiy munosabatlar bizning o‘zlikni anglash tuyg‘umizni qanday shakllantirishiga urg‘u beruvchi inson hayoti davomidagi rivojlanish modelini taklif qildi. Uning fikricha, biz sakkizta bosqichdan o‘tamiz, ularning har biri shaxsning sog‘lom o‘sishi uchun hal qilinishi lozim bo‘lgan markaziy ziddiyat yoki psixosotsial inqiroz bilan tavsiflanadi[54].

E.Eriksonning psixosotsial rivojlanish nazariyasi va undagi epigenetik prinsip asosida isbotlandiki, Shartnoma indeksi (ShI) demobilizatsiya qilinayotgan shaxslarda kasbiy o‘zlik inqirozining matematik-psixologik ko‘rsatkichi hisoblanadi. Harbiy xizmatdan bo‘shatilish shaxsni ijtimoiy rollar diffuziyasi va xaosi vaziyatiga olib keladi. Erikson modeliga ko‘ra, ushbu bosqichning muvaffaqiyatli hal etilishi natijasida yuzaga keluvchi “Sodiqlik” ruhiy fazilati J. Meyer va N. Allen konsepsiyasidagi tashkiliy sodiqlikning affektiv va normativ komponentlari rivojlanishi uchun boshlang‘ich shart ekanligi aniqlandi. Shartnoma indeksi rezervga bo‘shatilgan shaxslarning fuqarolik mehnat bozori va ijtimoiy institutlarga faqatgina tranzaksion-iqtisodiy ehtiyoj tufayli

---

[52] Erikson E. H. Identity: Youth and Crisis. – New York: W. W. Norton & Company, 1968. – 336 p. – URL: https://archive.org/details/identityyouthcri00erik/mode/2up

[53] Meyer J. P., Allen N. J. Commitment in the Workplace: Theory, Research, and Application. – Thousand Oaks: SAGE Publications, 1997. – 160 p. – URL: https://archive.org/details/commitmentinwork0000meye/page/n7/mode/2up

[54] By Saul McLeod, PhD. Erik Erikson’s Stages of Psychosocial Development // Updated on October 15, 2025. https://www.simplypsychology.org/erik-erikson.html

emas, balki tizimli va qadriyatli integratsiyalashuvini ta’minlash mexanizmi sifatida xizmat qiladi.

J.Meyer, N.Allenning tashkiliy sodiqlikning uch komponentli modeli odamlarning o‘z ish beruvchilariga fidoyi bo‘lish sabablarini belgilab beradi.

Affektiv sodiqlik – bu xodimlarning o‘z tashkilotlariga bo‘lgan hissiyoti va emotsional bog‘liqligidir. Xodimlar o‘zlari qilayotgan ishni va o‘zlari ishlayotgan kompaniyani yaxshi ko‘rganlarida, ular tashkilotning qadriyatlari va maqsadlarini baham ko‘rishga ko‘proq moyil bo‘ladilar. Natijada, ishchilar o‘zlarini ushbu tashkilotning ajralmas qismidek his qiladilar.

Davomiy sodiqlik – xodimlarning tashkilotni tark etish bilan bog‘liq bo‘lgan yo‘qotishlar haqidagi tushunchasiga ishora qiladi. Ishchilar boshqa joydan ish topish orqali nimalarni yo‘qotishlarini anglab yetganlaridan so‘ng, ayni bir ish beruvchida faoliyatini davom ettirishga ko‘proq tayyor bo‘lishlari mumkin.

Normativ sodiqlik – ishchilarning tashkilot oldida his qiladigan ma’naviy (axloqiy) burch tuyg‘usidir. Xodimlar ayni damda o‘z ishlaridan to‘liq qoniqish hosil qilmayotgan bo‘lishlari mumkin, lekin ular ish beruvchi bilan qolishni «eng to‘g‘ri qaror» deb hisoblaydilar. Ishchilar tashkilotdan olgan mukofotlari yoki yaxshiliklari (masalan, malaka oshirish dasturlari, o‘qish pulini to‘lab berish yoki bonuslar) tufayli tashkilotda qolish majburiyatini his qilishlari mumkin[55].

J.Meyer, N.Allenning tashkiliy sodiqlik uch komponentli modeli hamda E.Eriksonning psixosotsial rivojlanish nazariyasi konseptual asosida “Shartnoma indeksi” mezonining mazmun-

[55] Kivak, Rebecca. Organizational commitment // https://www.ebsco.com/research-starters/business-and-management/organizational-commitment

mohiyati ochib berildi. Mazkur indeks rezervga bo‘shatilayotgan shaxslarning fuqarolik mehnat tashkilotlari madaniyatiga integratsiyalashuvi va yangi kasbiy identiklikni qabul qilish darajasini ifodalaydi. Tadqiqotda aniqlandiki, sobiq harbiy xizmatchilarda tashkiliy sodiqlikning uchta komponenti (affektiv, davomiy va normativ) bir vaqtning o‘zida, lekin turli nisbatda namoyon bo‘ladi. Shartnoma indeksi harbiy tizimdan kelayotgan yuqori “normativ sodiqlik” (burch tuyg‘usi) potensialini yangi tashkilotning qadriyatlarini hissiy qabul qilish “affektiv sodiqlik” bilan muvofiqlashtirish hamda rezervga bo‘shatilish davridagi kadrlar qo‘nimsizligi xavfini matematik bashorat qilish imkonini beradi.

Model bo‘yicha, yangi shartnoma tuzish koeffitsiyenti afektiv (hissiy bog‘liqlik), normativ (burch hissi) va davomiy (iqtisodiy manfaat) sadoqat ko‘rsatkichlari yig‘indisidan iborat. Ushbu indeks harbiy xizmatchining harbiy submuhit bilan identifikatsiyalashuv darajasini o‘lchaydi. Kontraktning uzaytirilishi shaxs va tashkilot maqsadlarining konseptual sinergiya hosil qilganligini ko‘rsatuvchi indikatordir.

Ijtimoiy-normativ regulyatsiya va korporativ moslashuvchanlik mezoni (Intizom va kasbiy loyiqlik indeksi) R.Mertonning “Sotsial anomiya va og‘ishgan xulq-atvor” nazariyasi[56] hamda L.Vigotskiyning “Madaniy-tarixiy nazariyasi”[57]ga bog‘liq holda ishlaydi.

[56] Merton R. K. Social Theory and Social Structure. – New York: The Free Press, 1968. – 748 p. – URL: https://archive.org/details/socialtheorysoci00mert/page/n7/mode/2up

[57] Vygotsky L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978. – 159 p. – URL: https://archive.org/details/mindinsocietydev0000vygo/page/n1/mode/2up

R.Mertonning “Kuchlanish nazariyasi”[58]ga ko‘ra, jamiyat insonlarni boylik yoki muvaffaqiyat kabi katta maqsadlarga erishishga undagan, ammo ularga erishishning adolatli va qonuniy yo‘llarini cheklab qo‘ygan vaziyatda odamlar og‘ishgan xulq-atvorga yuz tutadilar. «Kuchlanish» deb ataluvchi ushbu nomutanosiblik qoidalarning buzilishiga olib kelishi mumkin. Merton insonlarning ushbu kuchlanishga javob berishning beshta usulini aniqladi: konformizm (moslashish), innovatsiya (yangilik yaratish), ritualizm (ko‘r-ko‘rona amal qilish), retritizm (jamiyatdan qochish) va isyonko‘rlik (bosh ko‘tarish). Bu nazariya ijtimoiy tengsizlik qanday qilib jinoyatchilikni keltirib chiqarishini tushunishda markaziy o‘rin tutadi[59].

L.S. Vigotskiyning “Madaniy-tarixiy nazariyasi”ga ko‘ra, shaxsning ijtimoiy-kasbiy moslashuvchanligi va kasbiy loyiqligi uning oliy psixologik funksiyalari, ichki nutq hamda o‘z faoliyatini refleksiv tahlil qilish va samoregulyatsiyalash imkoniyati bilan belgilanadi.

R.Mertonning kuchlanish nazariyasi va L.Vigotskiyning “Madaniy-tarixiy nazariyasi” sintezi asosida “Intizom va kasbiy loyiqlik indeksi” tuzilmasi ilmiy asoslandi. Isbotlandiki, rezervga bo‘shatilgan shaxslarda ijtimoiy maqsadlar va qonuniy imkoniyatlar uzilishi natijasida yuzaga keluvchi anomiya va kuchlanish holatlari, ularning yangi kasbiy muhitdagi Yaqin rivojlanish zonasi hamda vaqtinchalik tashkiliy ko‘mak – skaffolding tizimiga integratsiyalashuvi orqali kompensatsiya qilinadi. Intizom va kasbiy loyiqlik indeksi sobiq harbiy

[58] Merton R. K. Social Theory and Social Structure. – New York: The Free Press, 1968. – 748 p. – URL: https://archive.org/details/socialtheorysoci00mert/page/n5/mode/2up

[59] By Charlotte Nickerson. Merton’s Strain Theory of Deviance in Sociology // Updated on August 12, 2025. https://www.simplypsychology.org/mertons-strain-theory-deviance.html

xizmatchilarning ichki refleksiv regulyatsiyasi va ijtimoiy muloqot vositasida deviant xulq-atvor xavfini konstruktiv bartaraf etish hamda ularning mehnat intizomiga sog‘lom moslashish darajasini baholovchi matematik-psixologik mezon hisoblanadi.

Bunda attestatsiya natijalari va kasbiy loyiqlik darajasi shaxsning professional kompetensiyalari va refleksiyasini (o‘z faoliyatini baholay olishini) aks ettiradi. R.Merton nazariyasiga ko‘ra, intizom buzilishi va salbiy holatlar – tizim talab qilgan korporativ qadriyatlar va shaxsiy motivlar o‘rtasidagi mos kelmaslik (anomiya) natijasidir. Mazkur indeks shaxs xulq-atvorining harbiy-psixologik normalar va korporativ madaniyat doirasida boshqarilish darajasini baholaydi. Salbiy holatlar bo‘yicha bo‘shatish koeffitsiyenti shaxsiy tarkibning ijtimoiy-psixologik dezadaptatsiyasi va internalizatsiya (normalarni ichki qabul qilish) jarayonining buzilganligidan dalolat beradi.

Rezervga bo‘shatilgan harbiy xizmatchilarning fuqarolik hayotiga ijtimoiy-psixologik qayta moslashuvi oddiy adaptatsiya jarayoni emas, balki R. Merton va E. Erikson konsepsiyalarida ko‘rsatilganidek, chuqur strukturaviy kuchlanish hamda psixosotsial identifikatsiya inqirozi bilan kechadigan tizimli transformatsiyadir. M. Mobbs va G. Bonanno tadqiqotlari asosida isbotlanganidek, bu jarayondagi asosiy psixologik zo‘riqish harbiy xizmatdagi mavqe, vakolat va jamoaviy hurmatning yo‘qolishi natijasida yuzaga keladigan rolli inqiroz va o‘zini qadrlash hissining susayishi bilan tavsiflanadi. Bu esa sobiq harbiy xizmatchilarda ijtimoiy anomiya, apatiya va retritizm xavfini orttirib, ularning fuqarolik muhitidagi vertikal va gorizontal moslashuviga jiddiy to‘siq bo‘ladi.

Shu sababli, tadqiqotda taklif etilgan “Intizom va kasbiy loyiqlik indeksi” tashkilot va jamiyat darajasida ikki muhim vektorning mutanosibligini ta’minlashga xizmat qiladi. R. Merton sotsiologiyasiga muvofiq, u shaxsning institutsional normalarni qabul qilishi va konform ijtimoiy-normativ regulyatsiyasini shakllantirsa, L.S. Vigotskiyning madaniy-tarixiy ta’limotiga ko‘ra, oliy psixologik funksiyalar va refleksiv tahlil mexanizmi orqali sobiq harbiyning o‘z eski va yangi rollarini ichki anglashi, samoregulyatsiyasi hamda korporativ moslashuvchanligini kafolatlaydi. Bu ikki yondashuvning integratsiyasi dezadaptatsiyaning oldini olishda nazariy-metodologik platforma vazifasini o‘taydi.

Amaliy jihatdan olganda, rezervdagi harbiy xizmatchilarni adaptatsiya qilish tizimi J. Meyer va N. Allenning “Tashkiliy sadoqat” hamda A. Antonovskiyning “Yaxlitlik hissi” modellariga tayanishi zarur. Reabilitatsiya va qayta tayyorlash dasturlari sobiq harbiy xizmatchilarda faqat noilojlikdan kelib chiqadigan majburiy bog‘liqlikni emas, balki yangi kasbiy muhitga nisbatan affektiv va normativ sadoqatni shakllantirishi, shuningdek, fuqarolik jamiyatini tushunarli, boshqariladigan va mazmunli deb idrok etish resurslarini rivojlantirishga yo‘naltirilishi lozim. Aynan ushbu tizimli yondashuv sobiq harbiy xizmatchilarning ijtimoiy-kasbiy potensialini to‘liq ro‘yobga chiqarish va ularni deviantliklardan himoya qilishning fundamental asosidir.

To‘rtinchi bob bo‘yicha xulosalar

Tadqiqot natijalari reintegratsiya jarayoni alohida psixologik hodisa emas, balki shaxsning ichki psixologik resurslari, oilaviy mikromuhit, kasbiy faoliyat va ijtimoiy muhit o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liq munosabatlar tizimida shakllanuvchi ko‘p komponentli ijtimoiy-psixologik jarayon ekanligini tasdiqladi. Shu asosda quyidagi ilmiy xulosalar shakllantirildi.

Birinchidan, reintegratsiyaning nazariy-metodologik mohiyati aniqlashtirildi. Tadqiqot natijalari rezervga bo‘shatilgan harbiy xizmatchining fuqarolik hayotiga moslashuvi adaptivlik, o‘z-o‘zini boshqarish, psixologik himoya, stressga bardoshlilik hamda ijtimoiy integratsiyaning o‘zaro uyg‘unlashuvi asosida kechishini ko‘rsatdi. Shunga ko‘ra, kommunikativ salohiyat, adaptiv barqarorlik va normativ-axloqiy yo‘nalganlik reintegratsiyaning bazaviy psixologik indikatorlari sifatida ilmiy asoslandi.

Ikkinchidan, reintegratsiyaning determinantlari differensial xarakterga ega ekanligi aniqlandi. Ijtimoiy-demografik xususiyatlar (jins, oilaviy holat) bilan bir qatorda xizmat muddati va harbiy tuzilmaning o‘ziga xosligi shaxsning psixologik resurslari shakllanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi empirik jihatdan tasdiqlandi. Xususan, turli harbiy tuzilmalarda xizmat qilgan xizmatchilar o‘rtasidagi prognostik va regulyativ resurslar tafovuti reintegratsiya strategiyalarining individual va institutsional omillar ta’sirida shakllanishini ko‘rsatdi.

Uchinchidan, reintegratsiyaning dinamik tabiati ilmiy jihatdan asoslandi. Rezervdagi faoliyat davomiyligi ortishi bilan kommunikativ kompetentlik, fuqarolik muhitiga moslashuv va ijtimoiy faollik ko‘rsatkichlarida bosqichma-bosqich ijobiy

transformatsiya kuzatilishi reintegratsiyaning vaqt omiliga bog‘liq uzluksiz rivojlanish jarayoni ekanligini tasdiqladi. Shu bilan birga, oilaviy qo‘llab-quvvatlash shaxsning emotsional barqarorligi va stressga chidamliligini ta’minlovchi asosiy himoya resurslaridan biri ekanligi isbotlandi.

To‘rtinchidan, shaxsning regulyativ mexanizmlari reintegratsiya samaradorligini belgilovchi yetakchi psixologik omil sifatida namoyon bo‘ldi. O‘z-o‘zini boshqarishning rejalashtirish, modellashtirish va xulq-atvorni nazorat qilish komponentlari yuqori rivojlangan respondentlarda moslashuv jarayoni samaraliroq kechishi kuzatildi. Aksincha, inkor etish va proyeksiya kabi destruktiv psixologik himoya mexanizmlarining ustunligi ijtimoiy moslashuvning sustlashuvi va psixologik dezadaptatsiya xavfini oshirishi aniqlandi.

Beshinchidan, tadqiqot natijalari asosida rezervga bo‘shatilgan harbiy xizmatchilarni reintegratsiya qilishning takomillashtirilgan ijtimoiy-psixologik modeli ishlab chiqildi. Mazkur model o‘zaro uzviy bog‘langan ijtimoiy identifikatsiya transformatsiyasi, psixologik barqarorlik va kognitiv qayta moslashuv, ijtimoiy-tizimli mikromuhit integratsiyasi, akmeologik va professional reintegratsiya hamda ijtimoiy aksseptatsiya va ekzistensial xavfsizlik indekslarini yagona tizimda integratsiyalash orqali reintegratsiya jarayonini baholash, prognoz qilish va psixologik qo‘llab-quvvatlashning ilmiy-amaliy mexanizmini taklif etadi.

UMUMIY XULOSA

Rezervga bo‘shatilgan harbiy xizmatchilar ijtimoiy-psixologik reintegratsiyasining modelli indekslarini takomillashtirishni aniqlashga qaratilgan empirik tadqiqot natijalari quyidagi asosiy xulosalarni chiqarishga imkon berdi:

1.Reintegratsiya jarayoni adaptivlik, adaptatsiya, o‘zini o‘zi boshqarish, psixologik himoya mexanizmlari va stressga bardoshlilik komponentlarining o‘zaro integratsiyasi asosida shakllanuvchi murakkab ijtimoiy-psixologik tizim ekanligi aniqlandi.

2.Reintegratsiyaning psixoindikativ tuzilmasida kommunikativ potensial, axloqiy me’yoriylik, moslashuvchanlik potensiali, umumiy adaptatsiya va stressga bardoshlilik ko‘rsatkichlari bazaviy integrativ indekslar sifatida namoyon bo‘lishi dalillandi.

3.Reintegratsiya ko‘rsatkichlari jins, xizmat muddati, rezervga bo‘shatilgan muddat, xizmat qilgan tuzilma, oilaviy turmush tajribasi va farzandlar soni kabi ijtimoiy-demografik hamda kasbiy omillar ta’sirida differensial tarzda namoyon bo‘lishi aniqlandi.

4.Rezervga bo‘shatilgan muddatning ortib borishi natijasida kommunikativ-integrativ resurslar, normativ-regulyativ sifatlar va fuqaroviy muhitga moslashuv mexanizmlarining bosqichma-bosqich transformatsiyalanishi reintegratsiya jarayonining dinamik xarakterga egaligini ko‘rsatdi.

5.Xizmat qilgan harbiy tuzilma reintegratsiyaning muhim determinantlaridan biri sifatida namoyon bo‘lib, Milliy gvardiya vakillarida kommunikativ-integrativ va prognostik resurslar,

Mudofaa vazirligi vakillarida esa regulyativ-barqarorlik hamda stress-rezistentlik resurslari ustuvor rivojlanganligi aniqlandi.

6.Oilaviy turmush tajribasi va ota-onalik mas'uliyati reintegratsiyaning muhim ijtimoiy tayanch omillari sifatida namoyon bo‘lib, ular kommunikativ salohiyat, axloqiy me'yoriylik, umumiy adaptatsiya va stressga bardoshlilik ko‘rsatkichlarining shakllanishiga sezilarli ta'sir ko‘rsatishi dalillandi.

7.O‘zini o‘zi boshqarish tizimining modellashtirish, moslashuvchanlik, rejalashtirish va umumiy regulyatsiya komponentlari reintegratsiya jarayonining asosiy regulyativ mexanizmlari ekanligi hamda ular adaptivlik va adaptatsiya ko‘rsatkichlari bilan uzviy bog‘liqligi aniqlandi.

8.Psixologik himoya mexanizmlaridan sublimatsiya, kompensatsiya, ratsionalizatsiya va reaksiyalarning shakllanishi reintegratsiyani qo‘llab-quvvatlovchi konstruktiv resurslar sifatida, proyeksiya, inkor etish va bostirish esa reintegratsiya samaradorligini cheklovchi kompensator mexanizmlar sifatida namoyon bo‘lishi aniqlandi.

9.Adaptivlik, adaptatsiya, o‘zini o‘zi boshqarish, psixologik himoya va stressga bardoshlilik indekslari o‘rtasidagi korrelyatsion bog‘lanishlar reintegratsiya jarayonining yagona funksional-regulyativ tizim asosida shakllanishini tasdiqladi.

10. Reintegratsiyaning psixoindikativ tuzilmasi tarkibida kommunikativ-integrativ, adaptiv-regulyativ, stress-rezistent, normativ-qadriyatli, himoyaviy-kompensator va oilaviy-resursli indekslarning o‘zaro uyg‘unlashuvi fuqaroviy hayotga

muvaffaqiyatli integratsiyalashuvning asosiy mexanizmi ekanligi dalillandi.

11. Empirik natijalar asosida rezervga bo‘shatilgan harbiy xizmatchilar reintegratsiyasining kommunikativ-integrativ, adaptiv-regulyativ, stress-rezistent, prognostik-regulyativ va oilaviy-resursli bloklardan tashkil topgan ko‘p komponentli modeli ishlab chiqildi.

12. Reintegratsiya samaradorligini oshirish uchun differensial yondashuvga asoslangan, shaxsning individual, oilaviy, kasbiy va ijtimoiy resurslarini kompleks hisobga oluvchi ijtimoiy-psixologik qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini amaliyotga joriy etish zarurligi asoslandi.

TAVSIYALAR

1.Rezervga bo‘shatilgan harbiy xizmatchilar reintegratsiyasini samarali tashkil etish maqsadida adaptivlik, adaptatsiya, o‘zini o‘zi boshqarish, psixologik himoya mexanizmlari va stressga bardoshlilik ko‘rsatkichlarini kompleks baholashga mo‘ljallangan «Reintegratsiyaning psixoindikativ monitoring kartasi»ni amaliyotga joriy etish tavsiya etiladi.

2.Mudofaa vazirligi, Milliy gvardiya va boshqa harbiy tuzilmalarda rezervga bo‘shatilayotgan harbiy xizmatchilar uchun kommunikativ kompetentlik, stressni boshqarish, fuqaroviy identifikatsiyani shakllantirish hamda konstruktiv psixologik himoya mexanizmlarini rivojlantirishga qaratilgan maxsus ijtimoiy-psixologik trening dasturlarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish maqsadga muvofiq.

3.Reintegratsiya jarayonida xizmat qilgan tuzilma, xizmat muddati, oilaviy turmush tajribasi va farzandlar soni kabi differensial omillarni hisobga olgan holda individual psixologik hamrohlik va konsultativ xizmatlarni tashkil etish, psixologik yordamning manzilli va ehtiyojga yo‘naltirilgan modelini joriy qilish tavsiya etiladi.

4.Rezervga bo‘shatilgan harbiy xizmatchilar va ularning oila a’zolari uchun oilaviy resurslarni faollashtirish, o‘zaro psixologik qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish hamda oilaviy moslashuv imkoniyatlarini rivojlantirishga qaratilgan «Oilaviy reintegratsiya» psixoprofilaktik dasturini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish lozim.

5. Tadqiqot natijalari asosida ishlab chiqilgan reintegratsiyaning kommunikativ-integrativ, adaptiv-regulyativ, stress-rezistent va oilaviy-resursli indekslar tizimidan rezervga bo‘shatilgan harbiy xizmatchilarning fuqaroviy hayotga moslashuv darajasini prognozlash, xavf guruhlarini aniqlash hamda psixologik xizmat faoliyatining samaradorligini baholash mezoni sifatida foydalanish tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Kitob va turkum nashrlari

1.1. Мирзиёев, Шавкат Миромонович. Ҳозирги замон ва Янги Ўзбекистон [Матн] / Ш.М. Мирзиёев. – Тошкент: “O‘zbekiston” нашриёти, 2024. – 560 б.

1.2. R.M.Maxmudov Kasb psixologiyasi T.: JXU 2022 yil

1.3. Л.С.Турсунов, А.И.Расулов, Ф.А.Чориев, А.Девяткин. Ҳарбий психологларни тайёрлаш модели.–Т.: ЎзМУ, 2016.- 49 б.

1.4. Amir Temur. Temur tuzuklari. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1991. – 160 b.

1.5. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1983. – 160b.

1.6. Alisher Navoiy. Xamsa. – Toshkent: Fan nashriyoti, 1989. – 800 b.

1.7. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – Toshkent: Fan nashriyoti, 1989. – 368 b.

1.8. Sun Tzu. Urush san’ati (The Art of War). – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018. – 120 b.

1.9. Erikson E. Identity: Youth and Crisis. – New York: W. W. Norton & Company, 1968. – 336 p.

1.10. Merton R.K. Social Theory and Social Structure. – New York: Free Press, 1968. – 702 p.

1.11. Social Theory and Social Structure – New York: Free Press, 1968. – P. 368–384.

1.12. Tajfel H. Human Groups and Social Categories. – Cambridge: Cambridge University Press, 1981. – 384 p.

1.13. Albert Bandura Social Foundations of Thought and Action: A Social Cognitive Theory. – Englewood Cliffs: Prentice Hall, 1986. – 617 p.

1.14. Richard Lazarus Stress, Appraisal, and Coping. – New York: Springer, 1984. – 445 p.

1.15. Vroom V. H. Work and Motivation. – New York: John Wiley & Sons, 1964. – 331 p.

1.16. Selye H. The Stress of Life. – New York: McGraw-Hill, 1976. – 515 p.

1.17. Antonovsky A. Health, Stress, and Coping. – San Francisco: Jossey-Bass Publishers, 1979. – 255 p.

1.18. Haugan G., Eriksson M. Health Promotion in Health Care – Vital Theories and Research. – Cham: Springer, 2021. – 410 p.

1.19. Antonovsky A. Unraveling the Mystery of Health: How People Manage Stress and Stay Well. – San Francisco: Jossey-Bass Publishers, 1987. – 218 p.

1.20. Erikson E. H. Identity: Youth and Crisis. – New York: W. W. Norton & Company, 1968. – 336 p.

1.21. Meyer J. P., Allen N. J. Commitment in the Workplace: Theory, Research, and Application. – Thousand Oaks: SAGE Publications, 1997. – 160 p.

1.22. Merton R. K. Social Theory and Social Structure. – New York: The Free Press, 1968. – 748 p.

1.23. Vygotsky L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978. – 159 p.

1.24. Festinger L. A Theory of Cognitive Dissonance. – Stanford: Stanford University Press, 1957. – 291 p.

1.25. Cooley C. H. Human Nature and the Social Order. – Revised edition. – New York: Charles Scribner's Sons, 1922. – P. 183–185.

2. Dissertatsiya va dissertatsiya avtoreferati

2.1. Alimadronov Z.Sh. Bo‘lajak ofitserlarda metakommunikativ kompetensiyalarni samarali shakllantirishning ijtimoiy-psixologik determinantlari. Psixologiya fan. dokt. Diss… - Toshkent.: O‘zMPU, 2026. – 264 b.L.I.Akbarov Harbiylar jamoasida intizomni mustahkamlash va huquqbuzarliklarning oldini olishda ofitser tarbiya subyekti // pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya ishi. Toshkent.: 2023.

2.2. Sh.A.Akramova Bo‘lajak bojxona xizmati xodimlarida mafkuraviy immunitetni rivojlantirish. Pedagogika fan. dokt. diss… – Toshkent: TDPU, 2017. – 237 b.

2.3. S.Yu.Ahrorov Harbiy xizmatchilar shaxsida deviant xulq namoyon bo‘lishining ijtimoiy xususiyatlari. Sos. fan. nom. diss... -Toshkent: O‘zMU, 2008. - 180 b.

2.4. G‘.Z.Ikmatullayev Harbiy xizmatchilar oilalarini mustahkamlashning tashkiliy va pedagogik-psixologik jihatlari // pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya ishi. Toshkent.: 2020.

2.5. А.М.Камбаров Военно-педагогические основы оптимизации морально-психологического фактора в учебно-воспитательном процессе военнослужащих: Автореф. дис. … канд. пед. наук. - Ташкент, 2005. - 24 с.

2.6. U.S.Temirova Harbiy xizmatchi xotin-qizlarni kasbiy faoliyati samaradorligini oshirishning tarbiyaviy omillari. Pedagogika fanlari nomzodi. diss...-Respublika “Oila” ilmiy-amaliy markazi, 2008. -144 b.

2.7. N.J.Eshnayev O‘zbekiston Respublikasida professional harbiy kadrlarni tayyorlashning ijtimoiy-falsafiy asoslari. Falsafa fanlari nom. diss...-Toshkent: I.Mo‘minov nomidagi Falsafa va huquq instituti, 2008. -164 b.

2.8. Шерматов Ф.Т. Бўлажак офицерларда касбий зўриқишлар намоён бўлишининг ижтимоий-психологик омиллари. Псих.ф.б.PhD….дисс.автореферати.-М.2021.-Б.27.

2.9. Tilavov B.A. Harbiy xizmatchi va harbiy jamoani psixologik o‘rganishning tadqiqot metod va metodikalari // Psixologiya va pedagogika. – 2024. – № 1. – B. 45–52.

2.10. Xaydarov I.M. O‘zbekistonda jamoat xavfsizligini ta’minlashning ijtimoiy-psixologik omillari va mexanizmlari. Psixologiya fan. dokt. Diss… - Toshkent.: O‘zMPU, 2026. – 277 b.

2.11. Караяни А.Г. Психологическое обеспечение боевых действий личного состава частей Сухопутных войск в локальных военных конфликтах: Дисс. … д.п.н. Специальность ВАК РФ 19.00.14 / Москва. 1998. – 355 С. https://www.dissercat.com/.

2.12. Белозерова Н.Н. Особенности психологической адаптации военнослужащих к экстремальным условиям несения службы: Дисс. … к.п.н. Специальность ВАК РФ 19.00.01 / г. Сочи. 2005. – С. 24. https://www.dissercat.com/.

2.13. Лемешонок А.Ф. Профессиональный психологический отбор офицеров для обучения в военных академиях Министерства Обороны Российской Федерации: На примере офицеров артиллерийского профиля: Дисс. … к.п.н. Специальность ВАК РФ 19.00.03 / г. Санкт-Петербург. 2000. – С. 22. https://www.dissercat.com/.

2.14. Мурадов И.А. Методические подходы к адаптации военнослужащих запаса в системе предпринимательства: Дисс. … к.э.н. Специальность ВАК РФ 08.00.05 / Великий Новгород. 2007. – С. 22. https://www.dissercat.com/.

2.15. A.A.Nurullayev “Destruktiv ta’sirga tushgan harbiy xizmatchilarni sog’lom hayot tarziga qaytarishning psixologik mexanizmlari” diss…avto… Toshkent 2023, B. 8

2.16. A.M.Ashurmatov “Harbiy xizmatchilar axloqiy-ruhiy holatini barqarorlashtirishning ijtimoiy-psixologik omillari” diss… avto… Toshkent, 2025 B. 8

3. Журналлардаги мақолаларга ҳаволалар

2.1. Самаров Р. Мудофавий фаолият: Назарий ёндошувлар.Т. 2017. – 164 б.

2.2. Равшанов Л.У. Психологические аспекты военной службы / III Международной научно-практическая конференция вопросы развития мировых научных процессов. – Россия, 2019. – С. 36-39.

2.3. Джураев Т.С. Ҳарбий қисмларда психологик хизмат ташкил этишнинг методологик асослари // Journal of universal science research. ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-5.

2.4. Maklakov A.G. Личностный адаптационный потенциал: его мобилизация и прогнозирование в экстремальных условиях. – СПб., 2001.

2.5. Андреева Г.М. Социальная психология. – М.: Аспект Пресс, 2018.; Моросанова В.И. Саморегуляция и индивидуальность человека. – М.: Наука, 2010

2.6. Конопкин О.А. Психологические механизмы регуляции деятельности. – М., 1980.

2.7. Hoge C.H. et al. Combat duty in Iraq and Afghanistan, mental health problems, and barriers to care // New England Journal of Medicine. - 2004. - Vol. 351. - P. 13-22; Litz B.T. et al. Moral injury and moral repair in war veterans // Clinical Psychology Review. - 2009. - Vol. 29. - P. 695-706

2.8. Castro K.M., Kintzle S. Succesful transition from military to civilian life // Military Behavioral Health. - 2014. - Vol. 2. - P. 271-280. Adler A.B., Castro C.A. An occupational mental health model for the military // Military Behavioral Health. - 2013. - Vol. 1. - P. 41-456

2.9. Griffith J. Community support and reintegration among military veterans // Armed Forces & Society. - 2015. - Vol. 41. - P. 315-336., Vaillant G. Ego Mechanisms of Defense. – Washington: American Psychiatric Press, 1992; Plutchik R., Kellerman H. Emotion Theory, Research and Experience. – New York, 1980

2.10.Vaillant G. Ego Mechanisms of Defense. – Washington: American Psychiatric Press, 1992; Plutchik R., Kellerman H. Emotion Theory, Research and Experience. – New York, 1980

2.11.Misca G, Augustus J, Russell J, Walker J. Meaning(s) of transition(s) from military to civilian life at the intersection with mental health: implications for clinical settings. Front Psychol. 2023 May 9;14:1142528. doi: 10.3389/fpsyg.2023.1142528. PMID: 37228334; PMCID: PMC10203708.

2.12.Elnitsky CA, Fisher MP and Blevins CL (2017) Military Service Member and Veteran Reintegration: A Conceptual Analysis, Unified Definition, and Key Domains. Front. Psychol. 8:369. doi: 10.3389/fpsyg.2017.00369

2.13.Danson L, Spontak K, Do AN, Taylor N, Stapleton M, Rattray N. Exploring Moral Injury and Reintegration Challenges Among Post-9/11 U.S. Veterans: A Qualitative Study. Mil Psychol. 2026;38(3):239-249. doi: 10.1080/08995605.2025.2486242. Epub 2025 Apr 1. PMID: 40167609; PMCID: PMC13108344.

2.14.Military Matters: The Military Transition Theory: Rejoining Civilian Life – Carl Andrew Castro, PhD, and Sara Kintzle, PhD, LMSW https://istss.org/military-matters-the-military-transition-theory-rejoining-civilian-life-carl-andrew-castro-phd-and-sara-kintzle-phd-lmsw/?utm_source=chatgpt.com

2.15.https://www.researchgate.net/publication/280537533_Perspectives_of_Family_and_Veterans_on_Family_Programs_to_Support_Reintegration_of_Returning_Veterans_With_Posttraumatic_Stress_Disorder?utm_source

2.16.https://scholarworks.waldenu.edu/cgi/viewcontent.cgi?article=11218&context=dissertations&utm_source

2.17.https://digitalcommons.liberty.edu/cgi/viewcontent.cgi?article=6497&context=doctoral&utm_source

2.18.https://www.ncfr.org/ncfr-report/focus/family-focus-conflict-violence-and-war/experience-reintegration-military-families?utm_source

2.19.By Charlotte Nickerson. Merton's Strain Theory of Deviance in Sociology // Updated on August 12, 2025. https://www.simplypsychology.org/mertons-strain-theory-deviance.html

2.20.By Charlotte Nickerson. Merton's Strain Theory of Deviance in Sociology // Updated on August 12, 2025. https://www.simplypsychology.org/mertons-strain-theory-deviance.html

2.21.By Saul McLeod, PhD. Erik Erikson's Stages of Psychosocial Development // Updated on October 15, 2025. https://www.simplypsychology.org/erik-erikson.html

2.22.Roth, René R. General adaptation syndrome (GAS) // https://www.ebsco.com/research-starters/health-and-medicine/general-adaptation-syndrome-gas

2.23.PhD. Gørill Haugan and Ph.D. Monica Eriksson. Health Promotion in Health Care – Vital Theories and Research. Cham (CH): Springer; 2021. ISBN-13: 978-3-030-63134-5ISBN-13: 978-3-030-63135-2. https://www.ncbi.nlm.nih.gov/books/NBK585660/

2.24.Hoffman-Miller, Patricia, MPA. Expectancy theory // https://www.ebsco.com/research-starters/economics/expectancy-theory

2.25.Ungvarsky Janine. Career Development theory // https://www.ebsco.com/research-starters/education/career-development-theory

2.26.By Saul McLeod, PhD. Maslow's Hierarchy of Needs // Updated on February 6, 2026. https://www.simplypsychology.org/maslow.html

2.27.By Olivia Guy-Evans, MSc.Bronfenbrenner's Ecological Systems Theory // Updated on May 6, 2025. https://www.simplypsychology.org/bronfenbrenner.html

2.28.https://www.ebsco.com/research-starters/social-sciences-and-humanities/cognitive-dissonance-theory

2.29.Чарльз Кули. Теория «зеркального Я» (Looking-Glass Self). https://sberuniversity.ru/research/management-practices/practical-guide/samorazviti/teoriya-zerkalnogo-ya-looking-glass-self/

2.30.Social Identity Theory (Tajfel & Turner, 1979) By Saul McLeod, PhD // Updated on June 5, 2026 https://www.simplypsychology.org/social-identity-theory.html

2.31.Mobbs M. C., Bonanno G. A. Beyond war and PTSD: The crucial role of transition stress in the lives of military veterans // Clinical Psychology Review. – 2018. – Vol. 59. – P. 137–144.

2.32.Berg G. M. et al. U.S. Military Service Members' Reintegration, Culture, and Spiritual Development // The Qualitative Report. – 2016. – Vol. 21. – No. 11. – P. 2059–2075.

2.33.Bartone P. T. Resilience Under Military Operational Stress: Can Leaders Influence Hardiness? // Military Psychology. – 2006. – Vol. 18 (Suppl.). – P. S131–S148.

2.34.Super D. E. A life-span, life-space approach to career development // Journal of Vocational Behavior. – 1980. – Vol. 16. – No. 3. – P. 282–298.

2.35.Anokhin P. K. Systemogenesis as a General Regulator of Development // Progress in Brain Research. – 1964. – Vol. 9. – P. 54–86.

2.36.Baldwin T. T., Ford J. K. Transfer of Training: A Review and Directions for Future Research // Personnel Psychology. – 1988. – Vol. 41. – № 1. – P. 63–105.

2.37.Cooper L., Caddick N., Godier-McBard L., Cooper A., Fossey M. Transition From the Military Into Civilian Life: An Exploration of Cultural Competence // Armed Forces & Society. – 2018. – Vol. 44. – № 1. – P. 156–177.

2.38.Rotter J. B. Generalized Expectancies for Internal Versus External Control of Reinforcement // Psychological Monographs: General and Applied. – 1966. – Vol. 80. – № 1. – P. 1–28.

2.39.Маслоу А. Х. Теория человеческой мотивации (A Theory of Human Motivation) // Psychological Review. – 1943. – Т. 50, № 4. – С. 370–396.

4. Ilmiy ishlar to‘plamlariga havolalar

4.1. Leibova, A., Latsyba, A., Alkhastov, A., et al. Combatants, Mercenaries or Victims of Human Trafficking? Russia’s Exploitation of Foreign Fighters in Its War Against Ukraine / I. Nuzov & M. Tomak (Eds.). – Paris: FIDH & Truth Hounds, 2026. – 68 p. [Electronic resource]. – URL: https://www.fidh.org/en/region/europe-central-asia/russia/russia-s-war-against-ukraine-thousands-of-foreign-nationals-recruited (accessed: 11.04.2026).

4.2. Exploring the Experiences of Veterans Transitioning to Civilian Life. // Journal of Veterans Studies. – 2023. – Vol. 9, No. 3. – URL: https://journal-veterans-studies.org/articles/10.21061/jvs.v9i3.458 (accessed: 22.10.2025).

4.3. Henry M. Jackson Foundation for the Advancement of Military Medicine. – URL: https://www.hjf.org/ (accessed: 25.05.2024).

4.4. Factors Influencing Military Veteran Reintegration. – Liberty University, 2024. – URL: https://digitalcommons.liberty.edu/cgi/viewcontent.cgi?article=6497&context=doctoral (accessed: 12.11.2025).

4.5. Reintegration of Military Families: Challenges and Support Strategies. // NCFR Report: Family Focus on Conflict, Violence, and War. – 2023. – URL: https://www.ncfr.org/ncfr-report/focus/family-focus-conflict-violence-and-war/experience-reintegration-military-families (accessed: 11.01.2025).

4.6. Perspectives of Family and Veterans on Family Programs to Support Reintegration of Returning Veterans With Posttraumatic Stress Disorder. // ResearchGate. – 2015. – URL: https://www.researchgate.net/publication/280537533 (accessed: 11.12.2025).

4.7. Transition and Reintegration Experiences of Combat Veterans. – Walden University, 2025. – URL: https://scholarworks.waldenu.edu/cgi/viewcontent.cgi?article=11218&context=dissertations (accessed: 05.04.2026).

4.8. Tajfel H., Turner J. C. The Social Identity Theory of Intergroup Behavior // Worchel S., Austin W. G. (Eds.). Psychology of Intergroup Relations. – Chicago: Nelson-Hall, 1986. – P. 7–24.

5. Qonun va qonun osti hujjatlari

5.1. O‘zbekiston Respublikasining «Mudofaa to‘g‘risida»gi Qonuni. // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami.

5.2. Ўзбекистон Республикасининг Мудофаа доктринаси тўғрисидаги қонуни. 2018 йил 9 январь, ЎРҚ-458-сон.

5.3. O‘zbekiston Respublikasining «Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida»gi Qonuni. (2002-yil 12-dekabr, 436-II-son). // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2002-yil, 12-son.

5.4. O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining harbiy xizmatni o‘tash tartibi to‘g‘risida: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 12-sentabrdagi PQ-4447-sonli qarori. // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.

M U N D A R I J A

KIRISH.....3
I BOB. SHAXS REINTEGRATSIYASINI IJTIMOIY-PSIXOLOGIK MUAMMO SIFATIDA O‘RGANISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI.....7
1.1-§ Shaxs reintegratsiyasining harbiy-psixologik jihatlarining ijtimoiy-psixologik tahlili.....7
1.2-§. Rezervga bo‘shatilgan harbiy xizmatchilar reintegratsiyasini ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini tadqiq etishning metodologik asoslari.....27
1.3-§. Rezervga bo‘shatilgan harbiy xizmatchilarning reintegratsiya jarayonini empirik o‘rganish ijtimoiy-psixologik zarurat sifatida.....47
Birinchi bob bo‘yicha xulosalar.....71
II BOB. REZERVGA BO‘SHATILGAN HARBIY XIZMATCHILAR REINTEGRATSIYASINING PSIXOSOTSIAL ATRIBUTLARI.....74
2.1-§. Rezervga bo‘shatilgan shaxslarning reintegratsiyasiga ta’sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillar integratsiyasi.....74
2.2-§. Rezervga bo‘shatilgan shaxslarda adaptivlik va psixologik regulyatsiya ko‘rsatkichlarining empirik tahlili.....99
2.3-§. Rezervga bo‘shatilgan muddat omilining reintegratsiya jarayonida psixoindikativ o‘rni.....119
Ikkinchi bob bo‘yicha xulosalar.....138
III BOB. REZERVGA BO‘SHATILGAN HARBIY XIZMATCHILAR REINTEGRATSIYASINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK DETERMINANTLARI.....142
3.1-§. Rezervga bo‘shatilgan harbiy xizmatchilar jamiyatga reintegratsiyasining psixologik gender xususiyatlari.....142
3.2-§. Rezervga bo‘shatilgan harbiy xizmatchilar ijtimoiy moslashuvining xizmat muddatiga bog‘liqlik xususiyatlari.....158
3.3-§. Tuzilmaviy xarakteristikaning rezervga bo‘shatilgan harbiy xizmatchilar reintegratsiyasidagi psixologik ahamiyati.....181
Uchinchi bob bo‘yicha xulosalar.....203
IV BOB. HARBIY XIZMATLAR REINTEGRATSIYASINING PSIXOSOTSIAL INDEKSLARINI SHAKLLANTIRISH MEZONLARI.....205
4.1-§. Oilaviy hayot dinamikasining psixologik reintegratsiya jarayonidagi ahamiyati.....205
4.2-§. Harbiy xizmatchilarning reintegratsiyasi indekslarining psixosotsial korrelyatlari.....228
4.3-§. Harbiy xizmatchilarni rezervga bo‘shatishning ijtimoiy-psixologik indekslarini modellashtirishning takomillashtirilgan komponentlar tahlili.....257
To‘rtinchi bob bo‘yicha xulosalar.....282
UMUMIY XULOSA.....284
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....288

IKMATULLAEV G‘AYRAT ZOKIROVICH

REZERVGA BO‘SHATILGAN HARBIY XIZMATCHILARNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK REINTEGRATSIYASI

Monografiya

“Pages print” nashriyoti
Toshkent – 2026

Muharrir: Murakayeva Z.I.
Texnik muharrir: Boboxonov S.

Nashriyot ro‘yxat raqami № 263082. 25.04.2024-y.
Bosishga ruxsat etildi: 27.08.2026.
“Cambria” garniturasi. Qog‘oz bichimi: 60x84 1/16
Nashriyot bosma tabog‘i 17,3. Adadi 100 nusxa.
Toshkent shahri, Olmazor tumani,
Chimboy ko‘chasi, 8-uy.

«Pages Print»MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent, Olmazor tuman, Chimboy ko‘chasi, 8-uy.

REZERVGA BO'SHATILGAN HARBIY XIZMATCHILARNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK REINTEGRATSIYASI

ISBN 978-9910-5497-1-7

Pages Print